
Ikkinchidan, milliy va xalqaro mentalitet uyg‘unligini zamonaviy rahbar kadrlar, yetakchilar belgilab berishi bilan bir qatorda ular o‘z millati, xalqi va davlatining mustaqilligi hamda istiqbol taraqqiyotining rivoji uchun muntazam kurash olib boradidar. Bugun o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar (kurdlar, uyg‘urlar) alohida subyekt sifatida e’tirof etilmoqdalar. Chunki, mazkur xalqlar ham davlatchiligi va milliy mentalitetidan qa’ti nazar, o‘zlariga xos madaniy muhitga, urf

odatlarga, qolaversa, o‘zining tarixiy-tadrijiy sivilizatsiyasiga, rivojlanishning o‘ziga xos ko‘rinishlariga ega. Shunday ekan, har bir elat, millat mustaqil davlatchilik boshqaruv asoslarini yaratishga haqlidirlar. Zero, millatlarning tarqoqligi turli tahdidlarni o‘z bag‘rida saqlab keladi. Davlatchilik boshqaruvining munosib darajada shakllantirilganligi esa millatning uyushishiga, xalqaro subyektlarning munosib ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lishiga imkoniyat beradi.

Uchinchidan, tobora o‘zgarib borayotgan xalqaro hamjamiyatda yetakchi davlatlar tomonidan biror mintaqadagi mamlakatlar aloqalar tizimini shakllantirish yoki yanada rivojlantirish masalalarida ikki tomonlama munosabatlar o‘rnatish asosida obyektning qaysi madaniy sivilizatsiyaga mansubligiga, uning davlat manfaatlarida nechog‘li ahamiyatga ega bo‘lishi singari jihatlariga e’tibor qaratilmoqda. Bunday munosabat o‘z-o‘zidan qarama-qarshi tomonlarning vujudga kelishiga olib keladi. Aksincha, real xalqaro munosabatlarda hamkorlikning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy tamoyillari qatorida aloqalar ko‘lamining umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq milliy mentalitetiga katta e’tibor berilishi millat va xalqlarni yagona g‘oya – umuminsoniy qadriyatlar atrofida birlashtirilishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, adolatli jamiyat va bunda rahbar kamoloti rivojlangan davlatchilik zaminida shakllanib boradi. Bunday davlatchilik boshqaruvi millatning yagona g‘oya atrofida o‘zaro kelishuvi, milliy birligiga ega bo‘lishi natijasida amalda vujudga keladi. Albatta, bugungi davrga kelib insonlar tomonidan yaratilgan bu kabi axloqiy tafakkur mahsullarini yanada to‘ldirish mumkin. Ayni paytda, inson mavjud qadriyatlarni anglash yoxud anglamaslik holatlari bilan ijtimoiy subyektga aylanadi. Milliy va xalqaro mentalitet davlatlararo hamkorlikdan tashqari, o‘sha davlatda istiqomat qilayotgan milliy-etnik va madaniy guruhlar o‘rtasidagi muloqotga ham alohida nazar bilan qaraydilar.

Barqaror siyosiy boshqaruv tizimi millatning milliy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviyat salohiyatini belgilaydi. Ma’naviyat ezgulikka qaratilgan kuch sifatida nafaqat davlat boshqaruvi yaxlitligini, balki davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham mustahkamlaydi. O‘zaro ishonch hamda hamkorlikni rivojlantiradi. Davlatlar, millatlar xavfsizlik darajasi va imkoniyatini kafolatlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.X.Rustamboyev, S.O.Abduxoliqov. Huquq metodologiyasi, tarix va huquqni dialektiu madaniy tushunish asoslari. 2-kitob.-T.: 2005.54-bet.

2. T.Alimardonov. Siyosat va axloq muvozanati. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2011. – 175.

3. Morgenthau J.Polities among nations. – New York. 1961. 10 p.

4. Гегель. Философия и право. – М.: 1990. С. 469.

5. A.Mavrilov Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2008. 336-bet.

6. S.X.Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. – T., 2009. 238-bet.

7. Джон Укиффию Семидневный курс тренировки ума. – Москваю Злолотой Телёнокю – 1997.

8. John.C.Sparks: Thehandbook of Essential mathematics. Air Force Publication. March, 2006.

9. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.303-bet.

10. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstefeva L.G., Mahmudova D.T. va boshqalar. – Toshkent, 2018.

ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSATNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Bahodir Omonov-Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d (DSc)
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
e-mail:bakhodiron@gmail.com

Annotatsiya. *Мақолада давлат экологик сиёсатининг асосий йўналишлари, экологик сиёсатнинг ижтимоий моҳияти, кўринишлари, соҳалараро турлари, жамият миқёсида муайян экологик сиёсатни йўлга қўйиш зарурияти ҳақида фикр юртилган. Шунингдек, миллий экологик сиёсат ва жаҳон ҳамжамияти амал қилаётган халқаро экологик сиёсат тамойиллари қиёсий таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар. *экологик хавфсизлик, экологик сиёсат, табиий офат, экологик вазият, экологик муносабат, экологик муаммолар, экологик маданият, экологик субъектлар, экологик манфаат, экологик муҳофаза.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ

Бахадир Омонов - Шахрисабзского государственного педагогического института доцент, ф.ф.д (DSc).
Заведующий кафедрой социальных наук
e-mail:bakhodiron@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются основные направления государственной экологической политики, социальная природа экологической политики, ее формы, междисциплинарные виды, а также необходимость формирования конкретной экологической политики на уровне общества. Также проводится сравнительный анализ принципов национальной экологической политики и международной экологической политики, применяемых мировым сообществом.*

Ключевые слова. *экологическая безопасность, экологическая политика, стихийное бедствие, экологическая ситуация, экологическое отношение, экологические проблемы, экологическая культура, экологические субъекты, экологический интерес, экологическая защита.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF MODERN ENVIRONMENTAL POLICY

Bakhadir Omonov - Shakhrisabz State Pedagogical Institute, f.f.d (DSc).

Head of the Department of Social Sciences
e-mail:bakhodiron@gmail.com

Annotation. *The article discusses the main directions of state environmental policy, the social nature of environmental policy, its forms, interdisciplinary types, as well as the need to formulate a specific environmental policy at the level of society. A comparative analysis of the principles of national environmental policy and international environmental policy applied by the world community is also carried out.*

Key words. *environmental safety, environmental policy, natural disaster, environmental situation, environmental attitude, environmental problems, environmental culture, environmental subjects, environmental interest, environmental protection.*

Kirish. Yangi asr arafasiga kelib, ekologik globallashuvning yanada avj olishi, uning tendensiyalarining O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri kuchayishi davlat ekologik siyosatini takomilashtirishni, bu boradagi mavjud muammolarni umumlashtirishni, ularni bartaraf etish strategiyasi va taktikasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. O‘zbekiston ekologik siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish uchun eng avvalo uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, ya’ni “ekologik siyosat” tushunchasi definitsiyasiga aniqlik kiritish, uning ko‘rinishlari, yo‘nalishlari, sohalari va tamoyillarini ifodalab berish dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuning turli jihatlari jumladan, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olishi F.Bekon, F.Gegel, J.J.Russo, Vittorio Hiyosle, D.Chiras, globallashuv jarayonlarining ekologik sohaga ta’siri, M.A. Vostrikova, R.S.Gaysina, YE.V.Luneva, xalqaro, mintaqaviy va milliy ekologik munosabatlar xarakteridagi o‘zgarishlar, O.I.Bashlakova, K.A.Berdenova, G.A.Drobot, YE.V. Kochetkova, S.V.Sinsov, ekologik soha bilan bog‘liq ilmiy-falsafiy muammolar U.Abilov, H.Ahmedov, M.Baxodirov, A.Zikiryayev, M.Mamanazarov, O.Mannopova, S.Mamashokirov, A.Nig‘matov, S.Sanginov, E.Usmonov, U.Xo‘janazarov, J.T.Xolmo‘minov, O.Qosimov, O‘.Tilavov, A.Qo‘ldoshev, Z.Akromov, A.Berdimuratova, M.Bahodirov, S.Davletov, S.Kamalov, R.I.Mamatqulov, E.S.Hoshimova, F.Qilichev, S.Azamova, A.Aymatov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, qiyosiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlasha boshladi. Aynan shu davrda davlat va siyosat arboblari, olim va faylasuflar jamiyatning tabiatga ta’sirini muvofiqlashtirish lozimligi, buning uchun qator chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish kerakligi to‘g‘risida mulohaza yurita boshladilar. Mazkur mulohazalar ushbu chora-tadbirlarni ifodalovchi tushunchaning vujudga kelishi bilan yakun topdi. Amerikalik siyosatshunos olim Linton K.Kolduell ilk bor “ekologik siyosat” tushunchasini tilga oldi. Dastlabki davrlarda ekologik siyosat deganda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi texnologiyalardan foydalangan ishlab chiqaruvchini muayyan jarima to‘lashga undovchi choralar nazarda

tutildi. O‘tgan asrning oxirlarida esa ushbu tushuncha bilan turfa ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan choralar ifodalanadigan bo‘ldi. Bizning davrimizda “ekologik siyosat” tushunchasi nisbatan kengroq ma’noda qo‘llanilmoqda. Ekologik siyosat deganda jamiyatning tabiatga ta’sirini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui nazarda tutiladi.

Tushunchaning XX asr so‘nggi choragida ilmiy muomalaga kiritilgani bu boradagi sa’y-harakatlarning ham mazkur asrda vujudga kelganini anglatmaydi. Inson va jamiyatning tabiatga ta’sirini bir qadar muvofiqlashtirish va tartibga solish, bu munosabatlar natijasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faoliyat mudom davom etgan. Bu faoliyat turli subyektlar tomonidan tashkil etilgan, amalga oshirilgan va rag‘batlantirilgan. Masalan, mahalla faollarining tashabbusi bilan yaroqsiz holga kelgan suv manbalarining hashar yordamida tiklanishini, muayyan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish choralarini, sho‘r yerlarni yuvishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishini, kishilarning atrof-muhit va tabiiy boyliklarga munosabatini nazorat qilish niyatida amalga oshirilgan sa’y-harakatlarni ekologik siyosatning namoyon bo‘lishi sifatida baholash mumkin. Biroq, XX asrga qadar bunday siyosat uzlukli, muvaqqat va juz’iy xarakterga ega bo‘lgan.

Bizning davrimizga kelib, ekologik siyosat ham mazmunan, ham tarkiban ancha murakkablashdi. U qator obyektlar tomonidan turli yo‘nalish va sohalarda turfa tamoyillarga asosan amalga oshirilmoqda. Bu hol ekologik siyosatning turli ko‘rinishlari, yo‘nalishlari, sohalari va tamoyillarini vujudga keltirdi. Binobarin, zamonaviy ekologik siyosatning mazmun va mohiyatini ularsiz tasavvur qilish mushkul.

Zamonaviy ekologik siyosat turli ko‘rinishlarga ega. Jumladan, turli xalqaro tashkilotlar tomonidan jahon miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, ekologik masalalarga bag‘ishlangan xalqaro ahamiyatga molik hujjatlar ijrosi odatda umumsayyoraviy ekologik siyosat deb yuritiladi. Undan farqli o‘laroq, davlat ekologik siyosati hokimiyat organlari, davlat tomonidan ta’sis etilgan vakolatli jamoatchilik tashkilotlari va shu kabilar tomonidan mamlakat hududidagi ekologik vaziyatni boshqarish, ekologik munosabatlarni tartibga solish va ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy choralarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ekologik siyosat haqida gapirganda uning mintaqaviy ko‘rinishi ham tilga olinadi. Bunda, bir tomondan, davlatning muayyan mintaqadagi ekologik vaziyatni asrash maqsadida amalga oshirgan choralari majmui, ikkinchi tomondan esa, shu mintaqadagi hokimiyat organlarining ekologik faoliyati, mahalliy miqyosda qabul qilingan ekologik xujjatlarning ijrosi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, lokal ekologik siyosat haqida ham gapirish mumkin. U yoki bu tashkilot doirasida amalga oshirilgan ekologik chora-tadbirlar shunday deb yuritiladi. Mazkur choralar tashkilot yoxud korxonaning atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklash maqsadida ro‘yobga chiqariladi.

Ekologik siyosatning barcha ko‘rinishlari dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega, albatta. Biroq biz tadqiqot mantig‘iga amal qilgan holda o‘z mulohazalarimizda davlat hokimiyat organlari, siyosiy institutlar, vakolatli jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ekologik siyosatni nazarda tutmoqdamiz. Darvoqe, davlat ekologik

siyosati ekologik siyosatning eng mazmundor va tarkiban murakkab koʻrinishi hisoblanadi. Chunki u bir vaqtning oʻzida yuqoridagi subyektlar tomonidan bir necha yoʻnalish va sohalarda murakkab tamoyillar asosida keng koʻlamda, tizimli, uzluksiz ravishda olib boriladi. Davlat ekologik siyosatining asosiy maqsadi mamlakat hududida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uning ekologik manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Uning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat: a) ekologik vaziyatni himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan choralar; bu choralar mamlakatdagi tabiiy shart-sharoitlarni asrash, mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, mavjud shart-sharoitlarni inson turmushi uchun maqbullashtirib borish maqsadida amalga oshiriladi; ekologik vaziyatning barqarorligi davlatning mazkur yoʻnalishdagi ekologik siyosati samarasidan dalolat beradi; b) ekologik munosabatlarni takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan choralar; bu choralar ekologik faoliyat subyektlarining tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy shart-sharoitlarni maqbullashtirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish borasidagi aloqalarini tartibga solish va muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi; ekologik munosabatlarning huquqiy maydonda qolayotgani bu yoʻnalishdagi davlat ekologik siyosatining toʻgʻri tashkil qilinganini koʻrsatadi; v) ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilgan choralar; bu choralar tabiiy resurslarga boʻlgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan tabiatning ularni shakllantirish borasidagi cheklangan imkoniyatlari oʻrtasidagi ziddiyatni bartaraf qilish maqsadida amalga oshiriladi; mamlakatdagi ekologik muammolarning davlat va jamiyat nazorati ostida qolayotgani bu yoʻnalishdagi sa'y-harakatlarning maqsadga muvofiqligini namoyish qiladi.

Davlatning ekologik siyosati turli sohalarda amalga oshiriladi. Koʻzlangan maqsadga erishish uchun birinchi navbatda umummilliy miqyosdagi ekologik faoliyatni yoʻlga qoʻyish zarur. Chunki mamlakatdagi ekologik vaziyat oʻz barqarorligini stixiyali ravishda vujudga keltirishi mumkin emas. Har qanday jamiyatdagi ekologik munosabatlar tartibga solish va muvofiqlashtirishni taqozo qiladi. Ekologik muammolarni esa umummilliy hamjihatlikni ta'minlash orqaligina bartaraf etish mumkin. Bularning barchasi jamiyat miqyosida muayyan ekologik siyosatni yoʻlga qoʻyish zaruriyatiga borib taqaladi. Binobarin, umummilliy sohada amalga oshirilgan ekologik siyosat mamlakat ekologik xavfsizligini ta'minlashning dastlabki shartidir. Bu siyosatning maqsadi va vazifalari, konseptual yondashuvlari va gʻoyalari, strategiyasi va taktikasi, huquqiy negizlari va tashkiliy-institutsional asoslari naqadar puxta shakllantirilgan boʻlsa, uning samaradorligi darajasi ham shu qadar baland boʻladi.

Biroq ekologik siyosat mamlakat miqyosida amalga oshirilgan ekologik faoliyat bilan cheklanib qolmaydi. Mamlakat ekologik xavfsizligi xalqaro sohada ekologik siyosat yuritishni ham taqozo qiladi. Uning asosiy maqsadlari milliy ekologik manfaatlarni xalqaro maydonda himoya qilish, xalqaro hamjamiyat bilan ekologik hamkorlikni yoʻlga qoʻyishdan iborat. Millat ekologik manfaatlarini xalqaro miqyosda ifodalab berish va himoya qilishning ahamiyati beqiyos. Chunki xalqaro ekologik munosabatlarda manfaatlar pariteti buzilib borayotgan bir paytda milliy ekologik manfaatlarning poymol boʻlishi xavfi yuzaga kelmoqda. Bu hol davlatning xalqaro sohadagi ekologik siyosatini puxta oʻylangan dastur asosida amalga oshirishni taqozo

qilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda ekologik globallashuv tendensiyalari barcha mamlakatlardagi ekologik vaziyatga istisnosiz o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ularni bartaraf etish yoxud loaqal salbiy ta’sirini kamaytirish uchun xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Bu vazifa ham davlatning xalqaro sohadagi ekologik siyosati samaradorligini oshirish masalasiga borib taqaladi.

Qaysi yo‘nalishda va sohada amalga oshirilayotganidan qat’i nazar, davlat ekologik siyosati qator yondashuv va tamoyillarga asoslanishni taqozo qiladi. Bu o‘rinda umumiylik va xususiylik dialektikasi ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, har qanday davlat tomonidan olib borilayotgan ekologik siyosat milliy yondashuv va tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Odatda bu tamoyillar tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi. Masalan, O‘zbekistondagi davlat ekologik siyosatining asosiy yondashuv va tamoyillari “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi”da ifodalab berilgan. Bu yondashuv va tamoyillar quyidagilardan iborat: a) normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish; b) iqtisodiyotni ekologiyalashtirish; v) tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish; g) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish; d) kompleks ekologik monitoringni olib borish; ye) innovatsion texnologik jarayonlar va metodikalarni ishlab chiqish; j) ekologik madaniyat va ta’limni shakllantirish; z) xalqaro hamkorlikni kuchaytirish [1].

Ayni paytda jahon hamjamiyati amal qilayotgan umumsayyoraviy ekologik siyosat tamoyillari ham mavjud. Ular turkumiga quyidagilar kiradi: [2; 352 – 354] a) muqobil zararlar tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra, tabiiy resurslardan foydalanish evaziga topilgan daromad muqobil zarar miqdoridan ko‘p bo‘lmog‘i darkor; b) “ifloslantirgan to‘laydi” tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi tabiiy muhitga yetkazgan zarari salmog‘iga mutanosib ravishda tovon to‘lashi kerak; v) uzoq muddatli istiqbol tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra, atrof-muhitga yetkazilgan zararning asl ko‘lami uzoq muddat o‘tganidan keyin namoyon bo‘ladi, binobarin zarar miqdorini aniqlayotganda bu holat inobatga olinmog‘i darkor; g) o‘zaro aloqadorlik tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra, ekologik muhitning barcha elementlari o‘zaro aloqadordir, shu boisdan salbiy oqibatlar bir elementdan boshqasiga o‘tishini nazarda tutish lozim.

Bu borada rivojlangan mamlakatlarning ekologik siyosati borasidagi tajribalariga murojaat qilinishi ham foydadan xoli emas. Jahonning ilg‘or mamlakatlarida davlat ekologik siyosatini amalga oshirishdan oldin uning nazariy-metodologik asoslarini belgilab olishga alohida ahamiyat beriladi. Xususan, AQShda XIX asrning oxirlaridan buyon davlat ekologik siyosati ichki siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning nazariy-metodologik asoslari invayronmentalizmg‘oyasi negizida shakllantirilgan. Mazkur g‘oyalarga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan davlat ekologik siyosat maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari, sohalari, ko‘rinishlari va tamoyillari 2010 yilda qabul qilingan “Amerikaning tabiatni muhofaza qilish borasidagi keng ko‘lamli tashabbuslari” deb nomlangan strategik hujjatda bayon etilgan [3;77]. Hujjat asosida har bir shtat uchun alohida loyiha tayyorlangan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv butun

mamlakatdagi ekologik sa'y-harakatlarni yagona nazariy-metodologik asosga bo'ysundirish imkonini bergan.

Yevropada ham ekologik siyosatni yagona nazariy-metodologik asoslarga bo'ysundirish istagi yo'q emas. Ko'hna qit'aning bu boradagi maqsad va tamoyillari g'arbona liberalizm g'oyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Yevropa Ittifoqini ta'sis etish to'g'risidagi Shartnomaning 174-moddasida qayd etilgan [4;149]. Biroq Ittifoq ekologik siyosat bobidagi strategik maqsad va konseptual yondashuvni, tamoyillarni belgilash bilan cheklanadi, xolos. Uning vazifalari, taktik yondashuvlari, ko'rinishlari, yo'nalishlari va sohalari davlatlar tomonidan mavjud ekologik muhitga mutanosib ravishda mustaqil belgilanadi – bu hol ham masalaga liberalistik yondashuvning bir namoyishidir. Ittifoqqa a'zo bo'lgan har qanday mamlakat umumevropaviy strategik maqsad va konseptual yondashuvni qabul qilishi shart hisoblanadi.

O'tgan asr oxirida milliy mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy tajribasida davlat ekologik siyosati maqsadi va vazifalarini, yo'nalishlari va sohalarini rivojlangan mamlakatlarning yutuqlari asosida puxta belgilab olish, uning nazariy-metodologik negizlarini muttasil takomillashtirib borish istagini ko'rish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda barcha mamlakatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik manfaatlarni muhofaza qilish uchun o'z ekologik siyosatini ilmiy asosda va jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalariga tayangan holda tashkil etishga intilmoqdalar. Bu amaliyot O'zbekiston ekologik siyosatini takomillashtirishda ham dasturilamal bo'lmog'i darkor.

Xulosa va takliflar. Davlat amalga oshirayotgan ekologik siyosatning nazariy-metodologik asoslari voqiflik, ekologik siyosatning ularga mutanosib ravishda yo'lga qo'yilishi quyidagi natijalarni berishi mumkin: a) mamlakatdagi ekologik vaziyat barqarorligi, uning tarkibiy elementlarining xavfsiz rivoji ta'minlanadi; b) turli ekologik subyektlar amalga oshirayotgan ekologik munosabatlar xuquqiy maydon doirasida saqlanadi; v) mamlakatning turli mintaqalarida mavjud bo'lgan ekologik muammolarning davlat va jamiyat nazorati ostida qolishi ta'minlanadi; g) oqilona ekologik faoliyatni rag'batlantirish va atrof-muhit ifloslanishiga olib kelgan ekologik hatti-harakatlarni tiyish imkoni paydo bo'ladi; d) mamlakatdagi ekologik muhitni tizimli monitoring qilib borish imkoniyatlari kengayadi; y) fuqarolar ekologik madaniyatini yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi; j) xalqaro miqyosda milliy ekologik manfaatlarni ifodalash va himoya qilish imkoni vujudga keladi; z) xalqaro hamjamiyatning ekologik potensialidan mamlakatdagi ekologik muhitni mustahkamlashda foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston ekologik siyosatining nazariy-metodologik asoslarini "ekologik siyosat" tushunchasining ilmiy ta'rifi, davlat ekologik siyosatining gumanistik qarashlar va demokratik qadriyatlar asosida shakllantirilgan maqsad va vazifalari, yo'nalishlari va sohalari, tamoyillari, atrof-muhit muhofazasiga doir milliy va jahon tajribalari tashkil etadi. Mustahkam nazariy-metodologik asosga tayangan davlat ekologik siyosati mamlakatning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"// lex.uz.
2. А.В.Каранда Экологическая политика: понятие, виды, принципы.// Молодой ученый, 2020, №3. – С.352-354.
3. Т.Ровинская Экологическая политика в США конца XX – начала XXI в.// Мировая экономика и международные отношения, 2018, Т.62, №7. – С.77.
4. Т.В.Редникова Основы экологической политики Европейского Союза.// Труды Института государства и права Российской Академии Наук, 2010, №2. – С.149.
5. Б.Н.Омонов Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. https://conferencepublication.com
6. F.Qilichev Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.
7. O'.G'.Tilavov Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021.
8. B.N.Omonov Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680
9. B.N.Omonov, G.A.Ochilova, K.S.Nomozov, Y.K.Manzarov, B.A.Ochilov Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System.https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583 https://www.scopus.com/sourceid/21100216519 984-989
10. С.Мамашакиров Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.
11. Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari//Tafakkur jurnali. 2014/1. – B.24-35.
12. C.A.Ochilova, B.N.Amonov, S.A.Azamova, Y.K.Manzarov Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA OZOD SHAXS KO'NIKMALARINI TARBIYALASH

Tilayev.E.R.-Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dost.
https://orcid.org/0009-0005-4379-9558

Annotatsiya. *Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida kishilar ongiga ko'rsatilayotgan turli axboriy ta'sirlar, yoshlarni har xil destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, yoshlar tarbiyasi borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar*

xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, hududimizda jamoa, mahalla bo‘lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o‘zgarmasin, tarix sinovidan o‘tgan o‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib yashashi, bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi haqida ayrim ma'lumotlar taqdim etilgan. Shu bilan birga, axborot tahdidlarning eng xavflisi – ma'naviy-ma'rifiy sohadagi davlat siyosatini ta'minlashga xalaqit berayotganligi, axborot tahdidlariga qarshi kurashning eng maqbul yo‘llaridan biri mamlakat o‘z aholisini zarur axborot bilan ta'minlash kerakligi haqida muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. *globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, mafkuraviy bo‘shliq, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar", internet, xalqaro axborot tarmog‘i, murakkab geosiyosat, g‘oyaviy-mafkura*

ВОСПИТАНИЕ СВОБОДНЫХ ЛИЧНОСТЕЙ У МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Тилаев Э.Р.-Шахрисабзский государственный педагогический институт, Декан факультета социальных наук к.и.н., доц.
https://orcid.org/0009-0005-4379-9558

Аннотация. *Аннотации В статье рассматриваются различные информационные воздействия на сознание людей в современных условиях глобализации, защита молодежи от влияния различных деструктивных идей, задачи, которые необходимо решать в воспитании молодежи. Также важно, чтобы наши люди, которые живут в нашем регионе как сообщество, в гармонии друг с другом, верны своим проверенным временем ценностям, понимали, признавали и уважали это явление. При этом наиболее опасные информационные угрозы препятствуют реализации государственной политики в области духовности и просвещения, по мнению экспертов по информационной безопасности, одним из лучших способов борьбы с информационными угрозами является обеспечение населения необходимой информацией.*

Ключевые слова: *глобализация, СМИ, личность, образование, воспитание, духовность, идеологический разрыв.*

EDUCATION OF FREE PERSONALITIES AMONG YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Tilaev E.R.-Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Dean of the Faculty of Social Sciences, Ph.D., Assoc. Prof.
https://orcid.org/0009-0005-4379-9558

Annotation. *The article discusses the various information huge impact on the thoughts of people in the current globalization, the protection of young people from the influence of various destructive ideas, the tasks that need to live faithfully to their long traditional values, understand, acknowledge and respect this phenomenon.*

At the same time, the most dangerous information threats hinder the implementation of state policy in the field of spirituality and enlightenment, according to information security experts, one of the best ways to combat information threats is to provide the population with the necessary information.

Be fulfilled in the education of young generation. It is also written some information about our people, who live in our region as a community, keeping harmony with each other.

Keywords. *globalization, media, personality, education, upbringing, spirituality, ideological gap.*

Yangi ming yillikka kelib insoniyat erishgan ilm-fan va texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy hayotning qator sohalarida zamonaviy texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini keng mahsulotlar bilan ta'minlashga va xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Shuningdek, axborot yaratish va tarqatish sohasida ham mislsiz yutuqlarga erishildi.

Uzoq yillik hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixi, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda ta'sirchan quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani sir emas. Qolaversa insonning axborotga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan yuqori sur'atlar bilan o'smoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi.

Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti".[1:484]

Demak, hozirgi yoshlarni qanday axborot bilan ta'minlashda, ular nima yaxshi yoki nima yomon ekanligini ajrata bilsin, ya'ni, axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish, axborot olish, axborot bilan ishlash madaniyatini shakllanitirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda yoshlarning internetdan to'g'ri foydalana olish madaniyatini tarbiyalashga erishmog'imiz lozim. Mamlakatimizda Internet xalqaro axborot tarmog'ini zarur milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Agar biz yoshlarda internetdan axborot olish madaniyatini shakllantirsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz.

Hududimizda jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq

bo‘lib yashashni ma’qul ko‘radi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ushbu tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba’zi siyosiy kuchlar va markazlar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma’naviyat bobida ham bizga aql o‘rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo‘lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Bunday kuchlarning g‘arazli munosabati, uning tagida yotgan manfaatlari, bu manfaatlarni amalga oshirish uchun turli usul va vositalar bilan zo‘r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi. Bu masala xususida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: “Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi”.[2:11] Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28 iyundagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarorida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar yechimi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.[3]

“Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi” degan fikr ustuvorlik qilayotgan hozirgi dunyoda insonning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan g‘oyaviy va informatsion xurujlar quyidagicha namoyon bo‘lmoqda: demokratiya, demokratik qadriyatlar eksporti; xalifalikni qayta tiklashga urinishlar; axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib qilish; “ommaviy madaniyat” hodisasi; kosmopolitizm; axloqiy degradatsiya va shu kabilar.

Axborot tahdidlari xususida gap ketganda uning universalligi, barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta’sir qilish imkoniyatini ta’kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg‘itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo‘lgan ta’sirlarda ifodalanadi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma’lumotni o‘zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o‘zida esa mustahkam iroda, axborot iste’moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish qobiliyati

rivojlangan bo‘lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin.

Axboriy tahdidlarning eng xavflisi – ma'naviy-ma'rifiy sohadagi davlat siyosatini ta'minlashga xalaqit berayotganlaridir. Chunki agar shaxsga salbiy ta'sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo‘yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir.

Axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra, axborot tahdidlariga qarshi kurashning eng maqbul yo‘llaridan biri mamlakat o‘z aholisini zarur axborot bilan ta'minlashi hisoblanadi. Albatta, bunday axborot to‘liq, sifatli va haqqoniy bo‘lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari boshqa manbalarga murojaat etadilar. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea bo‘yicha uch-to‘rt soat ichida ma'lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo‘lgan axborot bo‘shlig‘ini har xil uydirma va mish-mishlar to‘ldiradi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o‘zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o‘z yo‘lini o‘zi tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko‘maklashish vazifasi qo‘yilgandir. Zero, OAVning ijtimoiy ongni maqsadga muvofiq shakllantirish, aholining stereotiplari hamda ustanovkalarini tarkib toptirish borasidagi imkoniyatlari juda kengdir.

Harakatlar strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari bevosita jamiyat ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlikdan iborat. Mazkur ma'naviy-axloqiy negizlar zamirida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga, fuqarolarimizning ma'naviyatini shakllantirishga erishish yotadi.

Darhaqiqat, inson bolaligidanoq jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun o‘zining jamiyat bilan munosabatiga oydinlik kiritib olishi, jamiyat qonuniyatlarini anglashi, undagi o‘zgarishlar va yangiliklardan o‘z vaqtida boxabar bo‘lib turishi lozim. Demak, bunda shubhasiz OAVning o‘rni beqiyos. OAV shaxs tafakkuri, estetik didini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir etuvchi vosita ekanligi va bunda matbuotning o‘rni va rolini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo‘ladi.

OAVlar bugungi kunda erkin fikr maydoniga aylanib bormoqda. Matbuot mustaqillik g‘oyasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda beqiyos xizmat qilmoqda. O‘lmas madaniy merosimiz, milliy istiqlol mafkurasi bunyodkor xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini targ‘ib qilmoqda. Zero, bugungi kunda matbuot insonning o‘zini-o‘zi, kimligini idrok etishga, hayotning ma'no-mohiyati nimadan iborat ekanligini teran tushunishga, yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy gazeta-jurnallar, televideniye va radio faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ayrim tele va radiokanallardagi reklamalar, bukletlar, turli xorij matbuot nashrlaridagi maqolalar – bularning hammasi axboriy manipulyatsiya ta'siriga

tushmaslik maqsadida shakllantiriladigan ko‘nikmalarni tarkib toptirishda asosiy manba, “ko‘rgazmali qurol” bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga turli OAVlarning kishi ongiga ta’siri masalasidan tashqari, turli destruktiv guruhlar, kult va sektalarning shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligiga ko‘rsatayotgan tahdidi ko‘lami ham hozirgi vaqtda oshib bormoqda. Bunday guruhlarga a’zolarni jalb qilish va ongni nazorat qilish modeli, guruhiy bosim ko‘rsatish usullari va “aqlni peshlash” vositalari to‘g‘risida nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar ham yetarli ma’lumotga ega emaslar. Shu tariqa, kishi ongiga destruktiv ta’sir ko‘rsatilish ehtimoli xavfi yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vositalar orqali berib boriladigan axborotlar yoshlarning psixologik qaramlik sirtmog‘iga tushib qolish xavfini imkon qadar pasaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Albatta, bu borada mamlakatimizda talaygina ishlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28 iyundagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarorining qabul qilinganligi, 2017-yil 18 iyundagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorining qabul qilinishi yoshlar siyosatining O‘zbekistonda kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Biroq shu bilan birga yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan destruktiv g‘oyalarga qarshi kurashish, bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yaxlit ijtimoiy-psixologik, pedagogik, ijtimoiy-madaniy tizimni yaratish zaruriyati yuzaga kelganligini ham ta’kidlash joiz.

Bugungi globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma’naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma’naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo‘l topishni har tomonlama puxta o‘ylagan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Yoshlar tarbiyasida ma’naviy xavfsizlik masalasi haqida gapirganimizda shuni aytish joizki, tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo‘lmish milliy ma’naviy xavfsizlik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yoshlarimizda intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish masalalariga alohida to‘xtalish zarur bo‘ladi.

Birinchidan, yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, sodir bo‘layotgan mafkuraviy tahdidlar va undan ko‘zlangan maqsadlarning asl mohiyatini yoritib berishga erishish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib kelganligi, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan tushuntirish orqali ularning mustaqilligimizning fidolari bo‘lib tarbiyalanishlariga erishish zarur.

Uchinchidan, tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash borish talab etiladi.

To‘rtinchidan, yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini

asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, ularda milliy o‘zlikni anglashning yuksak darajada bo‘lishiga erishish.

Beshinchidan, o‘rta maxsus ta’lim tizimida internet bilan ishlash madaniyatini yo‘lga qo‘yishga doir o‘quv kursini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu kurs davomida yoshlarimizda internet bilan ishlashga doir amaliy ko‘nikmalar shakllangan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati :

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU ,2017. -484 b.

2. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. –11-b.

3.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyundagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3180-sonli qarori.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent:“O‘zbekiston”NMIU,2017.-484 b.

7. Mirziyoyev Sh.M.Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 yil.

8. Jumaniyozov X. Globallashuv asoslari. Monografiya. – T.: 2015.

9. Qodirov B., Jumaniyozov X., Qodirov B. Globallashuv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash masalalari. – T., 2015.

MA’NAVIY TARAQQIYOT DIALEKTIKASI VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEZONLARI

Maxmut Mamatov xxx-Shahrisabz davlat pedagogika instituti, sirtqi bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori, professor vazifasini bajaruvchi, +9986181950,
E-mail: mmamatov@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0008-8748-2466

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyatning ma’naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog‘liq xilma-xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog‘liq turlicha namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Bunday belgilar va o‘ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo‘lib hisoblanadi. Uning*

jamiyatdagi zamonaviy taraqqiyoti amaliy ahamiyati asoslab berilgan ma'naviy tarbiyani rivoji nuqtai nazaridan fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar. *jamiyat, ma'naviyat, rivojlanish, strategiya, milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, g'oya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.*

ДИАЛЕКТИКА ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ КРИТЕРИИ ВОСПИТАНИЯ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ

Махмут Маматов xxx-Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий заочным отделением, доктор философских наук, и.о. профессора,
Тел: +9986181950, Электронная почта: mmamatov@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0008-8748-2466

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-философские, культурно-просветительские аспекты процессов развития психики и настроений населения, особенно молодежи, по-разному проявляющиеся в стратегии духовного развития общества, характерные для конкретного периода и общества, различные особенности, связанные с государственной политикой и человеческим совершенствованием. Такие признаки и специфические аспекты являются общими критериями и базовыми факторами философских принципов, которые влияют на различные особенности понятий, связанных с этими вопросами. Приводятся идеи с точки зрения развития духовного образования, исходя из практической значимости его современного развития в обществе.*

Ключевые слова. *общество, духовность, развитие, стратегия, natsionalьная, религиозная, образовательная, ценность, молодежь, идея, развитие, перспектива, проблема, научные исследования.*

DIALECTICS OF SPIRITUAL DEVELOPMENT AND SOCIO-PHILOSOPHICAL CRITERIA FOR EDUCATION OF A PERFECT GENERATION

Mahmut Mamatov xxx-Shakhrisabz State Pedagogical Institute, head of the correspondence department, Doctor of Philosophy, acting. professor, +9986181950,
Email: mmamatov@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0008-8748-2466

Annotation. *It is discussed that philosophical, cultural and educational aspects that manifest themselves in different ways in the strategy of spiritual development of society in a certain period, various features associated with state policy and the development of man and population, especially analyzing the processes of development of the psyche and mood of youth in this article. Such features and specific aspects are general criteria and basic factors of philosophical principles that influence various*

features of concepts related to these issues. Ideas are presented from the point of view of the development of spiritual education, based on the practical significance of its modern development in society.

Key Words. *society, spirituality, development, strategy, national, religious, educational, value, youth, idea, development, perspective, problem, scientific research.*

Kirish. Jamiyatning ma'naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog'liq xilma-xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog'liq turlicha namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyati ham muhim o'rin egallaydi. Bunday belgilar va o'ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda, jamiyatning ma'naviy hayoti har bir yosh inson uchun doimo muayyan an'analar va odatlar shakllanadigan hamda qaror topadigan poydevor, ya'ni mentalitet omillar bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar jamiyatning an'analari tizimiga kiruvchi ijtimoiy ko'rsatmalar, xatti-harakat me'yorlari, ong harakati va stereotiplarini belgilab beradi. Shu tarzda an'analar milliy mentalitetni saqlab turish va yetkazib berish mexanizmi sifatida yuzaga chiqadi, jamiyatning ma'naviy asoslarini kelajakka yetkazib beruvchi bo'g'inni tashkil qiladi. Binobarin, jamiyat rivoji hamda yosh avlod kamolotidagi uzluksizlik an'analar va urf-odatlar davomiyligi bilan ham ta'minlanadi. "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi".[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Muayyan davrda yoki biror bir davlatda yashayotgan har qanday kishi, ayniqsa, yoshlar umumiy qonun-qoidalar, tartiblar va talablar bilan birga, o'zi yashayotgan jamiyatning ma'naviy taraqqiyot mezonlarini anglash va o'z faoliyatini uning umumiy mezonlariga uyg'unlashtirishda ushbu jihatlarga e'tibor qaratadi va ular bilan bog'liq talablarga rioya qiladi. Bu esa, o'z navbatida, har qanday jamiyatni isloh qilishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatiga alohida ahamiyat berish zarurligini anglatadi".[2]

Bularning barchasi jamiyatning ma'naviy hayoti va barkamol avlod tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa yo'nalishlari, sohalari bilan o'zaro bog'liqligi, aloqadorligini anglatadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab mutaxassislar va tadqiqotchilar duch keladigan masalaning muhimligi jamiyatning ma'naviy hayoti barkamol avlod tarbiyalashning omili sifatida faqatgina inson ongining o'ziga xosliklariga bog'liqmi yoki moddiy makon bilan aloqadormi? degan savolga borib taqaladi. "Aslida, har qanday holda ham, moddiylik va ma'naviylikning o'zaro aloqadorligi, uyg'unligi va dialektik bog'liqligi o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladi" [3].

Masalaga ma'naviy jihatni bo'rttirishga asoslangan yondashuvga ko'ra fikr yuritilsa, ma'naviylik tamoyili asosidagi qarashlar jamiyat ma'naviy hayotning mavjudligi inson ongining turli shakllariga bo'ysunganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy falsafa uchun hamma zamonlarda ham jamiyatning umumiy rivojiga, davrning aniq voqea-hodisalariga, aholi qatlamlari, ijtimoiy guruhlarning qanday munosabatda bo'layotgani muhim. Shu asosda jamiyat taraqqiyoti, uning ma'naviy makoni o'rganiladi va tahlil etiladi. Bu jihatdan, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti masalasi ham zamonaviy falsafiy fanlarning muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Bu mavzuning O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq masalalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida bugungi jamiyat rivojining ustuvor vazifalari sifatida asoslab berilmoqda. Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida: "Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir", deb ta'kidlagani aslo bejiz emas [4].

Har qanday jamiyat hayoti va faoliyatida moddiy, ma'naviy, falsafiy, ijtimoiy sohalar muhim o'rin egallaydi. Ayni paytda, jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy sohalarini, bir butunlikda ekanini unutmaslik zarur. Ushbu zaruriyat mazkur sohalarning muqarrar ravishda falsafiy omillar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishini, jamiyatning falsafiy va ma'naviy tomonlarini bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa zid ekanini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Albatta, bunda ham ijtimoiy-ma'naviy hayot alohida mazmunga ega, u bir vaqtning o'zida insonning o'zi tomonidan yaratilgan infratuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ham ushbu tushunchada xalqning turmushi va madaniyati aks etadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muayyan tarixiy davrga xos jihatlari o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan va insoniy dunyoda muttasil jamlanib boradigan ma'naviy sohaning ijtimoiy-falsafiy modelida barcha ma'naviy jihatlar o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Aynan ana shu bog'liqlik kishilarni ijtimoiylashtirishga, ularni tarbiyalashga, ya'ni davlatning ma'rifatga, ta'limga qaratilgan faoliyat tamoyillari hamda jamiyatning turmush tarzi va ma'naviy qiyofasini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu ma'noda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ma'naviy va moddiy soha o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq, asrlar davomida Sharq va G'arb mutafakkirlarini o'ylantirib kelgan ana shu azaliy, fundamental masalaga alohida urg'u beriladi. Muallif bu borada ma'naviyat hodisasi makon, inson tabiati, orzu-intilishlarining tub mohiyatidan kelib chiqqanligiga e'tibor qaratgan va insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli makon kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslab, bunday deydi: "Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat makonida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi".[5]

Ta'kidlash kerakki, uyg'unlik g'oyasi faqat moddiy va ma'naviy soha masalasiga taalluqli emas. Bu g'oya butun jamiyatni, uni tashkil etadigan ijtimoiy-falsafiy munosabatlarni demokratik asosda isloh etish, mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlashni ko'zda tutadigan rivojlanishning butun ma'no-mazmuniga daxldordir. Bu jihatdan olganda, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarini rivojlantirish jarayonini izchillik bilan yangi bosqichga ko'tarish uchun olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish – bu sohadagi ma'naviy o'zgarishlarni belgilaydigan asosiy omillardir.

Ushbu omillar orasidagi munosabatlarni takomillashtirishda moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirish, moddiy va ma'naviy sohani bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim, deb hisoblash nafaqat nazariya, balki amaliyotda ham muayyan xatolarga olib keladi. Har qanday sharoitda ham jamiyatdagi moddiy farovonlikni ta'minlash uchun aholining ma'naviy-intellektual salohiyatini kuchaytirish bilan bog'liq faoliyatga alohida ahamiyat qaratilishi lozim. Bu esa, jamiyat ma'naviy hayotining falsafiy jarayonlar bilan bog'liqligini anglatadi hamda bu boradagi faoliyat ta'sirchanligini oshiradi. Ushbu jihat jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash, uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mazmun-mohiyatini belgilaydi. Jamiyat hayotining bunday tashkil etilishi ma'naviy makonning takomillashuvga olib keladi, ma'naviy va ijtimoiy sohalarning o'zaro bog'liqligi uzviy aloqadorligini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy siyosatning mohiyati, undagi aholi qatlamlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgani, kishilarning makoni, ish faoliyati, ilm olishi, sog'lig'ini tiklashi, dam olishi, mehnat qobiliyatlarini tiklashi bilan bog'liq sohalarda namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot natijalari "jamiyatning ma'naviy hayoti" tushunchasi va u bilan bog'liq ma'naviy qadriyatlar har bir yosh insonga ta'sir qilishini ko'rsatadi. "Ayni paytda inson doimo biror bir shakl va mazmundagi, muayyan jamiyatning ma'naviy makonini "yaratish" holatida turadi. Mazkur ijodiy faoliyat natijasida muayyan tizim tarbiyalanadi va bu amaliy harakatlarni hamda butun bir ma'naviy mezon asosida shakllanadigan maqsadlarni belgilab beradi. Har qanday ma'naviy faoliyat va madaniy-ma'rifiy tadbirlar amaliyotida ana shunday tizimlilik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va bu sohadagi faoliyatning samarasini belgilaydi"[6] Sharq va G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida "ma'naviy hayot", "ma'naviy jarayonlar", "axloq" va "inson" tushunchalari aksariyat hollarda bir-biri bilan bog'liq holda tasavvur qilingani ma'lum. Buyuk Sharq faylasufi Abu Nasr Forobiy bu sohadagi bog'liqlikni ta'kidlab, insonning shakllanishi, kamol topishi, makon ne'matlaridan to'la bahramand bo'lib yashashi uchun unga jamiyat, ijtimoiy muhit kerakligini quyidagicha ifodalagan: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi".[7] Albatta, Forobiy yashagan davrda mavjud bo'lgan jamiyat ma'naviy makoni o'ziga xos edi. Ammo o'sha davrda ham inson, xalq va millat ma'naviyati jamiyat hayotiga, o'sha zamon siyosatiga bog'liq bo'lgani, shubhasiz.

Tahlil va natijalar. Jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilayotgan bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy jihatdan har bir xalq o'zining

betakror, o‘ziga xos va o‘ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlarning tajribalaridan foydalanish orqali taraqqiy etish huquqiga egaligi butun dunyoda tan olingan. Ana shu tamoyil hozirgi davrdagi ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda namoyon bo‘lmoqda. Jahon xalqlarining bu boradagi tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta’minlashda ijtimoiy sohaga ko‘proq e’tibor berish, ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash muhim. Shu sababdan ham mustaqillik yillarida mamlakatimiz yalpi ichki daromadining katta qismi shu sohaga sarflana boshladi va bu o‘zining samaradorligini ko‘rsatdi.

Har qanday jamiyatning ma’naviy hayoti nafaqat ijtimoiy soha, balki uning ma’naviy tizimi bilan uzviy aloqada namoyon bo‘lishi bu jabhaning qonuniyatidir. Barcha institutlar, davlat hokimiyati, partiyalar va jamoat birlashmalari jamiyat ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada davlat, hokimiyat va boshqaruv tizimining o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlash joizdir. Negaki, aynan ular ma’naviy hayotni ham boshqaradi, ham bu jabhadagi faoliyatni tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi. Bu jihatdan masalaga yondashganda, hozirgi ilg‘or mamlakatlarga xos bo‘lgan demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi, muqobil saylov tizimi, ko‘p partiyaviylik va falsafiy institutlarning xilma-xilligi jamiyat ma’naviy makonidagi jarayonlarni belgilovchi muhim omillar sirasiga kiradi.

Ayni paytda davlat tashkilotlari, partiyalar, turli ijtimoiy-falsafiy tuzilmalar, xilma-xil fuqarolik institutlari bugungi kunda yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yayotgan jamiyatimiz ma’naviy hayotiga ta’sir etuvchi tamoyillar hamda omillar majmuini tashkil qiladi. Bunday serqirra jarayonda jamiyatning ma’naviy sohasi bilan bog‘liq voqelik, turli munosabatlar va jarayonlar hamda falsafiy madaniyat va mafkura ham muhim. Bunda davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi siyosati, boshqarish va huquq jarayonlari, qarorlar qabul qilish mexanizmlari, uning tuzulmaviy qismlari, tashkilotlar va ularning faoliyati o‘z o‘rniga ega bo‘lib hisoblanadi.

“Ma’naviy hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jamiyatning siyosiy hayoti markazida “davlat”, “hokimiyat” va “hokimiyat munosabatlari” turadi va ular ushbu sohaning eng muhim elementlari sifatida siyosat va ma’naviyat aloqadorligini tushunish uchun o‘ziga xos “kalit” bo‘lib xizmat qiladi. Ayni shu asosda jamiyat ma’naviy hayotining milliy davlat va ijtimoiy-falsafiy munosabatlar majmuida tutgan o‘rnini to‘g‘ri tushunish mumkin”.[8] “Bugungi kunda ham bu masala o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, bugungi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida ma’naviy hayot sifati o‘zgarib, uning mazmuni va sotsial mohiyati hamda ahamiyati yanada chuqurlashib bormoqda”. [9] Bunday sharoitda T.Mamatqobilov ta’kidlagani kabi ma’naviy islohotlar mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasidagi faoliyatning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan, muayyan jamiyatning ma’naviy hayoti va undagi falsafiy hamda axloqiy qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishdagi mushtarak maqsadlarga xizmat qiladi. “Ijtimoiy-falsafiy ma’noda axloq “ma’naviy hayot” tushunchasining markazida turadigan, uning mazmuni va xususiyatlarini belgilab beradigan kategoriya, insonlarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy makondagi o‘zaro munosabatlari, jumladan, jamiyatga nisbatan

daxldorlik hissini tartibga solib turadigan barqaror me'yor va qoidalar yig'indisidir" [10]. Mazmuniga ko'ra diniy, dunyoviy, ilg'or, zamonaviy va konservativ turlariga bo'linadigan axloq tarbiyalarning barchasi "ma'naviy hayot" tushunchasi tarkibiga kiradi hamda jamiyatning ma'naviy makonida muhim.

Jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilayotgani ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar va amaliy faoliyatda aks etmoqda. Ma'naviy hayotdagi chuqur o'zgarishlar bilan yo'g'rilgan davr ruhi amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan uyg'unlashib, muhim sifatiy yangilanishlarga sabab bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Shu bilan birga, bu borada jamiyatning ma'naviy hayotida turli sohada mavjud bo'lgan normalar va qoidalar, xulq-atvor stereotiplari, falsafiy ramzlar va milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq boshqa jihatlar ham alohida o'rin tutadi. Xalqning ma'naviy hayotida unga xos bo'lgan mentalitet va stereotiplar bilan bog'liq xususiyatlar o'zining ta'siriga va o'rniga ega bo'ladi. Shu jihatdan, jamiyatning o'ziga xos ma'naviy hayoti uning madaniyati, an'analari, davlat tili, davlat ramzlari orqali shu xalqning falsafiy tafakkurini ham bir qadar aks ettiradi. Jamiyatning ma'naviy hayoti yangilanishi zamonda mavjud bo'ladi hamda ana shu hodisalar va fenomenlar tarzida, ya'ni har bir inson uchun ularning ahamiyati nuqtai nazaridan o'chmas, bir tomondan, abadiy ma'naviy ma'nolar sifatida, ikkinchidan esa, muayyan faoliyat va mehnat natijasi tarzida namoyon bo'ladi. Buni ta'kidlar ekan, M.Bekmurodov "jamiyatning ma'naviy hayoti va har bir bunyodkor insonga tegishli ma'naviy faoliyat o'rtasidagi farqlar esa ijtimoiy mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog'liqligini qayd qiladi".[11]

Jamiyatning ma'naviy hayoti va ijtimoiy voqelikning yoshlar kamoloti jarayoni bilan aloqadorligi ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish vositasida namoyon bo'ladi va bu bosqichma-bosqich yuz beradi. Jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlar ongida u oldingi tajriba orqali kelajakni farqlashni o'z ichiga olgan tadrijiy tartibda amalga oshadi.

Ayni paytda, ma'naviy hayotda turli-xil qatlamlar, ijtimoiy birliklarning voqelik, qonunlar va ularning amal qilish qoidalari, qadriyatlari to'g'risidagi tasavvurlar ham o'z o'rniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, uzoq yillar shakllangan va turli avlodlar tomonidan qadrlanib kelinadigan an'analar, amaliyotda mavjud bo'lgan g'oyalar va konsepsiyalar ham ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or mamlakatlar qatoriga yetish uchun bu sohada o'qish, bilim olish. komil inson bo'lish uchun, ma'naviy taraqqiyot dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy mezonlarini yosh avlodga singdirish yangilanayotgan O'zbekistonning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.457.
2. Shopo'latov A. Jamiyatni isloh qilishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni //Milliy g'oya – bizning g'oya (Matn). – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2016. – B.54-56.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2010. – B.337.
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

rasmiy veb-sayti, http://www.president.uz/uz/lists/view/; "Xalq so'zi" gazetasi, 2016, 15-dekabr.
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat," 2008. – B.67.
6. Begmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B.35.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993. – B.186.
8. Jo'rayev T. Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – B.252.
9. Маматқобилов Т. Маънавий ислоҳотлар – давлат сиёсатининг устувор йўналиши. // Миллий ғоя – бизнинг ғоя (Матн) . – Тошкент: "Турон замин зиё", 2016. – Б.62-65.
10. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги НМИУ, 2009. – Б.48-49.
11. Бекмуродов М. Бунёдкор шахс маънавияти ва меҳнат тарбияси. – Тошкент: Маънавият, 2016. – Б.32.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARDA EKOLOGIK DUNYOQARASHNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Kenjayev Z.-Shahrisabz davlat pedagogika instituti
kenjayev2@gmail.com, Tel:+998912260506

***Annotatsiya**: Maqolada mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarda ekologik harakatlar faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida qaralishi ochib berilgan. Respublikamizda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va shaxs ekologik dunyoqarashini ilmiy-pedagogik kompleksni shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.*

***Kalit so'zlar:** ekologiya, shaxs ekologiyasi, globallashuv, ekologik dunyoqarash, shaxs, jamiyat, ekologik talab, ekologiya sohasi.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЯХ

Кенжаев З.-Доцент кафедры общественных наук ШДПИ
kenjayev2@gmail.com, Tel:+998912260506

***Аннотация**: В статье раскрывается, что развитие экологической деятельности на основе национальных и общечеловеческих ценностей в нашей стране рассматривается как приоритетный вопрос государственной политики. Рассмотрены вопросы улучшения экологической ситуации и формирования научно-педагогического комплекса личности. экологические перспективы в нашей республике научно выявлены и обоснованы.*

Ключевые слова: *экология, экология личности, глобализация, экологическое мировоззрение, человек, общество, экологический запрос, область экологии.*

CHARACTERISTICS OF THE APPEARANCE OF THE ECOLOGICAL WORLD IN NATIONAL AND GENERAL VALUES

Kenjayev Z.-Associate Professor of the Department of Social Sciences SHDPI
kenjayev2@gmail.com, Tel:+998912260506

Abstract: *The article reveals that the development of environmental activities based on national and universal values in our country is considered a priority issue of state policy. Issues of improving the environmental situation and the formation of a scientific and pedagogical complex of the individual are considered. environmental prospects in our republic have been scientifically identified and substantiated.*

Key words: *ecology, personal ecology, globalization, ecological worldview, man, society, environmental demand, field of ecology.*

Kirish. Keyingi paytda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiqotida bir-biridan farq qiluvchi ikki yondashuv mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda. *Birinchisida* – milliy va umuminsoniy qadriyatlar mavjudligini, ular bir-birini to‘ldirib, rivojlantirib turishini e’tirof etadi. *Ikkinchisida* – aksincha, faqat milliy qadriyatlar mavjud, umuminsoniy qadriyatlar mavjud emas, ular inson ongi, abstrakt tafakkuri mahsuli, turli-tuman milliy qadriyatlardagi umumiylikning mavhum darajada umumlashtirilishi, degan muqobil fikrlarni isbotlash uchun keltirgan dalillarni ekologik qadriyatlar kontekstida konkretlashadi.

Umuminsoniy ekologik qadriyatlar mavjudligini inkor qilishda: *birinchidan*, barcha odamlar va jamoalar o‘ziga xos, turli-tuman va bir-biriga zid manfaat, maqsad va ishonchga ko‘ra yashaganlar va shunday yashab kelmoqda; ikkinchidan, har qanday dunyoqarash shakli, tipi kabi ekologik qadriyat masalasida hammani qoniqtiradigan yagona yechimning bo‘lishi mumkin emas; uchinchidan, ekologik muammolarni hal qilish, ko‘p jihatdan davrning muhim, ayni paytda turli-tuman konkret-tarixiy shart-sharoitlari bilan taqozolangan; to‘rtinchidan, ekologik qadriyatlar hamma vaqt muayyan ijtimoiy makonda va tarixiy zamonda lokal xarakterga ega bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi; beshinchidan, bu tushuncha muayyan manfaatga ko‘ra omma fikrini chalg‘itish uchun ishlab chiqilgan sun’iy konstruksiya bo‘lib, turli ijtimoiy birliklarning milliy-ekologik manfaatlarini umuminsoniy maqsadlarga bo‘ysundirishga yo‘naltirilgan; oltinchidan, umuminsoniy qadriyatlar tarkibida ekologik “elitar qadriyatlar” dominantligini e’tirof etish, mantiqiy ravishda, progressiv milliy ekologik qadriyatlar realligini inkor qilishga olib keladi; yettinchidan, har qanday jamiyatda turli ijtimoiy birliklar, madaniyatlar, sivilizatsiyalar bir-biridan ajralgan holda yashay olmaydi, lekin tolerantlik tamoyili asosida ularni o‘zaro murosaga keltirish zaruriyati – umuminsoniy qadriyat tushunchasi vujudga kelishiga sabab bo‘lganligini asoslashga harakat qiladilar.

Shu nuqtai nazarni himoya qiluvchilar fikriga ko‘ra, milliylikka nisbatan dominant bo‘lgan mavhum “umuminsoniy qadriyatlar” AQSH va ularning ittifoqchilari tomonidan o‘ylab chiqarilgan uydirmadir. (Buni global iqlim o‘zgarishi muammosiga skeptik munosabat yo‘nalishida yaqqol ko‘ramiz) Chunki ular “umuminsoniy qadriyatlar”ni (ya’ni mental xususiyatlarga yot erkinlik, demokratiya, inson huquqlari va shu kabi qadriyatlarni) himoya qilish niqobi ostida o‘z g‘oyalarini rivojlanishga intilayotgan xalqlarni asoratga solish, ekologik ekspluatatsiya qilishga yo‘naltirilgan harbiy, iqtisodiy bosqinchilikni, ekologik agressiyani niqoblamoqdalar.

Boshqacha qilib aytganda, “umuminsoniy qadriyat” G‘arb dunyosi tomonidan o‘z maqsadlarini amalga oshirish, manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy globalizm, “ommaviy madaniyat”, multimadaniyat va boshqa illatlarni dunyo xalqlari ongiga, turmush tarziga singdirish uchun o‘ylab chiqarilgan sof evfemizmdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot uslublari. O‘z vaqtida tadqiqotchilardan E.J.Ikromov, A.A.Xotamovlar ham e’tiborni shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-didaktik asoslariga qaratishgan edi. Ya’ni ular bu muammolarni tadqiq etishda “shaxs ekologik madaniyati barcha tarbiyaviy ishlar mahsulidir” - degan konseptual g‘oyaga tayangan holda yoritib berishga harakat qilganlar. Ayni paytda, ular tomonidan ekologik moddiy va ma’naviy madaniyat tarixining shaxs ekologik dunyoqarashini boyitishdagi funksiyalari ham qator tahlil va xulosalar orqali asoslab berilgan.

Umuminsoniy ekologik qadriyatlar real mavjudligini e’tirof qilishga quyidagi asoslar mavjud, ya’ni:

a) insonlarning ekologik moddiy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, dunyo sivilizatsiyasini saqlab qolishga xizmat qiluvchi tabiiy-ijtimoiy hodisalardir;

b) ekologik umuminsoniy qadriyatlarning ma’naviy-ruhiy mazmuni, mohiyati jamiyat barqaror taraqqiyotida subyektiv omil bo‘lsa ham, vujudga kelish genezisiga ko‘ra obyektiv hodisadir;

v) umuminsoniy ekologik qadriyatlar tabiat muhofazasiga doir milliy, mintaqaviy, global darajalarda moddiy va ma’naviy madaniyat yo‘nalishlari sintezi va integratsiyasi natijasidir;

g) umuminsoniy ekologik qadriyatlar har qanday tarixiy davr va ijtimoiy-ekologik makonda mavjud bo‘lishidan qat’iy nazar insoniyatning yashashi, faoliyat ko‘rsatishiga xizmat qiladigan global ekologik dunyoqarash doirasida faoliyat ko‘rsatadi;

d) ularning maqomini umuminsoniy gumanistik, demokratik tamoyillarga asoslanishi va milliylikni umuminsoniylik bilan uyg‘unlashtirishda tabiiy-evolyutsion yo‘lni tanlashi mustahkamlaydi.

Umuman, shakllangan tarixiy an’anaga ko‘ra ekologik umuminsoniy qadriyatlarni ham moddiy va ma’naviy yo‘nalishlarga ajratish, metodologik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Ularning birinchisiga amaliy faoliyatning barcha turlari va yo‘nalishlariga: moddiy boyliklar ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlar, jamiyat hayotining maishiy hayotini o‘zgartirish, usul-vositalari, ulardan foydalanish “texnologiyasi”, tajriba natijalari va h.k.lar kiradi.

Ma'naviy sohasiga esa: bilishga, baholashning emotsional-ruhiy va normativ-axloqiy munosabatlariga oid jihatlar kiradi.

Shuni e'tirof etish kerakki, "bugungi kunda odamlarda ekologik bilimlarning yetarli emasligi, ba'zilarda umuman yo'qligi bilinib qolmoqda. Ko'pchilik ekologik muammolar mavjudligidan xabardor, ba'zilar kechiktirib bo'lmas qarorlar qabul qilish kerakligini, atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida tub burilish zarurligini talab qilishsa, boshqa toifadagi odamlar buni keragi yo'q deb o'ylashadi".

Shu nuqtai nazardan, muayyan millatga mansub shaxs ekologik tafakkurini konkret ekologik voqelikni bilish jarayonida olingan ekologik nazariy bilimlarni, amaliyoti natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish, akkumulyatsiya qilish, umumlashtirish asosida yangi bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish faoliyat maqsadi, motivlari, mexanizmlarini aniqlash jarayoni sifatida tasniflanishi kerak.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. *Ekologik his-tuyg'ular* – ekologik borliqni ilmiy bilish orqali yuzaga keladi va shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Uning ekologik borliqni hissiy-emotsional sezishi obyekt va predmetlarning u yoki bu xossasini empirik darajada aks ettirsa, idrok esa uning yaxlit ideal obrazidir. Ekologik tasavvur, ekologik voqelikning hissiy obrazini qayta tiklash jarayonida shaxs ekologik dunyoqarashining asosiy subyektiv omili – ekologik ongining mantiqiy-abstrakt darajasiga ham o'tadi va uning axborot manbai bo'lib xizmat qiladi[2]

Lekin shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishning murakkabligi mavjud ekologik bilimlarni shaxs ijtimoiy amaliyotiga qo'llashdagi cheklanganlik, ya'ni barcha shaxsga nazariy hamda amaliy yo'nalishlarda yetkazib berish imkoniyati chegaralanganligi ekologik muammolarni hal etish uchun to'g'ri qarorlar qabul qilishga to'sqinlik qiladi.

Aynan shu masalada ekologik dunyoqarashning funksional ahamiyati ko'zga tashlanadi. Ya'ni ekologik muammolarga ziddiyatli munosabatda tabiatga nisbatan kishilar ruhiyatida saqlanib qolayotgan texnokratik, utilitar, merkantil yondashuv kayfiyatlariga barham berish uchun har bir shaxsda ekologik dunyoqarashni yanada boyitish yo'llari va imkoniyatlarini qidirib topish zarur.

Baholashga oid jihatlar milliy ekologik qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlarga transformatsiyasi va uning tarkibidagi maqomini aniqlashda: "haqiqatmi yoki yolg'onmi", "zaruratmi yoki tasodifmi", "foydalimi yoki zararlimi", "yaxshimi yoki yomonmi", "ezgulikmi yoki yovuzlikmi" kabi universal savollarga javob qidiriladi.

Albatta, milliy ekologik qadriyatlarning muayyan darajada bilingan xususiyatlarigina, ularning umuminsoniy ekologik dunyoqarash tarkibidagi o'rnini baholashga asos bo'lishi mumkin. Ya'ni har qanday bahoning obyektivligi va realligi, *birinchidan,* baholanuvchi ekologik vaziyat va hodisa haqidagi bilimlar kengligiga, chuqurligiga, ilmiylik darajasiga; *ikkinchidan,* milliy ekologik dunyoqarashning umuminsoniy ekologik qadriyatlar tarkibidagi maqomiga; *uchinchidan,* global ekologik muammolar yechimining umuminsoniy manfaatlarga mos kelishiga bog'liq bo'ladi.

Lekin turli odamlar, jamiyatlar ongida ekologik orzu-istaklar, idrok-tasavvurlar, qadriyatlarni tushunish subyektiv omil xarakteriga ega bo‘lsa ham odamlarning, ijtimoiy birliklarning ekologik maqsad va harakat motivlari umumiyligi bu sohada qadriyatlar *umumiyligini* ta’minlaydi, ya’ni ular *umuminsoniy qadriyatlarda* (obyektiv voqelik sifatida) namoyon bo‘ladi.

Baholashga oid jihatlarning “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlariga nisbatan qo‘llanilishi asosida, ijtimoiy tajribaning umumiy natijasida milliy ekologik dunyoqarashning amaldagi *ma’naviy-axloqiy normalari, xatti-harakatlarni reglamentlashtiruvchi huquqiy qonun-qoidalari* vujudga keladi. Ular kishilarda: bilish, baholash va amaliy faoliyati mo‘ljal yo‘nalishlarini tashkillashtirish, boshqarish, muvofiqlashtirish rolini bajaradilar.

Shulardan kelib chiqib, ekologik dunyoqarashning umuminsoniy qadriyat maqomini umumlashgan tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: ***Umuminsoniy ekologik qadriyatlar – insoniyatning demografik-etnografik tarkibi, konfessional mansubligi, fuqoroligi, ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy mavqeyi va iqtisodiy ahvolidan qat’iy nazar, har qanday odamning manfaatiga mos, muhim, nisbatan turg‘un, moddiy va ma’naviy hayoti asosidir.*** Zero, global ekologik moddiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi hamda ahamiyati, hech qanday istisnosiz barcha fuqaro ehtiyojlariga, manfaatlariga mos kelishi va ularning dunyoqarashida o‘z ifodasini topishi bilan izohlanadi.

Bu hodisalarning rivojlanish tendensiyasi va istiqbol bashoratlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi mantiqiy xulosalar kelib chiqadi, ya’ni: *birinchisi* – milliy-lokal, mintaqaviy-regional ekologik muammolar eskalatsiyasi, ularni globallashtiruvchi imkoniyat bo‘lib qolmoqda; *ikkinchisi* – milliy va umuminsoniy ekologik qadriyatlar integratsiyasi, ularning globallashuvini oldini olishning muhim subyektiv omilidir; *uchinchisi* – ekologik qadriyatlardan foydalanishning geografik parametrlari shartli va nisbiy bo‘lib, butun insoniyat uchun bevosita yoki bilvosita ahamiyatga ega; *to‘rtinchisi* – milliy va umuminsoniy ekologik qadriyatlar integratsiyasi global maqsad va manfaatlarga mos kelishi, ularning individualligini istisno qilmaydi; *beshinchisi* – odamlar hayoti uchun asos bo‘lgan tabiat muhofazasi – inson ijtimoiy faoliyatida muayyan mazmunga ega bo‘ladi va inson faoliyatining mahsuliga aylanadi[3]

Chunki global muammolarning vujudga kelishi bilan insoniyat maqsadlarining umumiyligi, xususan ekologik dunyoqarashi adekvatligi kuzatilmoqda. Haqiqatdan ham, hozirgi kunda globallashgan muammolar kishilik jamiyati umuminsoniy ekologik qadriyatlarini: *bir tomondan,* identifikatsiyalashtirishi (muayyan ekologik vaziyatga moslashtirishni), *ikkinchi tomondan,* ularni differensiyalashtirishni (konkret vaziyatga moslashtirishni) kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu esa global miqyosda tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalarini bevosita dunyoqarash markaziga qo‘ymoqda. Chunki bu tabiiy zaxiralardan foydalanish shu sur’atda davom etsa, keyingi 40-50 yillardan so‘ng neft zaxiralari tugashi hisob-kitob qilingan. Mavjud vaziyatni o‘zgartirish uchun insoniyatning milliy, hududiy va global ekologik dunyoqarashini o‘zgartirish orqali yengillashtirish

mumkin. Ya'ni energiya mahsulotlaridan tejab-tergab foydalanish texnologiyasini joriy etishni ham ekologik dunyoqarashning xususiyati sifatida qarash kerak[4].

Bulardan tashqari, tabiiy atrof-muhitga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillar definitsiyasi ham muayyan ekologik dunyoqarashga mos ravishda konkretlashtiriladi. Ekologik meyorlar asosida yaratilgan ijtimoiy muhit jamiyatning har bir a'zosiga ijobiy ta'sir etishi bilan universal xarakterga ega va barqaror ekologik xavfsizlikni ta'minlaydigan, shaxs barkamolligiga ta'sir etadigan ma'naviy-ruhiy omildir. Faylasuf-olima Salomova H.Y. o'rinli ta'kidlaganidek, "Tabiiy – ekologik me'yor bir tomondan, tabiiy qonuniyatlarni bildirsa, ikkinchi tomondan ekologik komponentlar orasidagi qonuniy bog'lanishlarni, o'zgaruvchanlik va aloqalarning barqarorligini, ekologik qoidalarni bildiradi. Uchinchidan, u har bir ekologik komponent va omillarning tabiiy sifat ko'rsatkichlarini, moslashish, o'zgaruvchanlik, chidamlilik chegaralarini bildiradi"[5]. Ekologik vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi omillar kishilar ruhiyati yomonlashuviga, organizmlarda turli xil kasalliklar paydo bo'lishiga qulay muhit yaratadi. Ular inson jismoniy salomatligiga va ruhiy-ma'naviy dunyosiga negativ ta'sir ko'rsatadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, ekologik bilim va dunyoqarash masalasiga ayrim mutaxassislarning qarashlaridagi muqobillik, umumiy murosaga kelishni qiyinlashtirmoqda. Xususan, hozircha ularning ta'riflarida umumiy, yagona pozitsiya shakllanmagan, hatto bir-biriga zid fikrlar bildirilmoqda. Bu esa umuminsoniy va milliy ekologik dunyoqarashni ilmiy tushunishga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, N.M.Noraliyevaning ekologik bilimga bergan ta'rifida ana shunday noaniqlik ko'zga tashlanadi.

A.Nigmatov ekologik madaniyat tarkibidagi ong, bilim va dunyoqarashning umumiyligini izohlashda mavhum umumiy tushunchalarga tayanib, uning global dunyoqarash xarakteridagi milliylik va umuminsoniylikning dialektik aloqadorligini e'tiborga olmagan. Shu sababli "ekologik dunyoqarash va madaniyat – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolar yechimini topish, ulkan mas'uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritish muayyan davlat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismi"[6], - degan ta'rifida milliylik va umuminsoniylikning maqsadlari umumiyligini ta'minlaydigan obyektiv shart-sharoitlar, subyektiv omillar kompleksi e'tibordan chetda qolgan.

Bundan tashqari, "muayyan davlat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi" degan xulosasi dunyo miqyosida ekologik munosabatlarning globallashuvini bildirishi hammaga ayon bo'lsada, muallif bu holatni ilmiy ta'rif mazmuniga singdirishga ehtiyoj sezmagan. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib aytganda, shaxs ekologik dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini puxta ilmiy asosga qo'yish talab etiladi.

Chunki shaxs ekologik dunyoqarashini takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy hamda ilmiy-uslubiy qarashlarni tizimlashtirish asosida kishilar ekologik dunyoqarashini boyitishga xizmat qiluvchi individual va ijtimoiy omillarni tarkib toptirish mumkin. Shuning uchun dunyo miqyosida kuchayib borayotgan globallashuv, xususan Markaziy Osiyoda keskinlashib borayotgan ekologik vaziyat mazkur

masalaga chuqur falsafiy mushohada asosida yondashishni dolzarb masala qilib qo‘ymoqda.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida global muammolarning yuzaga kelishi hamda keskinlashuvi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, "ekologik dunyoqarash qashshoqligi" tufayli sodir bo‘layotgani hech kimga sir emas. Xususan, “Ekologik inqirozga olib kelgan asosiy sabab – ekologik tizimda modda va quvvat almashishining tabiiy maromi buzilganligidadir. Buni soddaroq qilib aytganda, tabiatdagi ketma-ketlik zanjirining inson tomonidan buzilishi, deb ifodalash ham mumkin”[7].

O‘z navbatida, aynan shu sababga ko‘ra: tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, inson salomatligiga oid muammolar ko‘plab xalqlar, millatlar, mintaqalarda yashayotgan aholi hayotiga dahshatli ofat sifatida tahdid solmoqda. Bunday antropotexnogen ofatlar natijasida har yili yuz minglab kishilar qurbon bo‘lmoqda[8].

Ming afsuski, inson yuksak aql-zakovat egasi bo‘lishiga, noosfera shakllanishiga qaramay, bunday inqirozli global ekologik vaziyat yuzaga kelishida asosiy rol o‘ynamoqda. “Tabiat-jamiyat” tizimidagi o‘zgarishda ikki qonuniyatni kuzatish mumkin, ya’ni: 1. Jamiyatning tabiatga antropotexnogen ta’sir bosimi borgan sari oshib bormoqda. 2. Jamiyatning sun’iy tabiiy muhitga qaramligi kuchayish tendensiyasi jadallashmoqda. Bunda birinchi qonuniyat, ikkinchi qonuniyatni keltirib chiqarmoqda[9].

Shuning uchun ham, 2000 yilda BMT da 189 davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan “Ming yillik Sammitida” XXI asr boshida insoniyat taraqqiyoti oldida turgan eng muhim vazifalar belgilab olindi va u sakkizta asosiy yo‘nalishlarga ajratilib, yaqin kelajakda bajarilishi belgilab olingan vazifalarning to‘rttasi bevosita ekologik muammolarga daxldordir. Bular: 1) bolalar o‘limini kamaytirish; 2) onalar salomatligini yaxshilash; 3) OITS va boshqa o‘ta xavfli kasalliklarga qarshi kurash; 4) ekologik barqarorlikni ta’minlash vazifalari dunyo aholisining kelajagini belgilashda o‘ta muhim ahamiyatga molikligi ta’kidlangan[10]. .

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g‘oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini ochiq aytish mumkin. Vaziyatni murakkabligi shundaki, u bir necha o‘n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xavf ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo‘pol va takabburlarcha munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. “Inson – tabiatning xo‘jayini”, degan soxta sotsialistik mafkuraviy da’vo, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojeaga aylandi. Ularning qirilib ketishi, genofondning yo‘q bo‘lib ketishi yoqasiga keltirib qo‘ydi”[10].

Umuman olganda, ekologik dunyoqarash qashshoqligi, ojizligi va noshudligi natijasida planetamizda xo‘jalik sohasidagi ekstensiv faoliyat quruqlikning 7% maydonini cho‘lga aylantirdi, ishlab chiqarishning energetik hajmi kun sayin kamayib ketishiga olib keldi, mahsulot ishlab chiqarish sarflanadigan energiyaning miqdori 10 yil ichida 4 barobar oshdi. Masalan, dunyoning eng rivojlangan mamlakati AQSH da 1 litr sut ishlab chiqarish uchun 0,5 litr yoqilg‘i sarflanishi fikrimizga dalildir[11].

Bunday holat, insonning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirish texnologik jarayonlaridan faqatgina xo‘jasizlarcha foydalanish natijasi emas, balki ekologik dunyoqarashi sayozligiga borib taqaladi. Ularning milliy darajalarda turlicha namoyon bo‘lishi ekologik dunyoqarashning notekis – diskret va fragmentar rivojlanishini ko‘rsatadi.

Ekologik vaziyatni nafaqat muayyan hududda, balki umumbashariy makonda keskinlashib borayotganligini faylasuf V.Alimasov quyidagi dalillar bilan sharhlaydi. “Bugun insoniyat 13 mingdan ziyod global inqirozga ro‘baro‘ turibdi. Agar jahon hamjamiyati ushbu inqirozlarni bartaraf etish uchun har biriga o‘n yildan vaqt sarflasa ulardan xalos bo‘lish uchun bir yuz o‘ttiz ming yil zarur bo‘lar ekan. Insoniyatning o‘zi sivilizatsiyaga qadam qo‘yganiga hali 6 ming yildan oshmadi”[12].

Bu ma’lumotlar ham bugungi ekologik dunyoqarashning rivojlanish darajasini ko‘rsatmoqda. Uning natijasida vujudga kelgan ekologik vaziyat nafaqat insonlar salomatligiga, balki ularning genofondi o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu o‘rinda Orol fojeasi haqida yurtboshimiz BMTning sobiq bosh kotibi Pan Gi Munning fikrlarini eslab: “Bunday ayanchli manzarani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ishoninglar janob Bosh kotibning ko‘zidan yosh chiqib ketdi. **“Men dunyodagi halokat sodir bo‘lgan juda ko‘p joylarni o‘z ko‘zim bilan borib ko‘rganman, - dedi o‘shanda. – Lekin bunday og‘ir ekologik holatni umrimda birinchi marta ko‘rib turibman. Shunday keskin vaziyatga qaramasdan, shu yerda yashab mehnat qilayotgan odamlarga, ularning sabr-bardoshiga qoyil qoldim”**, deb aytganini men shaxsan o‘zim eshitganman[13], degan so‘zlari har qanday kishining e’tiborini o‘ziga tortmay qolmaydi.

Malumotlarga ko‘ra, Orol dengizi tubidan taxminan 11 mlrd tonnadan ziyod natriy, magniy, kalsiy va boshqa tirik organizmlarga hayotiga jiddiy xavf soladigan tuzlar va boshqa kimyoviy moddalar birikmalari shamol bilan tepaga ko‘tarilib uzoq hududlarga yoyilib ketgan[14]. O‘zbekiston Respubikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Hozirgi vaqtda Orol fojeasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo‘ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko‘tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda”[15].

Bugungi kunda ijtimoiy sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar mamlakatda ekologik musaffo, istiqbolli va yuqori intellektual salohiyatga ega jamiyatning mustahkam iqtisodiy poydevorini yaratishning muhim yo‘nalishidir. Shu sababli fuqarolik jamiyati va uning institutlari tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishga doir bilim va madaniyatni oshirish tadbirlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu vazifalarning samarali yechimi har bir shaxsda boy ekologik dunyoqarashni shakllantirish, bu sohada aholi faolligi hamda mas’uliyatini, huquqiy bilimi, madaniyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq. Zero, bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, hozirgi va kelgusi avlod turmush darajasi va sifatini belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, mazkur muammolar yechimi – planetar biosfera ekologik muvozanatni saqlashga asos –global ong shakllanishi bilan bog‘liq. Global ongning eng muhim xususiyati esa: milliy, mintaqaviy manfaatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini saqlashni taqozo qiladi1. Shu bilan birga, umumbashariy ma’noda ham, mintaqaviy ma’noda ham har bir xususida istiqomat

qilayotgan kishilarning ekologik bilimi, dunyoqarashi va madaniyatini uzluksiz boyitib borish zarur. Taassufki, bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar yetarli samara berganicha yo‘q.

Ekologik jarayonlarning globallashuv tendensiyasi uni shaxs va millat ma'naviy hayoti, yashash tarzi, oilaviy muhitdagi o‘rni masalalari o‘rganilib, xalqaro miqyosda ekologik siyosatning globallashuvi va chuqurlashuvi har bir davlat, mintaqa milliy taraqqiyoti xususiyatlariga differensial yondashgan holda ekologik faoliyatini muvofiqlashtirishni ham taqozo qiladi.

Ekologik munosabatlarning globallashuvi tendensiyasi, nafaqat muayyan davlat yoki mintaqa aholisi turmush tarzi, dunyoqarashi, ekologik bilim saviyasi, huquqiy madaniyatida, balki umumbashariy miqyosdagi tafakkur tarzida tub sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni talab etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida ko‘rsatilgan muammolar yechimini topish uchun vaqt nihoyatda qisqa. Ayni paytda, tabiatga insonning antropotexnogen global ta'siri g‘oyat shiddat bilan davom etmoqda. Bu butun yer kurrasida ahamiyatga molik nihoyatda buyuk va bir vaqtning o‘zida muammoni yechimini topmoq uchun yuksak aql-tafakkurga ega bo‘lgan kishilar, intellektual salohiyat va juda katta iqtisodiy mablag‘, texnik-texnologik asos talab qiladi.

Xulosa va takliflar.

birinchidan, ekologik dunyoqarash milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tabiiy atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash maqsadlarini amalga oshirishda subyektiv asos vazifasini bajaradi va u ekologik vaziyatga mos ravishda o‘zgarib boradi;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy ekologik dunyoqarash integratsiyalashuvi, bir tomondan, ularning globallashuviga olib keladi, ikkinchi tomondan, bu jarayonda ularning o‘zaro ta'sirda rivojlanishi dialektik xarakteriga ega bo‘ladi;

uchinchidan, ekologik muammolar globallashuvi va keskinlashuvi jarayonida milliy va umuminsoniy ekologik qadriyatlar identifikatsiyalashib va differensiallashib boradi va o‘z ta'sir yo‘nalishlarini tarix taqozosiga ko‘ra konkretlashtiradi;

to‘rtinchidan, ekologik milliy va umuminsoniy qadriyatlarning obyekti bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy muhitning o‘zaro mutanosibligini ta'minlashda umumnazariy va amaliy asoslarini yaratish va xalqaro me'yorlarni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ашрапов М. Экологик дунёқараш. // “Ўзбекистон экология хабарномаси” 2005, №3, (54), 29-б.
2. Худойназаров С.Х. Шахс экологик онги ва маданиятини шакллантиришда бадиий адабиётнинг роли. Фалс. фан. номзоди илмий даражаси олиш учун дис. - Тошкент.: 2010, 68-б.
3. Юнусов К. Экологик маданиятнинг юксалишида нодавлат ташкилотларнинг иштироки. Миллий ғоя-юксак маънавиятли шахс камолотининг негизи. Миллий ғоя - илмий тадқиқотларнинг назарий-методологик асоси. Учинчи китоб.- Андижон.: 2010, 155-б.
4. Исмоилова Д. Табиат ва жамият ўртасидаги ўзаро таьсирларн оптималлаштириш муаммолари.// Экология хабарномаси. 2014. №4.(156). 10- б.

5. Доклад по целям развития тысячелетия. –Ташкент.: Ўзбекистон, 2006. 37- С.
6. Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6. Т., -Тошкент.: Ўзбекистон, 1998 111-б.
7. Мустафоев С., Ўроқов С., Сувонов Р. Умумий экология. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти.-Тошкент.: 2006, 14-б.
8. Алимасов В. Конфуцийлик ва Шарқ давлатчилиги. – Тошкент.: 2006, 17-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. 212- б.
10. Абдувоитов Ж. Экология хабарномаси // 2016. №9 (185), 9- б.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси / Халқ сўзи. 2018- йил 29- декабрь

MARKAZIY OSIYO XONLIKLARIDA HARBIYLAR IYERARXIYASI: ILMIY QIYOSIY TAHLIL

To'lqin Xudoyqulov Do'stboboyevich - Shahrisabz davlat pedagogika instituti, tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek xonliklaridagi harbiy boshqaruv va harbiylarning iyerarxiyasi xususidagi ma'lumotlar ilmiy-qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, ashtarxoniylar davlat boshqaruvidagi harbiy tizim shu jumladan harbiylar iyerarxiyasini shayboniylar davri harbiy tizimini o'zida mujassam etishi, lekin mamlakatning harbiy holati ashtarxoniylar davriga kelib kuchsizlanib qolganligi, Buxoro amirligi boshqaruvidagi unvon va mansablariga tavsif berilib, ularni harbiy unvon va mansablar bilan ma'muriy boshqaruv mansablarining ko'pgina hollarda qo'shilib ketganligi ayrim manbalardagi ma'lumotlar bilan tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbek xonliklaridan biri Xiva xonligi davlat boshqaruvida ham harbiy mansabdorlarning roli muhim bo'lganligi, Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan harbiy mansablar va ular egalari vazifalari bo'yicha ayrim ma'lumotlar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar. *saroy sarbozlari, harbiy mansab va unvonlar, ko'kaldosh, parvonachi, mushrif, shig'ovul, dorug'a, sohib ixtiyor, miroxur, mahram, bakovul, xon yasovuli, qushbegi, munshi, harbiy unvon va martabalardan qo'shbegi, chuhraboshi, no'yon, tug'begi, qurchi, to'pchiboshi, shayx ul-islom, Buxoro amirligi, chehraog'asi, jibachi, mirzaboshi, qorovulbegi, miroxur.*

ВОЕННАЯ ИЕРАРХИЯ В ЦЕНТРАЛЬНО АЗИАТСКИХ ХАНСТВАХ: НАУЧНЫЙ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Тулкин Худойкулов Дустбобевич - Шахрисабзский государственный педагогический институт доктор исторических наук, профессор

Аннотация. *В данной статье научно и сравнительно анализируются сведения о военном управлении и военной иерархии в Узбекском ханстве. В частности, военная система Аштарханидском государственном управлении, включая военную иерархию, воплощает военную систему эпохи Шейбанидов,*

однако военное положение страны, ослабленное к периоду Аштарханидов, описаны титулы и должности при управлении Бухарского эмирата причем во многих случаях они сочетаются с воинскими званиями и должностями и административно-управленческими должностями. анализируется с использованием информации из некоторых источников. Также важна роль военных чиновников в государственном управлении Хивинского ханства, одного из Узбекских ханств, представлены некоторые сведения о военных должностях и обязанностях их владельцев в Коканском ханстве.

Ключевые слова. *дворцовые воины, воинские звания и звания, кокалдош, парваначи, муширф, шигавул, даруга, сахиб ихтияр, мирохур, махрам, баковул, хан ясавули, кушбеги, мунши, воинские звания и звания кошбеги, чухрабоши, нойон, тугбеги, курчи, топчибоши, Шейх уль-Ислам, Бухарский эмират, чехраогаси, джибачи, мирзабоши, гаровулбеги, мирохур.*

MILITARY HIERARCHY IN THE CENTRAL ASIAN KHANATES: SCIENTIFIC COMPARATIVE ANALYSIS

Tulkin D. Khudoykulov - Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Doctor of Historical Sciences, Professor

Abstract. *In this article, the information about the military administration and the hierarchy of the military in the Uzbek khanate is scientifically and comparatively analyzed. In particular, the military system under the Ashtarkhanid state administration, including the military hierarchy, embodies the military system of the Shaybanid era, but the country's military situation weakened by the Ashtarkhanid period, the titles and positions under the administration of the Bukhara Emirate are described, and they are combined with military titles and positions and administrative management positions in many cases. departure is analyzed with information from some sources. Also, the role of military officials was important in the state administration of Khiva Khanate, one of the Uzbek khanates, some information on the military positions and duties of their holders in the Kokan Khanate is presented.*

Keywords. *palace soldiers, military rank and titles, kokaldosh, parvanachi, mushrif, shigavul, daruga, sahib ikhtiyar, mirokhur, mahram, bakovul, khan yasavuli, qushbegi, munshi, military titles and ranks koshbegi, chukhraboshi, noyon, tugbegi, kurchi, topchiboshi, Shaykh ul-Islam, Emirate of Bukhara, chehraogasi, jibachi, mirzaboshi, garovulbegi, mirokhur.*

Dolzarbligi. Globallashuv jarayonlari tobora kengayib borayotgan xalqaro maydonda turli xalqlarning qadimgi tarixi, xususan, urbanizatsiya jarayonlari, davlatchiligi hamda davlat boshqaruvi, boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy-madaniy meros va sivilizatsiya taraqqiyotining hududlarga xos jihatlari yanada chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda davlat boshqaruvi, so‘nggi o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, madaniyat, boshqaruv

usullari, urbanizatsiya kabi masalalarning tadqiq etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tarixshunosligida ma'lum mintaqalar davlatchiligidagi markaziy boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi, mahalliy-ma'muriy boshqaruvdagi quyi va yuqori idoralar, davlat boshqaruvidagi harbiy unvon va mansablar, diniy tashkilotlar boshqaruvi kabi masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekistonning xalqaro aloqalari geografiyasining kengayishi tufayli Rossiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH va bir qancha Yevropa mamlakatlarining yetakchi mutaxassis olimlari tomonidan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi davlat boshqaruvini mavjud ilmiy qarashlar, manbalar ma'lumotlar, asosiy yondoshuvlar dinamikasi, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish holatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhimdir. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning tarixidagi boy madaniyat va bunyodkorlik an'analarini o'rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega"[15]. Shuning uchun XXI asr boshlariga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston tarixini, xususan o'zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo xonliklari davlat boshqaruvi tarixini tarixshunoslik nuqtai-nazaridan davrlashtirishning quyidagicha an'anasini tarixchi olimlar tadqiqotlarida asosiy qilib olinganligini deyarli barcha tadqiqotlarda kuzatish mumkin, unga ko'ra:

Ulardan birinchi guruhga Rossiya imperiyasi hukmronligi (XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha) davrida yozilgan asarlar, ikkinchi guruhga sovet davri tarixshunosligi (1917-1991 yy), uchinchi guruhga mustaqillik (1991-yil 31 avgustdan bugungi kunlargacha) davrida yozilgan asarlar va to'rtinchi guruhga xorij olimlari qalamiga mansub adabiyotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yozilgan asarlar ya'ni, XIX asrning 30-yillaridan – XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Xususan, rus tilida yozilgan F.Nazarov, G.Potanin, N.Seversov, YE.Veselovskiy, M.Venyukov, A.Semenov, A.Z. Validiy (To'g'on), Ch.Valixonov, V.Velyaminov-Zernov, A.Geyns, V.Grigoryev, M.Galkin, A.Zimin, A.Maksheyev, N.Malitskiy, A.Midendorf, V.Nalivkin, N.Pavlov, N.Petrovskiy, N.Pantusov, M.Terentyev va boshqalarning ishlarida xonliklarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti va uning xalqaro aloqalari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Sovet davri (1917-1991 yy) tarixshunosligini tashkil etuvchi ikkinchi davrda tarix fani va tarixiy tadqiqotlar xususiyatlariga asoslanib uni uch qismga bo'lish ham mumkin. Sovet davri tarixshunosligining birinchi qismi Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan XX asrning 50-yillari o'rtalarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold, I.P.Petrushevskiy, M.S.Ivanov, Y.G'.G'ulomov, P.P.Ivanov, M.R. Arunova va K.Z.Ashrafyan, K.M.Munirov, O.E.Efendiyev, G.A.Agzamova, A.F.Fayziyev, A.F.Kalujin, A.Baymurzin,

G.A.Plyashko, A.Popov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda va tarix kitoblarida o‘zbek xonliklarining tarixi va podsho Rossiyasi tomonidan uning mustamlakaga aylantirilishi masalalari qisman avvalgi davr tadqiqotlari an'analarini davom ettirgan holda, ya'ni voqealarni manbalar va arxiv hujjatlari asosida deyarli obyektiv ravishda yoritishga harakat qilganlar.

Uchinchi davr O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari tarixshunosligi (1991-yil 31 avgust – bugungi kunlargacha) tashkil etadi. Bu davrda amalga oshirilgan va bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘zining xolisligi, tarixiyligi, ilmiyligi va masalaga obyektiv yondashuvi jihatlari bilan xususiyatlanadi. Mustaqillik sharoitida o‘zbek tarixchilari chorizm va sho‘rolar davridagi tushuncha va tasavvurlarni qayta tahlil etib chiqdilar. O‘zbekiston istiqloli ta'minlangan bir davrda Respublika xalqlari tarixini yoritishdagi ayrim xato va kamchiliklarni tugatishga imkoniyat yaratildi. Xiva xonligi tarixi va madaniyatiga doir dissertatsiyalar va boshqa tadqiqotlar amalga oshirildi. Bulardan M.Matniyozov, M.Matkarimov, A.Abdurasulov, M.Abdurahmonov, E.Axundjonov, M.Ismailova, G.Ismoilova, M.Madaminov, M.Mamajonov, O.Masaliyeva, O.Mutalov, S.Saburova, N.Polvonov, M.Qayumov, K.Xudoyberganov, F.Ernazarov, U. Sheripov, S. Matkarimovalarning dissertatsiya ishlari va chop etilgan maqolalarini tilga olish mumkin.

Metodlari. Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma - ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda xonliklarda davlat boshqaruvida harbiylarning o‘rni, harbiylar iyerarxiyasi haqida ayrim ma'lumotlar berib o‘tiladi. Jumladan, o‘zbek xonilklaridan ashtarxoniylar davlat boshqaruvidagi harbiy tizim (jumladan harbiylar iyerarxiyasi) shayboniylar davri harbiy tizimini o‘zida mujassam etadi. Lekin mamlakatning harbiy holati ashtarxoniylar davriga kelib kuchsizlanib qolgan. Xususan, davlatning muntazam qo‘shini bo‘lmagan. Faqatgina saroy sarbozlarigina bo‘lganki, ular xonni turli xalq qo‘zg‘olonlaridan saroy va uning ahlini himoya qilgan. Zarurat tug‘ilib qolganda qo‘shin aholi tarkibidan yig‘ma shakllantirilgan. Lekin shayboniylar davlati kabi harbiy mansab va unvonlar saqlanib qolganki ular nufuzi jihatidan saroy amldonrlariga tenglashtirilgan. Harbiy amaldorlarning asosiy daromadi xon tomonidan in'om etilgan yer-mulklar hamda ularning o‘zlari sotib olgan yerlar hisobidan shakllangan. Shuningdek ashtarxoniylar davrida ham ma'muriy-harbiy unvonlardan naqib, ko‘kaldosh, parvonachi, mushrif, shig‘ovul, dorug‘a, sohib ixtiyor, miroxur, mahram, bakovul, xon yasovuli, qushbegi, munshi, harbiy unvon va martabalardan qo‘shbegi, chuhraboshi, no‘yon, tug‘begi, qurchi, to‘pchiboshi, qorovulbegi, yasovul, tavochi, jevachi (jibachi), mingboshi, yuzboshi, qozi askar, qozi mufti kabi mansablar manbalarda eslab o‘tiladi [3]. Xuddi shunday holatlar o‘zbek xonliklarida Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi mavjud sulolalar davrida ham kuzatilishini qiyosiy tahlil qilish mumkin.

Tadqiqot natijalari. Davlatchilik tarixi nuqtai nazaridan harbiy ish davlatning ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Markaziy Osiyo tarixida harbiy soha doim hukmdorlar diqqat markazida bo‘lgan. Ular o‘zlarining ichki va tashqi siyosatlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan harbiy kuchlarga tayanib ish ko‘rganlar. Asrlar davomida bu kuchlarni boshqarishning muayyan tizimi, uning turli bo‘g‘inlari

shakllanib borgan. Ularga mos ravishda davlat harbiy qudratini saqlash uchun ma'sul etilgan shaxslarga beriladigan mansablar ko'lami ham aniqlanib borgan. Asrlar davomida shakllangan bu tizim o'zining asosiy xususiyatlarini XVIII-XX asr birinchi yarmida ham saqlab qolgan.

Naqiblar sayyidzodalardan bo'lib, ular xonga yaqin, rasmiy majlis, tadbirlarda xonning chap tomonidan joy egallagan hamda oliy hukmdorga maslahatchi, harbiy yurishlarni tashkil qiluvchi, reja va sulh tuzuvchi, xonga o'z so'zini o'tkazuvchi unvon sohibi bo'lishgan. XVI asr oxiridan naqibning o'rnini shayx ul-islom egallaydi va otaliq shahzodalar uchun mas'ul shaxs bo'lib, ko'kaldosh naqibdan keyingi lavozim sanaladi. Ashtarxoniylar davrida muhim harbiy mansablar va ularning iyerarxiyasi ketma -ketligi quyidagicha tavsiflanadi:

Yasovul - xon va shahzodalarning munosabatlari uchun javobgar bo'lgan. Eshikog'aboshi - xavfsizlik masalalari va ichki tartib zimmasida bo'lgan. Qushbegi - xonning shikorini tashkil qilgan.

Parvonachi - farmon, yorliq va boshqa rasmiy hujjatlarni yetkazish hamda bojxona ishlariga mas'ul bo'lgan.

Mushrif - xon tomonidan taniqli shaxslar hamda harbiy sarkardalarga beriladigan sovg'asalomlarning hisob-kitobini yuritgan[5].

Qozi askar - qo'shinda harbiy qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilgan [7].

Ko'p hollarda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, harbiy sohada ham amal va mansablarga tayinlashda asosiy e'tibor shaxsning nasl-nasabi va ijtimoiy kelib chiqishiga qaratilgan.

Buxoro amirligi boshqaruvidagi unvon va mansablariga tavsif berib o'tadigan bo'lsak, ularni to'la holda keltirishdan maqsad harbiy unvon va mansablar bilan ma'muriy boshqaruv mansablarining ko'pgina hollarda qo'shilib ketganligini ko'ramiz.

Harbiy unvonlarni quyidan yuqoriga sanab o'tadigan bo'lsak bu hol quyidagicha ko'rinish oladi: 1.Chehraog'asi. 2.Jibachi. 3.Mirzaboshi. 4.Qorovulbegi. 5.Miroxur. 6.To'qsabo. 7.Eshikog'aboshi. 8.Biy. 9.Dodxoh. 10.Inoq. 11.Parvonachi. 12.Qo'shbegi. 13.Otaliq[10].

Amir Olimxon davriga kelib, Buxoro armiyasi boshida to'pchiboshi turib u asosan dodxoh darajasidagi mansabdorlardan tayinlangan. To'pchiboshi konselyariyasi 10 kishidan iborat mirzaboshi, biy amalidagi yasovulboshi, turli xil unvondagi yasovullar, qurol – yarog' ombori uchun mas'ul shaxslar va bir necha shaxsiy xizmatkorlardan iborat bo'lgan.

To'pchiboshi amali 2 xil bo'lib birinchisi - "To'pchiboshi askar" ikkinchisi - "To'pchiboshii darvoza" (ark to'pchiboshisi), ya'ni ark ichidagi xavfsizlikka javobgar shaxsdir[2].

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib "dasta" deb nom olgan yuzlik yuz nafar harbiy xizmatda bo'lgan. XIX asrning II yarmidan boshlab esa yuza 200 nafar askardan iboratligini ham ko'ramiz. "Sadboshi" ya'ni, yuzboshi, 50 nafardan iborat "nimdasta" deb nomlangan harbiy bo'linma boshlig'i panjohboshi ya'ni ellikboshi, 25 kishilik (vzvod) "rasad" deb nomlangan, 12-13 kishilik (ba'zan 10 kishilik) bo'linma boshlig'i

dahboshi (o‘nboshi) deya yuritilib kelingan. Yuzboshi mansabidan so‘ng uni yordamchisi sifatida qorovulbegi amalidagi harbiy turgan [15].

Markaziy Osiyo xonliklarida davlat boshqaruv organlari va ularning tuzilishi, funksiyalari yaxshi o‘rganilmaganligi uchun mansabdor shaxslarning nomlarini bildiruvchi atamalar tarixchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda. Masalan: - Dodxoh “sudya”ni, “Otaliq” - Buxoroda mansab jihatdan amirdan ikkinchi shaxs va “shahar hokimi” sifatida aytilgani noto‘g‘ri. Markaziy Osiyoda hech qachon shahar hokimi “otaliq” deb atalmagan. “Inoq” esa o‘zbek qabilasining boshlig‘ining nomi bo‘lmagan [13].

Buxoro amirligida oliy harbiy unvon, qo‘shbegidan keyingi o‘rinda turuvchi shaxs, keyinchalik devonbegidan so‘ng otaliq; Xiva xonligida-katta inoq G‘arbiy Yevropadagi mayor unvoniga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyoda o‘zbek qabilalarining boshliqlari inoq deb atalmagan.

Dodxoh - amirlikda xalq dardi, fikrini eshitib, amirga xabar beruvchi mansab egasi.

Inoq - ushbu mansab egasi Katta inoq, Kichik inoq ya’ni 2 darajada bo‘lib, Katta inoq umaro, shogirdpeshalar va boshqalarga amir suhbatiga musharraf bo‘lgan yoki bo‘lmaganlari haqida xabar berar edi.

Parvonachi (fors. Kapalak degani)- Amir farmoniga binoan uning yorliqlarini umaro va zodagonlarga (kapalakdek borib kelib)yetkazar edi. Arabxona jamoasining rahbarligi ham uning zimmasida edi.

Qo‘shbegi - Buxoro vazirlarining eng ulug‘i hisoblangan. Qo‘shbegi bu qo‘sh, harbiy stavka, lagerning qo‘mondani.

Yuqorida bayon etilganlardan tashqari oraliq va quyi harbiy amal, unvon va mansabdor mavjud edi.

Tunqator (turk) -Mirzaboshi va jibachi oralig‘idagi harbiy mansab egasi hisoblanib, saroyda darvoza oldida turadigan qorovullar va maxsus darvozabonlardan tashqari xonni qo‘riqlaydigan tunqatorlar yoki tunotarlar, ya’ni kechasi bilan uxlamay chiqadigan kishilar bo‘lgan. Harbiy yurishlar vaqtida amirdan tashqari katta mansab egalarining tunqatorlari bo‘lgan. Tunqator Qo‘qon xonligida 6-darajadagi harbiy mansabdor hisoblangan.

Qurchi (turk.fors.)-Chehraog‘asi darajasidagi amal egasi hisoblanib, qurol aslaha, o‘q dori uchun javobgar shaxs hisoblangan.

Udaychi-urush va yurishlar vaqtida navkarlarni saf tortishini tartibga solar, naqib maslahati bilan saroyni mulozim hamda xizmatkorlar bilan ta’minlar edi.

“Majma’ al arqom” ma’lumotlariga qaraganda eng oliy diniy mansab qozilar amali bo‘lgan. Ulardan oliy darajada shayx ul-islom unvoni, qozi ul-quzot, uchinchi qozi askar va to‘rtinchisi viloyat qozisi hisoblangan. Bizga tegishli bo‘lgan uchinchi darajali qozi askar asosan harbiy kishilar ustidan hukm chiqarish, sud qilish ishlarini bajargan, Buxoro shahridagi Mir arab madrasasida qozi askar lavozimi uchun o‘qitilgan, biroq qozi askar, muftiy askarlarning o‘qitilishi bilan qolgan kasb uchun o‘qitiladigan dars mashg‘ulotlari bir xilda olib borilgan. Shuning uchun ularni harbiy soha mutaxassislari deya olmaymiz, qolaversa, barcha tolibi ilmlar singari ular ham

shariat ilmlari asosida o‘qitilib, bu eskirgan o‘qitishlar uslubidan yangicha dunyoviy fan, texnika va hokazolarning bo‘lishi kuzatilmas holda edi.

Shu martabaning ikkinchi pog‘onasida muftiylar turgan. Uning yuqori darajasi a’lam unvoni bo‘lib, sohibi yurishi va lashkar tortishlar vaqtida fatvo berar edi. 1842-yil amir Nasrulloxon (1826-1860) a’lam va mufti askar fatvolarini olib Qo‘qon xonligiga qarshi yurish qilgan [1] qozi askar va muftiy askar u yoki bu viloyatga borganda shu viloyatdagi bu kasb egalari vakolati hech qanday ko‘rsatmasiz tugaydi, chunki bu qonunda ko‘rsatilgan [13]. Buxoro amirligidagi harbiy unvon va mansab egalari nomlanishida, xizmat vazifalarida va boshqa ko‘plab jihatlari o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa xonliklarnikidan farq qilgan[18]. Xususan, bu hol Qo‘qon xonligi bilan taqqoslanganda quyidagicha ko‘rinish olgan (unvon va mansablar yuqoridan quyi tomon tavsiflab o‘tiladi).

Xiva xonligi qo‘shinlarida, navkarlarning maxsus harbiycha kiyimlari, davlat mukofot nishonlari va medallari bo‘lmagan. Xizmat ko‘rsatgan harbiylar va amaldorlar pul, yer-suv, mol yoki qimmatbaho buyumlar bilan mukofotlanar edilar. Turli-tuman choponlar kiygizish juda keng tus olgan edi. Ayrim hollarda esa pichoq, qilich va qurol in’om qilinardi.

Xonlikda oliy harbiy hokimiyat xon qo‘lida edi. Xon qo‘shinga yo bevosita o‘zi yoki amiral-umaro orqali farmon berardi. Har bir mulkdor yoki amaldor, hatto harbiy lavozim egasi bo‘lmasa ham, sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. Buning sababi ravshan, chunki Xiva sharoitida, haqiqatda, har bir mulkdor “harbiy kishi” edi.

Amir al-umaro (arabcha) - Naqibdan keyin amir al-umaro keladi. Amir al-umaro - eng faxriy unvon. Amirlarning amiri, oliy amir, degan ma’noni anglatgan. Oltin O‘rda, Chig‘atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo‘lgan. Bundan tashqari, amir al-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo‘ysungan. Amir Temur va temuriylar davrida amir al-umaro faqat oliy bosh qo‘mondonlik, ayrim hollarda hukmdorning hudaychisi bo‘lgan.

Muhammadamin inoq hukmdorlik qilgan zamonda akasi Fozil biy amir al-umaro edi. O‘shandan keyin amir al-umaro unvoni hech kimga berilmagan.

Yasovulboshi (mo‘g‘ulcha, turkcha) – yasovullar boshlig‘i. Amir al-umarodan keyingi rasmiy yuqori sarkarda yasovulboshilik mansabi edi. Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq qo‘shinni vaqtida urushga boshlab borishdir. Tinchlik vaqtida yasovulboshilar navbat bilan xonlarning turli marosimlarida hozir bo‘lishga majbur edi. Xonlikda ular ikki kishi bo‘lib, biri yovmud turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdirlarga qo‘mondonlik qilardi. “Xonlikda yasovulboshida uning unvonini ko‘rsatadigan kumush qalpoqlik aso (hassa) bo‘lardi, hozir esa kamariga pichoq taqadi”.

Yasovul (mo‘g‘ulcha, turkcha) – yasovulboshining yordamchilari. Yasovul o‘rta asrlarda Mo‘g‘uliston, Markaziy Osiyoda podshoh yoki xon saroyi uzangisidagi kichik mansabdor. Oliy hukmdorning amru farmoyishlarini bajaruvchi shaxsiy xizmatkori.

Mingboshi (turkcha) – harbiy va ma’muriy unvon. Yasovulboshilardan keyin mingboshilar keladi. Xiva xonligida mingboshilik eng kichik amal hisoblangan. Qo‘qon xonligida esa xondan keyingi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan

shug‘ullangan. Saroy xarajatlari yozilgan ma’lumotdan ko‘rinishicha, mingboshilar yaxshigina in’omlar olganlar.

Qo‘qon davlatining asoschilari ming qabilasining peshvolari bo‘lib, ular dastlab o‘z nomlariga “biy” unvonini qo‘shgan bo‘lsalar, keyinchalik Olimxon o‘zini “xon” deb e’lon qildi. Umarxon esa 1818-yili amir (al-mo‘minin), oliy ham ma’muriy va diniy unvonini oldi. Uning o‘limidan so‘ng (1822 y.) “xon” unvoni qayta tiklandi.

Xon o‘zining saroyi (O‘rda[1])ga ega bo‘lib xonlik hududida shunday unvon va mansablarni, vazifa va martabalarni joriy etdi. Harbiy unvonlarning oliy martabasi: mingboshi, botir (bahodir)boshi, qo‘shbegi, ponsodboshi. O‘rta martabali mansablar: yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, qorovulbegi. Eng past harbiy unvonlar: sarboz, mergan, mahram, bahodir (botir), to‘pchi, zanbarchi, qo‘rchi, qorovul. Lashkarda yana oshpazlar, qassoblar, nog‘orachilar, karnaychi, surnaychi, dafchi, quvs, va duhulzan, tug‘chilar xizmat qilardilar.

Yurishlar va jihod paytlarida xalq o‘rtasidan “qora-kaltakchilar” (olamon) tuzib jangga olib borishardi. Harbiylarning ellikboshidan mingboshigacha xos mahramlari ham bor edi. Ponsodboshidan yuqoridagi hamma boshliqlar yana munshiy va mirzalarni o‘z xizmatlariga olardilar. Oliy va o‘rtacha harbiy unvonlar hamda mansablarga ming, qipchoq, qirg‘iz, tojiklarni tayinlardilar. Qo‘qon harbiy boshliqlaridan Musulmonqul mingboshi, Alimqul, Qanoatshoh, Shodmonxo‘ja qipchoq, Mirza Ahmad qo‘shbegi, O‘tanbiy qo‘shbegi, Gadoybiy, Mingboy ponsodlar mashhur edilar. Xonlikda XIX asrning 70-yillarida ba’zi mansabdorlarning xarajatlari davlat tomonidan quyidagicha aniqlangan edi. Sakkiz mingga yaqin bahodir-askarlar yilda har biri 20 botmondan g‘alla va 50 tanga, Chuhraog‘osilar (1000 kishi) 25 botmon g‘alla va 60 tanga pul olardilar. Otaliq 2000 botmon g‘alla va 2000 tanga yillik maosh olardi. Aleksandr Kun parvonachi, dodxoh, eshikog‘osi, qorovulbegi va boshqa unvonlar egalarining yillik harajatlari haqida ma’lumot bergan. Faqatgina harbiy amaldorlar uchun markaziy hukumat 1,5 million so‘mga yaqin mablag‘ harj qilar ekan[11].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlarining harbiy hokimiyatida harbiy unvon va mansablar, ular egalarining vazifasi (shuningdek iyerarxiyasi) masalasiga doir quyidagi fikrlarni taqdim etishimiz mumkin.

- Markaziy Osiyo xonliklaridagi hokimiyat tuzilishi, davlat boshqaruv tizimi xonliklarnig ayrim sulolalari davrida takomillashgan bo‘lsa ba’zida susayib ketgan. Jamiyatning barcha sohalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo‘ysundirilib, davlat boshqaruvi oliy hukmdorning cheklanmagan hukmronligi qo‘lida ostida mujassamlashdi.

Harbiy unvon va mansab egalari va ularning vazifalari, faoliyati ma’lum ma’noda XIX asr oxirlaridan boshlab zamonaviy tartibga o‘ta boshladi;

Biroq, yuqorida aytib o‘tilgan holatlar bir yoqlama amalga oshirilib masalaning salbiy tomonlari undanda ustunroq turardi.

1. Qo‘qon shahridagi Xudoyorxon o‘rdasi uning uchinchi xonlik davrida qo‘rilgan. Eski o‘rda 1870-yili bo‘zib tashlandi va u Sulton Sayyidxon o‘rdasi yoki Eski o‘rda nomi bilan ma’lum. Uning tashqi ko‘rinishini rus rassomi Vereshagin chizmasi orqali bilish mumkin (surat kitob muqovasida keltirilgan)

barcha sohalar singari harbiy sohada ham amal va mansablarga tayinlashda ko‘proq iqtidor va qobiliyatga qarab emas balki, nasl-nasabga, boyligiga, o‘rta asrchilik sarqitlari hisoblangan urug‘ aymoqchilik va mahalliychilik an'analariga e'tibor berilgan;

hatto, XIX asrning boshlarida o‘zbek xonliklarida birorta harbiy mutaxassislar tayyorlaydigan na boshlang‘ich, na o‘rta va na oliy ta'lim tizimi mavjud emas edi. Bu o‘rinda D.N.Logofetning miroxurni-kapitanga, to‘qsobani podpolkovnikka, dodxohni-general mayorga, inoqni-general leytenantga, tenglashtirishi ham achinarli hol edi. Faqatgina Mang‘itlar sulolasi tashkil topgan davrda (XVIII asr II yarmida) birgina artilleriya sohasida Rossiyada, Mixaylovskiyda, Peterburgdagi Konstantinovskiy nomli artilleriya bilim yurtlari, Moskvada artilleriya texnika maktabi, Mixaylovskiyda artilleriya akademiyasi, Ofitserlar oliy artileriya maktablari faoliyat ko‘rsata boshlaganiga ancha vaqt bo‘lgan edi;

Aksariyat harbiy amal egasi deb e'tirof etilgan kishilarni biz to‘la harbiy deya olmaymiz, ularni katta yer egasi, ham chorvador, ham bog‘bon, ham hunarmand va boshqa kasbdagilar sirasiga kiritish mumkin. Manbalarda o‘z qo‘li ostidagi sarbozlardan xo‘jalik ishlarida ayovsiz foydalanib kelgan harbiy amaldorlar xususidagi ko‘plab dalilalrga duch kelindi:

Umuman, Markaziy Osiyo davlatlarida harbiy amaldorlarning zeb-ziynati saxovati, hashamati yuqori bo‘lib, siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati, o‘quvi zamon talablaridan ancha orqada edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avaz Muhammad attor Xukandiy. “Tarixi jaxonnomaiy” qo‘lyozma 2 jild. O‘z Fa SHI № 9455, 249 varaq.
2. Андреев М.С, Чехович. Арк Бухары.с. 68.
3. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida unvon va mansablar //Sharq yulduzi. 1995. – №3, 4. – B.87,
4. Vohidov Sh.H. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidagi unvon va mansablar. – B. 7.
5. G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar. 862; Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. – B. 303.
6. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. – B. 32; Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. – T.: Sharq, 1998. – B. 154.
7. Иванин М.И. Сведения Хивинском ханстве //Манфактура и торговли. 1873. – №4. – С. 154.
8. Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. -СПб., 1874. – С. 24.
9. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. т. 1. с. 239.
10. НабиевР. Н. Из истории Кокандского ханства. (Феодальное хозяйство Худояр-хана). – С. 262.
11. Saburova S. XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tizimi. Tarix fan. nom. diss. – Toshkent., 2002. – B. 120 va keyingilari.
12. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителейих их в средне векавой Бухаре. с. 137.

13. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах изваниях и об объязанностях их носителей в средневуковой Бухаре. Советское востоковедение. Т. V. 1948. 140 стр.
14. Троицкая. А. Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX века. с. 213.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1-ilovasida keltirilgan. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
16. Mufassal qarang: Vohidov Sh., Xoliqova R. O‘rta Osiyo xonliklarida boshqaruv tarixidan, s.25 va keyingilari; Buxoro amirligidagi amal va unvonlarni Xiva mamlakatida joriy etilgan vazifa va unvonlar bilan solishtirish uchun qarang: Saburova S. Xiva xonligidagi davlat boshqaruvi. Tarix fan.nom.diss. T., 2001, 95-102-betlar. Ilovadagi “Xiva xonligidagi amal va unvonlar ro‘yxati”. Yana qarang.: Vohidov Sh. , Saburova S. Xiva xonligida amal va unvonlar va ularning vazifalari. // Uzbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998, 10, 11- son, 37-42- betlar.

XVIII-XIX ASRLARDA QO‘QON XONLIGINING TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARIDA UNVON VA MANSABLARNING AHAMIYATI

Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich
Tarix fanlari nomzodi (PhD), O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
Tel:+998944111104; e-mail: abduvali4111104@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Annotatsiya. *Ushbu maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda Qo‘qon xonligining davlat va mahalliy boshqaruvi haqida ma’lumotlar berilgan va keng tahlil qilingan. Jumladan, Qo‘qon xonligining davlat boshqaruvi tizimi haqida to‘xtab o‘tilgan. Xususan, muhim mansablarni egallagan amaldorlarni ikki toifaga bo‘linganligi, bular dunyoviy hamda diniy amallar egalari bo‘lib, dunyoviy ishlarga ma‘sul amaldorlar “umaro”, diniy vazifadagilar “ulamo” deb yuritilganligi eslab o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan Qo‘qon xonligining tarixiga oid turkum adabiyotlarda xonlikning XIX asrdagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy ahvoli, madaniy hayotining ayrim jihatlarini ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan tadqiq etayotgan olimlar haqida to‘xtab o‘tilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra Qo‘qon xonligi davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi haqida eng ishonchli manba bu saroy tarixchisi Muhammad Hakimxon To‘raga tegishli ekanligi, uning Muntaxab ut- tavorix asarida xonlik markaziy boshqaruvida beshta vazir bo‘lganligini, bu vazirlar XIX asrning o‘ninchi yillariga qadar xonlikning boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohatlarni amalga oshirishga ma‘sul bo‘lganligini, vazirlardan biri devonbegi edi deb qayd etilganligi eslab ketilgan. Yana shuningdek, bunday ma`lumot boshqa manbalarda uchramasligi, mazkur ma‘lumotdan davlatning markaziy boshqaruv tizimida beshta asosiy vazir*

bo'lganligi va ulardan biri devonbegi mansabini egallaganligi ma'lum sifatida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. *Qo'qon xonligi, saroy tarixchisi Muhammad Hakimxon To'raga, Muntaxab ut-tavorix, Amir ul-umaro, Amirlashkar, Mingboshi, Botirboshi, Qo'shbegi, Voli yoki voliy, Qal'abon yoki kutvol, Qo'rboshi, Yofar, To'pchiboshi, To'qsabo, Ponsadboshi, Yuzboshi, Panjohboshi, Dahboshi, Qorovulbegi.*

ЗНАЧЕНИЕ ТИТУЛА И ДОЛЖНОСТЕЙ ВО ВНЕШНИХ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ КОКАНСКИХ ХАНСТВА В XVIII-XIX ВВ.

Бердиев Абдували Абдуганиевич-Кандидат исторических наук (PhD),
Начальник учебно-методического отдела
Телефон: +998944111104; электронная почта: abduvali4111104@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Аннотация. *Данная статья публикуется на основе общепринятых исторических методов-историчности, сравнительно-логического анализа, последовательности, принципов беспристрастности, в которых даны и подробно проанализированы сведения о государственном и местном управлении Кокандского ханства. В частности, обсуждалась система государственного управления Кокандского ханства. В частности, упоминалось, что чиновники, занимающие важные посты, делятся на две категории: они являются хозяевами мирских и религиозных дел, причем чиновники, ответственные за мирские дела, называются «умаро», а те, кто имеет религиозные обязанности, называются «уламо». Также в серии литератур по истории Коканского ханства, созданной в период независимости Узбекистана, упоминается об учёных, исследующих некоторые стороны социально-политического и экономического положения и культурной жизни ханства в XIX веке с с точки зрения научной объективности и историчности. По результатам исследования наиболее достоверный источник по истории государственного и местного управления Коканского ханства принадлежит придворному историку Мухаммаду Хаким-хану Тора, в его труде «Мунтахаб ут-таварих» в центральном ханстве было пять министров. администрации ханства, эти министры были в конце XIX века.Помнится, что он работал в системе управления ханством до 1990-х годов и отвечал за проведение реформ в политической, социальной и экономической жизни государства. Также отмечается, что такую информацию невозможно найти в других источниках, исходя из этой информации, в центральной системе управления государства было пять главных министров, и один из них занимал пост деванбеги.*

Ключевые слова. *Коканское ханство, придворный историк Мухаммад Хаким Хан Торага, Мунтахаб ут-Таварих, Амир уль-Умара, Амиракар, Мингбаши, Батирбаши, Кошбеги, Воли или Воли, Калабон или Кутвол, Корбоши, Йофар, То Пчибоши, Токсабо, Понсадбоши, Юзбоши , Панджохбоши, Дахбоши, Каровулбеги.*

THE IMPORTANCE OF TITLE AND POSITIONS IN EXTERNAL DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KOKAN KHANATE IN THE 18th-19th CENTURIES.

Berdiev Abduvali Abduganievich-Candidate of Historical Sciences (PhD),
Head of educational and methodological department
Phone: +998944111104; email: abduvali4111104@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-6958-0605

Annotation. *This article is published on the basis of generally accepted historical methods - historicity, comparative logical analysis, consistency, principles of impartiality, in which information about the state and local government of the Kokand Khanate is given and analyzed in detail. In particular, the system of government of the Kokand Khanate was discussed. In particular, it was mentioned that officials holding important positions are divided into two categories: they are masters of secular and religious affairs, with officials in charge of secular affairs being called "umaro" and those who have religious duties being called "umaro" . Ulema." Also, in a series of literature on the history of the Kokan Khanate, created during the period of independence of Uzbekistan, mention is made of scientists exploring some aspects of the socio-political and economic situation and cultural life of the Khanate in the 19th century from the point of view of scientific objectivity and historicity. According to the results of the study, the most reliable source on the history of state and local government of the Kokan Khanate belongs to the court historian Muhammad Hakim Khan Torah; in his work "Muntakhab ut-tawarikh" there were five ministers in the central khanate. administration of the Khanate, these ministers were at the end of the 19th century. I remember that he worked in the management system of the Khanate until the 1990s and was responsible for carrying out reforms in the political, social and economic life of the state. It is also noted that such information cannot be found in other sources, based on this information, there were five chief ministers in the central government system of the state, and one of them held the post of devanbegi.*

Keywords. *Kokan Khanate, court historian Muhammad Hakim Khan Toraga, Muntahab ut-Tawarikh, Amir ul-Umara, Amirakar, Mingbashi, Batirbashi, Koshbegi, Voli or Voli, Kalabon or Kutvol, Korboshi, Yofar, To Pchiboshi, Toksabo, Ponsadboshi, Yuzboshi, Panjokhboshi, Dakhboshi, Karovulbegi.*

Kirish. Qo'qon xonligi qulay geografik sharoitda, karvon yo'llari ustida va dehqonchilik qadimdan to'plangan hududda joylashganligi sababli taraqqiy etgan edi. Xonlikning markazi va bosh shahri bo'lgan Qo'qonga oid ma'lumotlarga ko'ra, uning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Qo'qon shahri XVIII – XIX asrning birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O'rta Osiyoning ham yirik shaharlaridan biri edi. O'tmishda Qo'qon shahri bir necha marta dushmanlar tomonidan talanib, vayron qilingan. Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ullar O'rta Osiyoni istilo qilgan davrda juda ko'p shaharlar vayron qilinib, yer bilan yakson etilgan edi. Shunday shaharlar orasida Qo'qon ham bor edi. Shundan so'ng Qo'qon faqat 1709-yili qayta tiklangan va 1740-yilda shahar xonlik poytaxtiga aylantirilgan. Shahar mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olinib, xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylantirilgan.

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, qo‘shni Xitoy, Hindiston, Qirg‘iz dashtlari bilan jadal savdo munosabatlarini o‘rnatgan. Ammo, qo‘shni ikki davlat o‘rtasidagi XVIII va XIX asrlardagi aloqalar etarli darajada o‘rganilgan emas. Vaholanki, bu davr tarixini o‘rganish uchun muhim qo‘lyozma manbalar, rus sayyohlari va elchilarining hisobotlarida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. O‘rta Osiyo bilan Sharqiy Turkiston hamda Xitoy o‘rtasidagi XVI – XVII asrlarda mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Sang Muhammad Badaxshiyning “Tarixi Badaxshon”, Mirza Olim Toshkandiyning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Qurbon Ali Ayog‘uziyning “Tavorixi xamsayi sharqiy” asarlarida noyob ma’lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning Xitoydan kelayotgan Andijon karvonida ming odam bo‘lgani haqidagi ma’lumoti bu ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning uzoq o‘tmishga borib taqalishidan guvohlik beradi.

Dolzarbligi. XX asrning oxiriga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekiston tarixini, xususan o‘zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois ham, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o‘rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo‘lib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek xonliklaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligi – O‘rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo‘lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o‘rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi. Qo‘qon xonligining markaziy boshqaruv tizimi Buxoro va Xiva xonliklari boshqaruv tizimiga nisbatan kam o‘rganilgan. Qo‘qon tarixining u yoki bu masalalariga doir tadqiqotlarda xonlik boshqaruvining umumiy holatda o‘rganib kelingan. Biroq ularda xonlik boshqaruv tizimi to‘liq aks ettirilmagan. Xonlikning boshqaruv tizimi va unda faoliyat yuritgan mansablar va mansabdorlar to‘g‘risida o‘sha davrda yaratilgan manbalarda keltirilgan. Bu ma‘lumotlarni qiyosiy o‘rganish, tahlil etish va umumlashtirish orqali mazkur masalaga oydinlik kiritish mumkin. Umuman, mazkur tadqiqot yana quyidagi omillarga ko‘ra dolzarbdir:

birinchidan, O‘zbekiston tarixi fanida Qo‘qon xonligining tashkil topib, uning davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi, yoki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti kompleks tadqiq etilmagan;

ikkinchidan, xonlikning davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etib, yaqin o‘tmishda kechgan tarixiy voqealarning haqqoniy talqini bugungi kunning juda ko‘p muammolariga javob berishi va tegishli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyatga egadir;

Metodlari va o‘rganilganligi darajasi. Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda Qo‘qon xonligining davlat va mahalliy boshqaruvi haqida mahlumotlar beriladi va keng tahlil qilingan. Jumladan Qo‘qon xonligida davlatning ma‘muriy boshqaruv tizimi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, muhim mansablarni

egallagan amaldorlarni ikki toifaga bo‘lish mumkin. Bular dunyoviy hamda diniy amallar egalari bo‘lib, dunyoviy ishlarga ma‘sul amaldorlar “umaro”, diniy vazifadagilar “ulamo” deb yuritilgan. Shuning uchun ham manbalarda davlatning ma‘muriy boshqaruv tizimida “umaro” va “ulamo” atamalari ko‘p uchraydi.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan Qo‘qon xonligining tarixiga oid turkum adabiyotlar tashkil etib, xonlikning XIX asrdagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy ahvoli, madaniy hayotining ayrim jihatlarini ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan tadqiq etayotgan olimlardan H.Ziyoyev, G‘.Ahmadjonov, H.G‘ulomov, H.Bobobekov, Sh.Vohidov, N.Musayev, Sh.Yusupov, D.Ziyoyevalarni aytib o‘tish lozim.

H.Ziyoyev, H.Bobobekov, G‘.Ahmadjonov, Sh.Vohidovlarning tadqiqotlari mavzuni o‘rganishda alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, H.Ziyoyevning asarlarida xonlik tarixining konseptual masalalari yoritilgan bo‘lsa, Sh.Vohidovning ilmiy faoliyati xonlik tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi masalasi, ya’ni Qo‘qon xonligida tarixnavislik maktabining shakllanishi, shu maktab namoyandalari asarlarini izlab topish, o‘rganish va chop etish bilan ajralib turadi. Sh. Vohidovning ilmiy ishlarida Qo‘qon xonligi tarixchilarining asarlari kodikologik jihatdan tahlil etilgan va xonlik tarixi, madaniy hayotiga oid o‘nlab mahalliy tarixiy asarlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

H.Bobobekovning ilmiy ishlarida Qo‘qon xonligi tarixi Rossiya matbuoti materiallari asosida yoritilgan bo‘lib, olim o‘tgan asrning 80-90-yillarida xonlik tarixini yangicha ilmiy nuqtai nazar asosida xolis o‘rganilishi kerakligini yoqlab chiqqan. U birinchilardan bo‘lib xonlikdagi xalq harakatlarini o‘rganib, ularning mustamlakachilikka qarshi kurash ekanini asoslab bergan. Uning asarlari o‘rganilayotgan mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

G‘.Ahmadjonovning asarlarida xonlik tarixi tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Muallif tomonidan o‘zbekistonlik olimlarning Qo‘qon xonligi tarixini tadqiq etishda tutgan o‘rni va qo‘shgan hissalari keng tahlil qilingan.

Qo‘qon xonligining ijtimoiy – siyosiy hayoti, iqtisodiy ahvoli, madaniyati kabi ba’zi masalalar bir qator dissertatsiyalarda qisman yoritilgan. Bunday tadqiqotlardan V.Ishquvatov, Z.Ilhomov, L.Turdaliyev, M.Jabborov, N.Alimova, Sh.Otaxonov, M.Abdurahmonov, O.Pugovkina, U.Abdullayev, B.Tursunov, O‘.Sultonov, Sh.Mahmudov, T.Xudoyqulovlarning dissertatsiyalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Tadqiqot natijalari. Qo‘qon xonligi davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi haqida eng ishonchli manba bu saroy tarixchisi Muhammad Hakimxon To‘raga tegishli bo‘lib, uning Muntaxab ut- tavorix asarida xonlik markaziy boshqaruvida beshta vazir bo‘lganligini, bu vazirlar XIX asrning o‘ninchi yillariga qadar xonlikning boshqaruv tizimida faoliyat ko‘rsatib, davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohatlarni amalga oshirishga ma‘sul bo‘lganligini, vazirlardan biri devonbegi ed deb qayd etadi.[1:15-b] Bunday ma`lumot boshqa manbalarda uchramaydi. Mazkur ma‘lumotdan davlatning markaziy boshqaruv tizimida beshta asosiy vazir bo‘lganligi va ulardan biri devonbegi mansabini egallaganligi ma‘lum bo‘ladi. Xonlik markaziy boshqaruv tizimidagi besh vazirdan yana biri qushbegi bo‘lib, bu xususida ham Muntaxab ut-tavorix asarida ma‘lumot beriladi[2:227a varaq]. Fikrimizcha, uchinchi vazir inoq unvoniga ega bo‘lgan mansabdorlar bo‘lsa kerak.[3:112-b]

Qo‘qon xoni Olimxon 1806 yilda O‘ratepaga qilgan harbiy yurishida g‘alabaga erishib, mazkur viloyatga Qadam inoqni degan shaxsni hokim etib tayinlaydi. Odatda hukmdorlar markaziy boshqaruvga yuqori mavqeidagi va o‘ziga yaqin mansabdorlarni viloyatlarga hokim etib tayinlagan.

XIX asrning boshlaridagi Qo‘qon xonligiga oid asarlarda shu davrgacha bo‘lgan tarixiy jarayonlar, taxtga o‘tirgan hukmdorlar va ularning davlat boshqaruvida olib borgan faoliyatlari yoritilgan. Biroq ularda mansab va mansabdorlar nomi XIX asrning o‘ninchi yillaridan keyingi davrlarda yoritilganligidan nisbatan kam uchraydi. Shuning uchun ham xonlik markaziy boshqaruv tizimini, xususan, Muhammad Hakimxon To‘ra e‘tirof etgan besh vazirdan ayrimlarining qanday mansab va unvonga ega bo‘lganligini hamda ularga qanday vazifalar yuklatilganligini aniqlash qiyin.

XIX asrning boshlariga kelib, Qo‘qon xonligini idora etishda bir qator islohatlar amalga oshirildi. Olimxonning (1798-1810) mamlakat hududini kengaytirish borasida olib borgan harbiy harakatlarini Umarxon (1810-1822) davom ettirib, markazlashgan davlatni kuchaytirishga harakat qildi. Umarxon taxtga o‘tirgan yilidan boshlab savdo diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yib, markaziy hokimiyatda bir qator yangi vazifa va mansablarni joriy qildi. — “Muntaxab ut- tavorix” asarida Qo‘qon xonlari Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davrni kengroq yoritilgan va xonlik markaziy boshqaruviga oid bir qancha ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, davlat boshqaruvidagi turli mansab va amallarga oliy hukmdorni buyrug‘i bilan turli amaldorlar tayinlangan. Buni asar muallifi 1815-yilda Umarxon bir necha shaxslarni sadr, devonbegi, mirzaboshi, qushbegi, parvonachi, - etib tayinlaganligini keltirib o‘tadi.

Xonlikda xon avlodlarini xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to‘ra deb atalgan. Davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo‘lib, xonning o‘zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lsa-da, ma’lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo‘shin boshliqlarining xonga ta’siri kuchli bo‘lib borgan. Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo‘lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo‘riq yerlar, ko‘lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to‘ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma’muriyat, qo‘shinlar va qo‘shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag‘batlantirilgan.

Xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo‘lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko‘rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a’zo bo‘lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Bular haqida Qo‘qon xonligining markaziy boshqaruv tizimidagi mansabdorlarning faoliyatini o‘rganish orqali oydinlik kiritish mumkin. Davlat boshqaruvida oliy hukmdordan keying o‘rinda bosh vazir turgan, u mingboshi nomi bilan atalgan. Qo‘qon xonligi bosh vaziri bo‘lgan mingboshi va uning faoliyati xususida tadqiqotchi olim V. Nalivkin o‘z asarida, — …ushbu amaldor davlatning barcha ichki ishlarini boshqarib,… shu bilan birga tashqi siyosiy ishlarda ham xonning bosh maslahatchisi bo‘lgan[4:112-b]- deb yozadi.

Qo‘qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma’muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma’muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo‘linar edi [5:6-21-b]. Shuningdek, xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar ham joriy etilgan:

Ular shartli ravshda uch toifaga bo‘lingan:

1. Oliy darajadagi mansablarga: mingboshi, amirilashkar, qo‘shbegi, botirboshi, vali (noib), qal’abon, qo‘rboshi, yovar, to‘pchiboshi, to‘qsoba, ponsodboshi kirgan.

2. O‘rta darajali harbiy mansab va unvonlarga yuzboshi, ellikboshi, dahboshi, qorovulbegi kiritilgan.

3. Quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlarga askar, sarboz, navkar, mergan, mahram, botur, jazoilchi, to‘pchi, qo‘rchi, qorovullar kiritilgan. Harbiy mansab va unvonga tayinlanishda aksariyat hollarda tabaqa va millat muhim rol o‘ynamagan.

Qo‘qon xonligida boshqaruv tizimi ham dastlab Buxorodan andoza olib tashkil qilgan. Keyinchalik xonlik ma‘muriy boshqaruv tizimida islohatlar o‘tkazilib, mansablar va mansabdorlar faoliyati o‘zgarib borgan. Mingboshi lavozimining ta‘sis etilishi shu islohatlar natijasidir. Qo‘qonda mingboshi mansabining mavqeyi keyingi hukmdorlar davrida yanada oshdi. Jumladan, Sheralixon (1842-1845) hukmronligidan boshlab, mingboshi mansabining mavqeyi davlat boshqaruvida oshgan bo‘lsa, Xudoyorxon (I - davri 1845-1858) va Sulton Sayidxon (1863-1865) davrida ushbu mansab egasi davlat boshqaruvida to‘liq hukmronlikni qo‘lga olgan.

Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvning 40-50-yillarida mingboshi mansabining bunday eng yuqori pog‘onaga ko‘tarilishining bir necha siyosiy sabablari bor edi, albatta.

Birinchidan, hukmdorlar Xudoyorxon va Sulton Sayyidxon taxtga yosh o‘tqazilgan. Ushbu hukmdorlarning taxtga o‘tirishida va davlatni boshqarishida, aynan, ularning bosh vaziri, ya‘ni Xudoyorxon uchun Musulmonquli, Sulton Sayyidxon uchun Aliquli amirlashkar muhim o‘rin tutgan.

Ikkinchidan, taxtga da‘vogarlikda guruhbozlik kuchaygan. Bu esa, o‘z navbatida, davlat boshqaruvining ishonchli va kuchli qo‘llarda bo‘lishini talab qilgan. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki,Qo‘qon xonligida mingboshi juda katta huquq va imkoniyatlar berilgan va shu bilan birga davlat boshqaruvida unga juda katta ma‘suliyatlar yuklatilgan.

Markaziy boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi pog‘onadagi mansab **qo‘shbegi** mansabi bo‘lib, hukumat olib borgan siyosatini amalga oshirishda bu mansabdor muhim vazifalarga ma‘sul bo‘lgan. Uning faoliyati xususida Mulla Olim Mahdum Hoji muhim ma‘lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, “Ikkinchi, qo‘shbegilik mansabidagi odamlar doimo xon huzurida maslahatchi qatorida turib va yoki biror katta shahar hokimi bil - istiqlol nasib qiladur”. [6:780-b] Qo‘qon xonligida qo‘shbegi mansablar qatoriga emas balki unvonlar qatoriga qo‘shsa to‘g‘ri bo‘ladi. Bu unvon egalari harbiylar qatoridan ham o‘rin egallagan bo‘lib, davlatning harbiy kuchlar boshqaruvida faol ishtirok etishgan. Qo‘shbegi unvonidagi kishi harbiy harakatlar vaqtida qo‘shin boshlig‘i vazifasini bajargan. [7:217-b]

Qo‘shbegi mansabidan keyingi o‘rinda **parvonachi** turgan. Uning egasi oliy hukmdor tomonidan berilgan yorliq va inoyatnomalarni o‘z egalariga yetkazuvchi mansabdor edi. Ayrim hollarda parvonachi qo‘shbegi lavozimini egallashi ham mumkin edi. Shuningdek, parvonachi mansabidagi kishilar ham viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan. Muarrixlardan Mulla Olim Mahdum Hojining ta’kidlashicha … bu mansabdagi zot ham qo‘shbegi lavozimotini ado qiladurlar. [8:104-105-b]

Mazkur mansab o‘z xizmat doirasiga ko‘ra oliy hukmdorga yaqin bo‘lgan va uning ishonchini qozongan edi. Tadqiqotchi olim Sh. Vohidovning yozishicha, uning egasi o‘zini xonga yaqinligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma-ket javobini olib chiqarardi. [5:16-b]

Umuman olganda xonlikda quyidagi masab va lavozimlarning faoliyatini ko‘rish mumkin.

Amir ul-umaro – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo‘yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib – intizom kabilar) shaxs bo‘lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;

Amirlashkar – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo‘qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo‘lgan;

Mingboshi – ma’mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo‘shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da’vogar bo‘lgan. Bu unvon Sheralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;

Botirboshi – botir bahodirlar boshlig‘i. Besh yuz kishidan ko‘p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo‘shin ishlariga mas’ul edi. Botirboshi ba’zan qurilish hamda sug‘orish ishlariga ham boshchilik qilgan. (Ulug‘ nahr arig‘i, Otabek botirboshi).

Qo‘shbegi – harbiy qo‘shinning boshlig‘i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da’vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo‘lishi mumkin edi.

Voli yoki voliy (noib, muovin) – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma’muriy ishlariga boshchilik qilgan.

Qal’abon yoki kutvol – Qo‘qon xonligining chegeralarida joylashgan qal’a va istehkomlarining hokimi bo‘lib, shu hududlarning harbiy-ma’muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo‘lgan. Harbiy maqsadga ko‘ra, qal’abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan.

Qo‘rboshi – qo‘rxona ya’ni aslahaxona boshlig‘i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo‘lgan.

Yofar – soqchilar boshlig‘i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo‘lgan. Yofar o‘z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g‘allagir (g‘alla oluvchi), javgir (bug‘doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida ham qayd etilgan.

To‘pchiboshi– to‘pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig‘i. To‘pchiboshilar artilleriyaning jangdagi xatti-harakati uchun javobgar bo‘lgan. To‘pchiboshilarning aksariyati chet ellik mutaxassislardan tayinlangan.

To‘qsabo – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy guruhning boshlig‘i. o‘z tug‘iga ega bo‘lgan bo‘linma boshlig‘i. Ponsodboshi 500 kishilik qo‘shin qo‘mondoni. Ponsodboshi va undan yuqoridagi mansab egalari o‘z mirzalariga ega bo‘lgan. Qo‘shin 500, ular o‘z navbatida yuzlarga bo‘lingan. Piyoda qo‘shin boshlig‘i sarbozboshi deyilgan.

Ponsadboshi – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.

Yuzboshi – yuz kishilik harbiy dasta boshlig‘i.

Panjohboshi – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig‘i.

Dahboshi – o‘n kishilik harbiy guruh boshlig‘i.

Qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig‘i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, navkar, sipohi, mergan, mahram, botur, to‘pchi, zanbarchi, qo‘rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo‘shin safida, nog‘orachi, surnaychi, to‘g‘chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilgan. Bu harbiy unvonlar orasida mingboshidan ponsadboshigacha bo‘lganlari oliy unvonlar, qo‘rboshidan qorovulboshigacha bo‘lganlar o‘rta unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Elikboshidan mingboshigacha bo‘lgan harbiy lavozimdagi amaldorlar o‘z xizmatlariga mulozimlar olganlar. Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiylar ham xizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Otaliq – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallaganlar.

Beklarbegi – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba’zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

Biy – turkiy qabilalarning boshliqlari.

Devonbegi – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan. Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruvda iqtisodiy masalalar bo‘yicha ma`sul amaldor **devonbegi** ham muhim o‘rin tutgan. Devonbegi xon devoning boshlig‘i bo‘lib, uning qo‘l ostida bir necha mirzolar faoliyat yuritgan. Mamlakat xazinasiga tushadigan mablag‘lar va bu mablag‘larni sarflash xarajati devonbegi nazoratida bo‘lgan. Bu sarf harajatlar uchun maxsus kirim-chiqim daftarida qayt etib borgan. Xonlik devonxonasida vaqf yerlari, masjid va madrasalarga tegishli kirim – chiqim yozuvlari, xonga hadya qilingan sovg‘alar hisoboti hamda muhim statistik ma`lumotlar qayd etilgan daftarlar saqlangan.[9:82-b]

Xazinachi – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.

Inoq – xonning xos va sirdosh mulozimi.

Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.

Parvonachi – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

Dodxoh – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

Dasturxonchi – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi. Xonlik markaziy boshqaruv tizimida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyaga ega mansablardan **dasturxonchi**dir. Dasturxonchi saroyda oliy martabali mehmonlar uchun uyushtiriladigan va turli bayramlar o'tkaziladigan marosim, kechalarni tashkillashtirib, boshqarib borish bilan bilan bir qatorda davlatning bosh xazinaboni ham hisoblangan. Qo'qon xonligida dasturxonchi markaziy boshqaruv mansabiga kiritilgan. V.V.Velyaminov-Zernov uni bosh g'aznachi, deb izohlaydi va markaziy hokimiyatning asosiy mansablaridan biri deb ko'rsatadi. [10:114-b] Dasturxonchi davlat xazinasini idora etish bilan birga mamlakatning siyosiy hayotida ham faol ishtirok etgan. Jumladan, 1831-yilda imzolangan Qo'qon xonligi foydasiga Qashqardan boj yig'ish bo'yicha Pekin shartnomasini tayyorlash va imzolashda Qo'qon davlati nomidan Mahmud dasturxonchi ishtirok etgan. [11:16-b] Abu Ubaydulloh ham ― Xulosat ul-ahvol‖ asarida Mahmud dasturxonchini Muhammad Alixonning vazirlaridan biri ekanligi ta`kidlanadi. [6:22-b]

Saroy qorovulbegisi – xon o'rdasining soqchilariga boshliq bo'lgan saroy amaldori.

Tunqator – tun bo'yi uyg'oq bo'ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo'riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

Oftobachi – xonning xos mulozimlaridan bo'lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

Sharbatdor – eng oliy va faxriy unionlardan bo'lib, xonning xos majlislari va safarlarida xizmatda bo'lgan.

Hidoyatchi – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg'alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o'tkazuvchi amaldor.

Shig'ovul – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko'ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo'lgan.

Sarkor – saroydagi xon amaldorlarining boshlig'i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

Qo'shbegi (mirishkor) – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbegining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo'lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo'lgan.

Salom og'asi – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.

Kitobdor – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.

Risolachi – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas'ul bo'lgan saroy amaldori. Markaziy boshqaruvda ―**risolachi** tomonidan oliy hukmdor bilan viloyat hokimlari, biror xizmat bilan poytaxtdan uzoqda bo'lgan mansabdorlar, mamlakatlarning turli hududlarida o'rnashgan muntazam qo'shin boshliqlari, urush holatida qo'mondonlar o'rtasida yozishmalarni olib borish, hukmdorning xohish-

irodasini turli shaxslarga bildirish, har xil masalalar bo‘yicha yo‘l-yo‘riq va dasturulamallarni yetkazish kabi vazifarni amalga oshirgan. Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida risolachi o‘rta darajadagi nufuzli mansabdor hisoblangan bo‘lsada, XIX asrning 50 yillariga kelib, ushbu mansab egasining davlat boshqaruvida mavqeyi ortgan. Xuddi shu davrda Qo‘qon xonligida ushbu vazifada Qulbobo risolachi xizmat qilgan, u mamlakatning siyosiy hayotida muhim o‘zgarishlar tepasida turgan kishilardan biri bo‘lgan. [12:48-49-b]. U Xudoyorxonning mustaqil hukmronlikni o‘z qo‘liga olishida, ya`ni uning Musulmonquli vasiyligidan qutulishida katta yordam bergan kishilarning biri bo‘lgan.

Jam'og‘a – xonning suhbati, qabuli hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

Jarchi – xalq yig‘iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e'lon qiladigan shaxs.

Chopquchi – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar qilich) yasab, qo‘rchi vazifasini ham bajargan.

Shotir – xon rikobi oldida yuradigan xizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta'zimga chorlab turgan.

Udaychi — xon rikobi oldida yurib, uning sha'niga baland ovoz bilan maqtovli so‘zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi xizmatchi.

Yuqoridagi amal va mansab egalari o‘z hizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo‘y, g‘alla ko‘rinishida) olganlar. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan.

Butun o‘rta asrlar musulmon davlatlarida bo‘lgani kabi Qo‘qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, ta'lim – tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan.

Shayx ul-islom – dindorlarning eng oliy unvoni bo‘lib, 1818-yilda Umarxon tomonidan joriy etilgan.

Xoja kalon – fiqh olimi (huquqshunos) ning faxriy unvoni.

Xalifa– o‘rinbosar. Qo‘qondagi naqshbandiya, qalandariya, yassaviya taraqqiyotlarining rahbarlari.

A'lam – faqih, olim hamda shariat qonun – qoidalarning bilimdoni.

Oxund – bilimli va madrasada o‘qiydigan kishi.

Sudur – vaqf mulklarining daromadlari hamda hisob – kitobiga javobgar mansabdor.

O‘roq – vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga mas'ul shaxs, O‘roq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.

Mudarris – madrasada ta'lim beruvchi ustoz.

Imom va imom xatib – masjid imomi hamda juma nomozlarida xutba o‘qib xizmat qiladigan imom.

Muazzin – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.

Qozi ul – qo‘zzot – qozilar qozisi (adliya vaziri).

Qozi kalon – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.

Qozi askar – qo‘shin qozisi. Qo‘qon xonligi qo‘shinida huquqiy masalalar bilan qoziaskar shug‘ullangan. O‘ljani baholagan va to‘g‘ri taqsimlanishini nazorat qilgan. Ular harbiy huquqni yaxshi bilishlari shart bo‘lgan. Harbiy harakatlar paytida qo‘shin joylashgan hudud qozisi o‘z vakolatlarini qoziaskarga topshirgan. Qoziaskar qozikalonga bo‘ysungan. Qozi - rais unvonidaga shaxs muftiy bergan fatvoning to‘g‘ri bajarilishini nazorat qilgan. Muftiy esa qozi chiqargan qonun va buyruqlaming sha'riy ekanligini sharhlagan, amalda qo‘llanishiga ruxsat bergan. Xonlikdagi harbiy mansablaming aksariyati ma'muriy mansablar bilan aralash bo‘lgan.

Tarakachi – meros qolgan mol-mulklarni merosxo‘rlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.

Xonlikdagi diniy va qozilik lavozimida bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh hamda turli ehsonlar hisobidan kun ko‘rganlar. Madrasa, masjid, mozorlar o‘zlarining vaqf mulklariga ega bo‘lib, shu mulk daromadidan o‘z xizmatchilariga maosh berganlar. Vaqf mulklariga muttavali mutasaddi – boshliq edi.

Ma’lumotlarga qaraganda, masalan, Qozi kalon yilida 800 botmon g‘alla va 1200 tanga pul; naqib (bu mansabda 2 kishi bo‘lardi) - yilida 500 botmon g‘alla va 1000 tanga pul; sudur — 100 botmon g‘alla va 400 tanga; o‘roq esa (100 kishi) yilida 50 botmon g‘alla va 200 tangadan pul daromadlari bor edi (5). Diniy va qoziliy lavozimlarda bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh va turli xayr-ehsonlar hisobidan kun ko‘rardilar. Bunday daromadlarga nikohona, tarakona (taraka qilingan mulkdan), meros haqi va boshqa xil to‘lovlar kirardi. Madrasa, masjid, mozorlar o‘zlarining vaqf mulklariga sohib bo‘lib, shu vaqf daromadidan o‘z xizmatchilariga haq berardilar. Vaqf mulklariga mutavalli mutasaddiy — boshliq edi. Bu mansabga vaqf qiluvchi zot o‘z nomzodini ko‘rsatishi yoki o‘zi mutavallilik qilishi mumkin bo‘lardi. Vaqflar oq vaqf va qora vaqflarga bo‘linardi. Oq vaqf xiroj va soliqlardan ozod qilingan bo‘lib, qora vaqf xazinaga xiroj va boshqa joriy soliqlarni to‘lashi kerak edi.

Xulosa. Shunday qilib, Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruv tizimiga oid ma`lumotlardan shunday fikrlarga kelish mumkin-ki, xonlikning markaziy boshqaruv tizimi o‘z taraqqiyotida uch bosqichdan o‘tgan. Birinchi bosqich xonlikda markaziy davlat boshqaruv tizimining shakllanishidir.

1709-yildan 1800-yillar davomida bu davrda yangi tuzilgan hamda siyosiy jihatdan rivojlanib borayotgan davlat, katta hududni qamragan davlatni boshqarish uchun boshqaruv tizimini O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan davlatchilik asoslari negizida rivojlanganligidir. Xonlik markaziy boshqaruv tizimining ikkinchi bosqichi 1800-yidan 1842-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatda kechgan siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot borasida rivojlanish, bu davrda hukmronlik qilgan hukmdorlarning o‘z ichki va tashqi siyosatlarini, jamiyat bilan aloqalarini muayyan boshqaruv tizimiga tayanib yuritgani,bu tizimni takomillashtirish borasida bir qator tadbirlarning amalga oshirilgani,markaziy boshqaruv tizimida xonlikda mavjud bo‘lmagan mansablarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda xonlikda bir qator islohatlarning amalga oshirlishi natijasida o‘z davrining murakkab boshqaruv tizimi yuzaga keldi. Uchinchi bosqich esa 1842-1876 yillarni o‘z ichiga olgan. Bu davrda mamlakatning hukmdor emas, ularning vasiylari tomonidan boshqarilganligi,

ularning hokimiyatni uzoq vaqt qo‘lda ushlab turish maqsadida boshqaruvning avtoritar uslubidan foydalangan. Markaziy boshqaruv tizimidagi ko‘pgina mansab va amallarni vakolati qisqarganligi yoki yo‘qotilgani, natijada bu davrda markaziy boshqaruv tizimining soddalashgani, shuningdek, ayrim mansablarning vazifasi boshqa mansabdorning zimmasiga yuklatilishi oqibatida o‘z-o‘zidan bu mansabning nomi ham tugatilganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Devonbegi- xon devonining sardori qarang: Vohidov SH, XoliqovaR. Markaziy Osiyodagi boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari)-T: Yangi asr avlodi, 2006-b.15
2. Muhammad Hakimxon to‘ra — “Muntaxab ut- tavorix” asarida -227a varaq
3. Mahmudov Sh.Y. “Qo‘qon xonligining ma’muriy boshqaruv tizimi” (1709-1876) Diss.t.f.n-T:2007
4. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханство С.112
5. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006. 6-16-21 bb.).
6. Махмудов. Ш. Куканд хонлигининг ма‘мурий- бошкарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. Ном. Дисс.- Т. 2007 22-780 б.
7. Vohid Sh. Qo‘qon xonligida unvon va mansablar // Sharq Yulduzi.1995.-N-3-4-b.217-220.
8. Mulla Olim Mahdum Hoji Tarixi Turkiston…-b.105
9.Троицкая А.Л. Каталог архива Коканских ханов XIX века-М Наука.1967.-С.3. қаранг. Махмудов. Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном. дисс.- Т. 2007 82 б.
10. Зернов В.В. Сведения о Кокандсом ханстве //.-СПб :-С.114
11. Muhammad Yahyoxon//Vatan.1995.-N-16.
12. Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin…b.48-49

UDK 339:004.738.5

HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH METODOLOGIYASI

Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li-Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri i.f.f.d PhD
https://orcid.org/0000-0002-4574-7728
E-pochta:fqodirov@shdpi.uz; Tel:(+998)97 967-02-03

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish metodologiyasini takomillashtirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshishi asoslangan. Iqtisodiy sohani rivojlantirish orqali aholini oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish ko’rsatib o’tilgan. Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni*

ekonometrik modellashtirish modellashtirish asosida tahlil qilish uchun taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. *Iqtisodiy soha, ijtimoiy soha, moliyaviy-statistik baholash, Ekonometrik model, Empirik modellashtirish, Raqamli iqtisodiyot, transformatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarish.*

МЕТОДОЛОГИЯ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

Кодиров Фаррух Эргаш угли-Шахрисабзского государственного педагогического института
Заведующий кафедрой "Информатика и методика ее обучения" к.э.н PhD
https://orcid.org/0000-0002-4574-7728
э-почта :fqodirov@shdpi.uz; Tel:(+998)97 967-02-03

Аннотация: *В основе данной статьи лежит совершенствование методологии эконометрического моделирования социально-экономического развития регионов и повышения уровня жизни населения за счет развития социального сектора. Показано удовлетворение потребностей населения в продовольственных и непродовольственных товарах за счет развития экономического сектора. Разработаны предложения и выводы для анализа социально-экономического развития регионов на основе эконометрического моделирования.*

Ключевые слова: *Экономическое поле, социальное поле, финансово-статистическая оценка, Эконометрическая модель, Эмпирическое моделирование, Цифровая экономика, трансформация, производство продукции.*

METHODOLOGY OF ECONOMETRIC MODELING OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS

Qodirov Farrux Ergash o'g'li-Shakhrisabz State Pedagogical Institute
The head of the department "Informatics and its teaching methodology" Doctor of philosophy of economic sciences PhD

Annotation: *This article is based on improving the methodology for econometric modeling of socio-economic development of regions and improving the standard of living of the population through the development of the social sector. It is shown that the population's needs for food and non-food products are met through the development of the economic sector. Proposals and conclusions have been developed for analyzing the socio-economic development of regions based on econometric modeling.*

Key words: *Economic field, social field, financial and statistical assessment, Econometric model, Empirical modeling, Digital economy, transformation, production.*

Kirish. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish ikki bosqichdan o‘tadi. Birinchi bosqich hududiy rejalashtirish va istiqbolning xususiy modellarini ishlab chiqish bilan, ikkinchi bosqich hududiy tarmoq modellari tizimini yaratish bilan bog‘liq. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish variantlari samaradorligi shu hududda yashovchi aholining turmush darajasini oshirish maqsadlarida mehnat va tabiiy resurslardan optimal foydalanish nuqtai nazaridan baholanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda, xususan, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiyada ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish, ilmiy jihatdan asoslangan ijtimoiy normativlar asosida belgilanadi. Mazkur ijtimoiy normativlar oziq-ovqat, kiyim-kechak, davolanish, dam olish xarajatlarini o‘zida mujassamlashtiradi va aholini turmush darajasi sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. I.A.Rodionova hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda geografik yo‘nalishdagi ishlab chiqarish resurslari va rivojlanish asoslarini ham hisobga olish kerak deydi.[1]

G.R.Xasayev, V.A.Sibatov hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda ishlab chiqarishning resurslar holati modelini ishlab chiqdi.[2]

BMT nuqtai nazaridan ham u yoki bu milliy davlatning yutuqlari, mana shu ko‘rsatkichlarning nisbiy yaxshilanishi bilan baholanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, unga ijobiy va salbiy ta’sir qiluvchi omillarni, ham nazariy va ham amaliy jihatdan, har tomonlama va uzoq muddat davomida izchil o‘rganish, monitoringini olib borish zarur.

Yaponiyada boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan davlat xarajatlari past bo‘lishiga qaramay, hukumatning muntazam ravishda iqtisodiyotga maqsadli aralashuvi va samarali tartibga solishi davlatning muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada prof. A.Vahobov ham: “Ijtimoiy yo‘naltirilganlik faqat davlat sektorini emas, balki butun iqtisodiy tizimni yo‘naltirish demakdir”, deb ta’kidlaydi.[4] Ijtimoiy siyosat G‘arbiy Yevropa siyosiy iqtisod bo‘yicha professori M.Pfaff fikricha ro‘y berishi mumkin bo‘lgan muhtojlikni rag‘batlantiruvchi va majburlovchi choralar yordamida daromadlarni shakllantirish va undan foydalanishni ta’minlashdir deb fikr bildirgan.

Belgiya iqtisodchisi Pariys esa ijtimoiy siyosatga quyidagicha ta’rif bergan: individning daromad ta’minlashiga ta’sir ko‘rsatuvchi huquqlarini amalga oshirish ijtimoiy siyosatdir.

Rossiya iqtisodchisi Y.E.Gaydar esa ijtimoiy siyosatning maqsadini quyidagicha ifoda etgan:" Rossiya aholisining turmush darajasi va uning sifatini aholini har biriga berilgan huquqiy kafolatlari orqali o‘z mehnati va tadbirkor faoliyati tufayli jamg‘armalarni shakllantirish, pensioner, nogiron, ko‘p bolali oilalarga, mehnatga layoqati yo‘q aholi qismiga davlatning majburiyatlarni saqlanishi tushuniladi.

Ko‘plab adabiyotlarda davlatning ijtimoiy siyosati orqali uning jamiyatni yashash sharoitidagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatini tartibga solishga mo‘ljallangan

yo‘nalishi ifodalanadi. Bundan farqli o‘laroq, S.P.Gurko “davlatning ijtimoiy siyosati - bu davlatning, boshqa iqtisodiy subyektlarining hayot tarzi va mehnatga yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyatidir. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtiruvchi asosiy subyekt-bu davlatdir”, deb ta’kidlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan SH.A.Mirzayev esa o‘z tadqiqotida jumladan ijtimoiy siyosatga quyidagicha ta’rif bergan, “keng ma’noda ijtimoiy siyosat bu davlatning va bozor tuzulmalarining jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashdagi chora-tadbirlari majmuidir”,-deb to‘liq tarif bergan. Chunki ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan asosiy maqsad jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashdir.[8]

Bizning fikrimizcha esa ijtimoiy siyosat bu davlatning aholining turmush darajasini oshirish uchun barcha aholi uchun yo‘naltirgan kafolatlari bo‘lib, kasbiy tayyorgarlik va bandlik, narx va daromadlar siyosati, ijtimoiy xizmatlar, aholini ijtimoiy himoya qilish yo‘nalishlari bo‘yicha chora-tadbirlari majmuidan iborat. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda uning yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni aniqlash muhimdir. Biz ijtimoiy siyosatning bandlik va kadrlar siyosatini, narx va daromadlar siyosatini, ijtimoiy soha va ijtimoiy xizmatlarni, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam yo‘nalishlarini alohida ko‘rib chiqdik. Ijtimoiy siyosatda narx va daromadlar siyosati markaziy o‘rinni egallaydi. Bunda asosiy e’tibor aholi daromadlarini indeksatsiyalashga va minimal ish haqi darajasini nazorat qilishga qaratiladi.

“Hudud” tushunchasiga zamonaviy iqtisodiy, geografik va shaharsozlik

adabiyotlarida katta e’tibor qaratilmoqda Hudud tushunchasini shakllantirishda ko‘p marotaba ishlatiladigan mezonlar quyidagilar

hisoblanadi:

- geografik (joylashishi, maydoni o‘lchami va aholi soni);
- ishlab chiqarish-funksional (ustunlik qiluvchi faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlari);
- shaharsozlik (uy-joy, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish faoliyati binolari qurishning xususiyatlari);
- ijtimoiy (munosabatlar va xatti harakatlar chegaralari).

Bunday mezonlardagi turli-tumanlik bitta ta’rifda hududning mohiyatini to‘liq ochib berish imkoniyatini kamaytiradi. Axir hudud bir vaqtning o‘zida milliy iqtisodiyotning mahalliy tashkiloti sifatida, joylashtirish tizimi unsuri sifatida, hamda inson hayot faoliyati va ta’minotining barcha jabhalari joylashgan jamiyatning ijtimoiy tashkiloti sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu boisdan hudud – o‘zining tarkibi, funksiyalari, tashqi muhit bilan munosabatlari, tarixi, madaniyati, aholining turmush sharoitlari bilan bir butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

“Mintaqa iqtisodiy tizimi-ma’lum fazoviy o‘lchamlarga ega va murakkab mintaqaviy tizim hisoblanadi U mintaqaning iqtisodiy tizimi:

ishlab chiqarish va mehnat salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarining samarali joylashuvi, aholining turmush darajasi va sifati, mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini o‘z ichiga oladi. Mintaqa iqtisodiy tizimi evolyusion jarayonning alohida integral subyekti sifatida o‘zining mahsulot ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash,

taqsimlash va iste'mol qilishdagi talablarini mustaqil ta'minlaydi va o'z rivojlanishini boshqara olish qobiliyatiga ega".

T.M.Ahmedovning fikricha o'zining hokimiyat va boshqaruv organlariga bo'lgan yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy-makon tizimini ifodalaydigan hududiy tuzilmalarni mintaqa deb e'tirof etish maqsadga muvofiqdir Har xil ma'muriy- hududiy (milliy- davlat) mintaqalar mana shunday tizimlarga tegishli bo'ladi.[10]

A.M.Sodiqovning ta'kidlashicha, hududiy iqtisodiyot tabiiy-iqtisodiy va boshqa omillarni hudud iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish bilan bevosita bog'lab o'rganadi Uning doirasiga, ayrim iqtisodchilar ta'kidlaganlaridek, demografiya, tabiiy resurslar va sharoitlar, ekologiya va h k muammolarni chuqur o'rganish kirmaydi U iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, demografiya, ekologiya, tabiatdan foydalanish iqtisodi kabi fanlarning ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanadi.

Bugungi kunda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizim, shu jumladan hudud iqtisodiy tizimi maxsus tamoyillarga rioya qilgan holda barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish hisobiga barqaror rivojlanish sohasida yetakchilikka intiladi.

Ammo Respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarida yetarli emas.[15]

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan umumiy nazariya iqtisodiy tizimning aniq turlariga tadbiq qilinganda muhim farqlar vujudga keladi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimiz hududlarini taraqqiy ettirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarini kengaytirish hisobiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish" vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining bir qator Qonunlari, Prezident Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining aholi daromadlarini tartibga solishga dahldor bo'lgan qaror va me'yoriy hujjatlari qabul qilinganligini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar ko'magida respublika iqtisodiyotiga, shu jumladan, aholi daromadlarini yanada oshirishga ta'sir etadigan turli manbalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi iqtisodiy muhit shakllandi. Natijada sohalarda yangi ish o'rinlari tashkil etilib, aholining ish bilan bandligini oshirish evaziga, uning turmush darajasini yaxshilashga mumkin qadar erishildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning barcha sohalarida barqarorlikni ta'minlash bilan birga, aholi daromadlarining davlat tomonidan tartibga solinishidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holatni ham ijobiy tomonga o'zgartirdi.[16-17]

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishda, odatda, aholi pul daromadi va xarajatlarining balansi tuziladi. Bu balans ko'rsatkichlari bir tomondan, pul daromadlari hajmini va uning paydo bo'lish manbalarini, ikkinchi tomondan, aholi pul xarajatlarining hajmi va strukturasini ifodalaydi. Balans ko'rsatkichlari pul

daromadlari va tovar oboroti, pullik xizmatlar va aholining pul jamg‘armasi yig‘indisi o‘rtasidagi nisbiy munosabatni aks ettiradi. Pul daromadlari va xarajatlar balansi faqat aholi turmush tarzini ta'riflash uchungina emas, balki jamg‘arish va iste'mol o‘rtasida optimal proporsiyalarni o‘rnatish, daromadni aholining ijtimoiy guruhlari o‘rtasida ratsional taqsimlash, moddiy qiymatlar va xizmatlardan foydalanish o‘rtasidagi nisbatni qaror toptirish uchun ham zarurdir.

Aholi turmush darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. “Turmush darajasi” tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir.[18]

Turmush darajasi - bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi majmuiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ularning daromad darajasiga ko‘ra haddan tashqari tabaqalashib ketishini jilovlash, nochor oilalar ko‘payishining oldini olishga imkon beradi. Aholi mehnat faoliyatining o‘sishi, iqtisodiy yuksalishning barqarorligi esa respublika aholisi barcha qatlamlari turmush darajasining o‘sishi uchun sharoit yaratadi.[19]

Mehnatkash o‘z malakasiga, ishining sifatiga yarasha maosh olishi kerak. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish, mehnatdan manfaatdorligini kuchaytirish, mehnat haqi, uni tabaqalashtirish darajasi mehnat unumdorligi va samaradorligini o‘stirishi bilan chambarchas bog‘liq masalalar hal qilinmoqda.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ko‘pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan asosiy prinsiplari sifatida mintaqalar iqtisodiyotining barqaror tuzilmasini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish, mamlakat iqtisodiyotini modernizasiya qilish va iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish hisobiga aholi turmush darajasini oshirish prinsiplarini e'tirof etish mumkin.[20]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining amaldagi real holatini aniqlash uchun, ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohasining kuzatuv usulidan ham foydalandik.

Kuzatuv ijtimoiy–iqtisodiy statistika sohasining bir qismi bo‘lib, u aholi turmush darajasini, asosan moddiy farovonligini o‘rganadi. Kuzatuv hujjatlari aholining farovonligi to‘g‘risida xolis va aniq tasavvur beradi, daromadlar darajasini ta'riflaydi, oila a'zolari bandligi, bu boradagi tafovutlarning sabablarini aniqlaydi, daromadlardan ba'zi birlarining shakllanish o‘rnini, iste'molning daromadi darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi, iste'mol ehtiyoji o‘zgarishlarini kuzatishga imkon yaratadi.

[1] Muallif ishlanmasi



1-rasm. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini vaziyatli tahlil va muhokama qilishni prognoz qilish sxemasi.[2]

Bu vazifalarni bajarish uchun jarayonning iqtisodiy matematik modelini (yoki algoritmlar majmuini) ishlab chiqishda, modelni algoritmlash va tahlilning sonli metodlarini tanladik. Bunda boshqaruvchi ta'sirlar algoritmini realizasiya qiluvchi dasturlar (yoki modullar majmui) tuzish bosqichini yaratamiz. Modelni yaratish uchun imitasiya ko'rsatkichlaridan foydalanamiz. Chunki imitasiya ko'rsatkichlarda avval jarayonning haqiqiy borishi va ma'lum ko'rsatkichlar yordamida aholi turmush darajasining o'zaro bog'liq bo'lgan masalalari, aholining harakat ko'rsatkichlari bilan birgalikda aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Shu ko'rsatkichlar yordamida aholi turmush darajasining barqarorligini prognoz qilishning imitasiya uslublari va modellari yaratiladi.

O'zbekistonda tarkibi har xil oilalar ulushining kattaligi bu hududdagi oilalar tarkibining o'ziga xos xususiyatidir. Bu yerda bitta turar joy maydonida yaqin qarindosh bo'lgan bir necha oila yashaydi, ularning ro'zg'ori va oilaviy byudjeti ham bitta bo'ladi. Mana shunday sharoitda oilalarni kam daromadli oilalar toifasiga o'tkazish mezoni va uni chamalash vositasini tanlab olish juda murakkab bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tabiiy resurslar, eng avvalo, ularning qayta tiklanmaydigan turlari hisoblanuvchi yer va suv resurslaridan tejamli va ehtiyotkorona foydalanish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va andozasini tanlab olish juda katta ahamiyatga molik. Bu yo'l va andoza iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasiga, shuningdek

[2] Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston xalqining milliy, tarixiy merosi, turmush tarzi, an’analari, ruhiyati va mentalitetiga tayanishi lozim.

Tahlillar va asosiy natijalar. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini o‘rganish ko‘p bosqichdan iborat bo‘ladi. Demografik jarayonlarni o‘rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlari aholining o‘sish sur’atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining o‘sishi o‘rtasida ziddiyat yoki nomuvofiqlik yuzaga kelganda demografik muammolar keskinlashadi.

A.Xudayberganov dunyo mamlakatlaridagi demografik jarayonlar to‘g‘risida fikr yuritib, demografik muammolarni hal etishda masalaning ikki jihatiga alohida e’tibor qaratgan. Birinchi jihati –tug‘ilishning va bolalar o‘limining yuqoriligi, aholining jinsi va yosh tarkibida yoshlarning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihati–mehnatga layoqatli aholi sonining ko‘payishidan, ularni ish o‘rinlari bilan ta’minlashning orqada qolishi bilan bog‘liq deydi.[12]

Tug‘ilish va demografik choralar ijtimoiy-iqtisodiy soha va aholi turmush darajasi rivojlanishi bilan mos kelmasa, kutilgan natijani bermaydi, ya’ni, demografik vaziyatni barqarorlashtirish va aholining mehnatda bandligini oshirish ishchi kuchining sifatini yuksaltirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish hisobigagina hal qilinishi mumkin.

N.S.Aliqoriyev, I.Agzamxodjayev, U.Qayumov, SH.Yusupov, G.O.Mahkamov, T.Ledenovalar aholini son va sifat jihatdan tahlil qilib, uning kelajakdagi 2011 yilgacha tarkibiy tuzilishi, ya’ni yoshini, jinsini hisobga olgan holda uzoq muddatli prognozining statistik muvozanat modellarini ishlab chiqdi.

A.N. Aliqoriyeva bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi harakati modelini ishlab chiqdi. Mehnat resurslarini va aholi bandligini boshqarishda aholining davlatlararo va ichki hududlararo doimo ko‘chib yurish harakatlarini o‘rganish va ularni oldindan hisob qilib berishning statistik va ekonometrik modellar majmuasini joriy qildi.[14]

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini prognoz qilish uchun, hududning demografik holati muhim omil hisoblanadi. Har qanday hududning aholisi o‘z tarkibi bo‘yicha bir xil emas va u vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan, shuning uchun aholining yashash qonuniyatlari, turmush darajasi, uning tarkibiy o‘zgarishi va boshqalar aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o‘rganiladi.

Demografik jarayonlarni o‘rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlari aholining o‘sish sur’atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Demografik jarayonni kuzatish obyekti bo‘lib, turli xil yig‘indilar: butun aholi, aholining alohida guruhlari, mehnat resurslari va hokazolar bo‘lishi mumkin. Shu holatlarni hisobga olib, *v*-guruhdagi aholining *t*-vaqtdagi umumiy sonini quyidagicha belgilaymiz.

$$A_t = \sum_{v=1}^{n} A_t^v \ (1)$$

Bu yerda: A_t – jami aholi soni *t*-yilda;

Tadqiqotda aholini hududiy jihatdan o‘rganish maqsadida demografik holati va mehnat resurslarini ikkiga bo‘lib o‘rgandik. Birinchisi, aholi soni, oilalar tarkibi va aholining o‘sish darajasi prognozi. Ikkinchisi, aholining intellektual salohiyatini o‘rganish va prognoz qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanamiz. Aholi turmush darajasini hududiy rivojlantirish jarayonlari uchta bosqichda oila, tuman va viloyat miqyosida olib boriladi. Shu nuqtai nazardan demografik jarayonlarni prognoz qilishda viloyat aholisining umumiy soni, aholining yosh va jins guruhlari bo‘yicha, qishloq va shahar aholisi turlariga bo‘lib, prognoz qilamiz.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etuvchi omillarga bir xil emas, balki har xil qiymatlar mos kelishini, ularning o‘zaro bog‘liqligi korrelyatsion bog‘lanishini o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu sohaga ta’sir qiluvchi barcha omillarning to‘liq ro‘yxatini (kuchini) aniqlash mumkin emas.

Bizning vazifamiz empirik modellashtirish orqali xo‘jalik yurituvchi subektlar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi kuchli va kuchsiz bog‘lanishlar mavjudligini baholashdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanamiz. Chunki maqsadimiz viloyat YaHM o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi har bir tarmoq rivojlanishiga ta’sir qiluvchi bog‘liqliklarning muhimligini, ishonchliligini baholashdir. Korrelyatsion tahlil orqali aholi turmush darajasiga ta’sir etuvchi bog‘liqlik meyorini o‘lchaymiz, lekin munosabatlarning sababini aniqlay olmaymiz.

Biz olib brogan tahlillarda 2003 – 2022 hisobot yillariga tegishli axborotlar tanlab oldik, bu axborotlar YaHM va ularga ta’sir etuvchi omillar tarmoqlarni ma’lum belgilar asosida belgilab oldik (1-jadval).

1-jadval

YaHM va ularga ta’sir etuvchi omillar

Yillar	YaHM Y (mln.sum)	Iqtisodiyotda band aholi soni(ming.kishi) X1	Xujalik yurituvchi subekt soni X2	Jami xizmatlar X3 (mln.sum)
2003	749579.4	770.5	31947	2465.8
2004	841302.2	796.4	47430	2511.7
2005	1178897.7	821.7	60944	2615.8
2006	1642638.2	850	72632	2735.9
2007	168354.1	900	70102	2897.6
2008	2831565	908.7	78251	2901.7
2009	3731935.4	940.2	82197	2948.3
2010	5160570.5	971.6	78651	2912.1
2011	5879473.4	1003.7	82242	2974.5
2012	8704900	1036.6	69283	3001.2
2013	8828100	1072.3	69014	3025.1
2014	10209200	1108.5	60092	3066.4

2015	13418000	1143.9	75061	3645.6
2016	14897000	1180.9	74578	4556.2
2017	22633400	1218	72587	5841.0
2018	28412200	1235	72698	6975.9
2019	31153200	1222.1	72921	8736.9
2020	34618100	1186.7	72921	10349.5
2021	43833300	1202.5	72921	13262.4
2022	49520800	1211.2	72921	15945.8

Qashqadaryo viloyatida YaHM nisbatan o'zaro bog'lqliklarini aniqlash uchun eng avvalo YaHM nisbatan bog'liqligini korrelyatsion va regression tenglamalar orqali ko'p omilli empirik modelini tuzib olamiz.

Jarayonlarining ko'p omilli empirik modellariga ega bo'lish uchun Eviews 9 dasturida bir necha variantlar hisob-kitob qilindi va tegishli natijalar olindi 2-jadval.

2-jadval

YAHM va ularga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion tahlili

Covariance Analysis: Ordinary					
Date: 10/10/23 Time: 17:51					
Sample: 2003 2022					
Included observations: 20					
Covariance					
Correlation					
t-Statistic					
Probability	Y	X1	X2	X3	
Y	2.23E+14				
Correlation	1.000000				
t-Statistic	-----				
Probability	-----				
X1	1.92E+09	24250.21			
Correlation	0.825141	1.000000			
t-Statistic	6.196871	-----			
Probability	0.0000	-----			
X2	4.52E+10	862667.9	1.34E+08		
Correlation	0.262076	0.478857	1.000000		
t-Statistic	1.152167	2.314199	-----		
Probability	0.2643	0.0327	-----		
X3	5.53E+10	402905.7	9420532.	14664377	
Correlation	0.967859	0.675638	0.212649	1.000000	
t-Statistic	16.32757	3.888167	0.923312	-----	
Probability	0.0000	0.0011	0.3681	-----	

2-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak xo'jalik yurituvchi subektlarni bog'liqlik darajasini korrelyatsion tahlil orqali aniqlaymiz. Y bilan Y ni bog'liqligi 1 ga teng. Chunki oziga-o'zi 1 ga teng bo'ladi. X1 bilan Y ni bog'liqligi ya'ni korrelyatsiyasi 0,82 ga teng. T-statistikasi 6,2 ga, t-statistika koeffitsientlarni baholovchi me'zon hisoblanadi. Baholash me'zoni ya'ni ahamiyatliligi jadvaldan ko'rinib turibdi. Demak ahamiytlilik darajasi yaxshi. Chunki 0.05 dan kichik bo'lish kerak. Biz 2-jadvaldan faqat bog'liqlik darajasini ko'rdik. Endi modelini qurishda ham Eviews 9 dasturidan foydalanamiz eng kichik kvadratlar usuli ARMA modelidan foydalanamiz 3-jadval.

3-jadval.

Viloyat YaHM ga nisbatan omillar ulushining korrelyatsion modeli[3]

Dependent Variable: Y				
Method: Least Squares				
Date: 10/10/23 Time: 17:53				
Sample: 2003 2022				
Included observations: 20				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	34075.99	2856.733	11.92831	0.0000
X2	-85.03762	29.01356	-2.930962	0.0098
X3	2889.043	104.3723	27.68017	0.0000
C	-30009576	2431290.	-12.34307	0.0000
R-squared	0.993942	Mean dependent var		14420626
Adjusted R-squared	0.992806	S.D. dependent var		15306466
S.E. of regression	1298279.	Akaike info criterion		31.16783
Sum squared resid	2.70E+13	Schwarz criterion		31.36698
Log likelihood	-307.6783	Hannan-Quinn criter.		31.20671
F-statistic	874.9978	Durbin-Watson stat		2.039874
Prob(F-statistic)	0.000000			

P=0.05

Y=-30009576+34076*x1-85.04x2+2889,04x3

t -12,34 11,93 -2,93 27,68

3-jadvalda viloyat YaHM ga ta'sir etuvchi omillar uchun empirik model qurilgan va bu modelni hamda parametrlarini baholashda mezonlardan foydalanib, ularning ahamiyatliligi ko'rsatilgan. Agar natijaviy omilning qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmasa, u holda hisoblangan DW mezonining qiymat 2 atrofida bo'ladi.

Qurilgan modellarda (chiziqli regressiya tenglamalari uchun) hisobga olingan parametrlar turli ko'rsatkichlardan iborat. Shuning uchun tahlil qilishda elastiklik

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

koeffitsiyentlarini hisoblab chiqish lozim. Masalan, tarmog‘lar uchun qurilgan model tahlilida elastiklik koeffitsiyentlari topildi (4-jadval).

4 -jadval.

Viloyat YaHM ga nisbatan omillar qurilgan model koeffitsiyentlarining elastikligi[4]

Scaled Coefficients			
Date: 10/10/23 Time: 18:04			
Sample: 2003 2022			
Included observations: 20			
		Standardized	Elasticity
Variable	Coefficient	Coefficient	at Means
X1	34075.99	0.355688	2.455219
X2	-85.03762	-0.065941	-0.409659
X3	2889.043	0.741565	1.035457
C	-30009576	NA	-2.081018

Omillar qanchalik o‘zgarganda, ya’ni ular 1 foiz o‘zgarganda elastiklik qiymati shu omillarning oddiy qilib aytganda chastotasini (tebranishi)bildiradi. Har bir ta’sir etuvchi omillar funktsiyasini Y=f(X1,X2,X3)+Ɛ deb belgiladik. YAHM ning uchta omilga bog‘liqligidan X1ning 1 foizga oshishi Y ning 2.46 foizga oshishini, X2 ning 1 foizga oshishi Y ning 0.4 foizga kamayishi, X3 ning 1 foizga oshishi Y ning 1.04 foizga oshishini ko’rsatadi. Demak X1 va X3 omillar YAHM ga ijobiy ta’sir qiladi.

Hosil qilingan trend modellar asosida xo‘jalik yurituvchi subektlarining 5 yillik rivojlanish jarayoni prognozi quyidagicha natijaga erishishi mumkin ekanligi ko‘rsatildi (5 -jadval).

Yil-lar	YaHM (mlrd. so‘m) Y	SANOAT (mlrd. so‘m) Y1	Q/X (mlrd. so‘m) Y2	QURILISH (mlrd. so‘m) Y3	TRANSPORT VA ALOQA (mlrd. so‘m) Y4	SAVDO (mlrd. so‘m) Y5	SOF SOLIQ (mlrd. so‘m) Y6	KBXT (mlrd. so‘m) Y7
2023	10015820.7	-1488.9	3650.9925	2332.2321	493.589033	1363.459	3554.083	7036.894
2024	10442542.8	-582.607	3797.7816	1709.4984	508.671921	1615.776	4653.4132	7482.716
2025	10877686.3	1994.913	5195.5843	2711.6139	524.215706	1901.951	6104.3114	7943.466
2026	11321251.2	7143.259	8907.6936	6911.2536	540.234472	2221.984	8001.9148	8419.144
2027	11773237.5	16029.93	16402.4625	16510.9125	556.742733	2575.875	10461.595	8909.75
2028	12233645.2	30134.84	29631.724	34469.2776	573.755446	2963.624	13621.922	9415.284

Olingan prognoz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, viloyat bo‘yicha YaHM 2023-yil narxida tahlil qilsak, 2023 yildagi 10015820.7 mlrd so‘mdan 2028 yilda 12233645.2 mlrd so‘m oshgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda model va algoritmlar bozor sharoitida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday tasodifiy hollarni hisobga olgan holda tuzilish kerak. Hudud iqtisodiy tizimini yanada samarali rivojlanishida aholi turmush

[4] Muallif tomonidan Eviews 9 dasturidan foydalanib olingan natijasi.

sharoitlarini yaxshilash uchun unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy muhit va milliy iqtisodiy tizimning kiruvchi va chiquvchi parametrlarining yaroqliligi hisoblanadi. Har qanday mamlakatning aholisi o'z tarkibi bo'yicha bir xil emas va u vaqt bo'yicha o'zgaruvchan, shuning uchun aholining yashash qonuniyatlari, turmush darajasi, uning tarkibiy o'zgarishi va boshqalar aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'rganiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ekonometrik modellashtirish metodologiyasi yordamida hududlar (mintaqalar, davlatlar yoki hududiy bo'linishlar) darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Родионова И.А. Региональная экономика. М.: Эгзамен, 2003. -С.6.
2. Хасаев Г.Р., Цыбатов В.А. Технология прогнозирования регионального развития: О теоретические основқ государственного регулирования экономического развития регионов" Вопросы экономики. –Москва: 2000.С-47.
3. Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. 2003 г. Стат. сборник. - Т., 2004— С.48-50.
4. Ваҳобов А. Бозор муносабатларига ўтиш босқичидаги кўп укладли иқтисодиёт ва унинг такроран ҳосил бўлиши. - Т.: Молия, 2002- Б.45.
5. Экономическая цена социальной политики. Актуальные проблемы Европы. Экономика, политика, идеология.Вып.1М.,1991-С.212.
6. Программа углубления экономических реформ правительства Российской Федерации,-Вопросы Экономики, №8,1992. С.67.
7. Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективие. - М.: Дело ЛТД, 1994, с. 104.
8. Мирзаев Ш.А. «Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики» (на материалах Узбекистана) // автореферат дис., Ташкент-2006,с. 8.
9. Абдуллаев И.С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишнинг механизмларини такомиллаштириш. Иқт.фан.бўйича док. (DSc) диссертацияси автореферати.Тошкент, 0 , 66 б
10. Ахмедов Т.М. Регулирование терртиориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана Ташкент Фан С-8
11. Беркинов Б., Джураев Т., Мухитдинов Х.С. Моделированые механизма индексации доходов населения. //Вопросы моделирования и информатизации экономики. -Ташкент: НПО "Кибернетика" АН Руз, 1995. -вып. 6. -С. 3-14.
12. Худайберганов А. Тадбиркорликда ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш //Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. –Тошкент, 2004. -№5-6. -Б. 10-12
13. Алиқориев Н.С., Агзамходжаев И., Каюмов У.К., Маҳкамов Г.О. Информацион-ная технология в системе управления процессами занятости//Вопросы модели-рования и информатизации экономики.-Ташкент: НПО "Кибернетика" АН Руз. -1992. -вып.4.-С.150-157.

14. Аликориева А.Н. Моделирование движения рабочей сылы в условиях рыночной экономики //Вопросы моделирования и информатизации экономики.-Ташкент: НПО "Кибернетика" АН Руз.-1992. –вып. 4. -С.110-117.
15. F. Qodirov Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
16. F. Qodirov Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
17. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
18. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
19. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
20. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
21. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
22. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).
23. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
24. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
25. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).

QASHQADARYODA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING RIVOJLANISHI.

Qanoatova Feruza Bobokulovna
Shahrisabz DPI Tarix kafedrasi dosenti, falsafa fanlari nomzodi
fkanoatova@yandex.ru
tel. +998 91 211 88 48

Annotasiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari, mamlakatda ayollar tadbirkorligi, Qashqadaryo viloyatida*

tadbirkorlik xotin - qizlarning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtiroki, ularning faoliyati misollar yordamida bayon etilgan.

Kalit so'zlar; *tadbirkorlik, tadbirkor ayol, "Hunarmand" uyushmasi, jismoniy shaxs,huquqiy me'yorlar, iqtisodiy imkoniyatlar, ishbilarmon ayollarni rag'batlantirish, mikrokredit.*

РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КАШКАДАРЬЕ.

Каноатова Феруза Бобокуловна
доцент кафедры истории Шахрисабзского ДПИ,
кандидат философских наук
fkanoatova@yandex.ru
тел. +998 91 211 88 48

Аннотация. *В данной статье рассмотрены основные направления структурных изменений, реализуемых в экономике Узбекистана с первых дней независимости, женское предпринимательство в стране, участие предприимчивых женщин и девушек в реализации социальных, политических и экономических реформ в Кашкадарьинской области, их деятельность описана на примерах.*

Ключевые слова; *предпринимательство, деловая женщина, ассоциация «Хунарманд», личность, правовые нормы, экономические возможности, поощрение деловых женщин, микрокредитование.*

DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN KASHKADARYA.

Kanoatova Feruza Bobokulovna
Shahrisabz DPI History Department Associate Professor, Candidate of Philosophy
fkanoatova@yandex.ru
tel. +998 91 211 88 48

Abstract. *In this article, the main directions of structural changes implemented in the economy of Uzbekistan since the first days of independence, women's entrepreneurship in the country, the participation of entrepreneurial women and girls in the implementation of social, political and economic reforms in the Kashkadarya region, their activities are described with the help of examples.*

Key words. *entrepreneurship, business woman, "Hunarmand" association, individual, legal standards, economic opportunities, encouragement of business women, microcredit.*

Kirish. Hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbikorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab - quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ayollar tadbirkorligining salmog'ini ortib borayotganligi ularning ko'p vazifali qobiliyatlarini namoyish etishining natijasidir. Tadbirkor ayollar, albatta, o'zlarining kichik va o'rta korxonalarini samarali boshlashlari, tashkil etishlari, rejalashtirishlari

va faoliyat yuritishlari mumkin. Tadbirkor ayollar sonining ko‘payishi iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni rag‘batlantirishi mumkin, bu esa jismoniy shaxslarning o‘zini o‘zi boshqarishini osonlashtiradi va qimmatli inson kapitalidan foydalanishni yaxshilaydi.

Ayollik xususiyatlari va iste'dodlarini tadbirkorlik uchun katta afzalliklarga ega bo‘lgan kuch manbalari sifatida ko‘rish mumkin. Kasbiy malakasi yuqori bo‘lmagan va iqtisodiy darajasi past bo‘lgan ayollar uchun tadbirkorlik pul topish va oila daromadiga hissa qo‘shish vositasidir.

Adabiyotlar tahlili. Keyinggi yillarda ilmiy adabiyotlarida tadbirkorlik hodisasi-ning chet el talqinlarining juda ko‘p tavsiflari, ularning ma’nosini batafsil tavsiflari A.Smit, K.Marks, I.Shumpeter, F.Hayek, V.Sombart, M.Websr kabi mashhur mualliflar tomonidan ham berilgan[3;33].

Ammo, afsuski, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha hali ko‘zlangan darajaga erishilgani yo‘q. Mavzu tarixshunosligining ikkinchi guruhida xorijda nashr etilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda sohada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalari xorijlik olimlar tomonidan ma’lum yondashuvlar asosida o‘rganib kelinayotganligini ta’kidlash o‘rinli. Bular Boris Rumer, G.Kartis, Rodjer D.Kangas, M.Onita, A.Tabishaliyeva, YE.Kalyujnova, A.Akimov, R.Xizrich, M.Piters, S.V.Jukov, O.B.Reznikova, T.A.Fink, V.M.A.Kusainov, A.N.Levushkinlarning tadqiqotlari [3;33].

Tarixshunoslik materiallarining tahliliga ko‘ra, iqtisodiy mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham e’tiborga molikdir. Ularda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlari, ba’zi o‘rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari bayon qilingan. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, mazkur yo‘nalishda aholi bandligini ta’minlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish hamda uning ustuvor yo‘nalishlarini yanada rag‘batlantirish masalalari bayon qilingan. Bu borada R.Abdullayev, Sh.Raxmatullayev, M.Raximov, E.Nuriddinov, Sh.Ziyomov, Tursunov I.E., F.Rashidova, A.Xalliyev, A.Golovanov, D.G‘ulomova, T.Mo‘minov, N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, Q.Usmonov, M.Sodiqov, V.Ishquvatovlarning o‘z mavzulari doirasidagi tadqiqotlari, chop etgan kitoblari birmuncha salmoqlidir[3;33].

Metodologiya. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarni ishlab chiqarish sohalarida jalb etish borasida mamlakat miqyosida katta ishlar boshlanib yuborildi. Respublikaning barcha vilotlari qatori Qashqadaryoda ham xotin - qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ishbilarmon ayollar faoliyatini qo‘llab - quvvatlash, xotin - qizlar o‘rtasida mulkdorlar sinfini shakllantirishga dolzarb masala sifatida qaraldi.

Masalan, 1995-yillar davomida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanisga kirishgan xotin - qizlar sonini osishi dinamikasiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, Qashqadaryo viloyatida 1573 nafarni tashkil etgan bo‘lsa 1996-yilga kelib bu ko‘rsatkich ancha oshganligini kuzatish mumkin, ya`ni Qashqadaryo 2019 nafarga etdi[7;3-4]. E’tiborli tomoni shundaki viloyatda bir yil mobaynida tadbirkor ayollar soni 446 nafarga, oshgan [7;3-4].

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab viloyatda Gulchehra Pirimqulova, Nazira Shodmonovalar tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan edilar[7;3].

Mebelsozlikda ish boshlagan tadbirkor Salomat Kamolovaning “Qarshimebel” jamoasi hozirgi kunlarda ham faoliyatini xilma - xil zamonaviy o‘quv jigozlarini ishlab chiqarish bian davom ettirib kelmoqda. Shuningdek, Respublika Prezidenti sovriniga sazovor bo‘lgan Qarshi tumanilik hunarmand Xumora Bekmurodova va Shohida Tursunovalar bugungi kunda o‘z hunarlarini yoshlarga o‘rgatib kelmoqdalar[7;3-4].

Bu borada “Hunarmand” uyushmasining Shahrisabz hududi rahbari Gulnora Odilovaning olib borayotgan ishlari tahsinga loyiqdir. Birgina 2023-yilning ozida 50 dan ortiq xotin-qizlar yushmada hunar o‘rganib, ish bilan ta’minlandi. "Hunarmand" yushmasimasi tashabbusi bilan “ustoz - shogird” an’anasi asosida hududdagi 30 dan ortiq hunarmandlarga 300 nafar shogirdlar biriktirilgan[7;3-4].

Imkoniyatlar samarasi sifatida, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar 1997-yilga kelib Qashqadaryo viloyatida 53 tani, shuningdek, xorijiy investitsiyalar asosida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan korxonalar soni Qashqadaryo viloyatida 37 tani tashkil etdi [7;133].

Bugungi kunda xotin - qizlar tadbirkorlikda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgach e’tirof etilsa - da, aslida ularning soni yuz minglab, chunki o‘zbek xonadonlariga kirganda qo‘lda to‘qilgan gilamlar, qo‘lda tayyorlangan uy jihozlarini ko‘rish mumkin.

Ayniqsa Qashqadaryo hududida ishsiz deb e’tirof etilgan aksariyat ayollar ham nimadir yaratadi. Masalan, gilam to‘qiydi, ko‘rpa - to‘shak, ashtachilik, tandir yasash, savat to‘qish, sut-qatig‘ni qayta ishlab ro‘zg‘ori uchun moddiy boylik yaratadi.

O‘zbekistonda hunarmandlarning huquqlarini himoya qilish, qulay ish sharoitlarini yaratish maqsadida ko‘plab chora - tadbirlar amalga oshirildi. Bunday samarali ishlar natijasida mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning yildan - yilga oshishi tadbirkorlarning hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirdi. Tadbirkorlik sohasida hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda va turli yo‘nalishlarini rivojlantirishda yangi an’analar bilan boyitish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31 martdagi PF-1741-sonli Farmoni asosida 1997-yil 4 iyunda “Hunarmand” uyushmasi tashkil etildi. Respublika bo‘yicha uyushmaning 13 ta boshqarma, 153 ta hududiy bo‘limi faoliyat ko‘rsatdi[1].

1998-yilga kelib Qashqadaryo viloyatining shahar, tuman va qishloqlarida xususiy va kichik korxonalar negizida hissadorlik jamiyatlarini tashkil etgan ayollar safi anchayin kengaydi. Jumladan, Feruza Xudoyqulova (Shahrisabz tumani), Zaynab Gulbayeva (Qarshi shahri), Go‘zal Sharopova (G‘uzor tumani), Raqiba Shavliyevalar shular jumlasidandir[7;52].

Iqtisodiy sohada xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida vohalarda muhim vazifalarga e’tibor qaratildi. Xotin-qizlar tomonidan kichik va o‘rta, qo‘shma korxonalar tashkil etish va ularga ko‘maklashish, ikkinchidan, hududlarda tadbirkor va ishbilarmon ayollar safini oshirish, uchinchidan, xotin-qizlar uchun imtiyozli kreditlar berish hamda ularning miqdorini ko‘paytirish, to‘rtinchidan,

ishbilarmon ayollarni rag‘batlantirish, ularni xususiylashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash kabi muhim vazifalar shular jumlasidandir[6].

Respublikaning boshqa viloyatlari singari Qashqadaryo viloyatida ham tadbirkorlik ishlari “Tadbirkor ayol” uyushmasi bilan hamkorlikda boshlangan. Jumladan, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda 1994-yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida X.Bekmurodova tomonidan “Xumor” fermer xo‘jaligi, N.Xudoyqulova tomonidan esa “Ulug‘bek” nomli shirkat xo‘jaligi tashkil etildi[7;28].

Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlashga oid me’yoriy-huquqiy asos yaratilgani tadbirkor ayollar faoliyatini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy manbalarni ajratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikada tadbirkorlar uchun ajratilgan kreditlar miqdorining yildan-yilga oshirilishi bilan birga imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu tadbirkorning biznes loyihasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Berilayotgan sarmoyalar asosan maishiy xizmat ishlarini rivojlantirish, tikuvchilik sexlarini tashkil etish, qandolat va shirinliklarni tayyorlash sexlarini ishga tushurish, jamoat ovqatlanish shaxobchalarining ochilishiga qaratildi. Biznes fond tomonidan 2000 yilda xotin-qizlar orasida shaxsiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun 51 nafar tadbirkor ayolga 19 109 ming so‘m miqdorida kredit ajratildi[7;3]. Natijada 2002 oktabrgacha bo‘lgan muddatda sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, maishiy xizmat va boshqalarda jami 5400 tadbirkor ayol o‘z biznesini rivojlantirdi[7;30].

2002-yil Qashqadaryoda o‘z biznesiga ega ayollar birin-ketin namoyon bo‘la boshladi, lekin aksariyat ayollar o‘z tadbirkorligini boshlash davrida bir necha muammolarga duch kelgan. Masalan, 2002-yilda 80 ta tadbirkor ayol ishchi guruhlarga muammolar bilan murojaat qilgan. Ayollarning aksariyati yangi qonunlarni bilmasligi, ro‘yxatga olish bo‘limlarida tadbirkor ayollarga to‘g‘ri maslahatlar ko‘rsatilmaganligi, puxta biznes rejasiga ega emasligi, imtiyozli kredit berish uchun resurs etishmasligi va bank bilan bog‘liq muammolar bilan murojaat etishgan. Natijada, tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lgan xotin-qizlarning murojaatlari asosida 80 tadan 22 nafar ayolga kredit loyihasi amalga oshirildi, 17 nafar tadbirkor ayolga “Biznes fond” tomonidan “Boshlang‘ich sarmoya olib berilgan”, 5 ta tadbirkor ayolga Mehnat bandligi tomonidan imtiyozli kredit olib berildi[6;15]. Shunday ayollardan Baraka Po‘latova (Kasbi tumanidan), Muqaddas Rahimova (Qamashi tumani), Mariyam Eshqulova (Nishon tumani) kabilardir. O‘zbekiston savdo-sanoat palatasiga a’zo bo‘lgan tadbirkorlarni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari kesimida tahlil etganda Qashqadaryoda 494 nafar (27,4 %)ini ayollar tashkil etdi [7;127].

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlar uchun banklar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori yildan - yilga oshib boranligini quyidagi jadvalda korish mumkin[7;51].

1-jadval

Yillar	2005	2006	2007	2010	2011	2012	2013	2014
kredit miqdori	721, 5 mln	1597, 1 mln	3884, 9 mln	11,4 mlrd	16,2 mlrd	22,0 mlrd	31,5 mlrd	46,1 mlrd

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga viloyatda xotin-qizlar bilan ishlash borasida bir qator kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Masalan, 2004 - 2005 yillarda tijorat banklari va boshqa mutassaddilarning sovuqqonlik munosabati tufayli

tadbirkorlik bilan band bo‘lgan xotin-qizlarga tijorat banklari tomonidan yetarli darajada kredit mablag‘lari ajratilmadi.

2012 yil 10 avgustdan 2013 yil 28 fevralgacha o‘tkazilishi belgilangan loyiha BMTning Unwomen (ayollar tuzulmasi) hamkorligida Qarshi tumanida alohida “Mikrokreditbank” moliyaviy ko‘magida qator ishlar amalga oshirildi[7;133]. Shuningdek, tadbirkor ayollarga boshlang‘ich sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlar olishida ko‘maklashildi. Masalan, 2013 yilda 20 mlrd. so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. 2013 yilda 6000 nafar tadbirkor ayollar faoliyat ko‘rsatdi, shundan 23 nafar ayol ta’lim sohasida, 43 nafar ayol tibbiyot sohasida, 713 nafar ayol ishlab chiqarishda, 1161 nafar ayol xizmat ko‘rsatishda, 3350 nafari savdo sohasida va 660 nafari boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatdi. 12400 nafar xotin-qizlar turli hunarlarga o‘rgatildi[7;133].

Qashqadaryo viloyatida ayollar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar to‘g‘risida ma`lumotlar jadval asosida quyidagicha o‘rganildi.

2-jadval

Tuman va shahar	**2015 yilda**	**2016 yilda**	***O‘sish (mln.)***
Qarshi shahri	13035	17430	*4395*
Qarshi tumani	3926	5119	*1193*
Koson tumani	3279	4473	*1194*
Kasbi tumani	2714	3281	*567*
Mirishkor tumani	1747	2293	*546*
Dehqonobod tumani	1727	2197	*470*
G‘uzor tumani	4732	5692	*960*
Qamashi tumani	3029	4619	*1590*
Yakkabog‘ tumani	3479	4905	*1426*
Chiroqchi tumani	3543	4630	*1087*
Shahrisabz tumani	7124	9148	*2024*
Muborak tumani	4550	5722	*1172*
Kitob tumani	3654	5110	*1456*
Nishon tumani	3450	4289	*839*
JAMI	**59989**	**78908**	***18919***

Demak, 2015 yilda Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdori 59,989 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda bu 78,908 mln. so‘mdan iborat bo‘ldi. 2015 yilning birinchi choragida “Imkon ekspress invest” mikrokredit tashkiloti tomonidan 160 nafar xotin - qizlarga jami 220 000 000 (ikki yuz yigirma million) so‘m miqdorida kreditlar berildi[4].

Davlat tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlarning berilishi ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Qashqadaryo viloyatida 2020 yil, jami xotin-qizlar 1622500 nafarni tashkil etdi. Shundan rahbar xotin-qizlar 2928 (0,18%) nafarni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sohasida 11 nafar, tadbirkor markazlarida 11 nafar, savdo sohasida 657 nafar xotin-qizlar rahbarlik qildi[6].

Ayollarni davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, sharoitlargina tadbirkorga aylantirmaydi. Ularning safini ko‘paytirish uchun, avvalambor huquqiy va iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlikda firmalarga egalik qilayotgan xotin - qizlar ulushi Qashqadaryoda 2018 yil 19,3%, 2019 yil 20,9%, ya’ni 1,6% o‘sganini, 2020 yil 22,7% ni, 2021 yil 33,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, unda 11,0% oshganini ko‘rsatdi[13]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida firmalarda tadbirkorlikni yuritayotgan ayollar ulushi yildan - yilga o‘shgan.

Islohotlar samarasi o‘laroq, xotin - qizlar bandligiga alohida e’tibor berildi. Ishsizlik darajasini qisqartirish maqsadida qabul qilingan bandlikka ko‘maklashuvchi Davlat dasturlari bajarilishi va ish o‘rinlari yaratilishi bo‘yicha quyidagilarga e’tibor qaratildi:

– qisqartirilgan xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilmasdan malakasini o‘zgartirish asosida ishsizlikning oldini olish kabi muhim bandlar kiritildi[7;40].

Xotin - qizlarni ish bilan band etishda hududiy dasturlarning bajarilishini ta’minlash maqsadida quyidagi vazifalar qo‘yildi:

qishloq xotin-qizlarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, ayollar bandligi masalasini hal etish va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish;

qishloq joylarining yengil sanoat korxonalarida pudratchilar asosida kasanachilikni rivojlantirish va imtiyozli kreditlar ajratish; oilaviy hunarmand bo‘lgan oilalar ishtirokida kasb - hunar yarmarkasi tashkil etish;

chekka hududlarda, ayniqsa chegara hududlardagi ishsiz ayollarni ro‘yxatga olish, tahlil qilish, ularni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish kabilar shular jumlasidandir. Bu vazifalarni amalga oshirish ishlari bevosita tadbirkor ayollar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish maqsadida 2019-yil davomida xotin - qizlar va oilani qo‘llab - quvvatlash jamoat fondi mablag‘laridan xotin - qizlarga imtiyozli kredit berish tizimi yaratilib, viloyatga 11,25 mlrd so‘m kredit yo‘naltirildi. Shuningdek, Ustoz - shogird an’analari asosida 860 ta hunarmandchilik va 623 ta kasanachilik asosida ish o‘rinlari yaratildi[13].

Qashqadaryo viloyati ishbilarmon ayollari tomonidan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha tinimsiz izlanishlar olib borildi. Viloyatda shahrisabzlik tadbirkor ayol Yulduz Mamadiyorova o‘z faoliyatini 1998 yil “Tadbirkor ayol” uyushmasiga a’zo bo‘lishdan boshlan edi. U 1999-yil Fransiyaning Monpelye shahrida malaka oshirdi. 2003-yilda Xorijiy tillarni o‘rganish markazini ochib, undan kelgan daromad hisobidan “Yembroyderi group”, ya’ni iroqi kashtachilik guruhini tashkil etdi. 2004-yil Amerikaning Vuster (angl. Worcester) shahrida “Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish” mavzusida e’lon qilingan konkursda ishtirok etib, u yerda 1 oy o‘qib qaytgach o‘zining yangi biznes loyihasini ishlab chiqdi. O‘z faoliyatini 3 nafar ishchi bilan boshlagan tadbirkor, keyinchalik ularning sonini 50 nafarga yetkazdi[6].

Yosh tadbirkorlar Kamola Qodirova 2008-yil yosh tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Yosh tadbirkorlar maktabi” tanlovining respublika bosqich g‘olibi va

grant sovrindori bo‘ldi. U keyingi yillarda ham o‘z izlanishlarini davom ettirib, ma’lum yutuqlarga erishdi. 2010-yil “Fond Forum” tomonidan o‘z ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun grant bilan taqdirlandi. K.Qodirova “Ko‘hinur Baraka Kafolat” MCHJ raisi, o‘z ishlab chiqarish faoliyatiga ega tadbirkor ayol hisoblanadi. Tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar mahalliy va chet el bozorlari, ko‘rgazmalar, forum hamda elektron savdolarda sotuvda quyildi[16].

O‘zbekistonda tadbirkorlikni turli turlarini rivojlantirish, shuningdek, faol tadbirkorlarni innovatsion g‘oyalar bilan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2011-2018 yillar Davlat dasturida muhim vazifalar belgilab qo‘yildi. Bu tadbirlar xotin-qizlar o‘rtasida xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi.

Ishlari diqqatga sazovor tadbirkorlardan yana biri Chiroqchi tumanida o‘zining tadbirkorlik faoliyatini keng yo‘lga qo‘ygan Saltanat Qo‘ldoshevadir. U o‘z qishlog‘idagi bir necha xotin - qizlarni ish bilan ta’minlagan ishbilarmon ayollardan biri hisoblanadi. U faoliyatini jun mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar, asosan gilam to‘qib sotish bilan shug‘ullandi. Tadbirkor Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi turistik kompaniyalar bilan hamkorlikda sayyohlarga mahsulotlarni sotishni yo‘lga qo‘ydi[11].

2019-yil AQSH ning Filadelfiya shahrida shahrisabzlik hunarmand Gulnora Odilovaning “Gulnor LLC” savdo uyi o‘z faoliyatini boshladi. Bundan ko‘zlangan maqsad okeanortiga milliy to‘qimachilik mahsulotlari eksportini tizimli yo‘lga qo‘yish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘ldi. Shu o‘rinda aytish kerakki, “Gulnor” brendi ostida 20 ming dollarlik tovarlar sotildi. 50 ming dollorlik kelishuvlarga erishildi. Amerika kompaniyalari o‘zbek milliy mahsulotlariga qiziqish bildirib, sotib olish hajmlarini keskin oshirishga tayyorligini bildirdi. 2020-yil yanvar oyida mo‘ljallangan tadbirda ishtirok etish bo‘yicha shartnoma imzoladi[12].

Xulosa qilib aytganda, o‘rganilayotgan davrda viloyatda ishbilarmon tadbirkor ayollar faoliyati rivojlanib, amaliy natijalarga erishilganligi kuzatildi.

Mamlakatda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning erkinligi, moddiy ahvolini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida xotin-qizlarning bandligi, yaxshi mehnat sharoitlari ta’minlandi. Ishlab chiqarish salohiyatining ortishi mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutib kelmoqda.

Tadbirkor ayollar - bu shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lish uchun qiyin rolni qabul qiladigan shaxs. Jamiyatda tadbirkorlarning favqulodda vaziyatlari uchun mas'ul bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, madaniy va boshqa omillar mavjud. Tadbirkor ayollar oilaviy biznesda yoki sheriklikda asosiy bo‘lgan yoki u ishlaydigan jamoat kompaniyasining aksiyadori bo‘lgan kishiga bitta ayol biznesini boshlagan kishiga teng ravishda murojaat qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997-йил 4 июлдаги “Ҳунарманд” халқ ҳунармандлари уюшмасини ташкил этиш ва унинг фаолияти масалалари тўғрисида”ги 282-сонли Қарори // https://lex.uz/docs/540056
2. Inomova S. E’zozli ayol iqboli: davr jamiyat shaxs. – T.: “O‘qituvchi”, 2005. – B.28.

3. Qanoatova Feruza O‘zbekistonda xotin - qizlar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tarixi (1991-2021 yy.).Monografiya. – Qarshi, ” Intellekt”. 2023, 33b.
4. O‘zbekiston ayollari va erkaklari statistik to‘plam 2000-2005.-T.,2007 .127 b.
5. “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston Ishbilarmon Ayollar Assotsiatsiyasi Qashqadaryo viloyati bo‘limi joriy arxivi ma’lumotlari hamda Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2016-yilgi hisobot papkasi ma’lumotlati asosida shakllantirildi.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 2019-2020 yillar hisobot papkasidan
7. QVHA, 829-fond, 15-ro‘yxat, 66-ish, 3 - 4 varaqlar.
8. O‘zMA, M-37 fond, 1-ro‘yxat, 2559-ish, 133-varaq.
9. Shahrisabz hunarmand mikromarkazi - https://oz.sputniknews.uz
10. Qashqadaryo viloyat hokimligining 2004 yilgi hisobot papkasidan.
11. Qashqadaryo viloyat “Tadbirkor ayol” uyushmasining 2014 yil uchun tayyorlangan hisoboti papkasidan.
12. AQSH da O‘zbekistonlik hunarmandning savdo uyi ochildi // “Xalq so‘zi”, 2019 yil 24 avgust.
13. Sayqal topayotgan hunarlar // “Qashqadaryo” gazetasi, 2013 yil 5 iyul.
14. O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasi. Gender statistikasi. https://gender.stat.uz/
15. Kashtaning Shahrisabzlik usta – farangi // “Tadbirkor ayol” iqtisodiy-ma’rifiy jurnal, 2016 yil 1-son.
16. “Ko‘hinur Baraka Kafolat” mas’uliyati cheklangan jamiyati.- https://allcompanies.by

KASBIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD
e-mail: xafiz1068@gmail.com, Tel: (97) 634-44-22

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlar kasb tanlashiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning shaxs shakllanishidagi ahamiyati masalalari yoritilgan. Unda o‘smirlarga o‘quv jarayonida ma’lum bir kasbga xos tushunchalarni berish, kasb-hunarga yo‘naltirish va kasb o‘rgatish, yoshlarning ijtimoiy-innovatsion jarayonlarga transformatsiyalashuvini ta’minlash, o‘smirlarning ijtimoiy mobilligi va kasbiy o‘sishini ta’minlash, kasbiy motivlarning shakllanish omillari to‘g‘risida ilmiy xulosalar berilgan. Muallif mazkur muammo hozirgi kunda juda dolzarb ekanligi, uni o‘rganish psixologlar oldida muhim vazifalarni qo‘yayotganligi, mamlakatimizda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.*

Kalit so‘zlar. *faoliyat, o‘smir, muhit, kasb-hunar, o‘quvchi, shaxs, kasb tanlash, motiv, qiziqish, qobiliyat, iroda, barqarorlik, qadriyat, oila, status.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Бекмуродова Хафиза Номоз кизи
Старший преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института доктор психологических наук доктор философии
e-mail: xafiz1068@gmail.com, Тел: (97) 634-44-22

Аннотация. *В статье описаны социально-психологические факторы, обуславливающие выбор профессии подростками и их значение в формировании личности. В ней даются научные выводы об обеспечении подростков специфическими для определенной профессии понятиями в образовательном процессе, профессиональной ориентации и профессиональном обучении, обеспечении включения молодежи в социально-инновационные процессы, обеспечении социальной мобильности и профессионального роста подростков, а также факторы формирования профессиональных мотивов. Автор отметил, что эта проблема очень актуальна на сегодняшний день, что ее изучение ставит перед психологами важные задачи, а подготовка молодежи к профессии важна и в нашей стране.*

Ключевые слова. *деятельность, подросток, окружающая среда, профессия, ученик, личность, выбор профессии, мотив, интерес, способности, воля, стабильность, ценность, семья, статус.*

FORMATION OF PROFESSIONAL ACTIVITY AS A SUBJECT OF PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi
Senior lecturer of the shahrisabz State Pedagogical Institute PhD in philosophy in Psychological Sciences
e-mail: xafiz1068@gmail.com, Tel: (97) 634-44-22

Annotation. The article describes the socio-psychological factors that determine the choice of profession by adolescents and their importance in the formation of personality. It provides scientific conclusions about providing adolescents with concepts specific to a particular profession in the educational process, vocational guidance and vocational training, ensuring the inclusion of young people in social innovation processes, ensuring social mobility and professional growth of adolescents, as well as factors in the formation of professional motives. The author noted that this problem is very relevant today, that its study poses important tasks for psychologists, and the preparation of young people for the profession is also important in our country.

Key words. activity, adolescent, environment, career, Student, person, career choice, motive, interest, ability, will, Stability, value, family, status.

Kirish. Mamlakatimizda o‘smirlarning kasbiy intilishlari ehtiyojlar asosida o‘z qobiliyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, o‘zini determinatsiyalash, o‘z “men”ini shakllantirish, dolzarblashishiga nisbatan ichki moyillik, ijtimoiy munosabatlar shakllanishi, hayotining ma’nosini topishga yo‘nalish, o‘zini mukammallashtirish, kasbiy faoliyatga ehtiyoj, motiv va stimulning mavjudligi kabi qarashlar bilan tushuntirilmoqda. O‘smirlarning kasb tanlashiga ota-ona, do‘stlar, pedagoglari kabi

asosiy omillar ta'sir etishi keltirilmoqda. Ma'lum bir kasbning o'ziga xosligini anglamasdan, shunchaki yoqtirish yoki qiziqish kasb tanlashdagi xatolik sifatida baholanmoqda. O'smirlarning kasb tanlashiga konseptual yondashish va kasbga yo'naltirish markazlari faoliyatini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanmoqda.

Bugungi kunda o'smirlarni kasbga yo'naltirish masalasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilib, kasbga o'rgatish markazlari tashkil etilmoqda. O'smirlik davridagi shaxslarning kasb tanlash masalasi yurtimizda keng doirada o'rganilmoqda. O'smirlarga o'quv jarayonida ma'lum bir kasbga xos tushunchalarni berish, kasb-hunarga yo'naltirish va kasb o'rgatish, yoshlarning ijtimoiy-innovatsion jarayonlarga transformatsiyalashuvini ta'minlash, o'smirlarning ijtimoiy mobilligi va kasbiy o'sishini ta'minlash, ularning ijtimoiy masalalar bo'yicha tanlovlarida pedagogning o'rni, kasbiy motivlarning shakllanish omillari, kasb motivlari barqarorlashishi, o'smirlar sanogen tafakkurini rivojlanishi ularning xulq-atvoriga bog'liqligi, o'smirlarning ijtimoiylashuvida ibrat olish xususiyati, o'smirlarning fikrlari kattalar tomonidan inobatga olinishi, o'smirlarning o'zini nazorat qilish, mas'uliyatli va mustaqil bo'lishga intilishi masalalariga amaliy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Yoshlar - kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son, 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-son, 2021-yil 13- iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari va ushbu sohaga aloqador bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muhim ahamiyatga ega.

Inson o'zining kasbiy faoliyatida muayyan darajalar, yutuqlarga erishishni asosiy maqsad deb bilmog'i lozim. Hozirgi davrda fan va texnikaning yuqori darajada taraqqiy etib borayotganligi hamda bunga bog'liq ravishda ma'lum bir sohada yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanish uchun o'smirlik davridan shaxsning o'ziga mos kasbni tanlash masalasi dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida kasb nuqtayi nazardan nafaqat kelajakda kim bo'lish haqida o'ylash, balki o'zining kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish, kasbiy qiziqishlarni belgilash, kasbni tanlash kabi aniq bosqichlar amalga oshiriladi.

K.Rojers qarashlarida o'zini aktuallashtirishga nisbatan ichki moyillik nazariyasi kasbiy faoliyatda o'zini belgilashga yo'nalganlik sifatida shaxsda mavjud ekanligi ta'riflangan. Individ dunyoga kelgandan boshlab taraqqiyot davomida ichki va tashqi olam bilan bog'liq real tajribalarni boshdan kechiradi. Muhitning turli ijtimoiy, madaniy va jismoniy tomonlarini boshidan kechiruvchi har bir inson biologik va psixologik jihatdan yagona bo'ladi. Individ o'z organizmining imkoniyatlarini rivojlantirishga bo'lgan tug'ma moyilligi asosida real olam bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Inson o'z oldida paydo bo'lgan muammolarni yechish uchun zaruriy

kompetentlikka ega bo‘ladi. Ushbu qobiliyat ijtimoiy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Shu asnoda Rojersning shaxs nazariyasida “men” asosiy tushunchaga aylandi.

Gumanistik yondashuv namoyondasi sifatida Rojers “men”ni aktuallashtirish, qo‘llash va rivojlantirishga nisbatan bo‘lgan ichki moyillik ta’sirida insonlarda motiv paydo bo‘lishini aytadi. “Men”ni aktuallashtirishga bo‘lgan ushbu ta’sir fiziologik va psixologik ehtiyojlarni o‘zida qamrab oluvchi kengroq aktuallashishga yo‘nalganlikning bir qismidir. Shaxsga bolalik davrida bo‘lgan ijobiy xohish munosabati unda o‘zini aktuallashtirishga qaratilgan “men” tushunchasi shakllanishiga xizmat qiladi. Teskari munosabat esa o‘zini aktuallashtirish va rivojlantirishga intilishning zaiflashuviga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga ijobiy xohish shaxsning o‘zidan kelib chiqadi. Rojers buni ijobiy “men” − xohishi bilan tushuntiradi. [96; 45] Ijobiy “men” − xohishiga ega bo‘lgan shaxs boshqalarga ham ijobiy xohish namoyon etadi hamda o‘z faoliyatida to‘liq funksional holat bilan harakat qilish darajasiga yetadi.

Shaxs o‘z faoliyatida o‘zini belgilash, taraqqiy etishga yo‘nalganligi A.Adler qarashlariga asosan hayot shakli sifatida yuzaga kelishi bilan tushuntiriladi. Shaxs noto‘kislik kompleksini yengib o‘tish uchun o‘zida hayot shaklini shakllantiradi. Ushbu hayot shaklida ayni shaxsning o‘zi uchun xos bo‘lgan yagona xususiyatlar, xulq-atvor va odatlar aks etadi. Masalan, o‘zida jismoniy kamchiliklar mavjud ekanligini bilgan yosh individ yuzaga kelgan noto‘kislik hissini kompensatsiya qilishga yo‘nalsa, o‘ziga xos harakat ko‘rinishlarini shakllantiradi. Uning asosiy faoliyat turi jismoniy kamchiliklar kompensatsiyasi, ya’ni doimiy jismoniy mashqlar bajarishdan iborat bo‘lib, bu jarayon uning muvaffaqiyatga erishishiga zamin bo‘ladi. Shu asosda jismoniy mashqlar va doimiy harakat shaxsning hayot shakliga aylanadi. Adlerning fikricha, hayot shakli bolada 4 yoki 5 yoshlarda shakllanib keyingi davrlarda o‘zgarishi qiyin kechadi. Shaxs o‘zi tanlagan va doimiy shug‘ullangan faoliyat turi uning hayot shakliga aylanadi. Hayot shakli shakllanishiga shaxsga xos bo‘lgan noto‘kislik kechinmasi ta’sir etadi. Noto‘kislik kechinmasini kompensatsiya qilish uchun individ ma’lum faoliyat turini tanlaydi va ushbu faoliyat turi uning hayot shakliga aylanadi. Har bir individ o‘z hayot shaklini o‘zi bunyod etadi va bu orqali o‘zining motivatsiyasi, xususiyatlari va o‘zini shakllantiradi. [90; 121; 124]

Kasb tanlash, kasbiy jihatdan o‘zini anglash va kasb tanlashning yoshga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha mamlakatimiz psixologiyasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham bu sohada muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda R.Z.Gaynutdinov, E.G‘.G‘oziyev, V.A.Tokareva, G‘.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova, A.A.Fayzullayev, F.I.Haydarov, N.I.Xalilova, K.B.Qodirov, U.S.Jumayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda muhim bo‘lib, mazkur izlanishlarda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish va o‘qitish, o‘quv va kasbiy faoliyat motivatsiyalari haqida muhim ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Psixologiya fanlari doktori professor V.M.Karimova mazkur muammoni samarali o‘rgangan olimalardan biri bo‘lib, o‘z ilmiy izlanishlarida kasb tanlash tizimida oila ijtimoiy institutiga alohida urg‘u beradi. Jamiyatda takrorlanmas qadriyat

sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib boruvchi meroslar ko‘p bo‘lib, uzoq asrlar davomida oilalar sulolasida davom etib kelayotgan kasblar bunga misol bo‘ladi. Hunarmandchilik, kosiblik, kulolchilik, gulchilik, rassomchilik, tikuvchilik va boshqa bir qator kasblar uzoq asrlar davomida saqlangan kasblar qatoriga kiradi. [41] Asrlar davomida saqlanib kelgan bunday kasblar bugungi kunda ham keng qo‘llanilishi ahamiyatli hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatga xos shaxs kompetentligi shakllanishi asoslari O.E.Hayitov tadqiqotida yoritilib kasbga xos kompetentlik shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. [108] Ushbu jihatni inobatga olgan holda yoshlarni qobiliyati bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish ularda tanlangan kasbga kompetentlik shakllanishi asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz boshqalardan biroz farqli ravishda kasb tanlashga ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri natijasida “moddiy qiziqish”, “shaxsiy qaror qabul qilish”, “oilaviy qadriyatlar” kabi ijtimoiy omillarning shaxsni o‘ziga yo‘nalganlik darajasi bilan bog‘liqligi tufayli o‘smirlarda kasbiy o‘z o‘zini anglashni ustuvor shakllanishi va o‘smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi va chidamliligini aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, o‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan “Kasbiy intilish omillari” anketa so‘rovnomasi diagnostik bosqichda qo‘llanilgan. O‘smirlarning kasbiy qiziqishlari va kasbiy yo‘nalganligini rivojlantirish maqsadida shakllantirilgan psixotexnologiyalar va psixologik treninglar dasturning korreksion qismida qo‘llaniladi.

O‘smirlarning kasb tanlash omillarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishi Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida olib borilgan. Tadqiqot obyekti sifatida o‘smir yoshidagi maktab o‘quvchilarining jami 387 nafari ishtirok etgan. Jami ishtirokchilar o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari borasidagi dastlabki so‘rov natijalariga asosan, tajriba guruhida (TG) 224 nafar va nazorat guruhida (NG) 163 nafar ishtirokchi qatnashgan.

Tadqiqotning umumiy ishtirokchilar soni

Hudud	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			jami
	O‘g‘il	Qiz	jami	O‘g‘il	Qiz	jami	
Samarqand viloyati	35	31	66	23	22	45	111
Qashqadaryo viloyati	47	35	82	34	31	65	147
Surxondaryo viloyati	39	37	76	28	25	53	129
jami	121	103	224	85	78	163	387

Tadqiqotning diagnostik bosqichida o‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar, kasbiy qiziqish sohalari, kasbiy tiplari, kasbiy yo‘nalganligi, tanlangan kasbda chidamliligi va barqarorligini o‘rganishga mo‘ljallangan psixodiagnostik testlar

qo‘llanilgan. Diagnostika jarayonida olingan ma’lumotlarni matematik statistik va korrelyatsion tahlil qilingan. Statistik tahlil G belgi mezoni, F-Fisher mezoni, t-styudent mezoni orqali, korrelyatsion tahlil Pirson mezoni orqali amalga oshirilgan hamda tahlil natijalarining ishonchlilik darajalari aniqlangan.

O‘smirlik davridagi yoshlarning kasb tanlashiga turli omillar ta’sir etishi mumkin. Jumladan, oiladagi kattalar, qadriyatlar, do‘stlar, qarindoshlarning maslahatlari asosida kasb tanlash holati ko‘p kuzatiladi. Bundan tashqari, yoshlik davridan taniqli insonlarga havas qilish natijasida aynan o‘sha kasbni tanlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, bolalik davrida ehtiroslarni yuzaga keltirgan harbiylik, aktyorlik, uchuvchilik kabi kasblarga paydo bo‘lgan qiziqishlar ayni kasbni tanlashga ta’sir etadi. Shu sababli o‘smirlarning kasb tanlashiga qaysi omillar ta’sir etishini o‘rganishga qaratilgan “Kasbiy intilish omillari” anketa so‘rovnomasi mualliflik asosida ishlab chiqilgan. O‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida “Kasbiy intilish omillari” anketa so‘rovnomasi qo‘llanilgan. (2.1-jadval).

2.1-jadval

O‘smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar
n=387 / Tajriba guruhida n=224/ Nazorat guruhida n=163

№	Omillar	Tajriba guruhi	%	Nazorat guruhi	%	jami	%
1.	Shaxsiy qaror	21	9,4	18	11,0	39	10,1
2.	Moddiy holat	47	21,0	36	22,1	83	21,4
3.	Oilaviy qadriyat	29	12,9	16	9,8	45	11,6
4.	Ota-ona fikri	36	16,1	29	17,8	65	16,8
5.	Do‘stlar	19	8,5	15	9,2	34	8,8
6.	Orzudagi shaxs	27	12,1	17	10,4	44	11,4
7.	Pedagog yoki mas’ullar	21	9,4	16	9,8	37	9,6
8.	Boshqa sabablar	24	10,7	16	9,8	40	10,3
	Jami	224		163		387	

O‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash bo‘yicha anketa so‘rovnomasi natijalari 2.1-rasmda diagramma shaklida berilgan.



2.1-rasm. O‘smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar

Anketa so‘rovnomasi yordamida jami ishtirokchilardan olingan natijaga ko‘ra o‘smirlarda kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko‘rsatkichiga ko‘ra moddiy holat, ota-ona fikri va oilaviy qadriyat ketma-ketligidan iborat bo‘lgan. Moddiy holat omili o‘smirlar o‘rtasida bugungi kunda asosiy ehtiyojga aylanib qolayotganligi ifodalangan. O‘smirlar kasb tanlashda mas’uliyat bilan yondashish o‘rniga moddiy holatga qiziqish bilan yondashmoqda. Ularda yoshlik davridan ko‘p mablag‘ orttirish va tez boy bo‘lish kabi vaqtinchalik havas ustunlik qilayotganligi namoyon bo‘lgan. Ota-ona fikri yoki oilaviy qadriyat bilan kasb tanlashga harakat qilayotgan o‘smirlarda kasbning mohiyatini to‘liq anglamasdan, shunchaki kattalarning fikri asosida ish tutayotganligi, biror kasbga o‘zining shaxsiy qiziqishi yo‘qligini, kasb tanlashga to‘liq tayyor emasligini ifodalaydi.

2.3-jadval

O‘smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar (Qashqadaryo viloyati misolida) n=147 / Tajriba guruhida n=82/ Nazorat guruhida n=65

		Tajriba guruhi						Nazorat guruhi					
	Omillar	**ug‘il**	**%**	**qiz**	**%**	**Jami**	**%**	**ug‘il**	**%**	**qiz**	**%**	**Jami**	**%**
1.	Shaxsiy qaror	6	7,3	3	3,7	9	11,0	5	7,7	3	4,6	8	12,3
2.	Moddiy holat	10	12,2	6	7,3	16	19,5	8	12,3	6	9,2	14	21,5
3.	Oilaviy qadriyat	7	8,5	5	6,1	12	14,6	3	4,6	4	6,2	7	10,8
4.	Ota-ona fikri	7	8,5	6	7,3	13	15,9	5	7,7	6	9,2	11	16,9
5.	Do‘stlar	4	4,9	3	3,7	7	8,5	4	6,2	3	4,6	7	10,8
6.	Orzudagi shaxs	6	7,3	3	3,7	9	11,0	3	4,6	4	6,2	7	10,8
7.	Pedagog yoki mas’ullar	4	4,9	5	6,1	9	11,0	4	6,2	2	3,1	6	9,2
8.	Boshqa sabablar	3	3,7	4	4,9	7	8,5	2	3,1	3	4,6	5	7,7
	Jami	47		35		82		34		31		65	

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha o‘smirlar kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar natijalar 2.3-rasmda diagramma shaklida berilgan.



2.3-rasm. O'smirlar kasb tanlashiga ta'sir etuvchi omillar (Qashqadaryo viloyati misolida)

O'smirlarda kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rsatkichiga ko'ra tajriba guruhida moddiy holat, oilaviy qadriyat va ota-ona fikri; NGda esa moddiy holat, ota-ona fikri va shaxsiy qaror ketma-ketligidan iborat bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'smirlar anketa so'rovnomasi natijasiga ko'ra o'smirlarda kasb tanlashga moddiy holat, oilaviy qadriyat, ota-ona fikri, shaxsiy qaror kabi omillar ketma-ketligi namoyon bo'lgan. Ushbu holatda ham o'smirlar shaxsida moddiylikka, boylikka kasb tanlash uchun asosiy sabab ekanligi aniqlangan bo'lib, ularda kasbiy qiziqishdan ko'ra moddiy qiziqish ustunligini anglatadi. Oilaviy qadriyat va ota-ona fikri bilan kasb tanlashga harakat qilayotgan o'smirlarda kasbning mohiyatini to'liq anglamasdan, shunchaki kattalarning fikri asosida ish tutayotganligini anglatadi. Ota-ona fikrini hisobga olib, kasbga o'zining qiziqishi va kasbning mohiyatini to'liq anglab, shaxsiy qarorga kelishi to'g'ri bo'ladi. Oilaviy qadriyatga aylangan kasb bilan shug'ullanish oilaviy qadriyat asosida tanlangan kasbni anglatadi. Oilaviy qadriyatga aylangan kasbni tanlash yoshlarning dunyoviy va zamonaviy kasblarni tanlash va o'zini namoyon etish imkoniyatini cheklaydi. Shuning uchun o'smirlar kasb tanlash bo'yicha shaxsiy qaror qabul qilishi, kasblar kelajakdagi taraqqiyotini to'liq anglashi va shunga asosan kerakli bilim va malakalarni hozirdan orttirib borishi talab etiladi.

2.5-jadval

O'smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo'lgan kasblari n=387 / Tajriba guruhida n=224/ Nazorat guruhida n=163

Ishtirokchi	Guruh	Kasblar nomi						
		o'qituvchi	shifokor	tadbirkor	harbiy	shofyor	iqtisodchi	san'atkor
Samarqandv n=111	**Tajriba guruhida**	17	13	10	10	6	6	4

(Tajriba guruhida n=66 Nazorat guruhida n=45)	**%**	25,8	19,7	15,2	15,2	9,1	9,1	6,1
	Nazorat guruhida	12	9	8	6	4	4	2
	%	26,7	20,0	17,8	13,3	8,9	8,9	4,4
	Jami	29	22	18	16	10	10	6
	%	26,1	19,8	16,2	14,4	9,0	9,0	5,4
Qashqadaryo v n=147 (Tajriba guruhida n=82 Nazorat guruhida n=65)	**Tajriba guruhida**	17	18	12	13	8	7	7
	%	20,7	22,0	14,6	15,9	9,8	8,5	8,5
	Nazorat guruhida	15	15	11	7	7	6	4
	%	23,1	23,1	16,9	10,8	10,8	9,2	6,2
	Jami	32	33	23	20	15	13	11
	%	21,8	22,4	15,6	13,6	10,2	8,8	7,5
Surxondaryo v n= 129 (Tajriba guruhida n=76 Nazorat guruhida n=53)	**Tajriba guruhida**	16	15	12	12	9	7	5
	%	21,1	19,7	15,8	15,8	11,8	9,2	6,6
	Nazorat guruhida	14	11	9	6	5	5	3
	%	26,4	20,8	17,0	11,3	9,4	9,4	5,7
	Jami	30	26	21	18	14	12	8
	%	23,3	20,2	16,3	14,0	10,9	9,3	6,2
Umumiy ishtirokchi n=387 (Tajriba guruhida n=224 Nazorat guruhida n=163)	**Tajriba guruhida**	50	46	34	35	23	20	16
	%	22,3	20,5	15,2	15,6	10,3	8,9	7,1
	Nazorat guruhida	41	35	28	19	16	15	9
	%	25,2	21,5	17,2	11,7	9,8	9,2	5,5
	Jami	91	81	62	54	39	35	25
	%	23,5	20,9	16,0	14,0	10,1	9,0	6,5

Xulosa qilib aytish mumkinki, anketa so‘rovnomasi yordamida o‘smirlarning kasb tanlashiga ta’sir etuvchi omillar va o‘smirlar shaxsining kasbiy qiziqish sohalari o‘rganildi. Tahlil natijasiga asosan, o‘smirlarda kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar moddiy holat, ota-ona fikri va oilaviy qadriyat ketma-ketligidan iborat ekanligi aniqlandi. O‘smirlarda kasb tanlashda shaxsiy qaror omili yuqori emasligi namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari, o‘smirlarning qiziqishi yuqori bo‘lgan asosiy kasblar 7 ta ekanligi hamda ushbu kasblarga xos talablarni to‘liq anglamasdan shunchaki dastlabki qiziqish bilan munosabat bildirayotganligi aniqlangan. Diagnostika jarayoni natijasi asosida tashkil etiladigan tajribada o‘smirlarning kasb tanlashda shaxsiy qaror omilini oshirish, qiziqishi yuqori bo‘lgan 7 ta asosiy kasb turlarini ko‘paytirish hamda kasbga xos talablarni to‘liq anglashini ta’minlash lozimligi belgilandi. Tajriba davomida o‘smirlarning kasblarga xos talablarni to‘liq anglashini ta’minlash orqali kasbiy tiplarning muvofiq taqsimotini shakllantirish o‘smirlarda ishga yo‘nalganlikni oshirish, barqarorlik va chidamlilikni shakllantirishga urg‘u berish lozimligi belgilandi. Bundan tashqari o‘smirlar o‘zlari tanlagan kasbda barqaror va chidamli bo‘lishi, ularning kasbga xos talablarni to‘liq anglagan holda sabot va matonat bilan kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishiga zamin yaratadi. Diagnostik natijalarga asosan, barqarorlik o‘g‘il bolalarda o‘rta, qiz bolalarda quyi darajada ekanligi, chidamlilik o‘g‘il bolalarda o‘rta, qiz bolalarda o‘rta darajada ekanligi namoyon bo‘lgan. Ushbu natija ularning kasbga nisbatan aniq tanlovi yo‘q ekanligi, ikkilanishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil qilishda oila va maktab hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ta’lim-tarbiya jarayonining butun mazmunini tashkil etishi kerakligi haqida xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., “O‘zbekiston” 2017. -488 b.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 170 b.
5. Abdullayev S.U. Aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 22.00.02. – T.: 2021.
6. Hayitov O.E. Oliy ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fanlari doktori (DSc) diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: TDPU, 2020.
7. Батырева М.В. Процесс профессионального самоопределения городской молодежи. авторефер. дисс. канд. социол. наук.: 22.00.04. – Тюм.: 2003.

8. Резапкина Г.В. Психология и выбор профессии: программа предпрофильной подготовки. Учебно-методическое пособие для психологов и педагогов. - М.: Генезис, 2005. -208 с.
9. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень.- СПб.: Питер, 2011.-224 с.
10. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие – М.: "Академия", 2004. – 304 с.

YOSH RAHBARLAR SHAXS TUZILMASIDA KOPING STRATEGIYALAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

Saidov Me'roj Salimovich- Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
meroj1236@gmail.com, Tel: 97 316 16 36

Annotatsiya.*Ushbu maqolada yosh rahbarlarning mamlakatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar berilgan. Koping strategiyasining nima ekanligi, dastlab kim tomonidan fanga kiritilganligi va koping strategiyasining yosh rahbarlarga qanday foydasi borligi izohlangan.*

Kalit so'zlar. *Kadrlar masalasi, koping strategiyasi, emotsiya, temperament, determinant.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СОВРЕМЕННЫХ СТРАТЕГИЙ В СТРУКТУРЕ ЛИЧНОСТИ МОЛОДЫХ ЛИДЕРОВ

Мерай Салимович Саидов- Шахрисабзский государственный педагогический институт, Заместитель декана по учебной работе педагогического факультета
meroj1236@gmail.com, Tel: 97 316 16 36

Аннотатция. *В данной статье даны отзывы о роли и значении молодых лидеров в жизни нашей страны. Объясняется, что такое стратегия копинга, кем она была первоначально введена в науку и как стратегия копинга приносит пользу молодым лидерам.*

Ключевые слова. *Вопрос о кадров, стратегия копинга, эмоция, темперамент, детерминант.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COPING STRATEGIES IN PERSONALITY STRUCTURE OF YOUNG LEADERS

Me'raj Salimovich Saidov-Shahrisabz State Pedagogical Institute
Deputy dean for educational affairs of the Faculty of Pedagogy
meroj1236@gmail.com, Tel: 97 316 16 36

Abstract. *In this article, opinions are given about the role and importance of young leaders in the life of our country. What is a coping strategy, who introduced it to the science and how it is useful for young leaders is explained.*

Key words. *Personnel issue, coping strategy, emotion, temperament, determinant.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki davlatimiz kundan-kunga yangilanib, ijtimoiy - siyosiy, iqdisodiy, hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan dunyo davlatlari ichida yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda. Chuqur ildizga ega madaniyatimiz tufayli Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lib, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanib bormoqda. Mana shunday o'zgarishlarning fundamental asosida yosh rahbar kadrlarning o'rni ham alohida e'tiborga molikdir.

Koping xulq-atvor muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini o'zi rivojlantira borishi ko'p jihatdan ushbu jarayonga bog'liq**.**

Jamiyat a'zolari o'zlarining ma'lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan turli qiyinchilikliklarni osonlik bilan yenga olishga, o'z imkoniyatlaridan yanada unumli foydalana olishga, o'zlari haqida yanada chuqur, ijobiy va o'ziga xos tasavvurlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiyada koping xulq-atvor XX asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Koping xulq-atvor ingliz tilidan olingan bo'lib "cope, to cope" - yenga olish, bartaraf qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu termindan birinchi bo'lib L.Merfi 1962- yil bolalarda inqiroz davrida muammoni qanday qilib yengishni o'rganish vaqtida foydalangan. A.Maslau esa bu terminni fanga kiritgan. Umuman olganda koping xulq-atvor individning hayotiy muammolarni yechishga tayyorgarligi bilan xarakterlanadi. U o'zida muammolarni yenga olish imkoniyatlaridan, vositalaridan foydalanishni namoyon etadi, bu esa stressli xulq-atvorni bartaraf etish bilan tavsiflanadi.[1] Ko'pchilik xorijlik mutaxassislarning fikriga tayanib shuni aytish mumkinki, koping xulq-atvorning turli-tuman strategiya va uslublari mavjud bo'lib, insonlar ulardan hayotiy murakkab vaziyatlarga duch kelganlaridagina foydalanadilar. Koping xulq-atvorning rang-barang ko'plab klassifikatsiyalari mavjud bo'lib, uni bir necha tadqiqot yo'nalishlariga ko'ra tahlil qilinadi. Ulardan bir nechalarini ko'rib chiqamiz. Koping uslublarini tadqiq etgan yetakchi mutaxassislaridan biri R.S.Lazarusning fikricha, koping strategiyalarining ikkita Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari global tipi mavjud: (stressni bartaraf etish usuli) - muammoga mo'ljal olmoq, sub'ektiv mo'ljal olmoq. Muammoga mo'ljal oluvchi tip, qiyin vaziyatni ratsional hal qilishga yo'nalgan bo'lib, ularning xulq-atvorida holatni mustaqil tahlil qilishga, boshqalardan yordam olishga, qo'shimcha manbalardan ma'lumot izlashga nisbatan moyillik kuzatiluvchi tipdir. Subyektiv mo'ljal oluvchi tip esa, stressni yengishda vaziyatni emotsional hal qiladilar, ularda aniq ishni bajarishga, muammo haqida o'ylashga mutlaqo xohish istaklari yo'q, ular o'zlarining qayg'ularini salbiy emotsiya vositalari bilan kompensatsiya qilib alkogol, uyqu, ovqat vositasi yordamida chiqaradilar. Ular o'zlarining emotsional balanslarini tiklashda passiv strategiyalardan jadalroq foydalanadilar, agar insonda vaziyat haqida hech qanday

bilimi bo‘lmasa yoki real imkoniyatlaridan foydalana olmasa stressor bosimi pasayadi. Ko‘pincha shaxsiy determinantlar orasida o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini o‘zi qabul qilish, nazorat qilish joyi va tashvish darajasi; Yoshi va jinsi; ijtimoiy kompetentsiya, shaxsning katta va kichik jamiyatga mansubligi (etnik guruh va ijtimoiy qatlam), oilada, maktabda va ijtimoiy rolda olingan ijtimoiy tajriba bilan bog`liq bo`lar ekan. Shaxsning stressli vaziyatga bo‘lgan reakdeterminatsiyalari ham o‘zboshimchalik bilan, ham ixtiyoriy bo‘lishi mumkin. Ixtiyorsiz reaksiyalar temperamentdagi individual farqlarga asoslangan, shuningdek takrorlash natijasida olingan va endi ongli nazoratni talab qilmaydigan reaksiyalardir. Ma'lumki, “hayotiy muammolarni yengish” tushunchasining o‘zi ham turli ahamiyatlar kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dastavval shuni ta'kidlash joizki, natijalar taniqli psixologlar S.Norman, D.F.Endler, D.A.Djeyms, M.I.Parkerlar tomonidan ishlab chiqilgan maxsus uch shkalali (topshiriqni hal qilishga, emotsiyaga va qochishga yo‘nalgan koping (a) qochish shkalasi ichidan bosh tortish, chalg‘ish subshkalasi, b) qochish shkalasi ichidan ijtimoiy chalg‘ish subshkalasi)) usullar majmuasini qo‘llash asosida va barcha empirik dalillarning haqqoniyligini tasdiqlovchi qo‘shimcha statistik mezonlar yordamida aniqlandi. Buning uchun ma'lum ilmiy adabiyotlardagi nazariy va amaliy fikrlar asos qilib olindi.

Boshqaruv - murakkab kasblardan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik bilimlarni nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtirgan holda yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishlikni talab etadi. Bunda umumiy, texnik, iqtisodiy, omilkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lish bilan birga, rahbar barcha haqiqatlarni tushunish orqali ko‘p qirrali vaziyatlarda, sharoitlarda o‘z qiyofasini amaliy tarzda to‘g‘ri ifoda eta olishni bilishi zarur. Agarda tashkilotda rahbarning o‘zi shaxsiy namuna ko‘rsata olmasa, u jamoa orasida obro‘ topa olmaydi. Boshqarish san'atini bilmagan rahbar, qabul qilingan qarorlar samarasini ta'minlay olmaydi. Shunday qilib, boshqaruv faoliyatida rahbarlik uslubining tutgan o‘rni va ahamiyati juda katta bo‘lib, ishlab chiqarish natijasi, samaradorligi rahbarning bilimi va ko‘nikmalari, boshqaruv jarayoni texnologiyasi, mehnat intizomi va eng avvalo u qo‘llayotgan uslubi bilan belgilanadi. Rahbarning boshqaruv uslubi ishlab chiqarishni boshqarish funksiyasi orqali korxona faoliyatining pirovard natijasiga ta'sir ko‘rsatadi. Demak, bularning barchasi tashkilot faoliyatini boshqarishning yagona mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Koping strategiya va uning usullari himoya mexanizmlaridan farqlanganda konstruktiv faol zarurat nazarda tutiladi va vaziyat orqali yoqimsizliklardan chetlashishga harakat qilinadi. Psixologiyada kopingning predmeti mavjud bo‘lib, u maxsus tadqiqot hududida insondagi emotsional mexanizm va ratsional regulyatsiyani o‘rganishda o‘zining maqsadli optimal xulq-atvoriga ko‘ra hayotiy holatlarni o‘zining maqsadlariga muvofiq qayta qurishni amalga oshiradi. Shaxsning stressli vaziyatlardagi koping xulq-atvori ma'lum darajada stressli vaziyatlarda javob reaksiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o‘smirlik davrida bu jarayonga jiddiy qarash kerak bo‘ladi. Shuni hisobga olib o‘smirlarda koping xulq-atvor va stressli vaziyatlarda javob reaksiyasi o‘rtasidagi mutanosiblik bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik omillarni empirik jihatdan o‘rganish va shartli

ravishda qabul qilingan mezonlar asosida uning natijalarini tahlil qilish ko‘zda tutilgan edi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun tadqiqot metodikalari tanlandi.

Shunday qilib, biz dindorlikni qiyin hayotiy vaziyatlardan samaraliroq kurashishga yordam beradigan shaxsiy manba sifatida ko‘rib chiqish mumkinligiga ishonamiz. Dindorlikni talabalar uchun yengish manbasi sifatida o‘rganish uchun “Psixik (ruhiy) holatlarni baholashning diagnostikasi” (G.Ayzenk), “Koping-strategiya ko‘rsatkichi” (D.Amirxon), “Stressni yengib o‘tish so‘rovnomasi” (K.Karver, M.Sheyver va Dj.Veyntraub) metodikalari va ruhiy zo‘riqish paydo bo‘lganda koping-strategiya sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan diniy faktorlar bayoniga bag‘ishlangan anketadan foydalanildi. Tadqiqot namunasi OTM talabalaridan 65 nafar respondentlarda olib borildi (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Toshkent tibbiyot akademiyasi), ulardan 33 nafari o‘g‘il bolalar va 32 nafari qizlar. O‘rtacha yoshi 22 yosh.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan empirik tadqiqotlar ma’lum darajada ilmiy yangilikka, qo‘yilgan maqsadga erishilganini ko‘rsatdi va bu asosiy nazariy xulosalarni shakllantirish va amaliy tavsiyalarni taklif qilish imkonini beradi.

1.Koping-strategiyalarni amalga oshirishida din omilining rolini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Optimallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1) stressli holatlarning oldini e’tiqod orqali olish: din omilidan motivatsiya sifatida foydalanish;

2) uni psixoterapevtik amaliyotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qo‘llash;

3) diniy madaniyatning estetik tarkibiy qismini, masalan, diniy turizm orqali amalga oshirish;

4) uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalashni diniy o‘ziga xoslikning “intellektual” modeli doirasida amalga oshirish;

5) oliy ta’lim muassasalari talabalarida diniy bilimlarni oshirishga e’tibor qaratish. Bunda turli davra suhbatlari, tadbirlar tashkillashtirishga nazarda tutiladi.

2. “Koping-strategiyalarni amalga oshirishda din omilining namoyon bo‘lish xususiyatlari” mavzusi doirasida kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:–turli sotsial guruhlarning koping-strategiya sifatida qo‘llashi mumkin bo‘lgan diniy omillar dinamikasi aniqlash; –o‘quv guruhlarning (uch va undan ortiq millat vakillari) ko‘p millatli tarkibining koping-strategiyalarni amalga oshirishida din omilining namoyon bo‘lish xususiyatini o‘rganish;–koping-strategiyalarni amalga oshirishida din omilining namoyon bo‘lish xususiyatlarini madaniyatlar va dinlararo o‘rganish (O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari va MDH davlatlari oliy o‘quv yurtlari, O‘zbekiston va Yevropa oliy o‘quv yurtlari misolida)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. - Toshkent: 2005. - B. 170

2. K.B.Axmedjonov, A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.. “Tafakkur” qanoti nashriyoti - 2009. 96 bet.

3. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Вестник

интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 22, 2021 г. С 233-237.
4. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76
5. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017
6. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: inderscience research volume: 3, issue 1, january-2022 39-42
7.Карвасарский Б.Д. Психотерапевтическая энциклопедия. 1-е издание. 1998. С. 11-12.
8.Либина А.В. Совладающий интеллект: человек в сложнойжизненной ситуации. М., 2008. С.33-35.
9.Морозова Т. Ю. Оценка эффективности профилактических программ на основе анализа уровня сформированности копинг-стратегий у подростков // «Психолого-педагогические аспекты сохранения и укрепления здоровья школьников». М., 2008. С. 15–46.
10.Морозова Т. Ю. Оценка эффективности профилактических программ на основе анализа уровня сформированности копинг-стратегий у подростков // «Психолого-педагогические аспекты сохранения и укрепления здоровья школьников». М., 2008. С. 15–46.
11.Дементий Л.И. Ответственность личности как ресурс копинг-поведения / Л.И. Дементий // Вестник КрасГУ. – 2004. – № 6. – С. 164 – 170.
12.Небылицын В.Д. Психофизиологические исследования индивидуальных различий / В.Д. Небылицын. – М.: Наука, 1976. – 336с.
13.Бодров В.А. Психологический стресс: развитие и преодоление / В.А. Бодров. – М.: ПЕРСЭ, 2006. – 528с.
14.Тейлор Ш. Социальная психология / Ш. Тейлор, Л. Пипло, Д. Сирс. – 10-е изд. – СПб.: Питер, 2004. – 767с.
15.Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения в разные периоды жизни: дис. …д-ра псих. наук: 19.00.13 / Т.Л. Крюкова; КГУ. – Кострома, 2005. – 476л.
16.Волобуева, Н. М. Жизнестойкость и религиозность как ресурсы современного человека в трудных жизненных ситуациях / Н. М. Волобуева, Т. А. Сережко, // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2015. – № 24. – С. 151 – 158.
17.Платонов, К. К. Психология религии / К. К. Платонов. – М. : Политиздат, 1967. – 215 с.
18.Братусь Б. С. Вера как общепсихологический феномен сознания человека / Б. С. Братусь, Н.В. Инина // Вестник Моск.ун-та. Сер.14. Психология. – 2011. – №1. – С.25 – 38.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING HAYOTI, FAOLIYATI VA PEDAGOGIK MEROSIDAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Hamroyev Shuhrat Eliyevich-pedagogika fanlari nomzodi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri
hamroyev-shuhrat@mail.ru
0009-0007-2857-4785

Annotatsiya. *Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, pedagogik faoliyati hamda ijtimoiy-pedagogik qarashlarini o'rganish-ijtimoiy zaruriyat ekanligi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlarida metodologik asos sifatida ko'rsatib o'tilgan., Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, pedagogik faoliyati va "Kitobi muntahabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" ("Umumiy jug'rofiyadan saylanma kitobi",) darsligidan boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari masalasi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mahmudxo'ja Behbudiy, pedagogik, jadid, pedagogik meros, boshlang'ich sinf, foydalanish imkoniyatlari.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЖИЗНЕННОГО, ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Хамроев Шухрат Элиевич – кандидат педагогических наук, заведующий кафедрой Шахрисабзского государственного педагогического института
hamroyev-shuhrat@mail.ru
0009-0007-2857-4785

Аннотация. *Жизнь, педагогическая деятельность и изучение социально-педагогических взглядов Махмудходжи Бехбуди президент нашего Ш.Мирзиёев считает общественной необходимостью. Это показано как методологическая основа в трудах президента. В статье освещаются жизнь, педагогическая деятельность Махмудходжи Бехбуди, а также возможность использования учебника «Китоби мунтхаби географияи ва намани география» («Избранная книга из общей географии») в начальных классах.*

Ключевые слова. *Махмудходжа Бехбуди, педагогика, современность, педагогическое наследие, начальная школа, возможности использования.*

OPPORTUNITIES TO USE THE LIFE, ACTIVITY AND PEDAGOGICAL HERITAGE OF MAHMUDKHOJA BEHBUDIY IN PRIMARY CLASSES

Hamroyev Shuhrat Eliyevich - Candidate of Pedagogical Sciences, Head of Department of Shahrisabz State Pedagogical Institute.
hamroyev-shuhrat@mail.ru
0009-0007-2857-4785

Annotation. *Mahmudhoja Behbudi's life, pedagogical activity and learning social-pedagogical views is considered as a social necessity by our president Sh.Mirziyoyev. It is shown as a methodological basis in the works of president.*

The article highlights the life, pedagogical activities of Mahmudhoja Behbudi, and the possibility of using the textbook "Kitobi muntahabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" ("Selected book from general geography") in primary grades.

Key words. *Mahmudhoja Behbudi, pedagogy, modernity, pedagogical heritage, elementary school, possibilities of use.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Samarqand-yer yuzining sayqali" mavusidagi ma'ruzasida samarqandlik jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik merosiga to'xtalib- "Samarqand tuprog'ida voyaga yetgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, biz yig'ilib turgan mana shu Kattaqo'g'on zaminidan yetishib chiqqan Abdulhamid Majidiy singari o'nlab ma'rifat fidoyilarining qoldirgan o'lmas merosi bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda" [1],- deb yozganlar.

Demak, jadidlarning hayoti, faoliyati, boy pedagogik merosidan hozirgi kunda ta'lim –tarbiya jarayonida foydalanish dolzarb vazifadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qarashlari haqida Begali Qosimov "Milliy uyg'onish"[11], "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" [12] kabi asarlarida jadidchilikni vujudga kelish tarixi, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, turkistonlik jadidlarning hayoti, faoliyati, adabiyotshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi, Z.B. Axrarova "Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma'rifiy- amaliy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [4]. N. Avazov Mahmudxoja Behbudiyning ijodiy merosi muammosini tadqiq qilgan [2], D.A. Axatova esa, Abdurauf Fitratning ma'rifiy-pedagogik qarashlarini o'z tadqiqotlarida ochib bergan [3]. R. Barakayev esa "XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi"[5] muammosi bo'yicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yozgan, ishni muvafaqqiyatli himoya qilgan. Tarixchilardan M.A. Xudaykulov "Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX века) [9] mavzusidagi dissertatsiya ishida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining ma`rifatparvarlik faoliyati tadqiq qilingan. N.A.Irgasheva "Munavvarqori Abdurashidxonovning ma'rifiy-pedagogik qarashlari"[7] mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. O'zbek alifbo darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari mavzusida M.E. Inoyatova nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.[6], Sh.E.Hamroyev'' Jadid ma'rifatparvarlarining darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [14], "Boshlang'ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish"[13], "Jadidlarning darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash" [15] mavzularida monografiyalar hamda "Boshlang'ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish" [16] mavzusida o'quv qo'llanma chop ettirgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi usul maktablari, uning tarafdorlari to‘g‘risida kengroq ma’lumotlar berila boshlandi. Bir qator o‘quv qo‘llanmalariga, darsliklarga kiritila boshlandi. Shunga qaramasdan jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir asarlaridan umumta’lim maktablarida, chunonchi, boshlang‘ich sinflarda foydalanish muammosi hali-hanuz yechilganicha yo‘q. Shu sababli, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosidan boshlang‘ch sinflarda foydalanish imkoniyatlari muammosini o‘rgandik.

Nazariy asos. Mahmudxo‘ja 1875-yil 19- yanvar kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Mahmudxo‘janing otasi Behbudxo‘ja imom - xatiblik bilan shug‘ullangan. Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lgan. Mahmudxo‘ja 9 yoshga to‘lgach otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li vafot etadi. Maxmudxo‘ja tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida qoladi. Kichik tog‘asi Odil unga arab sarfu nahvini o‘rgatadi, 18 yoshga to‘lgach qozixonada mirzolik qiladi. Mahmudxo‘ja dastlab Samarqand keyin esa Buxoro madrasalarida ta’lim olgan. Yaxshi ta’lim va o‘z ustida muttasil ishlash orqali Behbudiy shariatning yuksak maqomlari-qozi, mufti darajalarigacha ko‘tarilgan.

Behbudiy 1899-1900- yillarda Buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safarida bo‘lgan. Safar chog‘ida Kavkaz, Turkiya, Arabiston, Misrni kezib chiqqan. Xaqlarning yashash sharoitlari, urf-odat, an’analari, ta’lim sohasidagi farqlarni ko‘rib, yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Behbudiy 1903-yilda Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida S.Sidiqqiy, Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. U 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, 1906-yilda esa Qozon va Ufa, Nijniy Novgorodga boradi. Rossiyada yashovchi musulmonlarning turmush va madaniyatiga bag‘ishlangan qurultoyda Turkistonliklar guruhini boshqaradi. Qozon va Ufadagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat- ul atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. 1908 yilda Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o‘z hovlisiga qo‘chirib keltiradi. Behbudiy 1911- yilda “Padarkush” dramasini yozdi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. 3-parda 4-manzarali bu asar mazmunan sodda bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini “milliy fojia” deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasi yo‘l qo‘ymaydi. “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining 100-yillik yubileyi sanasiga bag‘ishlanadi” degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o‘tkazadi. Drama 1913-yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo‘yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo‘yildi. Drama xalqqa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” dramasini shuning ta’sirida yozgani ma’lum. “Padarkush” ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o’zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo‘ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniyning “Turon” teatr truppasi tomonidan qayta sahnalashtiriladi. 1914-1916-

yillarda truppa bu spektaklni Farg‘ona vodisining barcha shahar va qishloqlarida qo‘ygan va mashhurlikka erishgan.

Behbudiy 1917-yil aprelda “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Shu yil 20-avgustdan u “Oyna” jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she’r, maqola (forscha), e’lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi.

Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘yadi. 1913-yilda Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi”sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi.

Behbudiy 1914-yil 29-mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida “Kitobxonai Behbudiya” uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Rossiyadan kitoblar, rasm, turli qoliplar (klishe) va boshqa ko‘plab manbalar olib kelishni rejalashtirdi. Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo‘ladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adrnaga o‘tib, yana Istanbulga qaytadi va 20- iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So‘ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarida bo‘ladi. Sayohat xotiralari “Oyna” jurnalida bosilib turadi. Bu “xotiralar” har jihatdan muhim bo‘lib, an’anaviy tarix memuar janrining XX asr boshidagi o‘ziga xos namunasi edi. Muallif unda yo‘l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o‘rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma’lumotlar to‘playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e’tiqod asalalariga katta ahamiyat beradi. “Oyna” juralida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim”, degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi (“Har millat o‘z tili ila faxr etar” —1914, № 35), o‘zaro munosabatlari (“Til masalasi” — 1915,№ 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Behbudiy o‘zlikni anglashga katta e’tibor bergan. “Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni “qulq “marquq” derlar”, deb yozadi (“Sart so‘zi majhuldur”, “Oyna” jur.,1914, № 23). Keyinchali buyuk adib Chingiz Aytmatov manqurt atamasini jahon adabiyotiga olib kirdi.

U 1917- yilning oxiri–1918- yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg‘in qo‘shildi. Aslida bu faoliyat 1906 yildan boshlangan. Shu yili “Rusiya musulmonlari ittifoqi”ning Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. 1917- Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so‘zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu

qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26- noyabr kuni Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho'rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. 1919-yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi, hamrohlari turk muallim Naim afandi, Muhammadqul O'roqboyev va Mardonqul Shohmuhammadzoda bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. Fitrat, Cho'lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar.

Mahmujxo'ja Behbudiyning "Kitobi muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy", to'liq nomi "Kitobi muntahabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" ("Umumiy jo'g'rofiyadan saylanma kitob, 1906") darsligida, "yangi ilmdan bexabar ulamolar"ni dunyoviy va diniy bilimlar o'rtasiga sun'iy to'siq qo'yish, nodonliklari tufayli islom dinini obro'sizlantirishda aybladi. Muallif ushbu darsligida: "Agarda jo'g'rofiya o'qumasak, dunyog'a taraqqiy qilolmaymiz", - deb ta'kidlaydi.

Muallif ushbu darsligini nashr ettirish uchun 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop ettirgan. Darslik 106 sahifadan iborat. Uning dastlabki sahifalarida geografiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850-1904) 6-jildlik mashhur "Qomus ul-a'lom" va I.Gasprinskiyning "Turkiston ulamosi" kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan. Muallif juda sodda qilib osmon jismlarining joylashishi va harakatini tushuntiradi. "Hukamo qavlicha, Yerni(ng) yumaloqligi alomatlari" deb nomlangan matnda muallifning o'z kuzatishlari ko'proq seziladi. Unda Peterburg, Toshkent vaqti dunyoning boshqa shaharlariga qiyosan berilgan va ikkita jadval ilova qilingan.

Mahmudxo'ja Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullarini uchga bo'ladi:

-idorai mustaqalla (monarxiya);

-idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat);

-idorai jumhuriyat (Respublika). Shuningdek u odamlarni oq, qora, qizil va sariq tanlilar deb irqlarga ajratilishini qayd etadi.

Yerning harakati, dunyoning qurilishi haqidagi geliotsentrik tuzilma va uning Yevropa ilmidagi vakillari N.Kopernik, Kepler, G.Galileylar faoliyati haqida to'xtalib o'tadi.

Ushbu darslikda muallif: "...Asri hozirgi tashviqoti ila iste'dodi ojizonamizcha, bataqdiri hay, qadim fan jug'rofiyaga taalluq ushbu kitobni tahrir va jam' aylab, "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" yod qilib ba'zi mahalig'a ta'rix, riyoziy, muhokamoti diniy, umroniy, siyosiy va andagi kutubi diniyadan bayon va iqtibos girma qildik. Fan to'g'risindagi ijmol xulosa va tafsilot turkiy, arabiy, forsiy, rus lug'atlarig'a tasnif bo'lgan o'ttuz qadar qadim va jadid mo'tabar nusxa va har guna mazkur lug'atlardagi"

gazit-jarida, atlas, xarita, kurrai mumuttaha, istaticheski majmuallardan jam' va tartib qilingandur"[8] deya ma'lumot bergan.

Darslikda bir sahifa atrofida kirish so'zi berilgan. Undagi ilk mavzu "Jug'rofiya" deb deb nomlanadi.

Bu o'rinda muallif geografiya so'ziga ta'rif berib, uni bir necha bo'limlarga ajratadi. ya'ni "jug'rofiyai riyoziy", "jug'rofiyai tabiiy" "jug'rofiyai tarixiy", "jug'rofiyai siyosiy", "jug'rofiyai umroniy" va boshqalar. U geografiyaning ahamiyati to'g'risida, darslikning xulosa qismida batafsil to'xtaladi. "Jug'rofiya qachon paydo bo'lgan?" degan sarlavha ostida, mazkur fanning qachon vujudga kelganligi hamda taraqqiyoti haqida ayrim fikrlar bayon etiladi. Ushbu bo'limda geograf olimlar, ular yaratgan asarlar haqida ma'lumotlar berilgan.

M.Behbudiy osmon jismlari, yerning aylanishi haqidagi ma'lumotlarni bolalar yoshiga mos tilda bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, darslikda geografiyaga oid ko'plab kitoblar yozilganligi, Abulqosim Ubaydullohning "Kitob al-masolik va-l-mamolik" va "Kitob as-samo" risolalari mavjudligi, ularning fransuz va nemis tillariga tarjima qilingani, geografiyaning rivojiga hissa qo'shgan olimlar, ularning asarlari, Amerika qit'asining kashf etilishi, dengizlar, bo'g'ozlar, Rusiya va Yevropa mamlakatlari, geografiya fanining hamon rivojlanishda ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Darslikdagi navbatdagi bo'limi "Turkiston donishmandlari" deb nomlangan bo'lib, unda musulmon ulamolaridan Ibn Sinoning lug'at, mantiq, geografiya, musiqa, axloq, kimyo, abtoli ahkomi nujum, tabiat, hikmat, tib ilmlariga oid yuzlab asarlari borligi, ularning yevropa tillariga tarjima qilinganligi, Badriddin Samarqandiy, Abdurahmon Xorazmiy, Abu Yazid Balxiy, Abduraxmon Marvoziy, Abdurazzoq Hirotiy, Abu Ibrohim Gurgoniy, Sharif Xorazmiy, Ahmad bin Tabib Saraxsiy, Abu Mash'ar Balxiy, Abu Ja'far Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi donishmandlar, ularning qaysi yo'nalishda ijod qilganliklari haqida ma'lumotlar berilib, ular yashab ijod qilgan sanalar keltirilgan.

Muallif "Jug'rofiya o'qumoqni naf'i" sarlavhasi ostida, geografiya ta'limining ahamiyati va uning shaxs taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr yuritadi. U, jumladan, shunday deydi: "... Dunyo odamlarini din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiy va tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrg'a turgoni, xulosa, butun ahvoli dunyoni, podsholarni quvvati, davlati, odamlarini odati, yer yuzini ahvolini bildiradurgon ushbu ilmdur".[8]

Darslikning diqqatga sazovor va o'sha davr uchun zarur bo'lgan bo'limlaridan biri "Jo'g'rofiya o'qumoq musulmonlarga lozimdur" deb nomlangan. Muallif ushbu bo'limda yerni ho'kiz shoxi bilan ko'tarib turganligi haqidagi qarashning noto'g'riligi, geografiyani yaxshi o'rgangan odam uning dumaloq ekanligini bilishi haqida bahs yuritadi. Mazkur bo'limda muallif Istanbul, Misr, Arabiston, Hindiston, Rossiya kabi mamlakatlarda geografiya fani chuqur o'rganilishini ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar pedagog ushbu darslikda "Eski va yangi donishmandlar" haqida ham to'xtalib, "eski donishmandlar" deb qadimgi yunon ulamolari va "yangi" deb yevropa olimlarini aytish lozimligini ta'kidlaydi. O'zaro qiyoslash asosida ularning yer haqidagi qarashlarini o'quvchilarga tushuntirib, yevropaliklarning fikrlariga

qo‘shilishini qayd etadi. “Yangi hukamolarni so‘zidan namuna” sarlavhasi ostida, yerning quyosh atrofida aylanishi, yulduzlar yorug‘likni quyoshdan olishi, Mirrix (Mars) planetasi, unda ham tuproq, tosh, o‘t, suv, bulut, yomg‘ir va qor borligi haqida to‘xtaladi. Mazkur o‘rinda muallifning noto‘g‘ri fikr yuritganligini ta’kidlash joizdir. Chunonchi muallif: Marsda odam yashaydi va ularning bilimi bizdan zo‘r, durbin bilan qaralsa, daryolarning suvlari ko‘rinadi,. Mars yerdan olti marta kichik bo‘lib, kecha-kunduz, qish va yozlari bor. 1346-yil Neptun topilgan, uning quyoshdan uzoqligi 4175 mln. chaqirim, deb yozadi. Shuningdek, u darslikda yerning yoshi haqida ham to‘xtaladi.

Darslikdagi “Yer aylanganda ustidagilarni yiqilmasligi” nomli mavzu o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, unda yerning tortishish kuchi haqida fikr yuritiladi.

Navbatdagi mavzu “Atrof 1. Jihoti 2 asliya. Xarita. Plan” deb nomlanib, unda muallif shimol, janub, g‘arb, sharq tomonlari va kompas haqida fikr yuritadi. Xarita bilan ishlash, xaritani yaratish uchun minglab ustodlar, muhandislar, sayyohlar 500 yildan beri o‘lchab, yozib yurganliklari, “miqyos” (masshtab), xarita turlari: xaritai xususiya, xaritai umumiya, xaritai to‘po‘grofiya, xaritai zao‘lo‘jiya, xaritai tabiiyya, xaritai bahriya, xaritai ziroiya, xaritai etno‘grafiya kabilar haqida to‘xtalib o‘tadi, shunday bir necha xaritalar to‘planib kitob shakliga keltirilsa, atlas hosil bo‘lishi uqtiriladi.

Darslikdagi “Hukumat va hukmronlar” nomlangan bo‘limda muallif shunday yozadi: “Yer yuzidagi badaviy va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari bo‘ladurki, bek, amir, shoh va boshqa ism va lug‘atlar ila ataydurlar... Ovrupo xalqi imperato‘r, qirol, do‘qa, prins, prezident, kenaz va boshqa lug‘atlar ila ataydurlar”.

Ushbu bo‘limda muallif Yevropa mamlakatlari qonunlari, turli xalqlar turmush tarzi, podsho va vazirlar, boshqaruv tashkilotlari haqida ham fikr yuritadi.

Darslikda yoritilgan navbatdagi mavzu “Din va odat” deb nomlanadi. Bunda muallif barcha millatlar e’tiqod qiladigan dinlari, dinlarning bir necha mazhablari, butparastlik, xristianlik, islom dini haqida fikr yuritadi.

Darslikda “O‘lchak - miqyos, mablag‘ – pul” mavzusi ham yoritilgan bo‘lib, unda fransuz olimlarining ixtirolari, xaritalardagi vertikal va meridian chiziqlar, masshtabni aniqlash yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Muallif Rossiya, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shaharlarining maydoni, ularning qaysi km.meridianda va qaysi km.vertikalda yotishini misollar bilan bayon qiladi.

Darslikda bir qator ilovalar ham mavjud. Masalan: hijratdan 4500- yil oldingi Misr voqealaridan 1906- yildagi Rusiya Davlat Dumasi ochilishigacha bo‘lgan jahon tarixidagi hodisalar sanasi “Ahvoli tarixiyadan namuna” sarlavhasi bilan berilgan. Shuningdek, “Yevropa”, “Osiyo”, “Afriqo”, “Amriqoyi shimoliya”, “Amriqoyi janubiya”, “Avstraliya”, “Mamlakati Rusiya”ning alohida-alohida xaritalari, yer kurrasining yarim sharlari maxsus sahifalarda keltirilgan. Shuningdek, darslikda ko‘rfaz, bo‘g‘oz, daryo va ko‘llarning jug‘rofiy shakllari, tabiat hodisalari, osmon yoritkichlari harakatini tushuntiruvchi turli suratlar, irqlarni farqlab ko‘rsatuvchi rasmlar ham berilgan[9].

1906-yilda "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida darslikka taqrizlar beriladi, ayrim taqrizchilar darslikka ijobiy xulosa bersalar, ayrimlari uni qoralaydilar. Jumladan, ushbu gazeta xodimi Mulla Olim, Mahmudxo'ja Behbudiy kitoblarining tili og'irligidan shikoyat qiladi.

Bizningcha, "Turkiston jadidlari otasi" deb nom olgan Mahmudxo'ja Behbudiyning maorif sohadagi xizmatlari g'oyat katta. U yangi maktablar ochish, bolalar yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish ishiga rahbarlik qilgan, bu sohada boshqa ziyolilarga ibrat bo'lgan. U hatto "Behbudiy nashriyoti" nomida nashriyot ochib, unda maktablar uchun darslik hamda o'quv qo'llanmalar nashr qildirgan.

M.Behbudiy millatning barkamolligi uchun ilm fan yutuqlarini o'rgatish zarurligi, ilm-fandan bexabar bo'lgan xalqning boshqa millatlar tomonidan ezilishini to'g'ri ta'kidlagan edi.

Bizga ma'lumki, jadidlar ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo'lida jonbozlik ko'rsatganlar. Biroq, ularning harakati mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifasi o'sha davrda ham, sovet davrida ham g'arazli maqsadda talqin qilindi. Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri IX-XII asrlarda vujudga kelib, bu asr oralig'idagi ilmiy-madaniy yuksalish Ma'mun Akademiyasi misolida namoyon bo'lgan edi. Ikkinchi uyg'onish davri Temur va temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to'g'ri keladi, ushbu davrda buyuk davlat qurilishi (Amur Temur saltanati) amalga oshirildi, Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan XV asrning buyuk mo'jizasi rasadxona yorqin yulduz bu davrning ilmiy tafakkurining yorqin namunasidir. Oradan IV asr o'tgach, jadid ziyolilari uchinchi Milliy uyg'onish jarayonini vujudga keltirdilar. Ular boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar qatori hozirgi geografiya o'quv fani zarurligini asoslab, bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar.

M.Behbudiy milliy geografiya ta'limining shakllanishiga munosib hissa qo'shdi. Uning "Turkiston xaritasi" darsligi va o'quvchilarga geografiya sohasiga oid bilimlarni o'qitish zarurligi haqidagi maqolalari muhimdir. M.Behbudiy yaratgan darsliklarning saviyasi o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori, bugungi kunimiz uchun ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Zamonaviy darslik yaratish uchun intilayotgan asrimiz metodist olimlari va o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida mazkur darsliklarda ilgari surilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Biroq darsliklarning tili bir qadar murakkab, ularda arabcha, forscha so'zlarning miqdori nihoyatda ko'pligi, ayrim so'zlarni tushunib bo'lmasligini ham etiborga olish kerak.

Ajdodlarimizning madaniy - ma'naviy va ilmiy-pedagogik merosi qadimiy va boydir. Milliy qadriyatlarimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani xalq ongida shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy o'rta ta'lim maktablarida Yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati va asarlari haqidagi bilimlarni o'zgarib borishini o'rganish maqsadida o'quvchilarga og'zaki-yozma ravishda savollar berildi, qiziqarli savol-javob o'yinlariga maxsus tayyorlangan savollar kiritildi:

1. Ma'rifatparvar deganda qanday kishini tushunasiz?
2. O'zbek ma'rifatparvarlaridan kimlarni bilasiz?
3. Quyidagi ma'rifatparvarlarning hayoti, faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
Abdulla Avloniy;
Saidrasul Aziziy;
Mahmudxo'ja Behbudiy:
Munavvarqori Abdurashidxonov.
4. Mahmudxo'ja Behbudiyning qaysi asarlarini uyingizdagilar o'qib yoki aytib berishgan?
5. Mahmudxo'ja Behbudiyning qaysi asarlari Sizga manzur bo'ldi? Nima uchun?
6. Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarini ko'proq o'qishni xohlaysizmi? Nima uchun?

Bu anketa savollariga tajriba va nazorat sinf o'quvchilaridan javoblar olindi. Anketada javoblar uchun mo'ljallangan joylari bo'sh qoldirilib, birinchi va ikkinchi sinflarda-og'zaki, uchinchi va to'rtinchi sinflarda yozma ravishda javoblar olindi. Javoblarga qarab o'quvchilarni uch guruhga ajratdik:

I guruhga – ma'rifatparvar so'zining ma'nosini tushunadigan, unga ta'rif va tavsif bera oladigan; Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, asarlarini o'qigan, oilada muntazam ravishda she'r va hikoyalar o'qib yoki aytib berilayotgan; Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosini aniq va ravshan aytib beraoladigan; ularning pedagogik asarlarini ko'proq o'qishni xohlaydigan o'quvchilarni kiritdik.

II guruh – ma'rifatparvar so'zining ma'nosini umumiy tarzda biladigan, unga aniq ta'rif va tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan unchalik tanish bo'lmagan; Mahmudxo'ja Behbudiynjing asarlarini ma'nosini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydigan, oilada ota-onalar axloqiy she'r va hikoyalar muntazam aytib yoki o'qib berilmagan; Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosidan namunalarni ko'proq o'qishni istovchi o'quvchilarni kiritdik.

III guruhga – ma'rifatparvar so'zining ma'nosini unchalik ham tushuna olmaydigan, bu so'zga ta'rifu tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan tanish bo'lmagan yoki o'qigan she'r va hikoyalarning ma'no va mazmunini tushuntirib bera olmaydigan o'quvchilarni; oilada ota-onalari ma'rifatparvarlarning she'r va hikoyalaridan namunalar aytib bermaydigan, lekin Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va ayniqsa, axloq-odobga doir asarlarini o'qishni xohlovchi o'quvchilarni kiritdik.

1-jadval.

O'quvchilardan olingan javoblar:

Ko'rsatkich darajalari	Tajriba sinflari				Nazorat sinflari			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз	Сони	Фоиз
Yuqori	24	6	261	66	16	4	32	8
O'rta	103	26	95	24	121	30	194	48
Quyi	268	68	39	10	266	66	177	44

Jadvalda ko‘rinib turganidek, nazorat sinflardagi 403-nafar o‘quvchidan tajriba boshida I guruh darajasidagilar miqdori 4-foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 8-foizni tashkil qildi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar tajriba boshida 30- foizdan tajriba oxiriga kelib 48-foizga yetdi. III guruh darajasidagi o‘quvchilar 66- foizdan 44-foizga tushdi. Tajriba sinflaridagi 395-o‘quvchidan esa I guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori tajriba boshida 6 -foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 66- foizni tashkil qildi yoki 11- marotabaga oshdi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar 26- foizdan tajriba oxiriga kelib 24- foizga tushdi; III guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori 68- foizdan 10-foizgacha kamaydi. Tajriba sinflarida bunday yutuqlarga erishishda, shubhasiz, sinfda o‘tilgan o‘qish, odobnoma, sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkazilgan axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitob ko‘rgazmalari, kitobxonlik konferensiyalari, savol-javob o‘yinlari kabi tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Tajriba-sinovda tajriba sinfida 395-nafar va nazorat sinfida 403- nafar o‘quvchi qatnashgan. Yuqoridagi jadvaldagi foizlarda berilgan ko‘rsatkichlarga asosan quyidagi jadvalni keltiramiz.

2-jadval

O‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini o‘zgarib borishi bo‘yicha olingan natijalar

Baho / Sinf	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari		
		Yuqori	o‘rta	Quyi
Tajriba sinfi	395	166	154	75
Nazorat sinfi	403	73	173	157

Olingan ma’lumotlarni Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil qilindi.

Tajribadan oldingi va keyingi natijalarni mos ravishda 1 va 2- tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

1-tanlanma (tajriba sinfi) $m = 395$.

X_i: yuqori; o‘rta; quyi;
m_i: 166; 154; 75.

2-tanlanma (nazorat sinfi) $n = 403$.

Y_j yuqori; o‘rta; quyi;
n_i 73; 173; 157.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



Rasm. 1. Tajribadan yakunidagi tajriba va nazorat guruhidagi umumiy ko'rsatgichlar diagrammasi

Diagrammada qayd etilgan grafiklaridan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_T = 5$ *ва* $M_H = 3$, ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib, $M_T > M_H$ ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham X > Y shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\overline{X} = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{395}(166\cdot 5 + 154\cdot 4 + 75\cdot 3) = \frac{1}{395}(830 + 616 + 225) = \frac{1671}{395} = 4{,}2$$

$$\overline{Y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{403}(73\cdot 5 + 173\cdot 4 + 157\cdot 3) = \frac{1}{403}(365 + 692 + 471) = \frac{1528}{403} = 3{,}8$$

Demak, tajriba guruhi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan katta ekan: X > Y

Endi har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$D_m = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (x_i - x)^2 /(m-1) = \frac{166(5-4{,}2)^2 + 154(4-4{,}2)^2 + 75(3-4{,}2)^2}{394} =$$

$$= \frac{166\cdot 0{,}64 + 154\cdot 0{,}04 + 75\cdot 1{,}44}{394} = \frac{106{,}24 + 6{,}16 + 108}{394} = \frac{220{,}4}{394} \approx 0{,}56$$

$$D_н = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (y_i - y)^2 /(n-1) = \frac{73(5-3{,}8)^2 + 173(4-3{,}8)^2 + 157(3-3{,}8)^2}{402} =$$

$$= \frac{73\cdot 1{,}44 + 173\cdot 0{,}04 + 157\cdot 0{,}64}{402} = \frac{105{,}12 + 6{,}92 + 100{,}48}{402} = \frac{212{,}52}{402} \approx 0{,}53$$

Bu natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz:

$\tau_m = \sqrt{0{,}56} \approx 0{,}75$ $\qquad$ $\tau_н = \sqrt{0{,}53} \approx 0{,}73$

Bular asosida har ikki guruh uchun variatsiya ko'rsatgichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_m = \frac{\tau_m}{\overline{X}} = \frac{0{,}75}{4{,}2} \approx 0{,}18 \qquad \delta_н = \frac{\tau_н}{Y} = \frac{0{,}73}{3{,}8} \approx 0{,}19$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini α= 0,05 deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta $t_{кр}$ ни

$$\Phi(t_{kp}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2\cdot 0{,}05}{2} = \frac{0{,}9}{2} = 0{,}45$$

tenglikdan aniqlaymiz: $t_{кр}$= 1,67. Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_m = t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 1{,}67 \cdot \frac{0{,}56}{\sqrt{395}} = \frac{1{,}67\cdot 0{,}56}{19{,}87} = \frac{0{,}9352}{19{,}87} \approx 0{,}05$$

ga teng, nazorat guruhida esa:

$$\Delta_n = t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1{,}67 \cdot \frac{0{,}53}{\sqrt{403}} = \frac{1{,}67\cdot 0{,}53}{20{,}07} = \frac{0{,}8851}{20{,}07} \approx 0{,}04$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\overline{X} - t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} \le a_x \le \overline{X} + t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$

$$4{,}2 - 0{,}05 \le a_x \le 4{,}2 + 0{,}05 \qquad 4{,}15 \le a_x \le 4{,}25$$

nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\overline{Y} - t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \le a_y \le \overline{Y} + t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3{,}8 - 0{,}04 \le a_y \le 3{,}8 + 0{,}04 \qquad 3{,}76 \le a_y \le 3{,}84$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Demak, x=0,05 qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhida o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori bo'lar ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum =4,2; =3,8; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{усб} = \frac{(\overline{X} - \Delta_m)}{(\overline{Y} + \Delta_н)} = \frac{4{,}2 - 0{,}05}{3{,}8 + 0{,}04} = \frac{4{,}15}{3{,}84} = 1{,}08 > 1;$$

$$K_{бдб} = (\overline{X} - \Delta_m) - (\overline{Y} - \Delta_н) = (4{,}2 - 0{,}05) - (3{,}8 - 0{,}04) = 4{,}15 - 3{,}76 = 0{,}39 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan

ma'lumki, tajribadan keyingi ko'rsatgich tajribadan oldingi ko'rsatkichdan yuqori ekan. Demak, o'quvchilarning Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o'rganib borish jarayoni bo'yicha o'quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari yuzasidan olingan natijalar samardor ekan.

Tajriba oxiriga kelib o'quvchilarning javoblari tajriba guruhlarida tez o'sishni ko'rsatsa, nazorat guruhlarida bu holni ko'rmaymiz. Bu tajriba o'tkazish metodikasi to'g'ri tanlanganligini, tajriba natijalari samarali bo'lganligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o'rganib borish jarayoni darajalari birinchi bosqichda-nazorat guruhlar o'quvchilarining savollarga yuqori, o'rta, quyi darajalarida 10,6; 35; 54,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhlarda bu miqdor 10,3; 35,7; 54 foizdan iborat bo'lgan edi. Ikkinchi bosqichda-nazorat guruhlar o'quvchilarining savollarga javoblari yuqori, o'rta, quyi darajalar bo'yicha 18,1; 42,9; 39 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhlarida 42; 39; 19 foizdan iborat bo'ldi. Tajriba natijalari biz tanlagan tadqiqot metodikasi to'g'ri, samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Olib borgan ishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqot muammosiga doir mavjud ilmiy-nazariy manbalarni tahlil etish, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosidagi g'oyalarni o'rganish pedagogika fani va ta'lim amaliyoti uchun dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsatdi.

2. Tadqiqotni bajarish jarayonida biz qo'llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari majmui – Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o'rganib, tahlil etish, ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beradigan xilma-xil didaktik materiallar to'plashga imkon berdi.

3. Jadid ma'rifatparvarlari, chunonchi, Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va u yaratgan darsliklar xalqimizning urf-odat, an'ana va qadriyatlariga shuningdek, Sharq va Yevropa pedagoglarining ilg'or g'oyalariga asoslangan.

4. Darslar jarayonida jadid ma'rifatparvarlarining, chunonchi M. Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlarini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni qo'llash ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta`lim-tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tarixiylik prinsipi asosida tashkil qilish, unda jadid ma'rifatparvarlari, chunonchi, M.Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan foydalanish zarur.

6. Maqolani yozishdan ko'zlangan maqsadlarga erishildi, ishda belgilangan vazifalar bajarildi.

Takliflar. Maqolani yozish uchun olib borilgan pedagogik ilmiy-tajriba ishlari natijalariga asoslanib – 1. Darslik mualliflariga quyidagi tavsiyalarni berish lozim deb topdik:

- M. Behbudiyning hayoti, faoliyati va "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat- ul

atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi asarlaridagi she'r va hikoyatlardan namunalarni tuzish jarayonida foydalanishlari lozim;

- darslik mualliflari ma'rifatparvar pedagoglarning asarlaridan foydalanishda hikoya va she'rlarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'girib, boshlang'ich sinf o'quvchilarni yoshi, bilim darajasiga moslab, davlat ta'lim standarti va "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib berilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq qayta ishlab chiqib darsliklar mazmuniga kiritishlari lozim.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchliariga:

- tizimli va texnologik yondoshuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar haqidagi g'oyalarga asoslanib mashg'ulotlarni o'tishlari mumkin. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o'tilgan darslar samarali natijalar berishi maqolani yozish olib borilgan ilmiy-tajribada isbotlandi;

-maqolada ko'rsatib berilgan Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan amaliyotda foydalanishlari mumkin.

3. Ota-onalarga:

- quruq gap-so'z, nasihatvozlikdan ko'ra Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan foydalanib, aniq dalil va misollar orqali bolalarni shuuriga ta'sir etishlari kerak;

- Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlarini o'qib yoki aytib berishlari, mustaqil mutolaa qilishga tavsiya etishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : "O'zbekiston", NMIU. 2017. – 488 b.
2. Авазов Н. Маҳмудхожа Беҳбудийнинг ижодий мероси. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун бажарилган дисс. .... –Тошкент: 1995, – 217 б.
3. Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... –Тошкент: 1998, – 163 б.
4. Ахрарова З.Б. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий Амалий фаолияти. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997, – 195 б.
5. Баракаев Р.XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Филол. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... автореф.. – Тошкент: 1994. – 24 б.
6. Иноятова М.Э. Ўзбек алифбо дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2000. – 186 б.
7. Иргашева Н.А. Мунавварақори Абдурашидхоновнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997. – 169 б.

8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 216 б.

9. Худайкулов М.А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX века). Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент: 1995. – 148 б.

10. Ўзбек педагогикаси антологияси. 1-жилд. /Таҳрир ҳайъати М. Хайруллаев ва бошқалар. Тузувчи-муаллифлар: Ҳошимов К., Очилов С., – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.

11.Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: ”Маънавият”, 2002, -400 б.

12 . Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: “Маънавият”, 2004, -464 б.

13. Hamroyev Sh. E. Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish.Monografiya. Qarshi:”Fan va ta`lim”, 2021, -216 b.

14. Ҳамроев Ш.Э. Жадид маърифатпарварларининг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2009. – 169 б.

15. Ҳамроев Ш.Э.,. Каримов Б. П., Муҳаммадиев Ш. М. “Жадидларнинг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш” Монография. Қарши:”Фан ва таълим”, 2021, -186 б.

16.Hamroyev Sh. E. Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. O‘quv qo‘llanma.. Qarshi:”Intellekt”, 2023, -286 b.

“INTELLEKT XARITA” IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING SERMAHSUL USULI .

A.G.G‘aniyev-Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” kafedrasi professori, Pedagogika fanlari doktori (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-4475-7879
e-mail: aganiyev@shdpi.uz, Tel:+998973888618

Annotatsiya: *Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘p vaqtlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘lmaydi. Tasavvurni rivojlantirish uchun sezgi kanallarini mashq qildirish usulidan ham foydalanish mumkin. Intellekt xarita ma’lumotlarga vizual ko‘rinish berib, ta’limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. U faqatgina insonga xos xususiyat bo‘lib, aynan tasavvur yordamida odamlar ijod qiladi, faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi. U insonni hozirgi mavjud holatini tark etib, tarixga yoki kelajakka sayohat qilishiga imkon beradi. Tasavvur ijodiy fikrlashning asosi bo‘lib, insonga amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga imkon beradi. Uning idrokdan farqi shundaki, qaralayotgan obrazlar har doim ham real obrazlar bo‘lmay, fantaziya elementlari ham bo‘lishidadir.*

Kalit so'zlar: *Tasavvur, intellekt xarita, ijodiy fikrlash, vizuallashtirish, idrok, fikrlash, sensor kanallari, hid bilish, tuyish, his qilish;*

«ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ КАРТА» — ПРОИЗВОДИТЕЛЬНЫЙ СПОСОБ РАЗВИТЬ ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ

А.Г.Ганиев-Шахрисабзский государственный педагогический институт
профессор кафедры естественных наук, Доктор педагогических наук (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-4475-7879
e-mail: aganiyev@shdpi.uz, Tel:+998973888618

Аннотация: *Проблемы развития творческого мышления учащихся в учебном процессе давно изучаются учеными зарубежных стран. Ни один творческий продукт не может существовать без воображения. Метод тренировки сенсорных каналов можно использовать и для развития воображения. Интеллектуальная карта обеспечивает наглядное представление информации и повышает эффективность обучения в несколько раз. Это всего лишь человеческая характеристика, и именно с помощью воображения люди создают, планируют и управляют своей деятельностью. Оно позволяет человеку покинуть нынешнее состояние существования и отправиться в историю или будущее. Воображение является основой творческого мышления и позволяет человеку решать задачи даже без практической деятельности. Его отличие от восприятия состоит в том, что рассматриваемые образы не всегда являются реальными изображениями, но содержат и элементы фантастики.*

Ключевые слова: *воображение, интеллектуальная карта, творческое мышление, визуализация, восприятие, мышление, сенсорные каналы, запах, тюльпаны, чувство;*

"MIND MAPPING" IS A PRODUCTIVE WAY TO DEVELOP CREATIVE THINKING SKILLS

A.G.Ganiev-Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Professor of the Department of Sciences, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-4475-7879
e-mail: aganiyev@shdpi.uz, Tel:+998973888618

Annotation: *Abstract: The problems of developing students' creative thinking skills in the educational process have been studied by scientists of foreign countries for a long time. No creative product can be without imagination. The method of training the sensory channels can also be used to develop the imagination. Intelligence map provides a visual representation of information and increases the effectiveness of education several times. It is only a human characteristic, and it is with the help of imagination that people create, plan and manage their activities. It allows a person to leave their current state of existence and travel into history or the future. Imagination is the basis of creative thinking and allows a person to solve problems even without practical activities. Its difference from perception is that the viewed images are not always real images, but also contain elements of fantasy.*

Keywords: *imagination, mind map, creative thinking, visualization, perception, thinking, sensory channels, smell, tulips, feeling;*

O‘quvchilarga ijodiy fikrlashni o‘rgatish avvalo ularning tasavvurini rivojlantirishdan boshlanadi. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘lmaydi [1]. Tasavvur – inson ruhiyatining idrok, fikrlash va xotiralar o‘rtasidagi holatda bo‘lgan, boshqa ruhiy jarayonlardan farq qiladigan maxsus ko‘rinishidir [2]. U faqatgina insonga xos xususiyat bo‘lib, aynan tasavvur yordamida odamlar ijod qiladi, faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi. U insonni hozirgi mavjud holatini tark etib, tarixga yoki kelajakka sayohat qilishiga imkon beradi. Tasavvur ijodiy fikrlashning asosi bo‘lib, insonga amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga imkon beradi. Uning idrokdan farqi shundaki, qaralayotgan obrazlar har doim ham real obrazlar bo‘lmay, fantaziya elementlari ham bo‘lishidadir. A. Eynshteyn iborasi bilan aytganda, mantiq bizni A punktdan B punktga olib borishi mumkin, tasavvur esa istalgan joyga olib boradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘p vaqtlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Abraxam Maslounning fikriga ko‘ra, ijodkorlik barcha bolalarga xos xususiyat, lekin ko‘pchilik uni tashqi muhit ta’sirida yo‘qotadi [3]. N.A.Berdyayev insonni inson qiladigan yagona faoliyat ijodiy faoliyat deb hisoblagan. Shuningdek, D.Xalperi, E.Bono, M.Zdenek, A.Serdon, Dj.Buner, M.Vertmeyger, D.Dyui, N.Gardner, Dj.Medina, T.K.Gordonlarning ishlari ham ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan.

Sezgi organlari signallarni qayd etuvchi hujayralardan boshlanadi. Bu signallar sezgi turlariga qarab: elektromagnit to‘lqinlar-ko‘rishda, tuyishda; mexanik to‘lqinlar-eshitishda; jismoniy-ta’m bilishda hamda kimyoviy - hid bilishda, bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga inson sezgilari imkoniyatlari cheklangan bo‘lib u $\nu = 4 \cdot 10^{14} Hz$ dan $\nu = 7.5 \cdot 10^{14} Hz$ gacha bo‘lgan yorug‘lik to‘lqinlarini ko‘rishi va $\nu = 16 - 20000\ Hz$ bo‘lgan tovush to‘lqinlarini eshitishi mumkin. Neyron membranasi, yoki muskul hujayrasidagi potensiallar farqining qisqa vaqtdagi (1 ms atrofida) o‘zgarishi, ta’sir potensialini yoki elektr impulsini vujudga keltiradi va u miya bilan bog‘langan asab tolalariga beriladi. Shundan so‘ng xabarlar orqa miya va so‘ngra bosh miyaga boradi. Asab tolasidan miyaga keladigan elektr signallarining harakat tezligi 274 km/soatni tashkil qiladi. Odamda 31 juft orqa miya asab tolalari bo‘lib, ularning barchasi sezgi xabarlarini uzatish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari 12 juft bosh suyagi asab tolalari ham shu vazifa bilan shug‘ullanadilar[4].

Sezuvchi hujayralar xabarlarni qanday qilib qayd qiladi degan savol tug‘iladi. Ichki sezgi, ta’m bilish va hid bilish reseptorlarida sezgir oqsillar mavjud bo‘lib, hid paydo bo‘lganda (modda molekulalari atrof muhitda paydo bo‘lganida) ular ochiladi va hujayraga musbat zaryadlangan ionlar kiradi. Natijada depolyarizatsiya, ya’ni hujayrada qutblanishning buzilishi ro‘y beradi. Hujayraning qaytib asosiy holatga o‘tishi esa elektromagnit to‘lqinlarning chiqarilishi ya’ni signallarning vujudga kelishiga olib keladi. Hosil bo‘lgan signal miyaga uzatiladi. Eshitish va ko‘rish reseptorlari ham shunday ishlab, tashqi ta’sirlar ulardagi hujayralar zaryadlarining siljishiga va potensiallar farqining vujudga kelishiga olib keladi. Asab tolalaridan uzatilayotgan ta’sir potensialining chastotasi (elektromagnit to‘lqin energiyasi) qabul

qilinayotgan to‘lqinlar energiyasi bilan aniqlanadi. Agar sekundiga 20-40 signal uzatilsa kuchsiz, 50-70 Hz bo‘lsa o‘rtacha, 100 Hz bo‘lsa kuchli hisoblanadi. Chastotasi 100 Hz dan yuqori bo‘lgan signallar, ko‘ngilni behuzur qilishi mumkin. Ma’lumotlar bosh miyada qayta ishlanib miya po‘stlog‘iga ko‘tariladi. Sezgilar doimo bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. Masalan, ko‘rish, eshitish jarayoniga ham ta’sir qiladi [5].

Buyumdan kelayotgan yorug‘lik ko‘z vositasida qabul qilinadi va ko‘z gavhari to‘r pardada uning to‘ntarilgan tasvirini hosil qiladi. Bu parda ko‘zga tushayotgan yorug‘lik energiyasini hujayralarda tarqaluvchi elektromagnit to‘lqinlar energiyasiga ya’ni signallarga aylantiruvchi ikki xil: kolbacha va tayoqchasimon hujayralardan tashkil topgan bo‘ladi. Kolbachalar yetti million atrofida bo‘lib, uch turdagi: qizil, yashil va ko‘k ranglarni sezuvchi bo‘ladilar. Yorug‘lik to‘lqinlari to‘lqin uzunliklariga (to‘lqin energiyasiga) qarab kolbachasimon hujayralar atomlarini g‘alayonlantiradilar. Atomlar asosiy holatlariga o‘tganlarida elektromagnit to‘lqinlar (signallar) chiqariladi. Bu signallar kombinatsiyasidan miya turli ranglarni hosil qiladi. Yoritilganlik (birlik yuzaga tushayotgan yorug‘lik oqimi, fotonlar oqimi) kamaysa, kolbachasimon hujayralar faoliyati to‘xtab, tayoqchasimon hujayralar ishga tushadi Tayoqchasimon hujayralar esa ko‘zda juda ko‘p, yuz million atrofida bo‘lib ular odatda soyasimon tasvirlar uchun mas’ul bo‘ladilar va miyaga signallarni jo‘natadilar. [6].

Miya elektr signallarini uyg‘otuvchi hujayra neyron va neyronlarni tutashtirib turuvchi gilial hujayralardan tashkil topgan.

Neyron – ma’lumotlarni qabul qiluvchi, saqlovchi va ularni kimyoviy signallar va elektr impulslari yordamida uzatuvchi miya hujayrasi. Inson miyasi taxminan 90 mlrd neyronlardan tashkil topgan bo‘lib, ular bir-birlari bilan shoxchalari (aksonlar va dendritlar) va sinaps-aloqalar yordamida 10 000 martadan ortiq bog‘langan [7]. Miyaning aqliy rivojlanganligi aynan shunday aloqalar sonining ko‘pligi bilan aniqlanadi. **Dendrit-** ma’lumotlarni qabul qiluvchi neyron shoxchalari. Har bir neyronda bir nechta dentrit shoxchalari bo‘ladi. Neyronlarning dendritlari qancha ko‘p bo‘lsa u ma’lumotlarni shuncha yaxshi qabul qiladi va qayta ishlaydi. **Akson-** neyronning signallarni boshqa asab hujayralariga hamda muskul va ichki organlarning hujayralariga uzatuvchi shoxchalari. **Sinaps-** bir neyronning aksoni va boshqa neyronning dendriti, ya’ni neyronlar tanalarini bog‘lovchi bo‘ladi. U bir neyrondan ikkinchi neyronga signal uzatadigan o‘ziga xos rele vazifasini o‘taydi. Elektr signallari sinapsga yetganida kichkina pufakchaga o‘ralgan va ikkita neyronlar orasida mediatorga aylanadigan maxsus modda ajraladi [8].

Bu “dofamin” gormoni bo‘lib “rohatlanish, motivatsiya va o‘qib-o‘rganish” uchun mas’ul. U bilim olish ishtiyoqini tug‘dirib, noradrenalin va adrenalinning biologik o‘tmishdoshidir. Dofamin va serotonin rag‘batlantirish sistemasining stimulyatorlari [6].

Dofamin – ta’lim jarayonida qiziquvchanlikni orttiradi. Qiziqish bilan o‘rganilgan ma’lumotlar esa yaxshi o‘zlashtiriladi. Bolaning eslash, bilim olish, qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaydi. U baxtlilik hissiyotini, ijodga moyillikni orttiradi.

Dofamin-bosh miyada neyromediator (qo‘zg‘atuvchi) vazifasini bajarib, signallarni markaziy asab tizimi bo‘ylab bir neyrondan ikkinchisiga uzatilishiga

yordam beradi va bosh miya yadrosiga ta'sir ko'rsatadi. Miyaning bu qismi esa ehtiros, xotira, qiziquvchanlik va motivatsiya uchun ma'sul bo'lgan markazlar bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Dofamin ishlab chiqarilishini rag'batlantirish uchun: bodom, pista, ko'k choy, dengiz mahsulotlari, karam, olma, banan, qulupnay, shaftoli yeyish kerak. Jismoniy faol bo'lishi va normal uxlashi kerak. Maqsadga erishish yaxshi narsalar haqida o'ylash, shirin xotiralarni eslash ham dofamin ishlab chiqarilishini yaxshilaydi.

Kam harakat, semizlik, zararli odatlar (nikotin, kofein, alkogol va boshqalar) miyaning dofamin ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Miya rivojlanishi uchun qo'l va oyoqlarning harakati juda mihimdir. Inson miyasi kunida 19 km yurish uchun yaratilgan. Shuning uchun ham aqliy qobiliyatni yaxshilash uchun jismoniy harakat qilish kerak. Jismoniy harakat inson miyasini qon bilan ta'minlanishini, ya'ni miyani glyukoza va zaharli zarrachalardan tozalash uchun kislorod kelishini ta'minlaydi va miyadagi neyronlar aloqasini amalga oshiruvchi proteinning ishlab chiqarilishiga yordam beradi.

Bosh miya yarimsharlarining bir xil faol rivojlanishi eng ideal holatdir. Bunga "to'la fikrlash" deyiladi [9] va quyidagi misollar yaxshi dalil bo'ladi:

- musiqiy ta'lim olishda bosh miyaning chap yarimshari faol bo'lsa, turli tasavvurlar ostida tug'iladigan musiqiy asarning yaratilishi o'ng yarimsharning mahsulidir;
- shoir she'r yozganida o'xshatishlar qilish, fantaziya elementlarini topish uchun o'ng yarimshardan foydalansa, bu tuyg'ularni so'zlar yordamida ravon bayon qilishga chap yarimshar xizmat qiladi;
- arxitektor binoning tarxini chizganda uning fazoviy joylashuvi, estetik ko'rinishini aniqlashda o'ng yarimshar xizmatidan foydalanadi. Lekin barcha hisob-kitoblarni bajarish chap yarimshar yordamida amalga oshiriladi;
- E.Rezerford atomning planetar modelini tasavvur qilishda, N.Bor pastulanlarini taklif qilishda tasavvur qilishdan, ya'ni o'ng yarimshar xizmatidan foydalanishgan bo'lsa, ularning to'g'riligini isbotlovchi tajribalar tahlili va hisob-kitoblar chap yarim shar yordamida amalga oshirilgan;
- avtomobilning yangi modeli ko'rinishi ishlab chiqarishdan oldin konstruktor miyasining o'ng yarimsharida tasavvur qilinadi. So'ngra esa chap yarimshar yordamida texnik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikrlaricha besh yoshdan boshlab bolalar bosh miyalarining yarimsharlari "mutaxassisliklar"ga ajralisha boradi. Bunda til o'rganish qobiliyati muhim rol o'ynar ekan. Demak, besh yoshdan boshlab bolalarda "ijodiy fikrlash" elementlarini o'rgatishni boshlash mumkin. A.Einshteynning ham fanga qiziqishi 5 yoshidan, otasi unga kompasni ko'rsatgandan boshlangan. U skripka chalishni ham yaxshi ko'rgan.



1-rasm: "Sensor kanallari" intellekt xaritasi

Ushbu intellekt xaritada tasavvurga ozuqani idrok berishi va uning asosida bosh miyaning o'ng yarimsharida "ijodiy fikrlash" ning vujudga kelishi ko'rsatilgan.

Undan ko'rinib turibdiki, sensor kanallaridan keladigan ma'lumotlar bosh miyaning chap yarimshari bilan idrok qilinadi va narsaning aniq shakli tasvirlanadi. Ushbu ma'lumotlar asosida esa bosh miyaning o'ng yarimshari qismlarida "ijodiy fikrlash" elementlari vujudga keladi.

Keltirilgan intellekt xaritalar bir tomondan miya faoliyati, yarimsharlarining funksional mutaxassisliklari haqida bilimlarni chuqurlashtirishga, ikkinchi tomondan o'quvchilarda "tasavvur" va "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

"Intellekt xarita" o'quvchilarning "tasavvur" qilish va "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarinig rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi [10]. Uni tuzish yangi g'oyalarning tug'ilishi, diqqatning jamlanishi va verbal ma'lumotlarni vizual ma'lumotlarga aylantirish, unda ta'lim jarayonida unumli foydalanish imkonini beradi.

Tasavvurdagi fikrlash elementlari va fikrlashdagi tasavvur o'zaro bog'liq bo'lib, ular doimo bir-birlarini to'ldirib boradi.

Stenford universitetining professori Robert Makkim talabalar tasavvurini rivojlantirish uchun ularni Tasavvur xonasiga (Imajinariumga) taklif qiladi. Bu xona Planitariumga o'xshaydi. Tanalar katta g'ildirakning spitsalariga o'xshab joylashtirilib, boshlar bitta katta yostiqqa qo'yiladi. Ko'zlar yumilib yengil musiqa eshitiladi va xayol suriladi. Osmon-u falak, oy va yulduzlar tomon fantastik sayohat qilinadi. Sayohat mavzusi turlicha tanlanishi mumkin. Zuhra sayyorasiga sayohat, α - kentavrga sayohat, noma'lum planetaga sayohat va hokazo.

Tasavvurni rivojlantirish uchun sezgi kanallarini mashq qildirish usulidan ham foydalanish mumkin. Bu jarayon quyidagi holatlarda ifodalab beriladi.

Ko‘rish – xonadagi biror narsaga qarang. Unga yangicha nigoh tashlang. Shakli va qismlariga e’tibor bering. Undan biror yangilik toping. Bu to‘g‘risida aytib bering. Rasmini chizing.

Eshitish – biror tovushni eshiting. Uning qayerdan kelayotganini tasavvur qiling. U to‘g‘risida aytib bering. Tovush manbaining rasmini chizing.

Hid bilish – xonada biror hid taralyapti. Hid manbaini tasavvur qiling va uning rasmini chizing. Hid tasavvurni jonlantirish xususiyatiga ega. Bunga sabab hid bilish signallarining miyaning emotsiyani va motivatsiyani shakllantiradigan qismida analiz qilinishi bilan bog‘liq deb bilishadi.

Ta’m bilish – og‘zingizdagi konfetning ta’mini (mazasini) aniqlang. Unda nimalar bor. Manbalarini tasavvur qiling va rasmini chizing.

Tuyish – ko‘zingizni yumib barmog‘ingizni ikkinchi qo‘lingiz ustiga yurgizing. Bunda nimani tuyayotganingizni aytib bering va rasmini chizing. O‘rtog‘ingiz barmog‘ini qo‘lingiz ustiga yurgizgan holni ham sinab ko‘ring.

Tasavvurni va to‘la fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi usullar juda ko‘p. Quyida zamonaviy usullardan biri Intellekt xarita bilan tanishamiz.

Intellekt xaritadan foydalanib ma’lumotlarni vizuallashtirishga bag‘ishlangan D.Vetrova, E.Dimitrova, A.Timofeyeva, L.Shestakovalarning ishlarida ham intellekt xaritalar faqat ma’lumotlarni jamlash usuli sifatida qo‘llanilgan, xolos.

Intellekt xarita to‘la fikrlash asosida istalgan muammoning yechimini topishning sermahsul vositasidir .

Intellekt xarita ma’lumotlarga vizual ko‘rinish berib, ta’limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shu nuqtai nazardan u ijodiy fikrlashga o‘rgatishning ideal vositasidir. U nimalari bilan foydali:

– muammoga aniqlik kiritadi; uni yechishni rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tartibga soladi; vaziyatni to‘la tasvirlashga yordam beradi; ma’lumotlarga vizual ko‘rinish beradi; zarur ma’lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi; nostandart yechimlarni rag‘batlantiradi; fazoviy ko‘rish intellektini rivojlantiradi.

Tasavvurga ma’lumotni idrok beradi. Sensor kanallari orqali olma haqida olingan ma’lumotlar asosida miyada olma tasviri hosil bo‘ladi. Natijada bosh miyaning o‘ng yarimsharida olma bilan bog‘liq turli tasavvurlar shakllanishi mumkin: gullagan olma daraxtlari; savatlarda qizil, pushti va ko‘k olmalar. Bu olmalar uzilgan olmazor bog‘lar; bezatilgan stollarda qizil, pushti va ko‘k olmalar solingan laganlar; turli xil olma sharbatlari va ularni ichayotgan bolalar.



2-rasm: Tasavvur intellekt xaritasi.

Intellekt xaritada tasavvurga ozuqani idrok berishi va uning asosida bosh miyaning o‘ng yarimsharida mantiqiy va nostandart tafakkur uyg‘unligida ijodiy fikrlashning vujudga kelishi ko‘rsatilgan.

Undan ko‘rinib turibdiki, sensor kanallaridan keladigan ma’lumotlar bosh miyaning chap yarimshari bilan idrok qilinadi va narsaning aniq shakli hosil bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar asosida esa bosh miyaning o‘ng yarimshari qismlarida tasavvur elementlari vujudga kelib ijodiy fikrlashga asos bo‘ladi. Demak, keltirilgan intellekt xaritalar, bir tomondan, miya faoliyati, yarim sharlarning funksional mutaxassisliklari haqida bilimlarni chuqurlashtirsa, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarda tasavvur va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Amalda esa bosh miyaning o‘ng yarimsharini turli usullar bilan faollashtirib, uning yashirin imkoniyatlaridan foydalanish, xususan, tasavvurni va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Intellekt xarita bunday vazifani bajarishning eng samarali vositasidir. U diqqatni jamlash, verbal ma’lumotlarni vizual ma’lumotlarga aylantirish, bosh miya o‘ng yarimsharini faollashtirish va yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga yordam beradi.

Xulosa: Ta’lim jarayonida intellekt xaritadan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirish vositasi, balki ularning bosh miyalarining o‘ng yarimsharini faollashtirish bilan ijodiy fiklash ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham yordam beradi. Bu usuldan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida foydalanish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Miya tashqi olamdan ko‘rish, eshitish, hid bilish, tuyish va ta’m bilish orqali ma’lumotlar oladi. Bu ma’lumotlar sezgi organlarida signal (elektromagnit to‘lqinlar) uyg‘otadi va ular miya hujayrasi neyronlar bo‘ylab miyaga boradi.

Neyron ma’lumotlarni qabul qiluvchi va ularni elektromagnit to‘lqinlarga (signallarga) aylantiruvchi miya hujayrasi. Signallar uzatiladigan neyron tolalarini harakat kanallari sifatida tasavvur qilish mumkin. Bunda yangi ma’lumotlar miyada mavjudlari bilan solishtiriladi va qo‘shimcha so‘qmoqlar, g‘ayrioddiy g‘oyalar esa ko‘ndalang tarmoqlar sifatida tasvirlanadi. Bunday “solishtirib o‘rganish” kishining “tasavvur” qilish va “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Ma’lumotlar xotirada yaxshi saqlanishi uchun (ayniqsa, fizika, kimyo, biologiya fanlarini o‘qitishda) ularni vizuallashtirish kerak. Chunki miyaning obrazlarini aniqlashga tabiiy ehtiyoji katta. Shu maqsadda ta’limda “intellekt xaritalardan” foydalanish yaxshi natija beradi.

Sensor kanallari “intellekt xaritasi” esa miyaning ma’lumotlarni qanday qabul qilish va qaysi qismlarida qayta ishlashini, “tasavvur” ning qanday vujudga kelishini vizual tushunishga va o‘quvchining “ijodiy fikrlash” ko‘nikmlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Выготский Л.С. Собрание сочинений Т.2. – М., 1982 г.
2. Немов Р.С. Психология книга 3. – Москва, Владос, 2005 г.
3. Маслоу А. Мотивация и личность, 3-е издание. Питр. 2014 г. – С. 600.
4. Боно де Эдвард. Серьёзное творческое мышление. – Минск ООО Попурри, 2015 г.
5. Медина Д. Правила Мозга. – М., Манн, Иванов и Фербер. 2014 г.
6. www.imindmap.com
7. Ғаниев А.Г. Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year old children 2020yil Volume 7, Issue 11, European journal of molecular &clinical medicine.
8. Б. Эдвардс Откройте в себе художника. М. Попурри. 2017 г.
9. В. Дубынин «Мозг и сенсорные системы» You tube.com 21.04.2017г.
10. Головной мозг: Строение функции, общее описание.Golovai Mozg.ru
11. А. Акимов «О структуре человеческого глаза, сумеречном зрении и обработке мозгом импульсов» You tube.com 2014 г.

“OTA-ONA VA FARZANDLAR” MUNOSABATLARI KONTEKSTIDAGI NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMENANTLARI

Iroda Rasulova Mansurovna-Shahrisabz davlat pedagogika instituti v.b dots
E-mail rasulova.iroda86@bk.ru

Annotasiya. *Ma’lumki ota-ona va farzandlar munosabatlari konkeksidagi nizolar va ularning ijtimoiy psixologik determenantlari bolaga nisbatan beparvolik, unga jismoniy, emotsional (ruhiy) va jinsiy zo‘rlash ishlatish orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarda ota-ona va farzandlar” munosabatlarini*

o'rganish ko'rib chiqish bizning tadqiqotlarimizning dolzarbligini ko'rsatadi. "Zulm" yoki "...bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lish", "bolaning sog'ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya"ni anglatadi.

Kalit so'zlar. *Zulm, zo'ravonlik, emotsional zo'rlash, jinsiy zo'rlash, determenant, nizo, oila, qadriyat, er-xotin, munosabat, xavf, fobiya, omil.*

КОНФЛИКТЫ В КОНТЕКСТЕ ОТНОШЕНИЙ «РОДИТЕЛИ И ДЕТИ» И ИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ

Ирода Расулова Mansurovna -Шахрисабзский государственный педагогический институт с.б. доц.
Электронная почта: rasulova.iroda86@bk.ru

Аннотация. *Известно, что конфликты в контексте детско-родительских отношений и их социально-психологических детерминант проявляются через пренебрежение детьми, физическое, эмоциональное (духовное) и сексуальное насилие. Поэтому изучение взаимоотношений родителей и детей в семейных отношениях показывает актуальность нашего исследования. «Жестокость» или «...жестокое обращение с детьми», «любая форма физического или эмоционального негативного обращения, которая причиняет или может причинить физический вред здоровью, жизни, развитию и способностям ребенка, сексуальное насилие, небрежное или небрежное обращение, реклама или другая эксплуатация».*

Ключевые слова. *Угнетение, насилие, эмоциональное насилие, сексуальное насилие, детерминанта, конфликт, семья, ценность, пара, отношения, риск, фобия, фактор.*

CONFLICTS IN THE CONTEXT OF "PARENTS AND CHILDREN" RELATIONS AND THEIR SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS

Iroda Rasulova Mansurovna- Shahrisabz State Pedagogical Institute v. b Assoc
E-mail: rasulova.iroda86@bk.ru

Abstract. *It is known that conflicts in the context of parent-child relations and their social psychological determinants are manifested through child neglect, physical, emotional (spiritual) and sexual abuse. Therefore, the study of the relationship between parents and children in family relations shows the relevance of our research. "Cruelty" or "...child abuse", "any form of physical or emotional negative treatment that causes or is likely to cause physical harm to the child's health, life, development and capacity, sexual abuse , careless or careless treatment, commercial or other exploitation".*

Key words. *Oppression, violence, emotional abuse, sexual abuse, determinant, conflict, family, value, couple, relationship, risk, phobia, factor.*

Kirish. Jahon xalqlari miqyosida mustahkam oilaviy munosabatlarni barpo etish farzandlarni komil inson qilib voyaga yetkazish jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ma'lumki oilada bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning sodir bo'lish holatlari, afsus hammamizni tashvishga soladi.

2021-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitasiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5116-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra:

Oilaviy zo'ravonlikdan eng ko'p aziyat chekadigan oila a'zolari bolalardir. Ular zo'ravonlikning to'g'ridan-to'g'ri qurboni bo'lishi bilan birga, onaga nisbatan qo'llanayotgan xatti-harakatlarning ma'lum qismini o'zlashtirishi xavfi ham bor. Bunday oilada bolaning reallikni qabul qilishi buziladi, zero u uchun haqorat va kaltaklar asta-sekin normal holatga aylanib boradi. Katta bo'lgach uning o'zi ham ana shunday zo'ravonlik xatti-harakatlarini qo'llashi mumkin yoki shunchaki bunday "yuk"ni ko'tara olmay ko'pincha o'z joniga qasd qilishi mumkin.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi adabiyotlarda keltirilishicha, ba'zi insonlar bolaligidan oilaviy zo'ravonlik guvohi bo'lganligi sababli zo'ravonlikka moyil bo'lishlari, har qanday zo'ravonlikni oddiy holat sifatida qabul qilishlari mumkin (masalan, bolaligida yomon munosabatda bo'lgan odamlar, o'z navbatida, o'z farzandlariga yomon munosabatda bo'lishgan; ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlar bu hatti-harakatni kattalardagi yaqin munosabatlarida takrorlashgan). Zero zo'ravonlik holatining avlodlararo uzatilishini ijtimoiy tajriba va kuzatuvlarda o'z tasdig'ini topgan.

Bunday holatlar ko'proq muammoli vaziyatga tushib qolgan oilalarda ro'y beradi.

Zo'ravonlik holatlari sodir bo'lishiga sabab bo'luvchi vaziyatlar:

1. Er o'z oilasini moddiy va ma'naviy jihatdan boshqara olmasligi;
2. Oila boshlig'ining spirtli ichimlikka, narkotik moddalarni iste'mol qilishga berilganligi;
3. Ayollarning o'z umr yo'ldoshlariga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishi, xiyonatkorligi, oilada ayollik burchini his qilmasligi;
4. Er-xotin o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qligi, muomala madaniyatini bilmasliklari.

Oilada farzandga nisbatan zo'ravonliklar ota-onalarning o'quvsizligi, bolaga nisbatan beparvoligi, tarbiyalashda jazo usulini qo'llashga o'rganganliklari oqibatida sodir bo'ladi. Beparvolik ba'zilarga unchalik yomon tuyulmasligi mumkin, lekin aslida yomon holatlar, fojealar, qotilliklarga sabab bo'lishi mumkin. Psixologiyaga doir tadqiqotlarda zo'ravonliklarning natijasi – bolada qo'rqoqlik, ruhiy tushkunlik – beparvolik paydo bo'ladi, bularning natijasi esa yomonlikka – toshbag'irlikka, qahri qattiqlikka, odam o'ldirishga, qotillikka olib borishi mumkin. Bunga sabab xavf omili ota-onalarning bolaga nisbatan zo'ravonlik ishlatishiga olib keluvchi ularning ijtimoiy izolyatsiyalanganligi hamda qadriyatlar tizimlari ekanligi aniqlanganligidir.

BMT bolalar bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik – bu yuqumli illat ekan. Bolalarga qarshi zo'ravonlikning ba'zi ko'rinishlari barcha muhitlar uchun umumiydir. Jismoniy jazo berish hamda shafqatsiz yoki tahqirlovchi jazolashning

boshqa turlari ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari tomonidan uylarda, bolalar parvarishi bo'yicha mas'ul shaxslar tomonidan tarbiya muassasalarida, o'qituvchilar tomonidan maktablarda qo'llaniladi va shu bilan birga bolalarga qonun bilan bo'lgan kelishmovchiliklarda singdiriladi.

"Bolalarga nisbatan zulm" tushunchasi butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi.

"Zulm" yoki "...bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lish", "bolaning sog'ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya"ni anglatadi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan "bolaga nisbatan zulm" atamasi o'zida "ehtiyotsiz munosabat" hamda "tashlab qo'yilganlik" tushunchalarini o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagi e'tirof etilgan mavjud muammolar butun dunyo miqyosida oilaviy munosabatlarda ota-ona va farzandlar munosabatlari konkeksidagi nizolar oilaning barqarorligini ta'minlashdagi asosiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda "Bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat" tushunchasi qonuniy asosga tayanadi.

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik turlariga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz:

Jismoniy zo'ravonlik – bolaning qiynalishiga sabab bo'luvchi va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi zo'ravonlik va boshqa noinsoniy xatti-harakatlarning boshqa turlari (jismoniy og'riq yetkazish, urish, tishlash, kuydirish, bolani maqsadli ravishda bo'g'ish yoki cho'ktirish, shuningdek, bolaga zahar va noto'g'ri dori berish bilan bog'liq hodisalar).

Jinsiy (seksual) zo'ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish, bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch va ayyorlikni ishlatish.

Bolalardan pornografik mahsulotlar tayyorlash maqsadida foydalanish, shuningdek, ularga pornografik mahsulotlarni namoyish qilish. Bolalarni fohishabozlikka jalb qilish.

Emotsional zo'ravonlik – bolaning o'ziga hurmat va ishonch hissining yo'qolishiga sabab bo'luvchi, unga nisbatan doimiy e'tiborsizlik va bemehrlik, tahdid va ahmoqlik qilishdir. Bolaga yoshiga mos kelmaydigan va bajara olmaydigan talablarni qo'yish. Kattalar tomonidan yolg'on ishlatilishi va va'dalarning bajarilmasligi, bolada ishonchsizlik uyg'otish.

Ehtiyotsiz munosabat – bolaning uy-joy, oziq-ovqat, kiyim kechak, dori-darmonga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi. Bolani qarovsiz qoldirish.

Ekspluatatsiya – boladan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish – bolalar

mehnati, seksual ekspluatatsiya, trafik – (bolalarni ekspluatatsiya maqsadida olib chiqib ketish, sotish) zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan, shuningdek, tashlab qo‘yilgan bolalarning faoliyat yuritishining barcha darajalari – sog‘ligi, ongini o‘stirish, xulq-atvorini, jismoniy, emotsional va intellektual rivojlanishining buzilishini qamrab oluvchi turmush tarzi va rivojlanishida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlardan ma’lumki, agar axloq ijtimoiy normalarni buzsagina uni agressiv axloq deb qaraladi.

L.Berkowitzning (1994) fikricha, ijtimoiy axloq normalari buzilishini unda qatnashuvchi tomonlarning har xil qarashlari aniqlab beradi (masalan, ba’zi bir ota-onalar bola tarbiyasida tan jarohati berishni qo‘llashsa va buni yaxshi ta’sir qiladigan usul deb tushunsalar, boshqa bir toifa ota-onalar bunday yo‘lni qo‘llash mumkin bo‘lmaydigan agressiya shakli deb o‘ylaydilar).

Shuningdek, R.A.Baron, D.R.Richardsonlar tadqiqotlarida, “qachonki jinoyatchi qochishga urinsa, jinoyatchiga ziyon yetkazish niyatida va maqsadida harakat bajariladi hamda tan jarohati berish me’yori jamiyatni qoniqtiradi. Va aynan shunday yo‘l tutish ko‘pgina mamlakatlarda qonunlashtirilgan. Shunday yo‘l bilan jamiyatda bir qator qonuniy ishlar amalga oshiriladi va bunda hamma ham ushbu yondashuvni ma’qul deb hisoblamasa-da, boshqalar unga rioya qiladilar. Shu jihatdan qaraganda, aniq huquqiy qonun-qoidalar bo‘lmaganda qonuniy deb qarash yanayam murakkablashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oilaviy zo‘ravonlik vaziyatiga bolalar jalb qilinishining asosiy uch turini ajratish mumkin:

1. O‘tkazilgan tadqiqotlar bolaga nisbatan beshafqat munosabat va erning xotiniga bo‘lgan zo‘ravonlikning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘z turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan tajovuzkor harakatlar, bevosita bolaga ham o‘tkaziladigan zo‘ravonlik hisoblanadi.

2. Bolaning yuqorida ko‘rsatilgan jalb qilinishi uning zo‘ravonlik holatiga bilvosita jalb qilinishi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda bola oiladagi barcha nizolar, janjallarning guvohi bo‘ladi. Oiladagi muhitdan kelib chiqqan ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya, bolani uydan tashqarida, turli o‘smirlar guruhlarida taskin topishga majbur qiladi.

3. Boladan qurol sifatida foydalanish uni zo‘ravonlik holatiga jalb qilishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Odatda, xafa bo‘lgan bir oila a’zosining boshqa oila a’zosi ustidan hukmronlik o‘rnatish shaklida ifodalanadi. Bolaga nisbatan ham zo‘ravonlik ishlatilishi mumkin, lekin ushbu harakatlarning asosiy maqsadi boshqa oila a’zosini dilini og‘ritishdir.

Zo‘ravonlik tufayli bolaning ruhiyatidagi buzilishlar avvalo quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- emotsional beqarorlik;
- emotsional befarqlik;
- salbiy hissiyotlarning ijobiy hissiyotlardan oshib ketishi.

Emotsional beqarorlik, salbiy va ijobiy hissiyotlar o‘rtasidagi keskin og‘ishlar tashlab qo‘yilgan bolalarga hos bo‘lib, yana ularga emotsional befarqlik va depressiya ham xos bo‘ladi. Zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarda salbiy hissiyotlar

ijobiylaridan yuqori bo‘ladi, ijobiy hissiyotlar kamdan kam kuzatiladi. Ularda asosan g‘azab, tahlika, qo‘rquv, xavfsirash hissiyotlari mavjud bo‘ladi. Bunda agar bola o‘zida zo‘ravonga nisbatan mavjud bo‘lgan hissiyotni bostirsa yoki inkor etsa, boladagi g‘azab ichkariga yo‘naladi va o‘zidan nafratlanishga hamda dipressiyaga olib keladi.

Tahlil va natijalar.70-yillarda oilaning ijtimoiy modeli nuqtai nazaridan bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabatlarning sababi ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilganligida deb qarala boshlandi. Keyingi tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra, individ oila va jamiyat darajasidagi xavf omillarini aniqladilar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni bitta omil emas balki ularning o‘zaro ta’siri keltirib chiqarishini isbotlab berdilar. Ular shuningdek, u yoki bu omilning mavjudligi zo‘ravonlik ishlatilayotganligini anglatmasligini, balki uning yuz berish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Oilasida zo‘ravonlik ko‘rgan bolalarning 40 foizi keyinchalik o‘zlari shunday harakatni amalga oshirishga moyil bo‘lib qolishar ekan, hatto o‘zlari bevosita zo‘ravonlik qurboni bo‘lmasalarda, balog‘at yoshiga yetgandan keyin, yoki zo‘ravonlikka duch keladilar yoki o‘zlari shuni sodir etadilar.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, o‘z bolalariga nisbatan jismoniy yoki emotsional (ruhiy) va jinsiy zo‘rlik ishlatgan ota-onalarning aksariyati o‘zlari ham bolaliklarida mana shu zo‘rlikni his qilishgan.

Erkak va ayol oilada o‘zlariga xolis baho bergan holda bir-birlarini qadrlab, hurmat qilsalar ziddiyatning oldini olib bartaraf etish uchun imkoniyat vujudga keladi. Oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit, xotirjamlik, ibratli munosabat, o‘zaro totuvlik bola shaxsining ijobiy xatti-harakatlarida o‘z aksini topadi.

Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o‘z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turmush sharoitini ta’minlashga asosiy javobgardir. Mana shu xususiyatlar barqaror bo‘lgan oilalarda zo‘ravonlik holatlari sodir etilmaydi, bolalarga nisbatan hurmatli munosabat qaror topadi.

Z.S.Elovning (2022) ta’kidlashicha, “Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog‘liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og‘ishida ham bevosita o‘ziga xos yuqoridagi ikki omilning o‘rni bor. Bolaning xulq-atvori ko‘pincha o‘z oldiga quygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e’tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xulq-atvordagi o‘zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog‘liq yuz berishi tabiiydir. Shunday qilib boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e’tiborni qaratish zarur:

- birinchi o‘rinda, har bir yosh davrni o‘ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.
- ikkinchi o‘rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlarni o‘rganib chiqish kerak.
- uchinchi o‘rinda, tarbiyasi og‘ir bolalarning psixologik rivojlanishini me’yorlashtirishga yo‘naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir”.

Bolaga nisbatan beparvolik, unga jismoniy, emotsional (ruhiy) va jinsiy zo‘rlash ishlatish juda achinarli va dahshatli hodisadir. Bunday ishlar bolalar bilan sodir

bo‘lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, lekin hamma vaqt ham har bir vijdonli, hamiyatli inson bu zo‘ravonliklarning kelib chiqish sabablarini o‘rganishi va kelib chiqishi ma’lum bo‘lgan hollarda zudlik bilan kerakli tashkilotlarga xabar berishi, oldini olish uchun chora-tadbirlar qo‘llashi kerak bo‘ladi. Tegishli mutasaddi tashkilotlarga xabar yetkazish juda ham katta javobgarlikni va to‘g‘ri yondashish, ma’lumotlarni aniq to‘plashni talab qiladi, chunki bola xavfsizligi va butun oilaning farovonligi xavf ostida qolishi mumkin. Ruhiy zo‘ravonlik bola hissiyotlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada bola fe’l-atvorida salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Oilada ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatli munosabat bolaga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik sodir bo‘lishiga olib keladi.

Ruhiy zo‘ravonlik turlari:

1. Bolaning hissiy holatiga yoki xulq-atvoriga haqqoniy yoki taxminiy zararli ta’sir ko‘rsatish;
2. Tahdid, qo‘rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;
3. Boladan voz kechish;
4. Izolyatsiya, ya’ni qamab qo‘yish;
5. Noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish va majburlash;
6. Bola bajara olmaydigan oshiqcha talablarni asossiz ravishda qo‘yish.

Bolaga nisbatan emotsional (ruhiy) zo‘ravonlik sodir etilganligini ushbu belgilarni o‘rganish orqali bilib olish mumkin:

1. O‘zini past baholash, bola o‘zini hech kim yaxshi ko‘rmaydigan, keraksiz deb hisoblashi;
2. Bola ota-onasi uni kamsitayotgan tanqid qilayotgan, uydan haydash bilan qo‘rqitayotgan deb hisoblaydi;
3. Bola xafa va xayajonlangan;
4. Jismoniy zo‘ravonlikni kutmoqda;
5. Nutqiy rivojlanish va tushunishda tutilish;
6. Mantiqiy fikrlay olmaslik, qo‘yilgan vazifani hal qila olmasligi sababi va oqibatlarini qidirish;
7. Kattalarga hurmatsizlik va ishonchsizlik;
8. Tengdoshlariga, aka-uka va opa-singillariga nisbatan tajovuzkorlik;
9. Himoya sifatida kattalarning xulq-atvorini hamda mustaqilligini namoyon qilish;
10. O‘z joniga qasd qilishga urinish.
11. Unga ko‘rsatilayotgan yordamning beg‘arazligiga ishonchsizlik;
12. Muvaffaqiyat va xursandchilikni ich-ichidan his qila olmaydi, o‘zini yaxshi hayotga loyiq emas deb hisoblaydi.

Emotsional (ruhiy) zo‘ravonlik natijasida bolalarda paydo bo‘ladigan notinchlik holatlari:

1. Fobiya, ya’ni qo‘qqisdan paydo bo‘luvchi qo‘rquv, ayniqsa qorong‘ilikdan, erkaklardan, notanish kishilardan, alohida hodisa yoki xatti-harakatlardan qo‘rqish;
2. Chuqur va tez-tez yuz beradigan depressiya, qo‘rquv, xavfsirash, ishonchsizlik yoki tajovuzkorlikdan iborat bo‘lgan shaxsiy o‘zgarishlar;
3. Duduqlanish, nutqning buzilishi yoki butunlay yo‘qolishi;

4. Kishilar bilan yaqin aloqa o‘rnata olmaslik, bog‘liqlikning buzilishi;
5. O‘z-o‘ziga past baho berish;
6. Aybdorlik, uyalish hissi;
7. Tungi qo‘rquv, uyquning buzilishi;
8. Diqqatni jalb qila olmaslik; “ichimdagini top” bo‘lib qolish, ijodiy faollikning buzilishi.

Bolaga nisbatan zo‘ravonlikni amalga oshirayotgan ota-onalar yoki tarbiyachilar xulqidagi hususiyatlar:

1. Boladagi jarohatlarni tushuntirishdagi qarama-qarshi fikrlar yoki tushuntirishdan bosh tortish;
2. Tibbiy yordamga kechikib murojaat qilish, ba’zan ko‘mak haqidagi tashabbus boshqa shaxslardan chiqadi;
3. Jarohat uchun javobgarlikni bolaning o‘ziga ag‘darish;
4. Ota-onalarning jarohat og‘irligiga mos kelmaydigan reaksiyasi, ba’zan oshiqcha, ba’zan kam;
5. Bolaning taqdiriga befarqlik;
6. Bolaga e’tiborsizlik, unga hissiy ko‘mak bermaslik, erkalamaslik;
7. Ruhiy hayajonlanishning yoki harakteridagi patologiyaning (tajovuzkorlik, hayajonlanish, mos kelmaydigan hatti-harakatlar) xulq atvorda aks etishi;
8. Bola sog‘ligiga taalluqli bo‘lmagan o‘zining muammolari haqida ko‘proq qayg‘urish.
9. Bolaligida ularni jazolashganlari haqida ko‘p gapirishi.

Oilada bolalarga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik sodir bo‘lishi sabablari:

1. Oilada sog‘lom muhitning mavjud emasligi.
2. Oilada moddiy yetishmovchilik – oila boshlig‘ining oilani ta’minlay olmasligi.
3. Er va xotin o‘rtasidagi bir-birini tushunmaslik, qo‘polliklar.
4. Urush – janjalli holatlar.
5. Erkakning spirtli ichimliklarga, chekishga ruju qo‘yishi.
6. Ayolning yengil tabiatliligi, erni mensimasligi.
7. Farzandlarga nisbatan beparvolik, ularni so‘kish, nohaq jazolashlar.
8. Erning begona ayollar bilan muloqotda bo‘lishi.

Oilada ota-onalar tomonidan bolani besabab tergash, so‘kish, noto‘g‘ri ayblovlar bolani salbiy tomonga o‘zgarishiga, uydan bezishiga, odamovi bo‘lib qolishiga, ruhiy ezilishiga olib keladi.

Ye.P.Tumanovaga (2020) ko‘ra, “Oiladagi muammo – bolaga nisbatan zo‘ravonlik, noto‘g‘ri parvarish qilish sharoitlari, chaqaloqning hayoti va sog‘lig‘iga qiziqishning yo‘qligi, bolaning normal oilaviy hayot tajribasining etishmasligiga olib keladi”.

Ayrim hollarda (masalan A.Varga tadqiqotlarida, 2014), oilada bolaga nisbatan jismoniy jazolash qo‘llanilmasligi mumkin, lekin ularda ruhiy bosim o‘tkazish, uni butkul nazorat qilish va bolaning fikrini inobatga olmasdan, maktab o‘qituvchisi bilan birgalikda xulqini qoralash. Tashqi tizimlar (tashkilotlar) ta’siriga tushib, ular bilan birgalikda ish olib borish, oilada xavotir darajasi bo‘lgan hollarda ko‘p kuzatiladi.

Bunday hollarda, oila a'zolarida o'z mas'uliyatlarini tashqi tizimga (shaxslarga) o'tkazish niyatini paydo bo'ladi. Jamiyatda, zo'ravonlik holatlari birinchi navbatda erkak kishidan kelib chiqadi, degan fikr mavjud. Ammo bolaga nisbatan suitsid xatar avvalo ona va bola o'rtasidagi munosabatlaridan yuzaga keladi. Oilaviy psixoterapevt Anna Varga tomonidan 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning haqiqiy suitsidal urinishlarining klinik tadqiqoti, bolalar bilan intervyu natijalari bu turdagi harakatlarning sodir bo'lishiga asosan bolaning onasi sababchi ekanligini ko'rsatdi. Bola yordam va najot izlab boradigan, eng ishonchli yaqini uning onasidir. Onaning o'zi bolani tushunmasligi, uni rad qilishi, so'ragan yordamini ko'rsata olmasligi ko'zlagan suitsidal harakatlarini amalga oshirishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. "Ota-ona va farzandlar" munosabatlari kontekstidagi nizolar va ularning ijtimoiy-psixologik determenantlari mavzusini o'rganishga doir ilmiy-nazariy, empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish asosida qo'yidagi xulosalarni shakllantirdik:

Umuman olganda, ruhiy zo'ravonliklar oqibatida bolaning sog'ligi yomonlashishi, qo'rqoq yoki bemehr, toshbag'ir bo'lib qolishi mumkin. Bu esa kelgusida bola tomonidan jinoyatlar qilinishiga, tajovuzkorlik holatlariga sabab bo'ladi hamda zo'ravonlikka moyil xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida baholanadi.

1. Bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida bevosita biologik va ijtimoiy omilning o'rni o'ziga xos hisoblanadi. Bunda har bir xulqi og'ishgan bolaning xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir.

2. Oiladagi sodir etiladigan psixik zo'ravonlik, odatda, jismoniy zo'ravonlik bilan birgalikda sodir etiladi hamda muammoni "oila huquqi", "oila psixologiyasi", "kriminologiya" sohalari tadqiqotchilari tomonidan ham o'rganilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

3. Zo'ravonlik oila turmush munosabatlari "ota-ona va farzandlar munosabatlari doirasida insonning ixtiyoriga zid ravishda sodir etilib, "jismoniy kaltaklash" (urish, zo'rlash, badanga turli darajada tan jarohati yetkazish) va "ruhiy zo'ravonlik" (tuhmat yoki haqorat qilish, sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ustidan kulish, jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) kabi ikki shakli ko'rinishida bo'ladi.

3. Hozirgi murakab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xurujlarning ta'siri oilalarga, ayniqsa yoshlarning ongi va qalbini egallash va zaharlashga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oiladagi zo'ravonlikning sabab va sharoitlarini tadqiq etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni // https://lex.uz/docs/4494709

2. Шомуротова Н.Н. Оилавий зўравонликнинг ижтимоий психологик хатарлари // Оила институтини мустаҳкамлашнинг долзарб масалалари: миллий ва хорижий тажриба // "Маҳалла ва оила" илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 224-227-бетлар.

3. Туманова Е.П. Опыт скалолазания как средство профилактики девиантного проведения // Коченовские чтения «Психология и право в современной России». Сборник тезисов участников Всероссийской конференции по юридической психологии с международным участием. М.: МГППУ, 2020. – С. 107-108.

4. Варга А. Домашнее насилие. // «Трудные взрослые – трудные дети». О домашнем насилии и подростковых правонарушениях. – Москва: Издательский дом «Самокат», 2014. Стр.82-83.

5. Green 1988, 1995 n Kaplan 1983.

6. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonliklar-21-25-yoshni-oila-qurishga-eng-yaxshi-yosh-deb-hisoblashadi_267440 (murojaat vaqti: 11.02.2023-y.)

7. Zakirova A.G., Abdurasulova Q.R. Xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining sabablari va uning oldini olish // “Yangi O‘zbekiston oiladagi zo‘ravonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 76-85-betlar.

8. Товбоева М.С. Оиладаги низоларга деспотизмнинг психологик таъсири // Оила институтини мустаҳкамлашнинг долзарб масалалари: миллий ва хорижий тажриба // “Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 187-190-бетлар.

9. Нарбаева Т.К. Оилавий зўравонликнинг келиб чиқиш сабаблари ва уни бартараф этишнинг инновацион механизмлари // “Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 4-9-бетлар.

10. Berkowits L. (1993). Aggression: Its causes, consequences, and control. Philadelphia, PA: Temple Universitu Press.

11.Tedeschi J.T. & Felson R.B. (1994). Violence, aggression, and coercive actions. Washington DS: American Psychological Association.

TASAVVUF TA’LIMOTI OLIMLARINI ILMIY MEROSLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Milinorov Xusniddin Xushmatovich-Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi assistent o‘qituvchisi
husniddin2018@mail.ru

Annotatsiya. *Jahonda tobora jadallashib borayotgan globallashuv jarayonlari fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy salohiyat, aqliy kamolot fazilatlari va dunyoqarashga ega bo‘lgan, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati shakllangan yoshlarni voyaga yetkazish, ularni ijtimoiy faollikka, mafkuraviy kurashchanlikka rag‘batlantirishning pedagogik yechimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Shu bois yoshlarni ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asl qadriyatlar asosida shaxs ma’naviyati hamda dunyoqarashini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylandi.*

Kalit so'zlar. *tasavvuf ta'limoti, ma'naviy-axloqiy, pedagogika, ta'lim, tadbirlar, tarbiya, bilim.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ

Милиноров Хусниддин Хушматович-Шахрисабзский государственный педагогический институт – ассистент кафедры педагогики.
husniddin2018@mail.ru

Аннотация. *Процессы глобализации, все более ускоряющиеся в мире, требуют создания педагогических решений для формирования гражданского общества, воспитания молодежи, обладающей духовно-нравственным потенциалом, качествами интеллектуальной зрелости и мировоззрения, формирования лояльности к общечеловеческие ценности, и побуждать их к общественной деятельности и идеологической борьбе. Поэтому социально-педагогической задачей стало установление стратегических и тактических целей развития духовно-нравственного мировоззрения молодежи и осуществление системной работы по их достижению, формированию духовности и мировоззрения человека на основе исходных ценностей.*

Ключевые слова. *суфизма, духовно-нравственное, педагогика, образование, деятельность, воспитание, познание.*

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE SCIENTIFIC HERITAGE OF SUFFICIENTS

Milinorov Khusniddin Khushmatovich - Shahrisabz State Pedagogical Institute is an assistant teacher at the chair of Pedagogy
husniddin2018@mail.ru

Abstract. *The processes of globalization, which are increasingly accelerating in the world, create pedagogical solutions for the formation of civil society, the upbringing of young people who have spiritual and moral potential, the qualities of intellectual maturity and worldview, who are loyal to universal values, and encourage them to be socially active and ideologically combative. is demanding. Therefore, it has become a socio-pedagogical task to set the strategic and tactical goals of developing the spiritual and moral worldview of young people and to implement systematic work to achieve them, to form a person's spirituality and worldview based on original values.*

Key words. *Sufism, spiritual and moral, pedagogy, education, activities, upbringing, knowledge.*

Kirish. Mustaqil, huquqiy - demakratik, ma'naviy barkamol fuqarolar jamiyati qurish yo'lida borayotgan Vatanimizda uning porloq kelajagi davlatimizning ustuvor siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buni biz kundalik faoliyatimizning barcha jabhalarida dildan his qimoqdamiz. Mamlakatimizda uzluksiz ta'limining rivojlanishi asosi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, belgilab berilgan ustuvor vazifalar hayot sinovlaridan

muvaffaqiyatli o'tdi. Mazkur dasturiy hujjatlar nafaqat mamlakatimizda balki talay rivojlangan davlatlarning rahbarlari ilm – fan, ma'naviyat va ma'rifat arboblari tomonidan ham qo'llab quvvatlanmoqda. Buning boisi shundaki ushbu hujjatlar asosida barkamol shaxs tarbiyasidek oliyjanob maqsadlar yotishi hech kimga sir emas.

Barkamol avalodni bilimli va tarbiyali qilib kamol toptirish, uning ongi tafakurini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi umrboqiy qadriyatlari, e'tiqodi urf-odat va an'analari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu bois yoshlarni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asl qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyati hamda dunyoqarashini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarblik kasb etmoqda.

Butun dunyoda yoshlarga oid amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda milliy-madaniy meros, milliy an'ana va urf-odatlar, Islom dini va hadisshunos allomalarimizning hadis g'oyalari asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'z navbatida yoshlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirish, jamiyatdagi voqea va hodisalarga ijtimoiy faol munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni amalga oshirishga bevosita bog'liq holda amalga oshmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ularni islom madaniyatining manbalari asosida milliy tarixiy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarda keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirilib kilinayotgani taxsinga loyiq. "...Xalqimizning tarixiy boy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya kasb etadigan an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziy va al-Hakim at-Termiziy, Abul Muin an-Nasafiy kabi muhaddis olimlarning ilmiy asarlarida insonning ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy qarashlariga oid jihatlaridan yosh avlod ma'naviy tarbiyasiga tatbiq qilishning pedagogik yechimlarini asoslash, muhaddis olimlar ilmiy merosidan, ayniqsa xulq, odob-axloqni ta'minlashga xizmat qiladigan kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarning ma'naviy-axloqiy jihatlariga ilmiy izlanishlarni keng qamrovli amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allamalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Mana shunday buyuk allomalar jumlasiga tasavvuf ilmining yirik namoyandasi

Bahouddin Naqshbandni kiritish lozim. Ular o‘zlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga asrlar davomida ulkan hissa qo‘shib kelganlar.

Ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini bugungi yosh avlod ongiga yetkazish uchun ma’naviy-ma’rifiy ta’lim-tarbiyaning rivojlanish bosqichlari va bu soha namoyondalarining hayotiy faoliyatlari, boy tajribalari hamda ular qoldirgan ma’naviy-pedagogik merosni taqdim qilish muhim ahamiyatga ega.

Taniqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning “Tasavvuf yoki komil inson axloqi” hamda “Tasavvuf, tavhid asrori” nomli asarlari o‘zbek tasavvufshunosligida alohida o‘rin egallaydi. Mazkur kitodlarda tasavvuf va uning paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari va tariqatlari yoritilgan. Mazkur asarlarda Bahouddin Naqshbandning hayot yo‘li va tariqati haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan [44]

N.Komilov Xusayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati” nomli asarini fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi[46].

Abdulhay Abdurahmonov “Saodatga eltuvchi bilim” asarida tasavvuf ta’limoti, uning tariqatlari, xususan, naqshbandiylik namoyadalari Bahouddin Naqshband haqida qimmatli ma’lumotlarni bayon etgan[22].

A.SH.Juzjoniy o‘zining “Tasavvuf va inson” risolasida, tasavvuf ilmining ildizlari va yo‘nalishlari, namoyondalari, jumladan, Najmiddin Kubro, uning kubraviya tariqati va asarlari ustida batafsil to‘xtalgan [35].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tasavvuf haqida tasavvur” asarida, tasavvuf va uning yo‘nalishlari, udumlari haqida muhim ilmiy ma’lumotlar beradi[71].

Z.Islomov, A.Maqsudovlar “Shayx Xovand Tohyp yodgorlik majmuasi” nomli risolalarida Shayx Xovand Tohurning hayoti va faoliyati, maqbarasi tarixi xususidagi o‘z qarashlarini aytgan [41].

Usmon Turarning “Tasavvuf tarixi” asarida, tasavvuf va uning shakllanishi, mavjud tariqatlar haqida ma’lumotlar keltirilib, ko‘proq naqshbandiya tariqati to‘g‘risida fikrlar bildirilgan[63].

Xorijlik olimlar Idris Shohning “Naqshbandiya tariqati”, Trimingem Dj. “Islomda so‘fiylik tariqatlari”[64] asarlarida, naqshbandiylik haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Demak, bizning milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlarimiz shakllanishida uzoq yillik boy va buyuk ajdodlarimizning ilmiy jihatdan asoslangan bebaho merosi tajribamiz va asosimiz mavjud bo‘lganligi haqiqat.

Tasavvuf olimlar ilmiy meroslari vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish modeli.

Bunda maqsad – davlatning ta’lim-tarbiya borasidagi siyosati va talablaridan kelib chiqib, bu umumdavlat vazifasini maktab doirasida ko‘chirish, moslashtirish hamda amalga oshirishdan iborat. Davlat miqyosida qo‘yilgan talablarni mazkur maktab o‘quvchilari jamoasi shart-sharoitiga moslashtirish asosida aniq maqsadni belgilash lozim.

Bu umumiy maqsad davlat ijtimoiy buyurtmasi sifatida har bir ta'lim muassasasida o‘z sharoiti va xususiyatlari, pedagogik jamoa imkoniyatlaridan kelib chiqib voqelikka aylantiriladi. Ijtimoiy buyurtma asosida belgilangan ta'lim muassasasi tarbiyaviy jarayoni pedagogik tizim sifatida o‘z maqsadini nafaqat nazariy jihatdan, balki jamoaning jipsligi, kasbiy mahorati, ruhiy-psixologik muhiti va amaliy tajribasidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari mazkur muassasaning mavjud real tarbiyaviy jarayon borasidagi imkoniyatlari bilan belgilanishi zarur. Agar tarbiyaning maqsad va vazifalari mazkur muassasa imkoniyatiga uzviy bog‘liq bo‘lmasa, tizimsiz belgilansa, tarbiyaviy samara bermaydi. Maqsad istiqbolga yo‘nalgan bo‘lishi lozim. Maqsadni amalga oshirish jamoa hayoti mazmunini tashkil qilishi kerak.



1-rasm. O‘quvchilarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish modeli

Ilmiy yangiligi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari tasavvuf ta’limoti olimlarini ilmiy merosining ma’naviy-axloqiy tarbiya komponentlarini (kognitiv, faoliyatga doir va refleksiv) shakllantirishdagi ta’siriga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

O‘quvchi-yoshlarni sinfdan tashqari ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni tasavvuf ta’limoti olimlarning ilmiy merosidagi ma’naviy-axloqiy fazilatlar (Vatanga sadoqat, irodalilik, mehr-oqibatlilik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik)ni kamol toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya bosqichlarini ajratish asosida takomillashtirilgan;

-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun tasavvuf ta’limoti olimlarini ilmiy merosidan foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy-pedagogik va o‘quv metodik ta’minot, kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlar, umuminsoniy qadriyatlarning madaniy xulq va odob-axloq elementlarini rivojlantirishga bog‘liq xususiyatlarini belgilash asosida takomillashtirilgan;

-o‘quvchilarda odob-axloq sifatlarini (imon, e’tiqod, sabr, qanoat, muhabbat, sadoqat, samimiyat, adolat) oshirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tuzilmasi tasavvuf ta’limoti olimlarning ilmiy merosidagi pedagogik ta’sir vositalari tarkibini (hamkorlik, modulli, loyihalovchi, rivojlantiruvchi, faoliyatli) aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasasida shakllangan ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi o‘quvchining hayotida uchta muhim vazifani bajaradi. Bular integratsiyalash (mujassamlashtiruvchi), tartibga soluvchi – yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi vazifalar.

Tizimning integrativ vazifasi – undagi bir-biriga bog‘lanmagan, tarqoq, muvofiqlashmagan ta’sirlarni yagona, yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tartibga soluvchi – yo‘naltiruvchi vazifasi – tarbiyaviy jarayonni ixchamlashtirib, tartibga keltiradi va boshqarishni osonlashtiradi.

Rivojlantiruvchi vazifasi – tizimning rivojlanish dinamikasini, uni bir maromda mukammallashib borishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarbiyaviy jarayonini tizimli va majmuali yondashish asosida takomillashtirish va unda boshqarishning ijtimoiy g‘oyasini qo‘llash – tarbiyaviy jarayon qulayligini va samaradorligini ta’minlab, davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3 maydagi PQ-4307-sonli qarori www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz.
5. Abdullayev M. Ma’naviyat (o‘quv qo‘llanma). – Farg‘ona, 1999.–78 b.
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. (al-Jomye as saxih). 1-k. Qomuslar bosh tahririyati.–T.: 1997. – 560 b.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekiston, 1990. – 199 b.
8. Abdulhay Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim. – T.: Movarounnahr. 2001. 352-420 b.
9. Abdullayev A. Ma’naviyat va iqtisodiy tafakkur. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 104 b.
10. Abdullayeva M. O‘smirlarni oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – T.: 2004. – 23 b.
11. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T. : O‘qituvchi, 1992 . – 160 b.
12. Avesto: Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 400 b.
13. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.- 172 b.
14. Amir Temur o‘gitlari: tuzuvchilar B.Ahmedov, A.Aminov. – T.: Navro‘z, 1992. – 64 b.
15. Axloq-odobga oid hadis namunalari.–T.: Fan, 1990.-172 b.

TALABALARGA VOKAL ASARLARINI O‘RGATISH USLUBLARI

Ismoilova Mahbuba Ilamanovna-*Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
orcid.org/0009-0008-2727-5238

Annotatsiya. *Ushbu maqolada vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida talabalarga vokal asarlarini o‘rgatish uslublarini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bulardan tashqari ovoz appatining tuzilishi, xususiyarlari, ovoz rezonatorlari, talabalar ovozini qo‘yish metodlari va xonandalar ovozini saqlash to‘g‘risida fikr mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Vokal ijrochiligi, xonandalik asarlari, vokal pedagogikasi tamoyillari, ovoz apparati, ashulachilik ovozi, ovoz diapazoni, sof intonatsiya, pegistrlar, rezanatorlar.*

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ВОКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СТУДЕНТОВ

Исмаилова Махбуба Иламановна- Шахрисабзская государственная педагогика института, «Заведующий кафедрой искусствознания, кандидат педагогических наук, доцент

orcid.org/0009-0008-2727-5238

Аннотация. *В данной статье показаны пути совершенствования методики обучения студентов вокальному произведению на основе принципов вокально-музыкальной педагогики. Кроме того, обсуждаются строение и особенности голосового аппарата, голосовых резонаторов, способы записи голоса учащихся, голоса певцов.*

Ключевые слова. *Вокальное исполнительство, певческие произведения, принципы вокальной педагогики, голосовой аппарат, певческий голос, голосовой диапазон, чистая интонация, пегистры, резонаторы.*

METHODOLOGY FOR TEACHING VOCAL WORKS TO STUDENTS

Ismailova Mahbuba Ilamanovna-Shahrisabz state pedagogy institute, "Head of the Department of Art Studies, candidate of pedagogical sciences, associate professor
orcid.org/0009-0008-2727-5238

Abstract. *This article shows ways to improve the methods of teaching vocal works to students based on the principles of vocal music pedagogy. Apart from these, the structure and features of the voice apparatus, voice resonators, students' voice recording methods, and singers' voices are discussed.*

Key words. *Vocal performance, singing works, principles of vocal pedagogy, voice apparatus, singing voice, voice range, pure intonation, pegistrs, resonators.*

Kirish. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining takomillashuvida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Buyuk sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari va musiqaning inson tarbiyasidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar[8.5-bet]. Musiqaning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligi Prezidentimiz Shovkat Mirziyoyevning 2017-yil 25-dekabrdagi Madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan nutqi, 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, 2020-yil. 26-maydagi Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6000-sonli farmoni, 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha chora tadbirlar tog'risida"gi PQ112-sonli qarorlari va farmonlarida o'z ifodasini topgan.

Musiqa san'atida bevosita ijod va mumtoz ijro allaqachon inson ruhiyati, hamda ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Vatanimizda teran bilim, keng tafakko'r, iste'dodga ega san'at sohiblarining ijodiy izlanishlari tufayli professional xonandalikning an'anaviy, akademik, hamda estrada turlari uzil-kesil shakllanib, jadal sur'atda rivojlanib bormoqda.

Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozda ijro etishga mo‘ljallangan san’at namunalarining paydo bo‘lishi cholg‘u musiqasiga nisbatan ancha qadimiyroq. Uning tarixi juda uzoq ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Biroq o‘sha paytlarda musiqa va qo‘shiq kuylash ko‘nikmalari kasbiy tus olmagan va xonandalik maxsus ixtisoslik sifatida hali yuzaga kelmagan edi. Markaziy Osiyoda joylashgan ko‘hna davlatlarda, shahar saroylarida vujudga kelgan professional musiqa san’atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo‘llanilgan. Ijro shakllarining oddiy ko‘rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqa negizida, kasbiy tus olgani esa xonliklar saroyining madaniy ko‘ngilochar marosimlarida ancha erta paydo bo‘lgan. Xonandalik san’ati shu tariqa og‘izdan- og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib sayqallanib bizning davrlarimizgacha yetib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarga vokal asarlarini o‘rgatish uslublari haqidagi masalalarni o‘rganishda quyidagi materiallar birlamchi manbaa bo‘lib xizmat qildi. Professor M.N.Rizayevaning “Yosh xonanda kamoloti” nomli o‘quv qo‘llanmasi, I.K.Nazarenkoning turli vokal maktablari batafsil bayon etilgan “Kuylash san’ati” («Искусство пения») nomli badiiy kuylash tarixi, nazariyasi va amaliyotiga oid ocherk va materiallar to‘plami, professor Sh.Pirmatovning. “Yakkaxon qo‘shiqchilik” nomli darsligi, professor M.A.Xamidovaning “Xonandalik san’ati” o‘quv qo‘llanmasi, professor G.Muxammerdovaning “Xonandalik uslubiyoti asoslari”nomli o‘quv qo‘llanmasi, M.Razzoqovaning “Akademik xonandalik asoslariga kirish” nomli o‘quv qo‘llanmalari. Ushbu manbaalarning tahlili, ularda mavzuga, ya’ni vokal pedagogikasiga oid qimmatli materiallar borligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarga vokal asarlarini o‘rgatishning mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, tamoyillari va vostalari mufassal o‘rganildi va xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Vokal ijrochiligi fanining boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki, u doimo turli bayram, milliy qadriyatlarimiz va zamon bilan hamohang holda olib borilishini, talabalardan uzluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari vokal ijrochiligi darslarida vokal asarlarini o‘rgatish uslublarini takomillashtirib borish o‘qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O‘qituvchisining bu vazifalarni bajarishi talabalar psixologik-fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini yaxshi bilgan holda vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida vokal asarlarini o‘rgatish usullarini samarali qo‘llashga bevosita bog‘liqdir.

Vokal asarlarini o‘rgatish uslublarini takomillashtirish borasida professor Rizayeva Muqaddas Nishonovna vokal musiqa pedagogikasining quyidagi tamoyillarini ishlab chiqqan:

Ta’limda ketma-ketlik va uzluksizlik tamoyili. Ta`lim jarayonida soddadan murakkablikka asoslanib kuylash malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Badiiy-musiqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Kuylashda ikki muommoni bir vaqtda hal qilishga asoslangan bo‘lib ashulachilik apparatida ashulachilik ovozini hosil qilish va unda kuylashni mashq qilishdan iborat.

Alohida yondoshuv tamoyili. Har bir o‘quvchining psixologik-fiziologik va musiqiylik xususiyatlarini hisobga olgan holda kuylash malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muntazam mukammallikka erishish tamoyili. Talabaning mustaqil ravishda shug‘ullanishi, o‘z ustida ishlashiga alohida e`tibor berishi ya`ni mustaqil ta’limni amalga oshirishga qaratiladi. [7. 9-bet]

Ushbu tamoyillar asosida vokal pedagogikasida o‘qituvchi va talabaning birlashgan faoliyatida vokal asarlarini o‘rgatish usullarini takomillashtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi tamoyillardan foydalangan holda har bir o‘qituvchi o‘z uslubida darslarni tashkil etishi lozim. Musiqa murakkab psixologik- fiziologik jarayon hisoblangani bois vokal ijrochiligi darslarida vokal mashqlari va vokal asarlarini kuylash talabalarni axloqiy - estetik tarbiyasi uchun o‘qitishning eng foal shakli sanaladi.

Kuylashni ixtisoslashgan darajada o‘rgatish va o‘rganish quyida yanada yaqqolroq ko‘rinadiki, tizimli yondoshuvni, hamda ovoz organlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni talab etadi. Talaba ayniqsa boshlang‘ich paytlarda o‘z ovozini diqqat bilan o‘zi kuzata bilishi lozim. U to‘g‘ri nafas olishni o‘rganish ustida o‘ylashi, hosil bo‘lgan tovushni to‘g‘ri anglab, yo‘nalishini ko‘zlab olishi, diapason ko‘lamining faqat o‘rta qismida mashq qilishi lozim.

Talabalarda vokal asarlarini kuylash malakalarini shakllantirish bevosita musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq**.** “Ovoz apparati faqat eshitish orqali qabul qilingan hodisalarnigina uzatishi mumkiin. Ashulachilik apparati bilan quloq yaxlit tizimdir. Ovoz apparati eshitish orqali nimani qabul etsa, aynan o‘shani ifodalaydi. Bolalikdan eshitmaydigan kishi ovoz apparati sog‘lom bo‘lsa ham gapira olmaydi. Qayerda talabalarda vokal tasavvurlari to‘g‘ri shakllangan bo‘lsa u yerda yaxshi xonandalik ovozi yetishib boradi.” [5.13-bet]

Bo‘lg‘usi xonanda ovozini to‘g‘ri qo‘yish, ya’ni juda nozik bo‘lgan kuylash “cholg‘usini” uzil-kesil shakllantirish o‘qituvchi uchun nihoyatda muhim, ayni paytda eng murakkab ustozlik vazifasini tashkil etadi. Har bir ovozning sadolanishida uchraydigan turfa jilolarni alratib olish, tovush go‘zalligini buzayotgan, tabiiy jarangiga to‘sqinlik qilayotgan har xil murakkab tuslaridan forig‘ etish uchun mukammal darajadagi tinglov malakasi bo‘lishi shart. Talabaning ovozini mutanosib qo‘yish uchun barcha ovoz organlari, ularning anatomiyasi va fiziologiyasi bilan shu qadar yaxshi tanishib chiqish zarur.

Ovoz apparati tomoq, hiqildoq, halqum, nafas ravog‘i, ovoz pardalari bog‘lamlari, rezonator va har xil mushaklardan iborat. Hiqildoq ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Tomoqning xalqum devorlari tomonidan nafas yo‘li boshlanadi va ovoz ravog‘iga taqaladi. Har bir kuylovchi erkin nafas olib ya’ni nafas tamom bo‘lgandan keyin, yana nafas olib o‘sha tovushni kuylashni davom ettiradi. Bu holatda umumiy kuychanlik va tonning aniqligi har bir talabani ovozining umumiy jaranglashda moslashishiga yordam beradi.

Ovoz yumshoq va jarangdor bo‘lsa, bu ovoz tembri yaxshi hisoblanadi. Aniq barqarorlik ovozning qaltiramasligi, har bir tovushni balandlikka cho‘zib tura olish

qobiliyatiga egaligidadir. Ovozning chidamliligi esa charchamaslik, qiyin va katta asarlarni ijro qilishda ovozni toliqmaslik xususiyati bilan belgilanadi. Qo‘shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining tebranishi hamda rezonatorlarning tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo‘ladi.

Shuningdek, rezonatorlar tovush hosil qilish jarayonida o‘z shaklini, hajmini artikulyatsiya apparati orqali o‘zgartirib turadilar. Talaffuzning aniq yoki noaniq bo‘linishi artikulyatsiya apparatining faol yoki passivligiga ham bog‘liqdir. Diapazoni yuqori registr tovushlari bosh rezonator, pastki registr tovushlari esa ko‘krak rezonatori deyiladi. O‘rta registr tovushlarini kuylaganda aralash bosh va ko‘krak registrlaridan foydalaniladi[6.10-bet].

O‘zbek vokal san’atini rivojlantirish uchun avvalambor shu fan muallimlari adabiy o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Talabalar ijro etishi uchun tanlab olingan namunalarning mazmun va mohiyati nimalardan iborat ekanligini izohlab tushuntirishga tez-tez zarurat tug‘iladi. Nafas olish jarayonida milliy ruhni, koloritni til vositasida ham yaxshi yetkazib bera olish kerak bo‘ladi.

Talabalarning ovoz apparatlariga zarar yetkazmaslik va ovozlarini saqlashning muhim sharti ovoz diapazonlarini to‘g‘ri aniqlash va ishchi diapazonlaridagi notalardan tashqariga chiqmagan holda vokal qo‘shiq kuylash malakalarini izchilik bilan rivojlantirib borishdan iboratdir.

Ovozdan samarasiz foydalanish ovoz hosil qilish a’zolarining kasallanishiga olib keladi. Talabalarning o‘z tanasiga quloq solishiga, uning imkoniyatlarini bilishga o‘rgatish lozim. Bu o‘quv jarayonini jadallashtirishga, ovoz bilan bog‘liq a’zolarni asrashga o‘rgatadi. Oliy o‘quv yurtining namunaviy dasturi to‘laqonli kasb mahoratiga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashdek vazifaga yo‘naltiradi. Buning uchun ishlab chiqilgan amaliy mashqlardan iborat doimiy ravishdagi mashg‘ulotlar uchun tegishli miqdorda dars soatlari ajratish lozim. Kasal bo‘lganda nafaqat qo‘shiq aytish, balki repetitsiyada bo‘lish ham tavsiya etilmaydi. Kasallik paytida tanani va umuman ovoz a’zolarini zo‘riqishdan asrash kerak. Aks holda, ularni ishdan chiqarib qo‘yish mumkin. Ovoz a’zolarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni darhol o‘rganish lozim. Ovozni charchashdan asrash lozim. Agar ovoz a’zolariga ortiqcha yuk tushgan bo‘lsa, ovoz chiqarmaslikka intilib, ularga dam bergan ma’qul. Charchash ovozni yo‘qotib qo‘yguncha davom etishi mumkin. Ovoz a’zolariga ortiqcha yuk tushganda ovoz jarangdorligini yo‘qotib, og‘irlashib qoladi. Ovoz a’zolariga dam berish – eng yaxshi davo hisoblanadi. Yosh ovozlarni tarbiyalash va ulardan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo‘ladi. Pedagog, ma’ruzachilarga uzluksiz ravishda orada 10 minut tanaffus bilan bir kunda to‘rt akademik soat ishlash me’yor qilib belgilangan. Tana a’zolaridan to‘g‘ri foydalanish ularni kasallanishdan asraydi. Tanlovlarga shoshilinch tayyorlanish chog‘ida ko‘pincha kasbiy kasallik paydo bo‘ladi. Bu ortiqcha jismoniy zo‘riqish, asab tizimiga yuk tushganda ham ro‘y beradi. Ovoz boricha qo‘shiq aytib birovni hayratga solish shart emas. Qiyin asarlar va yuqori notalarda qayta-qayta qo‘shiq aytish yaramaydi. Bu foyda keltirmaydi, faqat ovozni charchatib, xirqiratib qo‘yadi. O‘ziga xos bo‘lmagan ovozda qo‘shiq aytish ovoz hosil qilish tizimining buzilishiga olib keladi, zararli shartli refleksni hosil qiladi. O‘quv yurtlarida mashg‘ulotlar jadvalida ovozli va ovoz kerak bo‘lmaydigan mashg‘ulotlarni o‘zaro

almashtirib joylashtirilishi zarur. Konsertlar, imtihonlar bo‘lib o‘tayotgan kunlarda talabaga o‘zini jismoniy va ruhiy jihatdan o‘nglab olishi uchun ba’zi darslarga qisman qatnashmasligiga ruxsat berish mumkin.

Har bir ovoz bilan ish ko‘ruvchi shaxs ovoz gigiyenasi bo‘yicha eng oddiy bilimga ega bo‘lishi kerak va kasb, kun tartibiga rioya qilishi zarur. Aynan shu narsa kasb madaniyatining jihatlaridan biridir, bunga oddiy tibbiy bilimlar ham kiradi.

Gigiyena qoidalariga rioya qilish va boshqalarni ham bu sohada madaniyatli bo‘lishga o‘rgatish lozim. Yuqoridagi ma’lumotlarni ovoz hosil qilish va uning gigiyenasi sohasidagi nuqsonlarni bartaraf etish va uning anatomiyasi haqida ma’lumotlar berish uchun ovoz bilan bog‘liq mutaxassislar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari dasturlariga kiritish zarur.

San’atga sidqidildan munosabatda bo‘lgan har qanday iste’dod egasi muntazam mehnat qilishdan erinmaydi. Mehnatda umrini o‘tkazish uning uchun eng ma’qul imkoniyatdir. Zotan, faqat mehnat bilan barcha to‘siqlarni yengib o‘tish mumkinligiga ishonadi. Bunday insonlar san’atkorlik olamida juda ko‘p uchraydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sof intonatsiyada kuylash, aniq idrok etib, tinglangan tovushni toza ijro etishga bog‘liq. Auditoriyada turli xususiyat va qobiliyatga ega bo‘lgan talabalar bo‘lganligi tufayli har bir o‘qituvchi o‘z uslubida barcha talabalarga mos keladigan mashqlarni va vokal asarlarini kuylash usullarini qo‘llashi kerak. Dars jarayonida xonandalik faoliyati ovoz sozlash mashqlaridan boshlanib, bu mashqlar talabani navbatdagi vokal asarlarini kuylash ishlariga tayyorlaydi. O‘qituvchining vazifasi vokal musiqa pedagogikasining tamoyillari asosida talabalar ovoz apparatining to‘g‘ri yo‘naltirishi sababli, vokal asarlarini o‘rgatish uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan nutqi. Toshkent, 2017-yil 25-dekabr www.lex.uz

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil 3-dekabr, 48-son, 921-modda.

3.Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6000-son. 2020 yil. 26-may.

4.Mirziyoyev Sh.M. “Madaniyat va san’at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha chora tadbirlar tog‘risida”gi PQ112-sonli qarori 2022 yil 2-fevral

5.Muxammedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari. O‘quv qo‘llanma T:, 2007 y. 13-b.

6.Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kiriash. O‘quv qo‘llanma Toshkent, “Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2015 yil -143 bet

7.Rizaeva M. N. Yosh xonanda kamoloti. O‘quv qo‘llanma. Cho’lpon nashriyoti-T.:2003yil.11-bet.

8.Pirmatov Sh. Yakkaxon qo‘shiqchilik. Darslik. Toshkent. “Musiqa” nashriyoti 2011 yil -267 bet

9.Pirmatov Sh. Vokal texnikasi asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent. “Musiqa” nashriyoti 2011 yil -75 bet

10.Xamidova M.A. Xonandalik san’ati Toshkent, “San’at” jurnali nashriyoti 2009 yil.

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ SCRIBING НА РАЗВИТИЕ СТУДЕНТОВ

Луиза Турсунова – ассистент-преподаватель кафедры информатика и методика ее обучения Шахрисабзского государственного педагогического института luturkom@gmail.com, +998993302412

Научный руководитель: Умида Марасулова – проректор по науке и инноваций Шахрисабзского государственного педагогического института кандидат педагогических наук, доцент. u.marasulova@mail.ru, +998901264010

Аннотация. *В данной статье рассмотрены основные аспекты влияния технологии Scribing на развитие у студентов различных навыков, таких как креативное и творческое мышление, лучшее усвоение информации, формирование навыков синтеза и анализа, коллаборация, развитие навыков коммуникации, развитие навыков цифровой грамотности и многое другое. Так же в статье был сделан краткий анализ педагогических возможностей развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing, разъяснены педагогико-психологические свойства Scribing технологии. В ходе проведения исследовательских работ была усовершенствована модель «Методика развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing». Использование технологии Scribing в образовании предоставляет широкий спектр возможностей для улучшения процесса обучения.*

Ключевые слова. *Технология Scribing, инновация, коллаборация, профессиональная компетентность, анализ и синтез, педагогико-психологических свойства.*

SCRIBING TEXNOLOGIYASINI TALABLAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Luiza Tursunova – Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Informatika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi assistenti luturkom@gmail.com , +998993302412

Ilmiy rahbar: Umida Marasulova – Shahrisabzdavlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
u.marasulova@mail.ru , +998901264010

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Skribing texnologiyasi asosida o'quvchilarda ijodiy va kreativ fikrlash, axborotni yaxshiroq o'zlashtirish, sintez va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, hamkorlik, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, Skribing texnologiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari qisqacha tahlil qilindi va Skribing texnologiyasining pedagogik va psixologik xususiyatlari tushuntirildi. Ilmiy-tadqiqot ishlari davomida "Skribing texnologiyasi asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi" modeli takomillash yo'llari o'rganildi. Ta'limda Scribing texnologiyasidan foydalanish o'quv jarayonini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.*

Kalit so'zlar. *Scribing texnologiyasi, innovatsiyalar, hamkorlik, kasbiy kompetentsiya, tahlil va sintez, pedagogik va psixologik xususiyatlar.*

INFLUENCE OF SCRIBING TECHNOLOGY ON STUDENT DEVELOPMENT

Luiza Tursunova – assistant teacher of the Department of Computer Science and its teaching methods, Shakhrisabz State Pedagogical Institute
luturkom@gmail.com , +998993302412

Scientific supervisor: Umida Marasulova – Vice-Rector for Science and Innovation of Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, u.marasulova@mail.ru, +998901264010

Annotation. *This article discusses the main aspects of the influence of Scribing technology on the development of various skills in students, such as creative and imaginative thinking, better assimilation of information, development of synthesis and analysis skills, collaboration, development of communication skills, development of digital literacy skills and much more. The article also made a brief analysis of the pedagogical possibilities for developing the professional competence of students based on the Scribing technology, and explained the pedagogical and psychological properties of the Scribing technology. During the research work, the model "Methodology for developing professional competence of students based on Scribing technology" was improved. The use of Scribing technology in education provides a wide range of opportunities to improve the learning process.*

Keywords. *Scribing technology, innovation, collaboration, professional competence, analysis and synthesis, pedagogical and psychological properties.*

Введение. В современном мире цифровые навыки становятся все более важными. Инновационные технологии позволяют студентам овладевать цифровыми инструментами, программированием, аналитическим мышлением и другими навыками, необходимыми для успешной карьеры в цифровой эпохе. Инновационные технологии могут способствовать развитию творческого мышления и самостоятельности студентов. В целом, интеграция инновационных технологий в образовательную практику способствует более эффективному, интересному и актуальному обучению, что, в свою очередь, способствует успешному формированию профессиональной компетентности будущих специалистов.

20 декабря 2023 года под председательством Президента Республики Узбекистан состоялось видео-селекторное совещание по вопросам совершенствования IT-инфраструктуры, цифровизации производств и сфер деятельности. На встрече были определены конкретные задачи по дальнейшему развитию IT-сектора. В связи с этим определились три основные цели:

1. Вхождение Узбекистана в топ-30 стран рейтинга ООН по развитию электронного правительства
2. Довести экспорт IT-услуг до 5 миллионов долларов
3. Обеспечить 300 тысяч молодёжи высокодоходными профессиями в IT сфере

Так же стоит отметить стратегию «Цифровой Узбекистан-2030», которая была утверждена указом президента Шавката Мирзиёева в октябре 2020 года и усовершенствована 11 сентября 2023 года. Она направлена на широкое внедрение современных информационно-коммуникационных технологий во все отрасли и сферы, прежде всего, в государственное управление, образование, здравоохранение и сельское хозяйство. А также в первой главе усовершенствованной стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» в пункте под номером 12 раздела 1.1 говорится о «широкой реализации инновационной деятельности во всех сферах, поддержке научных исследований и инновационных инициатив»

В целях эффективной реализации стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030», а также цели под номером 12 раздела 1.1 первой главы усовершенствованной стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и вышеуказанных планов “методику развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing”, установили, как тему исследовательской работы.

Цель исследования заключается в выявлении и разработки методики развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing. Задачами же исследования были поставлены следующее:

1. Анализ педагогических возможностей развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing
2. Разъяснение педагогико-психологических свойств Scribing технологии
3. Усовершенствование модели «Методика развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing»

4. Усовершенствование технологии развития профессиональной компетентности студентов на основе предмета «Применение информационных технологий в профессиональной деятельности»

Анализ литературы по теме. Так же местными научными сотрудниками, проводившими исследования в данной сфере, являются: А. Абдуганиев, Джизакский филиал Национального университета Узбекистана; С. Мамаджанова, И. Сиддиков и И. Расулов, Кокандский государственный педагогический институт.[12]

В середине 2010-х годов исследованиями в этой области стали интересоваться и научные сотрудники стран СНГ.[14] Так, например, исследователи Саратовского государственного университета (А.В. Молочко, М.Н. Кудрявцева, С.С. Басамыкин) применяют скрайбинг как нестандартную форму для подготовки к промежуточным и текущему контролям[4]. Преподаватель Уральского государственного архитектурно-художественного университета, А.В. Киселёв, рассматривает скрайибнг как инновацию в образовании[5]. В этот же период времени появляется знаменитая книга «Скрайбинг. Объяснить просто.» авторами которой являются сотрудники школы скрайберов и студии SmartScribe: Павел Петровский, Николай Любецкий и Мария Кутузова[6]. Так же учеными со стран СНГ занимающимися исследованиями в этой сфере являются ОдарюкИ.В., ГампарцумовА.С. преподаватели из Ростовского государственного университета путей сообщения. Они предлагают воспользоваться данной технологией для «обучения иноязычной речи студентов технических вузов»[9]. А.И. Газейкина доцент Уральского государственного педагогического университета предлагает обучать будущих учителей применению технологии скрайбинга на уроках[10]. А. Куриенкова, кандидат технических наук, преподаватель кафедры дошкольное образование Криворожского государственного педагогического университета (Украина) исследует эффективность применения технологии скрайбинга в работе логопеда.

Среди иностранных исследователей можно выделить Сильвию Розенталь-Той (Sylvia Rosenthal-Tolisano): Сильвия Розенталь-Той, является педагогом и автором блога "Langwitches". Она имеет степень бакалавра по испанскому языку, степень магистра в области международных исследований и степень магистра в области образования с упором на технологии обучения. Ее увлечения включают глобально связанное обучение, технологическую интеграцию, современные обновления и расширение учебного плана, документирование для обучения (от цифровых портфолио, цифрового сторителлинга, новых форм наблюдений учителей до формирования институциональной памяти), ведение блога по педагогике, визуальное обучение и развития и поддержка персональной обучающей сети. Она является преподавателем Curriculum21 и регулярно пишет в блоге Tech& Learning Advisor. Сильвия Розенталь — автор книги «Цифровые инструменты сторителлинга для преподавателей» и основатель проекта «Вокруг света с 80 школами»[1]. Она активно стремилась внедрить скрайбинг в

образовательную сферу и поделилась своим опытом исследований в этой области.

В начале 2010-х годов научные исследования в этой области проводились в основном американскими учеными. Так, например, Дэвид Розенгрант, преподаватель и исследователь Государственного университета Кенессо, исследовал как технология скрайбинг помогает при решении физических задач[2]. Еще одним исследователем того времени, применившим скрайбинг на своих занятиях стал Патрик Харлесс, преподаватель математики школы Фей в Саутборо, штат Массачусетс. Он рассматривает скрайбинг как стратегию для того чтобы заинтересовать студентов к предмету[3]. В начале 2010-х годов, официально зарегистрированных научных сотрудников, посвящающих свои исследования этой теме, было немного. В последующие годы интерес к скрайбингу в образовании значительно увеличился, и исследователей в этой области стало больше.

Начало 2020-х годов, можно заметить явное увеличение числа научных сотрудников из различных стран мира, которые проявили интерес к исследованиям в данной сфере. Здесь можно перечислить:

М. Мухибат, Эви Музайида Бухори из Индонезии, преподаватели Института Агама Ислам. Они в своих исследованиях изучают влияние применения видеоскрайбинга при изучении арабского языка[7]. Дайан Хари Вибово и Мок Юсуф Дзен из Университета Ислам Балитар (Индонезия), их «исследование направлено на разработку средств обучения, определение осуществимости средства массовой информации, и выяснить различия в результатах обучения до и после использования мультимедийных средств обучения с помощью видео Aplikasi Sparkol Scribe на материале Harmonisasi Hak dan Kewajiban Asasi Manusiав Pancasila Perspective субъектов PPKn в классе XI SMA 1 Kademangan.»[8].

Анализируя деятельность вышеуказанных исследователей можно заметить, что технология Scribing применялась частично как один из элементов образовательного процесса, когда как в нашей исследовательской деятельности основной целью является разработка методики полностью основанную на данную технологию.

Методология исследования. Если анализировать работы отечественных научных сотрудников, то можно отметить следующие особенности. Особое внимание педагогическим условиям по внедрению информационно-коммуникационных технологий в образование и повышения его эффективности, развития электронного образования, возможностям создания и использования электронных информационно-образовательных ресурсов и программных оболочек уделено в научных работах ученых нашей страны А.А. Абдукодирова, М.М.Арипова, У.Ш.Бегимкулова, Ф.М.Зокирова, М.Мамаражабова, Н.Муслимова, Л.Набиулиной, У.Йулдашева, У. Толипова. В ходе исследования выявилось, что в работах вышеуказанные научных сотрудников научно обоснована разработка средств и методов организации использования компьютеров в профессиональной подготовке учителей, информатизация

образования, создание единого информационного пространства, ресурсных и гибридных, экспертно-подготовительных систем, развитие интеллектуальных систем, концепция и проблемы использования дистанционного образования в система образования. Но учитывая, что мир информационных технологий постоянно обновляется и требует постоянного обновления базы методов и методик с инновационными технологиями. Исходя из этого исследование в области развития профессиональной компетентности студентов на базе технологии Scribing является актуальным. В данном исследовании: анализированы педагогические возможности развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing; разъяснены педагогико-психологические свойства Scribing технологии; усовершенствована модель «Методика развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing»; усовершенствована технология развития профессиональной компетентности студентов на основе предмета «Применение информационных технологий в профессиональной деятельности».

Анализ и результаты. Технология Scribing представляет собой метод визуальной записи и представления информации с использованием рисунков, символов, диаграмм и текста. Она является эффективным инструментом для педагогического использования в учебном процессе. В ходе проведения исследований были выявлены следующие педагогические возможности развития студентов на основе технологии Scribing: визуализация, творческое мышление, лучшее усвоение информации, формирование навыков синтеза и анализа, коллаборация, развитие навыков коммуникации, развитие навыков цифровой грамотности и многое другое. С помощью Scribing студенты могут визуализировать сложные концепции и идеи, что помогает им лучше понять материал и запомнить его. Процесс создания скрайбов требует творческого мышления, а также способствует развитию воображения и креативности. Использование визуальных элементов в свою очередь помогает улучшить усвоение информации студентами. При создании скрайбов студенты вынуждены синтезировать информацию и выделить основные моменты, что способствует развитию аналитических навыков. Работа над скрайбом может проводиться в группах, что стимулирует коллаборативное обучение, развивая коммуникативные и командные навыки. Публичное представление скрайбов может помочь студентам развить навыки публичного выступления и убедительной коммуникации. Использование программного обеспечения и инструментов для создания скрайбов помогает развить навыки цифровой грамотности у студентов.

В процессе проведения исследования также были разъяснены педагогико-психологические свойства Scribing технологии: улучшение памяти, снижение стресса, стимуляция креативности, развитие визуального мышления, повышение самооценки и уверенности, развитие коммуникационных навыков, индивидуальный подход в обучении, улучшение внимания и концентрации. Визуальные особенности Scribing способствуют лучшему запоминанию информации. Изучение и создание скрайбов позволяют студентам использовать

мнемонические стратегии и ассоциативные связи для укрепления памяти. Работа над скрайбами может быть расслабляющей и медитативной. Это может помочь снизить уровень стресса у студентов, поскольку создание визуальных записей позволяет им сфокусироваться на текущем моменте и отвлечься от стрессовых мыслей. Рисование и создание визуальных элементов в скрайбах могут стимулировать креативность у студентов, помогая им выражать свои идеи и концепции в нестандартной форме. Scribing технология способствует развитию визуального мышления у студентов, что может быть полезно в решении проблем и анализе информации в различных контекстах. Успешное создание скрайбов может повысить самооценку и уверенность студентов в их способностях. Возможность визуально представить сложные концепции может дать студентам ощущение достижения и профессионального роста. Подготовка и представление скрайбов может способствовать развитию навыков коммуникации, таких как ясность выражения мыслей и умение визуально представить информацию для аудитории. Scribing позволяет студентам индивидуально выражать свои мысли и понимание материала. Это способствует увеличению мотивации к обучению и удовлетворению от процесса обучения. Работа над скрайбами требует от студентов внимания к деталям и концентрации на процессе. Это может помочь улучшить их способность сосредоточиться и задерживать внимание на задаче.

В ходе проведения исследовательских работ была усовершенствована модель «Методика развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing». Помимо технологии Scribing, модель может включать в себя использование других инновационных образовательных технологий, таких как интерактивные платформы и(или) виртуальные среды обучения. Модель может быть адаптирована для учета индивидуальных потребностей студентов. Предложения и задания могут быть настроены с учетом уровня знаний, интересов и способностей каждого студента. Помимо визуальных навыков, модель может включать в себя развитие мультимедийных навыков, таких как обработка изображений, анимация и создание видеоконтента, что увеличит эффективность обучения и улучшит качество создаваемых скрайбов. Модель может быть адаптирована для использования в различных образовательных дисциплинах. В модель можно включить механизмы обратной связи и оценки, которые помогут студентам и преподавателям оценить качество скрайбов и их влияние на процесс обучения. Модель может быть расширена для использования технологии Scribing не только в рамках учебного процесса, но и во время самообразования. Модель может включать в себя разработку обучающих ресурсов, руководств и методических пособий для студентов и преподавателей, что поможет им эффективно использовать технологию Scribing в образовательном процессе.

В нашей работе предметом исследования был предмет «Применение информационных технологий в профессиональной деятельности». В ходе исследования была усовершенствована учебная программа дисциплины, разработаны методические рекомендации по проведению лекционных и практических занятий. Внедрение инновационных технологий в

образовательный процесс, таких как scribibng, искусственный интеллект, виртуальная реальность и другие, активно стимулируют интерес студентов и дают им представление о последних тенденциях в информационных технологиях. Разработан интерактивный онлайн-ресурс в виде веб-сайта, который позволяет студентам изучить основы информационных технологий и их применение в профессиональной сфере дистанционно, вне аудитории. Студентам предоставлена обратная связь и рефлексия, чтобы они могли осознавать свой профессиональный рост и улучшать свои навыки в области информационных технологий.

Выводы и предложения. Использование технологии Scribing в образовании предоставляет широкий спектр возможностей для улучшения процесса обучения и развития навыков у студентов. Эти педагогико-психологические свойства Scribing технологии делают её ценным инструментом для обучения, который может помочь студентам не только освоить учебный материал, но и развить целый ряд психологических навыков и качеств. Усовершенствование модели "Методика развития профессиональной компетентности студентов на основе технологии Scribing" с учетом вышеперечисленных аспектов может значительно повысить ее эффективность и применимость в современной образовательной среде. Усовершенствование технологии развития профессиональной компетентности студентов на основе предмета "Применение информационных технологий в профессиональной деятельности" с учетом вышеуказанных аспектов поможет создать более эффективную и актуальную образовательную программу, отвечающую современным требованиям.

Список использованной литературы

1. http://www.tolisano.com/about/
2. Rosengrant D. Gaze scribing in physics problem solving //Proceedings of the 2010 Symposium on Eye-Tracking Research & Applications. – 2010. – С. 45-48.
3. Harless P. Scribing: a technology-based instructional strategy //The Mathematics Teacher. – 2011. – Т. 104. – №. 6. – С. 420-425.
4. Молочко А. В., Кудрявцева М. Н., Басамыкин С. С. Опыт внедрения нестандартных форм проведения текущего контроля успеваемости студентов-геоинформатиков (на примере комплексного использования технологии коучинга, скрайбинг-технологий и деловой игры) //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Науки о Земле. – 2015. – Т. 15. – №. 3. – С. 9-16.
5. Киселева А. В. Современные образовательные технологии: скрайбинг //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – №. 9. – С. 124.
6. Петровский П., Любецкий Н., Кутузова М. Скрайбинг. Объяснить просто. – Litres, 2016.

7. Мухибат М., Бухори Э.М. Управление развитием медиа видеописца в улучшении навыков разговорной речи на арабском // Журнал изучения арабского языка Иджаз Араби. – 2021. – Т. 4. – №. 3.
8. Wibowo D. H., Zen M. Y. DEVELOPING LEARNING MEDIA IN THE FORM OF "VAM" BASED ON VIDEO SCRIBE TO MEASURE THE LEVEL OF STUDENT LEARNING MOTIVATION IN CIVIC EDUCATION //JOSAR (Journal of Students Academic Research). – 2020. – Т. 5. – №. 1. – С. 104-115.
9. Odaryuk I. V., Gampartsumov A. S. Scribing as an innovative technology in teaching oral foreign speech to students majoring in engineering //Samara Journal of Science. – 2023. – Т. 12. – №. 1. – С. 293-297.
10. Газейкина А. И., Милованов А. Д. Методика обучения будущих учителей применению технологии скрайбинга в учебном процессе школьников //Актуальные вопросы преподавания математики, информатики и информационных технологий. – 2022. – С. 229-236
11. Абдуганиев А.Ш., & Бурибоев, А. Ш. (2021). НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ПРОБЛЕМЕ СОЗДАНИЯ РЕСУРСОВ В ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ. In В МИРЕ СТУДЕНЧЕСКОЙ НАУКИ (pp. 46-48).
12. Siddiqov I. M. (2023). SCRIBING-KELAJAK TEXNOLOGIYASI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
13. Siddiqov I.M., Egamnazarova S.X. O'qituvchi faoliyatida scribing texnologiyasidan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2023-yil, 1-son, 449-456 betlar.
14. Гайдай Л. А. (2014). Скрайбинг как инструмент визуализации мышления. УПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЕМ ОБРАЗОВАНИЯ, 42.

XIX ASRNING 2-YARMIDA YOZILGAN "SAYOHATNOMA"LARDA DAVR IJTIMOIY MUHITI TASVIRIDAGI IJODIY INDIVIDUALLIK

Ahadjon MUHAMMADIYEV, f.f.n., dotsent
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani,
abdulahadmuhammad@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Sayohatnomalar muallifning safar hisoboti yoki tor shaxsiy kechinmalar majmuidangina iborat emasligi, ularda davr ijtimoiy hayotining bir qancha muammolari tanqidiy nazar bilan tahlil etilganligi haqida ilmiy bahs yuritilgan. Shuningdek, nasriy va nazmiy sayohatnomalar va ularning xususiyatlari haqida asosli xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar. *Sayohatnoma, safar, hisobot, ijtimoiy hayot, nasriy sayohatnoma, nazmiy sayohatnoma, Ibn Battuta, Ibn Xurdorbeh, al-Ya'qubiy, al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, al-Ma'sudiy, Ibn Havkal kabi o'rta asr arab geograflari hamda Abu Hamid al-G'artoniy, Ibn Fadlon, Ibn Jubayrlardek, Muhyi, Muqimiy...*

ТВОРЧЕСКАЯ ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ В ПОРТРЕТЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ ПЕРИОДА В «ПУТЕВЫХ ЗАПИСКАХ», НАПИСАННЫХ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Ахаджон МУХАММАДИЕВ, к.ф.н., доцент
Шахрисабзский государственный педагогический институт,
декан факультета языков, abdulahadmuhammad@mail.ru

Аннотация. *В статье приводятся научные аргументы в пользу того, что травелоги представляют собой не просто сборник авторских путевых отчетов или узколичных переживаний, но в них критически анализируются некоторые проблемы общественной жизни того времени. Сделаны также обоснованные выводы о прозаических и поэтических травелогах и их характеристиках.*

Ключевые слова. *Травелог, поездка, отчет, общественная жизнь, прозаический травелог, поэтический травелог, Ибн Баттута, Ибн Хурдорбех, аль-Якуби, аль-Истахри, аль-Мукаддаси, аль-Масуди, Ибн Хавкаль и др. Арабские географы Средней Азии. Века и Абу Хамид аль-Гартани, Ибн Фадлан, Ибн Джубайр, Мухьи, Мукими...*

CREATIVE INDIVIDUALITY IN THE PORTRAIT OF THE SOCIAL ENVIRONMENT OF THE PERIOD IN "TRAVEL NOTES" WRITTEN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Ahadjon MUHAMMADIYEV, candidate of philological sciences,
associate professor Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Dean of the Faculty of Languages abdulahadmuhammad@mail.ru

Abstract. *In the article, there is a scientific argument that the travelogues are not just a collection of the author's travel report or narrow personal experiences, but several problems of the social life of the time are critically analyzed in them.*

Reasonable conclusions were also made about prose and poetic travelogues and their characteristics.

Key words: *Sayohatnoma, trip, report, social life, prose travelogue, poetic travelogue, Ibn Battuta, Ibn Khurdorbeh, al-Yaqubi, al-Istakhri, al-Muqaddasi, al-Masudi, Ibn Havkal, etc. Arab geographers of the Middle Ages and Abu Hamid al-Ghartani, Ibn Fadlan, Ibn Jubayr, Muhyi, Muqimi...*

Kirish. Jahon madaniyati va tafakkuri rivojida Ibn Battuta, Ibn Xurdorbeh, al-Ya'qubiy, al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, al-Ma'sudiy, Ibn Havkal kabi o'rta asr arab geograflari hamda Abu Hamid al-G'artoniy, Ibn Fadlon, Ibn Jubayrlardek sayyohlar o'zlarining "Sayohatnoma"lari bilan alohida o'rin tutishgan.

Xususan, Ibn Battutaning "Sayohatnoma"si [4] o'rta asr mamlakatlari, shaharlari, ularning xalqlari madaniyati, turmush tarziga oid g'oyat qimmatli, ko'p o'rinlarda yagona ma'lumotlari bilan boshqalardan ajralib turgan. Shu sabab bo'lsa kerak, akademik I.YU Krachkovskiy Ibn Battutani "Barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so'nggi eng buyuk sayyoh" [5], deya e'tirof etgan.

Umuman, sayohatnomalar sayohat taassurotlari va tafsilotlari tasviriga bag'ishlanar ekan, ularning tarixiy-badiiy qimmati muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog'liqdir.

Adabiyot tarixida sayohat taassurotlarining nasriy va nazmiy tasviridan iborat o'nlab asarlar mavjud. Nasriy Sayohatnomalarda joy va voqealarning izchil tafsiloti yetakchi o'rin tutsa, she'riy Sayohatnomalarda tasvir ixcham va umumlashma xarakterda bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Masalan, tojik tilida she'riy sayohatnomalar yozgan Jonmuhammad Joniy (1839-1881) Sharq adabiyotida qadim an'analariga ega bo'lgan sayohatnoma janriga yangidan ruh berdi. XIX asrning 70-yillarida Buxoro – Nurota safari haqida tojik tilida "Sayohatnoma" nomli asar yozdi. Unda muallifning 800 chaqirimdan uzoqroq masofadagi hozirgi Buxoro, Samarqand, Sirdaryo hamda Qozog'istonning Chimkent viloyatlari hududida joylashgan 50 ta qishloqning tabiati, manzaralari, odamlari haqidagi xotiralari o'z ifodasini topdi.

"Turkiston viloyatining gazeti"da 1887-yili Xarkov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirzo Buxoriyning Boku, Xarkov, Moskva, Peterburgga sayohati xotiralari (1888-yil, 4-7-sonlar), toshkentlik savdogar Toshmuhammad Isamuhamedovning 1900-yili Boku – Istanbul yo'li bilan Parijga sayohati (44-45-sonlar), gazeta mualliflaridan Sattorxon Abdug'afforovning (1890), shoir Zokirjon Furqatning (1891, 2-23-sonlar), Xudoyorxonning kichik o'g'li Ibn Yaminbekning (1893, 22-28, 32-sonlar) o'z qo'llari bilan yozilgan tarjimai hollari, xususan, rus madaniyati bilan bog'lanishlariga oid xotiralari, toshkentlik Orifxo'janing sayohatnomasi (1894 yil 28-son) bosildi [11. 12-б.].

Hozirgi davr adiblari va publitsistlarining turli mamlakatlarga qilgan safarlari natijasida ham bir qator nasriy Sayohatnomalar yuzaga keldi. Ular uslubida ocherk va publitsistika uchun xarakterli xususiyatlar ko'proq. Masalan, Oybekning "Pokiston taassurotlari" asarida sayohatnoma mavzuining kengaygani, bayon va tasvir shakllarining o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi.

O‘zbek adabiyoti tarixi uchun, asosan, she’riy Sayohatnomalar xarakterlidir. Masalan, Muqimiyning murabba shaklida yozilgan “Sayohatnoma”si g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bu janrning original namunasi hisoblanadi.

Muqimiy milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida “Sayohatnoma” janrini boshlab bergan. Unda davr ziddiyatlari, chor hukumatining xalq boshiga solgan kulfatlari, zolim va adolatsiz hokim guruhlar ayovsiz tanqid qilindi, xarob va vayron qishloqlar tasvirlandi. Shoir “Sayohatnoma”si o‘z vaqtida mutaxassislar tomonidan atroflicha o‘rganildi [1, 6, 8, 9, 10, 11]. Muqimiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she’r qilib yozdi va bular “Sayohatnoma” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Muqimiyning sayohatnomalari mavzusi quyidagi uch yo‘nalishni qamrab olgan:

1. Qo‘qon – Farg‘ona:
   Faryodkim, garduni dun
   Aylar yurak bag‘rimni xun,
   Ko‘rdiki, bir ahli funun –
   Charx anga kajraftor ekan.
2. Qo‘qon – Shohimardon:
   Chun shahrdin chiqdim «Qudash»,
   Ko‘ngul bo‘lub mahzun-u g‘ash,
   Majnunsifat, devonavash,
   Serchashma-yu kam chang ekan.
3. Qo‘qon-Isfara:
   Aflok kajraftor uchun,
   Har dam ko‘ngul afgor uchun,
   Ho‘qand tang-u tor uchun,
   Sahro chiqish darkor ekan.
4. Isfara sayohatidan:
   Shahr ichra toqat toq o‘lub,
   Dubora yo‘llar qoq o‘lub,
   Ko‘z Isfara mushtoq o‘lub,
   Avval chiqish “Yayfon” ekan.

Matnshunos Qo‘ldosh Pardayevning ta’kidlashicha, Muqimiy “Sayohatnoma”lari matni Muqimiy asarlarining barcha joriy nashrlarida asliyatga nomuvofiq keltirilgan. Tabiiyki, noqis matn asosida xolis va haqqoniy tadqiqot yaratib bo‘lmaydi. Shu jihatdan, shoir “Sayohatnoma”lari matnini matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilib, qayta nashr etish dolzarbdir. Umuman, davr talabi nuqtai nazaridan “sayohatnoma” bandlaridagi aksar misralar tahrir qilingan. Natijada muallifning mufti, hoji va qozilar haqidagi rost gaplari yolg‘onga do‘ngan, matn asliyatdan mutloq yiroqlashgan.

Xo‘sh, nega bunday yo‘l tutilgan? Shoir ijodini dinga qarshi qo‘yib talqin qilinganini e’tiborga olsak, bu masala o‘z-o‘zidan ayonlashadi [12].

Qisqacha aytganda, Muqimiy “Sayohatnoma”si Qo‘qon shoirlari ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi zabardast shoirlar Muqimiy asarining vazni va radifi bilan sayohatnomalar yozdilar. Furqat “Sayohatnomasi”

adabiyotshunos olim Sharifjon Yusupov tomonidan e'lon qilingan. Zavqiy "Sayohatnoma"si esa "Obid mingboshi haqida hajv" nomi bilan tanilgan. Zavqiy ijodiy merosida, xususan, uning "Yangi Qo'rg'on qishlog'i", "Suv janjali", "Shohimardon sayohati" kabi asarlarida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzui yoritilgan. Tajalliy "Sayohatnoma"sidan esa bizgacha ayrim parchalargina yetib kelgan bo'lib, bu asarlar Muqimiyning "Sayohatnoma"si ta'sirida yozilgan.

Muqimiyning har uch yo'nalish sayohatnomalari ham to'rtliklardan tarkib topgan yaxlit bir asar shaklidadir. Ularning barchasi aruzning rajazi murabbai solim bahrida yozilgan bo'lib, jami 244 misradan iborat [12]. Har bir band "ekan" radifi bilan yakunlanadi. Hammasi uchun bitta umumiy muqaddima va bitta umumiy yakun – xulosa bor. Asarda sayohat sababi beriladi, so'ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe'l-udumlar hikoya qilinadi.

Muqimiy "Sayohatnoma"si:
Faryodkim, garduni dun,
Aylar yurak-bag'rimni xun.
Ko'rdiki bir ahli funun,
Charx anga kajraftor ekan, – satrlari bilan;
Zavqiyning Shohimardon xotirasiga bag'ishlangan "Sayohatnoma"si esa:
Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan.
Umrida bir ko'rgan kishi
O'lganda bearmon ekan – bandlari bilan boshlanadi.

Muqimiy Farg'onadan Shohimardongacha bo'lgan masofadagi qishloqlar va ularning odamlari, ob-havosi, yaxshi va yomonlari, qolaversa, yer egalarining yashash tarzi haqida umumiy xulosalarini bayon etgan. Zavqiy esa xuddi Muqimiy vazni va radifida davom etsa-da, faqat Shohimardon ta'rifi va tavsifini yoritadi, xolos.

Muqimiy "Sayohatnoma"sining yana bir xarakterli jihati shuki, unda ko'proq "hasbi hol" ko'zga tashlanadi.

Muqimiydan farqli o'laroq Nodimning Samarqand va Toshkentga, Muhyining Rishton va Marg'ilonga qilgan safarlari natijasida yuzaga kelgan Sayohatnomalari qasida shaklida yozilgan. Ta'kid lozimki, Muhyining forsiy devonidagi qasidalar fardlardan so'ng joylashtirilgan. Birinchi qasida Mullo Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiyga bag'ishlangan. Ikkinchisi esa Marg'ilon va Roshidon shaharlarining ta'rifu tavsifidan iborat.

Muhyi qasida avvalida: "қасидаи навинаки дар роҳи Марғинон дар тариқи Рошидон гуфта шуда" (tarjimasi: bu yangi qasida Marg'inondan Roshidonga borish yo'lida aytildi), deya sarlavha qo'yadi.

Bir qarashda bu bitiklar mazmunan o'quvchiga Muqimiy sayohatnomalarini eslatadi. Biroq Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliylardan farqli o'laroq Muhyi "sayohatnoma"si qasida ko'rinishida, qolaversa, yuqoridagi shoirlarda bo'lgani kabi "ekan" radifi ko'zga tashlanmaydi. Vazn ham boshqacha (ramali musammani maqsur).

Muhyi "Sayohatnoma"ni fors-tojik tilida yozdi. Umuman, Muhyining mazkur "Sayohatnoma"si fors-tojik tilida yozilgan dastlabki asar emas. Avval

ta'kidlaganimizdek, XIX asrda Buxoro adabiy muhitida ham fors-tojik tilida sayohatnomalar bitilgan. Muhyida Muqimiydan farqli o'laroq quyidagi ikki yo'nalish mavjud:

1. Ta'rifi Rishton
2. Vasfi Marg'inon

Shoir qasidada bu haqda shunday yozadi:

Буд маҷмуи ҳамин абёт аз яксад фузун,
Нисфи он таърифи Риштон, нисфи васфи Марғинон [7.207-б.].

Demak, shoirning xabar berishicha, ushbu qasida 100 baytdan ziyod bo'lgan. Uning yarmi Roshidon, yarmi esa Marg'ilon ta'rifida bitilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy tahlil. Germenevtik tahlil. Tarjima...

Tahlil va natijalar. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Субҳи ҷумъа матлаи субҳи саодатро нишон,
Гаштам аз дарвоза берун раҳ ба суйи Рошидон [7. 208-б.].

Tarjimasi: subhi juma – saodatning to'lishgan tongidan nishon. (Shu kunda, ya'ni juma kunida) men darvozadan tashqariga chiqdim va Roshidon tomon yo'l tortdim[1].

Shoir Roshidon tomon yo'l tortar ekan, avvalo, fayzli tongning ta'rifiga kirishadi:

Субҳи пур файзе ки беҳтар буд аз шабҳойи қадр,
Балки рӯзи қадр гӯям ҳам бувад кам васфи он.

Tarjimasi: bu shunday bir fayzli subh (tong) ediki, hatto u qadr kechasidan ham yaxshiroq edi. Nafaqat qadr kechasi, balki qadr kuni (kunduz)dan yaxshiroq desam ham – bu uning vasfi uchun kamlik qiladi.

Чунки аз дарвозаи Хӯқанд гаштам шодмон,
Озими саҳро чи саҳро рашки гулзори эрам.

Tarjimasi: chunki Qo'qon darvozasi (sarhadi)dan shodmon holda chiqdim va sahroni qasd qildim. Bu shunchaki sahro (yo'l) emas, balki Eram (Jannat) gulzorlarining rashkini qo'zg'ovchi sahrodir.

Muqimiy Qo'qondan Shohimardonga qilgan safari chog'ida bitgan to'rtliklarida har bir to'xtagan manzili, u yerning ob-havosi, tabiat tasviri va shu yerlik odamlarning fe'l-atvori, hatto yashash tarzi haqida ham batafsil to'xtalib o'tgan. Masalan, O'ltarma sayohati davomida shoir bir ma'raka ustidan chiqadi. Yig'inda besh yuzcha xotin-xalaj voizdan va'z tinglab turgani tasvirlangan. Qiziquvchan shoir Mingboshini surishtiradi. Natijada uning qo'sh tegirmoni borligi va ismi Xo'ja Iso ekanini aniqlaydi. Xo'ja Iso (garchi qo'sh tegirmoni bo'lsa ham) ishsiz, bekorchi kishi edi. Shoir u haqida shunday yozadi:

Mag'rur, xasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdanam,
Hoji o'zi murdor ekan.

[1] Tarjimalar o'zimizniki.

Xullas, Muqimiy Qo‘qon – Shohimardon yo‘nalishidagi Do‘rmoncha, Bo‘rbaliq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon va Vodil kabi joylarning ham ta'rifu tavsifini chizadi. Muhyida esa Muqimiydan farqli ravishda ko‘proq kishi ta'bini xursand etuvchi go‘zallik, yoqimli ob-havo va ajoyib peyzaj tasvirini ko‘ramiz. Muhyi Roshidon yo‘lidagi tabiatni quyidagicha tasvirlaydi:

Ончунон сарсабзу хуррам боғу роғу сабзаҳо,
Ҳар қадам бини ҳазорон боғу садҳо бўстон.

Tarjimasi: bog‘u rog‘lar, maysalar shu qadar shodu xurram (yashnab ochilgan)ki, har qadamda yuzlab, minglab bog‘u bo‘stonlarni ko‘rasan.

Як тараф бини хиёбон дар хиёбон лолазор,
Як тараф бини биёбон дар биёбон гулситон.

Tarjimasi: bir tarafda xiyobonni ko‘rasan, u lolazordan iborat; boshqa bir tarafda biyobonga ko‘zing tushadi, u gulistondan tarkib topgan.

Гўйиё аз баргу сабза фурши нав андохта,
Аз зумуррад ҳар тараф фаррош дар атрофи он.

Tarjimasi: go‘yoki barg va ko‘klamdan (tabiat uzra) yangi to‘shanchi to‘shalgan. To‘shakning har tarafida zumraddan farroshlar bor.

Дар ямину дар ясору дар жанубу дар шимол,
Васфи жаннотун-наъим аз ҳар тараф бини аён.

Tarjimasi: Jannotun-na'im (jannat ne'matlari)ni har tarafdan – o‘ngdan, chapdan, janubdan va shimoldan aniq ko‘rasan.

Ваҳ чи роҳи дилкушо к-аз файзи жон бахшийи ў,
Нест боке гар дарояд дар тани амвот жон.

Tarjimasi: bu qanday ham ko‘ngil ochar yo‘lki, uning fayzi (kishiga) jon bag‘ishlaydi. Bu fayz o‘lik tanga ham jon kiritsa ajab emas.

Ҳар тараф беду гулу гулзору боғу лолазор,
Аз ду жониб ҳаст жорий ҳар тараф наҳри калон.

Tarjimasi: atrofda tollar, gulu gulzorlar, bog‘ va lolazorlar yastanib yotibdi. Bularning har ikki tarafidan katta ariq oqadi.

Андар он гулзору боғу бўстонҳо ваҳ чи хуш,
Сад ҳазорон булбулон аз шавқи гул андар фиғон.

Tarjimasi: u joyda naqadar go‘zal gulzorlar va bog‘u bo‘stonar bor. Bog‘u bo‘stonlar ichra yuz minglab bulbullar gul shavqida fig‘on qiladilar.

Muqimiyda ham shunday tasvirlar yo‘q emas. Shoir ham ayni Roshidon va Zohidon ta'rifini bitish asnosida Muhyining yuqoridagi baytlariga hamohang jumlalarni yozganiga guvoh bo‘lamiz:

Ammo nazarda “Roshidon”,
Firdavs bog‘idin nishon.
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gulu gulzor ekan.

Mayus bordim “Zohidon”,
Bir ko‘cha ketguncha do‘kon.
Sho‘x odami, ichmay piyon,

Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so‘rilar,
Bo‘rlangan o‘choq-mo‘rilar,
Tab’ing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.

Muhyi ham Roshidan yo‘nalishida davom etar ekan shoxlari bir-biriga chirmashib ketgan daraxtlar va ularga maftun turgan xushsavt sayroqi qushlar (bulbul, foxta, qumri, sa’va...) haqida yozadi:

Ҳеч нахле ман надидам бенавойи андалиб,
Турфа хуш алҳону нолон дар басотин булбулон.

Tarjimasi: biror bir daraxtni benavo bulbulsiz ko‘rmadim. Mazkur bulbullar bo‘stonlarda turli ko‘rinishda (alhonu nolon) nolali xonish qiladilar.

Фохта, Қумрию Саъва шўриши афғон кунон,
Сарви ар-ар то баҳам печида анд то фарқадон[2].

Tarjimasi: Foxta (yovvoyi kabutar), Qumri va Sa’valar dod-faryod solmoqdalar. Sarvi ar-ar (daraxti) esa (yerdan) to farqadon yulduziga qadar yuksaklikka chirmashgan.

Аз Вафури фокиҳа дар ин тариқи дилкушой,
Тўда-тўда уфтода нозу неъмат бекарон.

Tarjimasi: mevalar shu qadar mo‘lki, ularning ko‘pligidan ko‘ngil ochuvchi bu yo‘lda behisob nozu ne’mat uyum-uyum to‘kilgan.

Шохҳойи ин дарахтон ончунон пайваста анд,
Роҳравро гашта шохи беду насрин соябон.

Tarjimasi: bu daraxtlarning shoxlari shu qadar muxtalaf chirmashganki, natijada tol va nasrinlarning shoxlari yo‘lovchilar uchun soyabonga aylangan.

Гуна-гуна себу шафтолуву анжиру анор,
Харбуза сад қисм ҳар жо кас насозад майли он.

Tarjimasi: olma, shaftoli, anjir va anorlar rang-barang. Har joyda xohlovchilar uchun qovunlar (tilim-tilim qilib) yuz bo‘lakka bo‘lib qo‘yilgan.

Аз баройи роҳравон бенишаста ҳар жо мунтазир,
Ҳаст дар ин раҳ фурушанда ҳазорон мардумон.

Tarjimasi: bu yo‘l bo‘yida minglab sotuvchi (savdogar)lar bor. Ular har yerda yo‘lovchilar uchun o‘tirmasdan (tinimsiz) intizor holda (xizmat qiladilar).

Ғайр аз ин дар ҳар қадам бозорҳойи дилкушой,
Аз дўконҳойи васеъ бо такаллуф гирди он.

Tarjimasi: bundan tashqari, har qadamda ko‘ngilochar bozorlar bor. Bu bozorlarning atrofi keng do‘konlar bilan o‘rab olingan.

Ҳар самовораш ба ранги қасри жаннат дилкушой,
Ҳар дўкони ў батарҳи гулситон фарҳат нишон.

[2] Farqad فرقد. Bu lo‘g‘at “Farhangi zaboni toҷikī”da shunday sharhlangan: “Nomi yake az du sitorayest dar galasitorai Dubbi Asg‘ar, ki har du sitora yakҷo Farqadon yo Farqadaĥn nomida meshavad. Tarjimasi: Dubbi Asg‘ar galaktikasidagi ikki yulduzdan birining nomi, ikkala yulduz birgalikda “Farqadon” yoki “Farqadayn” deb ataladi.

Tarjimasi: bu yerning har bir samovarlari ko‘ngilga xush yoquvchi Jannat qasrlarining rangidandir. Har-bir do‘koni esa rohatbaxsh guliston kabidir.

Лаб-лаби оби калону зери ашжори баланд,

Фарши нав андохтаи баҳри нузули раҳравон.

Tarjimasi: katta ariqlar yoqalab, baland daraxtlar ostida yo‘lovchilar uchun to‘shaklar solingan.

Зарфҳойи хўб сиймин ҳар тараф андохта,

Раҳравонро аз сафар кардида монеъ сайри он.

Tarjimasi: har tarafda (mehmonlar uchun) ajoyib, chiroyli idishlar qo‘yib qo‘yilgan. (Bu esa, o‘z navbatida) yo‘lovchilarning sayr qilishlariga to‘sqinlik qiladi.

Ҳар дўкони ў бувад аз нақшҳойи дилкушой,

Чун нигористони Чин рангин мисоли бўстон.

Tarjimasi: u yerdagi har bir do‘kon ko‘ngilochar naqshlar bilan ziynatlangan. Ular Chin (Xitoy) bezaklari kabi rang-barang. Misoli bo‘stondir.

Guvoh bo‘lganimizdek, Muhyi sayohatnomalarida an’anaviylikdan ko‘ra ijodiy originallik ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Muqimiy sayohatnomalaridan farqli o‘laroq Muhyi sayohatnomalarida ko‘ngilochar tasvirlar: har-bir mavzening o‘ziga xos tabiati, dov-daraxtlari, sayroqi qushlari, bozoru rastalari, dam olish manzillari, tasvirlanayotgan joy odamlari va ularning sayohatchilarga nisbatan mehribon va mushfiqligi kabilar mahorat bilan chizilgan. Shuningdek, safar asnosida tanishgan zebo sanamlar ham Muhyining e’tiboridan chetda qolmaydi:

Баҳри хизмат мунтазир истода зебо манзарон,

Гулрухони сийми соқу маҳвашони дилбарон.

Tarjimasi: zebo yuzlilar, siymtan gulruxlar va dilbar mahvashlar xizmat uchun shaylar.

Ман чунон оям берун аз уҳдаи таърифи он,

З-он ки набуд фурсате то ман намоям шарҳи он.

Tarjimasi: (xullas) bu yo‘l (Roshidon yo‘li) ta’rifini (batafsil) uddalash imkoniyatidan chetdaman. Chunki batafsil sharhlash uchun menda fursat yo‘q edi.

Qo‘qon shoirlari sayohatnomalarida O‘ltarma[3] nomi tez-tez tilga olinadi. Muqimiy bu joyga yurish qilganida yo‘ldoshi bir chitfurush bo‘lganini, O‘ltarmaga peshin vaqtida yetib kelgani va qiziq bir bozor ustidan chiqqanini quyidagicha tasvirlagan:

“O‘ltarma”ga qildim yurush,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Birdam qiziq bozor ekan.

Muhyi esa O‘ltarmaga ertalabki nonushta vaqtida kelganini yozadi. Shoir tong sahardagi nonushta paytini va u yerdagi qaynab turgan jonbaxsh samovarlarni quyidagicha tasvirlagan:

Аввали манзил маҳали ношито Ўлтарма шуд,

Дар самоворики, ал-ҳақ, буд роҳатбахш жон.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumaniga qarashli shaharcha. O‘ltarmaga 2009 yilda shaharcha maqomi berilgan.

Tarjimasi: avvalgi manzilimiz nonushta vaqtida (saharda) O‘ltarmada bo‘ldi. Darhaqiqat, u yerdagi samovar jonga rohatbaxsh edi.

Андар-он манзил мулоқи гашт дилдореки буд,
Орази ў дар латофат ба з-моҳи осмон.

Bundan (nonushtadan) keyingi uchrashuv manzilimiz dildor kezgan (ko‘cha) bo‘ldi. Uning (dildorning) orazi (yuzi) latofatda osmondagi oyga teng edi.

Чунки он ёри шакарлаб буд дар шому сабоҳ,
Бо мане дилхаста Муйи солҳо ороми жон.

Tarjimasi: chunki u shakarlab yor ertayu kech men dilxasta Muhyi uchun oromijon edi.

Ман чи гўям аз жамолу васфи хўбҳойи ў,
Нест мисоли ў ба хўбе дилбаре, эй дўстон.

Tarjimasi: uning (yorning) go‘zalligi va maqtovi haqida nima deyishim mumkin? Do‘stlar, qisqasi, dilbarlar ichida uning misoli (tengi) yo‘q.

Як-ду соат суҳбати хуш сохта бо як дигар,
Ман ижозат хостам з-он жо ба сўйи Рошидон.

Tarjimasi: bir necha soat yoqimli suhbat qurgandan so‘ng, qaytadan Roshidon tomonga sayohatni davom ettirish uchun ijozat so‘radim.

Muhyining bundan keyingi baytlari Roshidon yo‘lida hamrohlik qilgan ikki sho‘xning ta’rifu tavsifidan iborat. Unda bu go‘zallar: zebo manzar, sho‘xu harif (hamsuhbat), ofati jon, fitnai davron, baloyi mu’minon, makkora, sho‘x tab’, nuktadon, joduzabon kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Xullas, Muhyi ular hamrohligida Do‘rmonchaga yetib oladi:

То мақоми Дўрмонча омадему баъдаз-он,
Хуш вадоъи як дигар кардем лек армон кунон.

Tarjimasi: Do‘rmonchaga qadar yetib keldik va shu yerda armon bilan xayrlashdik.

Қиссаи ду буд ҳамчун зулфи ў дуру дароз,
Лек кардам ихтисору бас намудам зикри он.

Tarjimasi: ikkisining (ikki go‘zalning) hikoyasi ularning sochlari misol uzoq va uzun edi, biroq men (bu qissani) ixtisor qildim (qisqa qildim) va ularning zikrini to‘xtatdim.

Xullas, Muhyi ham Muqimiy kabi vatan ichkarisida qilgan sayohatlarini qasida tarzida fors-tojik tilida bayon etgan. Unda tilga olingan Rishton, Marg‘ilon va ularning yo‘lidagi qishloqlar – O‘ltarma va Do‘rmonchalarning tabiati, odamlari va ularning yashash tarzi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Muhyi sayohatnomalarini shartli ravishda ikki qismga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Vatan ichkarisiga qilingan safar chog‘ida yozilgan sayohatnomalar;
2. Chet ellarga qilingan safar chog‘ida yozilgan sayohatnomalar.

Mazkur fasl avvalida Muhyining Rishton (Roshidon) va Marg‘ilon (Marg‘inon) yo‘nalishlari bo‘ylab amalga oshirgan sayohatlari davomida yozilgan qasida

(sayohatnoma) bilan batafsil tanishdik. Quyida shoirning chet ellardagi safarlari ta'sirida yozilgan sayohatnomalarini o'rganishda davom etamiz.

Avval ta'kidlaganimizdek, Muhyi Qo'qondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olingach, u yerda ham obro'-e'tibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalb qilinadi. U 1859-1861 yillar orasida xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afg'oniston va Hindistonga borgan. Yo'l-yo'lakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni ko'rishga muvaffaq bo'lgan. E'tiborli jihati, u safar chog'ida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat qurgan. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuyg'ulari, kuzatuvlari aks etgan she'rlar ham bitdi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri ta'rifi xususidagi "Дар сифати шаҳри Лоҳур ба тариқи бадиҳа гуфта шуда буд. Дар шаҳри Лоҳур" sarlavhali she'ridir.

Badiha avvalida shoir shunday yozadi: "Дар сифати шаҳри Лоҳур ба тариқи бадиҳа гуфта шуда буд. Дар шаҳри Лоҳур" (ma'nosi: Lohur shahrining sifatida badihatan aytildi. Lohur shahrida).

Зиҳи Лоҳуру шаҳри дилкушояш,
Чи гўям васфи хубии ҳавояш.
Эрамро хиҷлате аз тарҳи боғаш,
Фалак сар бар замин аз ҳар бинояш. [7. 105-б.].

Ma'nosi: Lohur shahri ko'ngil ochuvchi shahardir. Uning xushbo'y havosi vasfida nima ham derdim. Lohur bog'ining go'zalligidan, hatto Eram bog'i ham xijolatda. Uning har bir binosining balandligidan falakning boshi ham yerda bo'ladi.

Ko'rinadiki, badihago'ylik shoirning zukkoligi, topqirligi, qolaversa, uning nechog'lik iste'dod sohibi ekanini belgilovchi mezonlardan biridir. Ammo badihago'ylik ijodkorlarning zakiyligini ko'rsatish bilan birgalikda asosi tezkorlikka qurilgani uchun qofiyabozlikni keltirib chiqarishi, rangsiz baytlar yozilishiga sababchi bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlar Muhyi badihalarida deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, uning badihalari an'anaviy ta'rifu tavsiflardan o'tib, o'quvchini mushohada yuritishga undovchi go'zal baytlardan tarkib topgan.

Ta'kidlaganimizdek, Muhyi nafaqat Muqimiy kabi mamlakat ichkarisida sayohat qilgan, balki xorij safarlariga ham tez-tez chiqib turgan. Bunga sabab uning betakror iste'dodi edi. Garchi rasman bo'lmasa-da Xon Muhyini diplomatik ishlarga jalb etadi. Bu sayohatlar esa Muhyiga dunyoni ko'rish, borgan mamlakatlariga ma'rifat ulashish va ma'rifatlanish imkonini bergan. Albatta Muhyi iste'dodli ijodkor sifatida bu sayohatlarini o'z asarlariga muhrlagan. Chet el sayohatlari davomida bitilgan asarlaridan yana biri Turkiya safari chog'ida dunyo yuzini ko'rdi.

Shoir devonida Turkiyaning Istanbul shahridan yuborilgan yigirmaga yaqin suratlarning tasviriga bag'ishlangan qit'alar mavjud. Bu haqida Muhyi qit'a avvalida shunday yozadi: "Ma'lum o'laki, ushbu qit'otni fit-tug'rof birlan olg'on Islombul tasvirining orqosig'a bayon aylab ma'lum qilmog' uchun aytib yozgon edim".

Qit'alarda Istanbul shahridagi masjid, madrasa va maqbaralar, daryo va ko'priklar, podsho lashkarlari hamda ularning kazarmalari kabi turli xil inshootlar tasvirlangan. Shoir qit'alardan birida Istanbul shahrini barcha mamlakatlarning boshi sifatida quyidagicha ta'rif etadi:

Shahri Islombulki bu olam aro,
Barcha kishvarni jahonda boshidur.
Aylag‘il nazzora bu tasvir aro,
Jumlasi ul kupurukni boshidur. [7. 353-b.]

To‘pchilar suratiga sharh sifatida bitilgan navbatdagi qit’ada esa shoir mamlakatning harbiy quvvatiga yuksak baho beradi. Suratdagi har bir to‘pchini go‘yo bir ajdarga qiyoslab quyidagicha yozadi:

Hazrati Sulton Hamidni shukri,
Chiqqon erkon ul kazarmadin biri.
Ushbulardur to‘pchilarni surati,
Har biridur begumon bir ajdari. [7. 354-b.]

Shoirning forsiy devonida ham turkiy devondagi singari Istanbul shahri tasviri aks etgan suratlar ta’rifiga bag‘ishlangan turkum qit’alar mavjud. Fikrimizning isboti uchun shoirning Xol ota qal’asi tasviriga bag‘ishlangan qit’asini sharhlaymiz:

Ин иморатроки бини дар ҷаҳон,
Аз шукуҳаш дар замона ғулғуласт.
Гар надони Муҳйи мегўяд шунав,
Қалъаи Хол ота дар Истамбуласт. [7. 154-б.]

Ma’nosi: Dunyo ichra mavjud bo‘lgan bu imoratni ko‘rgin. Uning ulug‘vorligidan zamona (ahli) hayratdadir. Agar bu imorat to‘g‘risida hech narsa bilmasang, Muhyidan eshit. Bu – Istanbuldagi Xol ota qal’asidir.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada tilga olingan shoirlar tomonidan ijod etilgan “sayohatnoma”larni batafsil o‘rganish o‘quvchiga o‘sha davr tarixi, ijtimoiy hayot tarzi, joy nomlari va shu joy odamlarining xarakter-xususiyatlari haqida to‘laroq ma’lumot olish imkonini beradi.

Mumtoz adabiyotimizdagi “hasbi hol”larda asosan shoirlar o‘z ahvollari haqida yozishgan. Bularning ayrim ko‘rinishlari sayohatnomalarda ham mavjud. Birgina misol, Muqimiy o‘z “Sayohatnoma”sida “garduni dun” (“pastkash dunyo”)dan faryod qiladi, yurakbag‘rini “qon” (“xun”) qilganidan shikoyat etadi. “Ahli funun” (“ilm-fan kishilari”)ga bu dunyoning hamisha teskari (“kajraftor”) yurganini ta’kidlaydi va hokazo...

Sayohatnomalar muallifning safar hisoboti yoki tor shaxsiy kechinmalar majmuidangina iborat emas. Ularda davr ijtimoiy hayotining bir qancha muammolari (Muqimiyda) tanqidiy nazar bilan tahlil etilgan.

Sayohatnomalar, ta’kidlaganimizdek, nasrda va nazmda yozilishi mumkin. Nazmiy sayohatnomalar hamisha Muqimiy “sayohatnoma”si kabi to‘rtliklardan iborat bo‘lavermaydi. Bilaks, maqolamiz avvalida ta’kidlaganimizdek, ular qasida shaklida ham yozilishi mumkin. Bu kabi sayohatnomalarda ko‘proq ta’rifu tavsif yetakchilik qiladi. Nazmiy sayohatnomalar nasriy sayohatnomalar kabi batafsillikka da’vo qila olmaydi. Ularda ko‘pincha umumlashgan tasvirlar ifodasi ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
1. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Т.: Фан, 1976.-Б.118;
2. Аҳмедов С. Ўзбек адабиётида саёҳатнома // Адабий мерос, 1986, 6-сон.-Б. 7-116;
3. Зарифов Ҳ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 1955.-Б.17-19;
4. Ибн Баттута. "Саёҳатнома". Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 2012 йил.- 688 бет.
5. Ибн Баттута "Саёҳатнома"си. *"Жаҳон адабиёти" журнали, 2011 йил.- 10-сон.*
6. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1987.-Б. 117-122;
7. Муҳйиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. – Тошкент: Ҳожи Абдурауф нашри, 1911/м. (ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади.
8. Ойбек. Асарлар тўплами. 9-том. Тадқиқот ва мақолалар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.-Б.157-164;
9. Олимжонов А. Муҳаммад Амин Муқимий. Ҳаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 1953.-Б.19-20;
10. Сотти Ҳусайн. Танланган асарлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.-Б.131;
11. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Жабборов Н., ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004.-Б.104-106.
12. Қўлдош Пардаев. Муқимий "Саёҳатнома"си матни тарихидан. *"Шарқ юлдузи" журнали, 2015 йил, 4-сон.*

BADIIY MATN TAHLILIDA NAZARIY BILIMLARGA TAYANISH ZARURIYATI

Umida Marasulova – Shahrisabz davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
u.marasulova@mail.ru , +998901264010
https://orcid.org/0000-0002-3779-935X

Annotatsiya. *Maqolada badiiy matn tahlilida nazariy bilimga tayanib she'rni adabiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish masalalari yoritilgan. She'riy asarlar orqali kitobxonni ta'sirlantirish, asar mazmunini tushunishga o'rgatish muammolariga yechim izlangan. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'quvchilarning yoshi, ruhiyati, bilim darajasi, his qilish qobiliyatiga e'tibor bergan holda, o'quv tahlili talablari asosida darslar bo'yicha taqsimlab, topshiriqlar tizimini ishlab chiqqan holda rejalashtirish uchun nazariy bilimlarga tayanish ko'nikmasi shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar. *Badiiy matn, ifodali o'qish, she'riy asar, adabiyotshunoslik, adabiy-estetik tahlil, har bir asarning janr xususiyatlari, qahramonlar xarakteri, she'riy san'atlar, tashxis san'ati, mubolag'a san'ati, qofiya va radif, lirik asarlar tahlili.*

В АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА НУЖНО ПОЛАГАТЬСЯ К ТЕОРЕТИЧЕСКИМ ЗНАНИЯМ

Умида Марасулова – проректор по науке и инноваций Шахрисабзского государственного педагогического института кандидат педагогических наук, доцент. u.marasulova@mail.ru, +998901264010
https://orcid.org/0000-0002-3779-935X

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы формирования навыка литературного анализа поэзии на основе теоретических знаний в области анализа художественного текста. Решение задач воздействия на читателя и обучения его пониманию содержания произведения искали через поэтические произведения. Умение опираться на теоретические знания при планировании формируется путем разделения литературных и теоретических понятий на классы исходя из требований учебного анализа, с учетом возраста, склада ума, уровня знаний и эмоциональных способностей учащихся, разработки системы заданий.*

Ключевые слова. *Художественный текст, выразительное чтение, поэтическое произведение, литературоведение, литературно-эстетический анализ, жанровая характеристика каждого произведения, характер героев, поэтическое искусство, Искусство диагностики, искусство преувеличения, рифма и ритм, анализ лирических произведений.*

IN THE ANALYSIS OF A LITERARY TEXT YOU NEED TO RELY ON THEORETICAL KNOWLEDGE

Umida Marasulova – Vice-Rector for Science and Innovation of Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, u.marasulova@mail.ru, +998901264010
https://orcid.org/0000-0002-3779-935X

Annotation. *The article discusses the issues of developing the skill of literary analysis of poetry based on theoretical knowledge in the field of analysis of literary text. The solution to the problems of influencing the reader and teaching him to understand the content of the work was sought through poetic works. The ability to rely on theoretical knowledge when planning is formed by dividing literary and theoretical concepts into classes based on the requirements of educational analysis, taking into account the age, mindset, level of knowledge and emotional abilities of students, and developing a system of tasks.*

Keywords. *Literary text, expressive reading, poetic work, literary criticism, literary-aesthetic analysis, genre characteristics of each work, character of the characters, poetic art, The art of diagnosis, the art of exaggeration, rhyme and rhythm, analysis of lyrical works.*

Kirish. She'riyat inson baxti, quvonchu shodliklari, g'am g'ussasi, qalb iztiroblari bilan chambarchas bog'liq. Aniqrog'i, she'rda ana shunday insoniy kechinmalar badiiy ifodalanadi. She'riy asarlarni o'qigan kitobxon bevosita lirik

qahramon tuyg‘ularini, “qalb harakatlari”ni his qiladi, o‘qiganlaridan ta’sirlanib, hayajon-u, zavq-shavqni kechiradi. Ammo hamisha ham shunday holat yuz beradimi? O‘quvchilar san’atkor ijodkorlar asarlarini, to‘g‘rirog‘i, badiiy asarlar matnini doimo chuqur tushunib satr qatiga singdirilgan poetik ma’nolarni anglab o‘qiydilarmi yoki bu holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, hissiz, mexanik o‘qish orqali yuz beradimi? Afsuski, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Poetik ohangni his qilmaslik, matndagi so‘zlar ma’nosini to‘la tushunib yetmaslik natijasida she’r o‘qish yoki yodlash zerikarli mashg‘ulotga aylanadi. O‘quvchilar asardagi obrazlilik mag‘zini chaqolmasliklari tufayli she’r yodlashga bo‘yinlari yor bermaydi. Maktabgacha ta’lim jarayonida she’r yodlashga bola o‘rgatilsa-da, umumta’lim tizimini tugatayotgan ko‘plab o‘quvchilar hatto bitta she’rni yurakdan berilib, to‘la holda yoddan aytib berolmasliklari tashvishlanarli hol. Chunki buning uchun o‘quvchigina emas, ko‘proq o‘qituvchi aybdor. O‘quv dasturida yod olishga tavsiya qilingan, sinfda o‘qib-o‘rganish ko‘zda tutilgan she’rlarning hammasini o‘quvchilarning tushunmasligi mumkin emas. Demak, adabiyot o‘qituvchilari bolalarni adabiyot, jumladan, she’riyat bilan chuqur tanishtirish metod va usullari haqida jiddiy bosh qotirishlari lozim. Avvalo lirik asarlar tahliliga oid nazariy bilimlarni o‘qituvchilarning o‘zlari chuqur egallagan bo‘lishlari, so‘ngra o‘quvchiga yetkazish usullari haqida o‘ylashlari lozim. Bu muammoni hal etish uchun:

1. O‘quvchini asarni ifodali o‘qishga o‘rgatish lozim.

O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishadi. O‘qituvchining namunali ifodali o‘qishi orqali shu mazmunni qisman his qildirishga erishishi juda muhim. Chunki keyingi bosqichda, ya’ni tahlil paytida uning badiiyatiga murojaat qilinadi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tag-zaminidagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi. O‘qituvchi adabiy tahlil darslarini tashkil etganda muayyan asarni o‘qib o‘rganishnigina maqsad qilib qo‘ymaydi, balki adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, ruhshunoslik, didaktika, san’at, falsafa kabi sohalarning badiiy ijodga bog‘liq qonuniyatlariga va muayyan nazariy bilimlarga tayanib ish yuritadi.

2. O‘qituvchi asarni tahlil qilishga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida shakllantirish ko‘zda tutilgan nazariy tushunchalar mazmuni, maqsad va vazifalarini belgilashga erishmog‘i lozim.

3. Ishni ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘quvchilarning yoshi, ruhiyati, bilim darajasi, his qilish qobiliyatiga e’tibor bergan holda, o‘quv tahlili talablari asosida darslar bo‘yicha taqsimlab, topshiriqlar tizimini ishlab chiqqan holda rejalashtirish.

4. Tahlil usullarini va nazariy bilim berish yo‘llarini, o‘quvchilar egallaydigan nazariy bilim va malakalar me’yorini oldindan aniq loyihalashtirish.

Adabiy-estetik tahlil har bir asarning janr xususiyatlarini o‘rganishga bog‘lab, o‘quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko‘ra tashkil etilsagina samara beradi. Masalan, topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina tushunarli bo‘ladi. Yoki kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiga,

sarguzashtlarga ishqiboz bo‘lsa, katta yoshlilar qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar.

Asar voqealari asosidagi bunday mufassal tahlil o‘quvchilarni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan xarakterga, voqea-hodisalar tasviridan ma’noga tomon yetaklashga xizmat qiladi.

O‘quvchilar ko‘proq qahramonlarning xarakter mantiqi, o‘zaro va davr bilan bog‘liq ziddiyatlari, kechmish-kechirmishlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishga qiziqadilar. Qahramonlar ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli o‘quvchilar hayotning nurli va qorong‘u jihatlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boradilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg‘ulari shu tariqa shakllana boradi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zamiridagi nafosat, yozuvchi ilgari surgan fikr asarning janriy xususiyatlari asosida o‘rganilgandagina, chuqur his qilinishi va o‘zlashtirilishi mumkin. Masalan, she’riy asarlar tahlili lirikaning adabiy tur sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib olib borilganda samarali bo‘lishi qayta-qayta sinovlardan o‘tib, o‘z tasdig‘ini topgan. Lirik asarlarning boshqa turdagi asarlardan farqi shundaki, undagi har bir so‘z va hatto tovush, qaynoq hissiyot ma’noni quyuqlashtirishga qaratiladi, ta’bir joiz bo‘lsa, shoir fikrini hikmat darajasiga ko‘tarish vazifasiga bo‘ysundiriladi. She’r kundalik hayotdagi hammamizga tanish oddiy voqea-hodisalarning shunchaki ifodasi bo‘lmay, balki favqulotda holat, jo‘shqin hissiyot natijasi va hayajonli tafakkur mahsulidir. Uni fikrlar qaymog‘i bo‘lishiga ko‘ra hikmatga-falsafiy asarga, ko‘ngilga yo‘l topishi jihatidan musiqaga–lirik asarga o‘xshatish mumkin.

Lirik asar ko‘pincha shoirning tarjimai holiga aloqador arzi hol, lahzalik ko‘ngil izhori sifatida tasavvur uyg‘otgani uchun muallif hayajoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, hech qanday vositasiz yolg‘iz uning o‘zigagina dahldordek qabul qilinadi. Aslida she’r umuminsoniy hissiyot va hayajon ifodasidir. Shuning uchun u shoirning o‘zinigina emas, kitobxonni ham befarq qoldirmaydi.

She’riy matn tahlilini marom, hijo, turoq, vazn, qofiya va band haqidagi nazariy tushunchalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quv dasturida bu masalaga e’tibor qaratilib, 10-sinfda barmoq vazni haqida tushuncha berish ko‘zda tutilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yaxshi bilamizki, barmoq she’r sistemasining aruz sistemasidan farqi shundaki, u she’r misralaridagi bo‘g‘inlar miqdoriga va turoqlar miqdori va tartibiga qat’iy amal qiladi. Barmoqda yozilgan she’r misralaridagi bo‘g‘inlar miqdori bir xil (sodda) yoki turli xil (qorishiq) bo‘lishi mumkin. Turoqlar tartibi va miqdori ham shunga ko‘ra sodda yo murakkab bo‘ladi. Shu usulda yaratilgan she’r misralaridagi bo‘g‘inlarning sonini barmoqlarni bukib sanash yo‘li bilan aniqlash mumkin. Shunga ko‘ra bu she’r sistemasi – barmoq sistemasi deb yuritiladi.

E.Vohidovning mashhur “O‘zbegim” qasidasini yangi o‘quv dasturiga binoan 5-sinfda o‘rganish rejalashtirilgan. O‘quvchilarga qasida haqida tushuncha berishdan

avval she'r vazniga ular diqqatini tortish o'rinli bo'ladi, deb o'ylaymiz. She'r misralaridagi bo'g'inlar turoqlarga bo'linishi yozuv taxtasida quyidagicha ko'rsatiladi:

Ta-ri-xing-dir ming asr-lar
Ich-ra pin-hon o'z-be-gim
Sen-ga teng-dosh Po-mi-ru
Oq-soch Ti-yon-shon o'z-be-gim

a) birorta so'z ikki turoqqa bo'linmagan;
b) bo'g'inlar teng turoqlarga uyushgan; (4+3=7 bo'g'indan)
v) har bir turoqdan so'ng nutqning tinishi (pauza) yuz beradi.

Shu tartibda she'r misralaridagi turoqlarning uyushuvi–birikishdan vazn paydo bo'lishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Bir turkumda yozilgan she'rdagi bo'g'inlar miqdori barcha misralarda teng bo'lsa, ikki turkumda yozilgan she'rda bir misradagi bo'g'inlar soni bir xil va boshqa misralardagi bo'g'inlar soni boshqa xil bo'ladi. Ular muayyan ohang orqali tartibli tarzda takrorlanib turadi. Cho'lponning "Binafsha" she'rining 1-bandi 11+9..., 2-bandi 12+9+12+9; 3-bandi 3+3+6+9..., 4-bandi 12+9+12+9; 5-bandi 11+8+11+8... tartibda yozilgan. Bu murakkab vazn namunasi.

Adabiyotshunos olim T.Boboyev "She'r ilmi ta'limi" nomli metodik qo'llanmasida (3, 24-35) bo'g'insiz she'r misralarini tasavvur qilib bo'lmasligini, she'rning qalbi bo'lmish musiqiylik va ritmni vujudga keltirishda eng faol ishtirok etuvchi unsur–bo'g'in ekanini ta'kidlab: "Barmoq tizimida bo'g'inlar turoqlarni, turoqlar turkumni, turkum vaznni, vazn ritmni, ritm musiqiylikni, musiqiylik poetik g'oyani vujudga keltiradi. She'r unsurlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, bir-biri bilan mustahkam aloqaga kirishgandagina o'z vazifasini o'tay oladi" – deb yozganlarki, olimning bu kabi metodik tavsiyalaridan adabiyot o'qituvchilari nazariy tushuncha berishda amaliy foydalansalar bo'ladi.

Bilamizki, barmoq tizimida bo'g'inlarning muayyan guruhlarga ajratilishi natijasida ritmik bo'lak – turoq hosil bo'ladi. O'z vazifasiga ko'ra barmoqdagi turoq aruzdagi ruknga yaqin turadi. Agar misradagi bo'g'inlarning guruhlanishidan turoqlar paydo bo'lsa, misra yo baytda turoqlarning miqdori va uyushuv tartibidan turkum yaratiladi. Barmoq vaznidagi she'r turoqlari bo'g'inlarning miqdoriga, aruzdagi she'r ruknlari esa hijolarning ham miqdoriga, ham sifatiga qarab farqlanadi. Xo'sh, qasida janri va "O'zbegim" qasidasining janr xususiyati bilan chambarchas bog'lanuvchi bu kabi vazn xususiyatlarini 5-sinf o'quvchisi tushuna oladimi? Afsuski, o'quv dasturini tuzishda masalaning bu tomoniga yetarli e'tibor berilmaganga o'xshaydi.

O'quvchilar she'riyatning nazariy qonun-qoidalari bilan ko'p hollarda yuzaki tanishtirilishi tufayli tahlilda hamisha oqsaydilar. Eng achinarlisi, bu hol hatto oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar faoliyatida ham ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, she'r "Ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq" (5) hisoblanadi. Lekin she'riy nutq ham muomala tili va muomala qonuniyatlariga bo'ysunadi. Nasriy nutqning ham o'z tabiatidan kelib chiqadigan, amal qilinishi lozim bo'lgan qo'shimcha qonuniyatlari borki, o'qituvchi tahlil jarayonida bunga ko'z yummasligi kerak. Bu holatni bartaraf etish uchun o'qituvchi bolalarni adabiyot, jumladan, she'riyat bilan chuqur tanishtirish metodlarini izlashi lozim. Bola she'riyatning inson baxti, quvonch-u shodliklari, g'am-

g‘ussasi, qalb iztiroblari bilan chambarchas bog‘liqligi, shu xildagi kechinmalarning badiiy ifodasi ekanligini tushunib yetgandagina so‘z san’atining bu turiga nisbatan faol munosabatda bo‘ladi. Aks holda o‘quvchida she’riyatga nisbatan loqaydlik tug‘iladi va bu narsa uning nafaqat so‘z san’ati, balki go‘zallik haqidagi umumiy tushunchalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zining baxti ham, baxtsizligi ham umuminsonga xosligini anglab yetgan kishigina yirik harflar bilan yoziladigan Shaxs darajasiga ko‘tariladi.

6-sinf uchun o‘quv dasturida Zulfiyaning “Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda”, “Nevara” she’rlarini o‘rganish uchun 3 soat ajratilganligi ko‘rsatilgan. Ushbu she’rlarni o‘rganish orqali ularning badiiy jozibasini o‘quvchiga his qildirish vositasida muallif ruhiy olamini anglashga yo‘llash bosh ta’limiy maqsadni tashkil etadi. Shoira she’rlarida hayotdan zavq tuyish hissi o‘ziga xos shaklda ifodalanganligini bevosita tahlil orqali yoritib berish mumkin.

“Nevara” she’rini ifodali o‘qib berish orqali o‘quvchi shoiraning tuyg‘ular olamiga olib kiriladi. Xonaga quyunday otilib kirgan nevaraning sho‘x-shodon harakatlari, o‘t chaqnayotganday otilib, yelib-yugurib hislarini boshqara olmayotganligidan zavq tuygan ona – shoira kechinmalari she’rda g‘oyat ta’sirchan ifodalangan. Bu tuyg‘ular:

“Ayrilib qog‘ozdan, she’rdan va hushdan
Boqaman varrakboz insonga baxtiyor”

misralariga singishgan. Nevaraning qiyofasini gavdalantirishda shoira qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalangan?

“Naq bobosi siyoh zihinday tiyrak,
Ko‘kish alangada yonar sochu qosh.
Borlig‘i ezgu bir o‘t bo‘lsa kerak,
Tomirlarda qonmas, kezadi quyosh”

misralariga jo bo‘lgan ma’nolarni qanday izohlaysiz? Tiyrak – kerak; qosh–quyosh so‘zlari qanday vazifani bajargan? She’rga xos ichki ohangni his qildingizmi? Bu ohang shoira kechinmalariga mos yoqimli musiqa ohangini eslatadi – a? Ana shu ohangni yaratishda ishtirok etgan she’r unsurlari - shakl komponentlariga nimalar kiradi? Bu savollarga javob berish uchun she’rni turoqlarga ajratamiz:

Ne - va - ram qu - yun - day o - ti - lib ki - rib (11 bo‘g‘in)
Qa - la - mim ta - gi - dan qo - g‘oz - ni yu - lar (11 bo‘g‘in)
Dam - da var - rak ya - sab ko‘k - ka u - chi - rib, (11 bo‘g‘in)
I - zi - dan qop - qo - ra ko‘z - la - ri yu - rar (11 bo‘g‘in)

Ko‘rinadiki, she’r misralarining muayyan tartibdagi bo‘g‘inlar uyushuvidan (har misrada 11 bo‘g‘in) turoq tartibidan uning ichki ohangi yuzaga kelgan. Bu ohang va qofiyadagi so‘zlar vositasida shoira she’r misralarining ta’sirchanligini yuzaga keltirib, salmoqli poetik ma’nolarni ifoda etmoqda: avlodlar timsolida shu avlod qonida jo‘sh urgan ezgu hislarning umriboqiyligini anglash mumkin. Bobosiga o‘xshab ketadigan (Naq bobosi siyoh zihinday tiyrak, ko‘kish alangada yonar sochu qosh ...) bolakay – nevara shoiraga uning iqbolini namoyon etganday tuyuladi. Avlodlar timsolida shoira bu hayotga kelib “kashf etilgan” baxtdan zavqlanmoqda.

"Tiniq zangori fazo" tubiga intilayotganday sho'ng'ib uchayotgan varrak timsoli bolaning beg'ubor orzu-tilaklarini ifoda etmoqda. Ezgu tilaklarning bepoyon osmon qadar yuksalishi esa ezgulikning buyukligidan darak beradi.

Shu murg'ak qalb, shu pokiza, beg'ubor va jajji vujudda nish urgan ezgu tuyg'ular hayotning ranginligini, ezgulik yaratish va undan zavqlanish hissi avlodlardan avlodlarga o'tuvchi bebaho tuyg'u ekanligini yana bir karra ayon etayotir. Shoira ana shu hayot haqiqatini anglab, "qog'ozdan, she'rdan va hushdan ayrilganligini" e'tirof etmoqda. "Bog'lar qiyg'os gulda" she'riga xos poetik fikr ham rang-barang ma'nolarni ifoda etadi. Qiyg'os gullagan bog'ni shoira yaxlit bir chamanga o'xshatmoqda:

"Har daraxt anvoi bir tarovatda,
Bir kaft bog' mehnatu hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda ..."

Manzara tasviriga o'quvchilar diqqatini tortib, quyidagicha tahlilga yo'naltiruvchi savollar berish mumkin:

1. Qiyg'os gullagan bog' timsolida shoira nimalarni tasavvur etgan?
2. "Har daraxt bargi bir dunyo hikoya" misrasiga jo etilgan ma'nolarni izohlay olasizmi?
3. "Har bir daraxt hosili o'zgasi uchun ko'rk, qudrat, himoya" ekanini ta'kidlash orqali shoira qanday poetik fikrni ifoda etmoqda?
4. Shoiraning o'z Vataniga mehr-muhabbati ta'sirchan ifodasini topgan misralarni o'qib, ma'nosini tushuntirib bering. "Vatanim ko'zimda" mubolag'ali ifodami yoki poetik ko'chimmi?
5. Qiyg'os gullagan bog' bilan Vatan timsollari qaysi jihatlari bilan umumlashma ma'noga ega?

Har bir savolga javob berish chog'ida o'quvchining mustaqil fikrlashiga imkon berish, aytilgan fikrlarni boshqa o'quvchilar to'ldirishi, muayyan nazariy tushunchalarni esa o'qituvchi matn tahliliga bog'lab tushuntirib o'tishi lozim.

O'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari yakunlangach, Zulfiyaning tahlil qilingan asari misolida lirik she'riyatga xos xususiyatlar haqida yakuniy xulosani bayon etish joiz:

Tadqiqot metodologiyasi. Siz bilib oldingizki, lirik asarlar orqali kitobxon – o'quvchi tuyg'ulariga, hissiyotlariga ta'sir ko'rsatiladi. Lirik qahramon timsoliga ko'chgan muallif kechinmalari she'rxonning ham ruhiyatiga ko'chib, uning kechinmalariga aylanib ketar ekan. Shu tariqa, lirik asarlar bizni o'zga insonlarni his qilishga, ularni qalbini, hayajonu iztiroblarini tushunishga o'rgatar ekan. Natijada, boshqalarga hamdard, hamfikr, tuyg'udosh insonga aylanib borar ekanmiz. Bu – badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanidan dalolat beradi. Badiiy ijod namunalari esa inson ma'naviyati, dunyoqarashi va ruhiyatini boyituvchi qudratli vositadir. Shuning uchun kitobxonlik darajasi yuksak bo'lgan o'quvchilarning estetik didi ham yuqori bo'ladi, mustaqil ijodiy fikrlash salohiyatlari ham boshqalardan ustunlik qiladi. Zero, ijodiy fikr kishisi u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, hamisha yaratish, kashf etish istagi bilan yashaydi, jamiyatimizning eng faol, yaratuvchi shaxslari qatorida e'zozlanadi.

6-sinfda Zulfiya ijodini o‘rganish jarayonida ana shu ta’limiy va tarbiyaviy maqsad boshqa usullarga tayanib amalga oshirilishi mumkin. O‘qituvchi “Shoiraning hayoti va ijodi haqida” nomli adabiy-badiiy albomdan foydalanib, o‘quvchilarga ma’lumotlar berishi mumkin. Darslikda berilgan she’rlarni o‘qib o‘rganish hamda tahlil qilishdan oldin quyidagi mulohazalar orqali ijodkor uslubining o‘ziga xosligi haqida muayyan tushuncha berish o‘rinli bo‘ladi.

She’riyat qanday olam? Ayrim shoirlar she’r yurakni larzaga solgan hislardan dunyoga keladi deb hisoblasalar, ba’zi ijodkorlar she’r – qalb iztiroblari-yu dardlarini, armonu quvonchlarini badiiy bo‘yoqlarda tasvirlash, deb ta’rif beradilar. Siz-chi, siz she’riyatga qanday ta’rif bergan bo‘lardingiz? Ha, juda to‘g‘ri, she’riyat insonning fikr o‘ylarini, his-tuyg‘ulari, olam go‘zalliklariga munosabatini badiiy tarzda yaratadi, ko‘z o‘ngimizda badiiy so‘z orqali jonlantiradi.

Shoira Zulfiyaning qator lirik she’rlarini o‘qir ekanmiz xilma-xil kechinmalarni qalbdan his etamiz, chunki bu she’rlarda fikr va tuyg‘u harakati jo‘shqin, his hayajon salmog‘i yuksak. Shu sababli mayin musiqiylikka uyg‘un ruhiyat manzralarini qalb ko‘zimiz orqali ko‘rganday bo‘lamiz. Nafis bo‘yoqlarda berilgan tabiat chizgilarida oq, nim pushti ranglar yetakchilik qiladi. Tabiat tasviriga uyg‘un insoniy kechinmalarni kechirayotgan lirik qahramon ko‘z o‘ngimizda jonladi, uning qalbi iliqlikka to‘la, go‘zallikka tashna ekanini his qilamiz.

Shoiraning Hamid Olimjon xotirasiga bag‘ishlab yozgan she’rlari ayniqsa hayajonli, dardchan. Tabiat tasviriga singdirilgan mayin ohanglar oq bo‘yoqlarda tasvirlanadi; insoniy dardga yo‘g‘rilgan faryod nolalari, dardu alam, armonu iztirob tuyg‘ulari asta-sekin sarg‘ish ranglar yoki to‘q ranglarga ko‘chadi. Lirik qahramon qo‘lidagi dasta gul, yorug‘likni to‘sib kelgan qora bulut, ayol iztiroblariga chidolmasdan duv yosh to‘kkan osmon, oq bulutlar-bari ramziy ma’nolarni tashiydi.

“Biz yig‘ladik tepangda shu kun
Keldingmi deb ko‘tarmading bosh”
misralari lirik kechinma yakunini tashkil etadi.

Demak, Zulfiya she’rlarida hayotning murakkab sinovlaridan o‘tib borayotgan inson qiyofasi, uning o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ulari, dardu iztiroblari tasvirlanadi va kitobxonni ayol, ona, yor qalbining mushtarak tuyg‘ulari zamiridagi ma’nolarni anglashga undaydi. O‘qituvchi darslikdagi Zulfiya hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarning ma’lum qismini o‘qib berishi, shoiraga zamondosh ijodkorlardan Mirtemir, Abdulla Qahhorning fikrlarini eslatishi, darsda bayon etilgan fikrlarga tayanib, ijodkor qiyofasini o‘quvchilar ko‘z o‘ngida to‘la jonlantirishga erishishi mumkin. Shoiraning yozuv taxtasiga ilingan portretiga qarab unga xos sifatlarni payqash mumkinmi? Shoira nigohiga cho‘mgan horg‘inlik qanday ma’nolarni ifoda etadi? O‘quvchilarning savollarga bergan javoblari tinglangach, “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rini o‘qib berish mumkin. She’r tahlili davomida esa muammoli savollar yechiladi. She’rning birinchi bandidagi bahor tasviri olamning go‘zalikka burkanganidan darak beradi. Ko‘z o‘ngimda baxmal vodiylar, qirlarning bahoriy qiyofasi jonlanadi. Ammo bahor shaydosi, shoiraning sevimli yori qani? Uni mayin shabada ham tinmay izlamoqda, topolmagach, boshini tog‘larga urib, soylarga qulatdi toshlarni.

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za’far yotog‘imga yonoq
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

E’tibor bering: shabboda rango-rang jilolarga yo‘g‘rilgan holda xonaga kirdi. Ammo yonog‘ida hijron dardidan to‘kilgan yoshlar va za’faron yonoq ranglariga singishib, sarg‘imtir tusga kirdi. Bu ko‘z yoshlari oddiy emas, balki ayol qalbining iztiroblarini anglatuvchi, achchiq qismat nolalariga aylangan, kuydirguvchi ko‘z yoshlardir.

Go‘yo shamolning etagidan tutib, yelday uchib, yorining qabri tomon ketayotgan shoira uning hayotdan ko‘z yumganiga ishongisi kelmaydi. Qabr toshiga boqib, achchiq haqiqat oldida bosh eggan shoira holati shabbodaning aftoda kezishiga, beqaror yelishiga qiyoslanadi. Lirik qahramon ko‘z yoshlari bilan vujudini chok-chok etib yig‘lagan bo‘lsa, shabboda har tarafga bosh urib, “gullar g‘unchasini etdi chok-chok”. Natijada Shoira holati, uning iztiroblari bahor holatiga ko‘chadi, go‘yo osmon ham, daraxtlar, gullar, sayroqi qushlar ham lirik qahramon holatiga mutanosib g‘amnok, dardchan holatni ifodalovchi to‘q ranglarga burkanadi, yosh to‘kadi.

O‘qituvchi she’r misralarida qo‘llangan o‘xshatishlar, murojaat usuli, jonlantirish (“Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni...”), o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlarda berilgan tasvirlar, holatlar tasvirini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib darslikdagi savol va topshiriqlar ustidagi amaliy ishni yakunlaydi.

Demak, shoirning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini aks ettiradigan badiiy asarlar lirik asarlar deyiladi. Badiiy ifodani his-hayajonlarga yo‘g‘irishda lirika so‘zga, she’riy shakllarga tayanadi. Tashbeh (o‘xshatish), tajnis (omonim so‘zlardan foydalanish), tashxis (jonlantirish) ana shunday she’riy san’at turlari sifatida shoirga shaxs, predmet, hodisaning o‘ziga, insonlarga xos xususiyatlarini ochishda, uni biror narsaga qiyoslashda, predmetlarga ko‘chirib, jonlantirib tasvirlash, yoxud so‘zlarning ma’no tovlanishlari vositasida yangi-yangi poetik ifodalar va tasvir qirralarini yaratishda keng imkoniyatlar beradi. Shoir tunni qorong‘ulikka, oyni yorqinlikka, gul bargidagi shudring tomchisini ko‘z yoshiga, yashillikni navqironlikka o‘xshatib, jonlantirib, jozibali va ta’sirchan misralar yaratadi.

7-sinf uchun o‘quv dasturida Cho‘lponning “Go‘zal”, “Ko‘ngil”, “Xalq” she’rlarini o‘rganish davomida she’riy san’atlar to‘g‘risida 5-6-sinfda o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanib tahlil qilish va ko‘chim haqida nazariy tushuncha berish mumkin. Avvalo, “Binafsha” she’rini ifodali o‘qib, e’tibor asar sarlavhasiga qaratiladi. Binafsha timsolida siz nimalarni tasavvur etasiz? Ha, binafsha yangilanish, uyg‘onish fasli bahorning ilk chechagi, demak, u bahor ramzi. Xo‘sh, she’rning nomlanishi sababini izohlay olasizmi? Binafsha obrazi qanday majoziy ma’noga ega? She’rda binafsha obraziga lirik qahramon munosabatini yorqin ifodalashda bir qator she’riy san’at turlaridan foydalanilgan. Ritorik murojaat (so‘roq) ana shunday usullardan biri sifatida lirik qahramon kechirayotgan azobli kechinmalarni his qilishimizga, shoir ruhiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?

Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho‘zilding?
Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir ularkim,
Ignani bag‘ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so‘yla,
U qanday qo‘llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar?.. (6, 202)

Diqqat qilinsa, she’rdan olingan deyarli barcha parchaning misralarida jonlantirish (uzilding, kulmasdan, egilding, sochilding, so‘yla...) usulidan unumli foydalanilgan. Natijada, shoir o‘z holati bilan binafshaga xos sifatlarni qiyoslab, o‘xshash nuqtalarni bo‘rttirib, jonlantirib tasvirlash vositasida lirik qahramon bilan binafsha obrazining muayyan uyg‘un ma’nolariga ega xususiyat, holat, belgi-sifatlariga kitobxon e’tiborini qaratmoqda. O‘z kechinmalarini ana shu o‘xshashlikka asoslanib, tasvir obyektiga ko‘chirishga erishgan. She’rda shoirning nazari bahoriy chechakka qaratilganmi yoki xo‘rlangan, toptalgan yurtgami? Agar she’r misralaridagi so‘zlar ma’nosining ko‘chishiga diqqatni qaratsak, o‘xshash holat kechinma ko‘chirilgan predmet binafsha timsoli shoir ruhiyatini to‘la holda ichdan yoritishga yo‘naltirilgan. Bu o‘rinda yana bir tasviriy vosita – ko‘chim so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihati bilan o‘xshash boshqa narsalarga ko‘chirish san’ati ekanini tushunib olamiz. Ko‘chimning ko‘p ishlatiladigan ko‘rinishlaridan biri istioradir. Cho‘lponning “Binafsha”, she’ridagi “Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri” misrasidagi “ko‘kragim” so‘zi Vatan, “erk yeri” esa ozod yurt ma’nolarini ifoda qilayotir.

Anglashildiki, adabiy-nazariy bilimlarni bevosita badiiy asarlar tahlili jarayonida bayon qilish, adabiy tahlil orqali asarning badiiy xususiyatlarini yoritish natijasidagina badiiy ijod san’at turlaridan biri ekanini o‘quvchiga his qildirish mumkin.

5-7-sinflarda ana shunday so‘z san’atkorlaridan yana biri Usmon Nosir ijodidan ham namunalar o‘rganiladi. 5-sinf uchun o‘quv dasturida berilgan “Yur, tog‘larga chiqaylik”, “Yo‘lchi”, “Bolaligimga”, “Yoshlik” kabi she’rlarini ham bevosita matn tahlili davomida she’riy san’atlarni qo‘llashdagi ijodkor mahoratini yoritish orqali o‘rganish mumkin. “Tor kelgan ko‘ngil”, “Ko‘zga berkitilgan oy”, “Charchagan til” singari obrazli ifodalar, poetik kechinmalarga o‘quvchilar e’tiborini qaratib, ularning badiiy vazifalarini she’r matniga tayangan holda yoritish va mustahkamlovchi savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil tahlilga yo‘llash mumkin.

Tashxis san’ati – jonlantirish usulidir. Shoir jonsiz tabiatga go‘yo til va dil bag‘ishlaydi, insonga xos xususiyatlarni narsalarga ko‘chiradi, natijada ta’sirchanlikka erishadi. Masalan, suvlar yig‘lagan kabi “Buzilgan o‘lkaga” (Cho‘lpon), “Ko‘k bilan so‘zlashar ko‘chalar” (I.Otamurodov), “Ko‘zimga yiqildi qop-qora bulut” (U.Azimov), “Oy sekin orqadan yurar izma-iz” (Oybek).

Mubolag‘a. Shoir goho tasvirda ta’sirchanlikni yanada oshirish uchun kuchaytirib yoki kamaytirib ko‘rsatish usulini qo‘llaydi. Bunga mubolag‘a deyiladi. Bulutning ko‘zga yiqilmog‘i, bulbulning yig‘lashi, gulning uyalib yaproqlar ostida berkinishi, oyning sekin yurishi mubolag‘ali tasvirga misol bo‘ladi. Shu o‘rinda shoirning “Yo‘lchi” she’rini tahlil qilish va vositasida she’riy (poetik) tafakkur haqida nazariy tushuncha berish usullariga diqqatni tortamiz.

Yo‘lchiman, manzilim dengizdan nari,
Lojuvard ufqning tubiga yaqin.
Ko‘nglimda dardlarim daryodek oqin
Chayqalar, ko‘zlarim tikilgan sari
O, yo‘llar! ... (7, 66)

She’rning ilk misralarini ifodali o‘qish chog‘idayoq o‘quvchi ko‘z oldida “Yo‘lchi” obrazi gavdalanadi. Binobarin, Usmon Nosir yaratgan rang-barang obrazlar ichida “Yo‘lchi” shoir qiyofasini to‘la holda yorituvchi, uning o‘zigagina xos qalb kechinmalarini ifoda qiluvchi jonli va ta’sirchan obraz hisoblanadi. Xo‘sh, “Yo‘lchi” kim va uning mashaqqatli hayot yo‘lini bosib o‘tishdan murodu maqsadi nima? Biz hozirgina o‘qib, ta’sirlangan she’r misralarida Yo‘lchi o‘z manzilining nihoyatda olis, “lojuvard ufqning tubiga yaqin” ekanligini so‘zlamoqda. Ko‘nglidagi dardlari “daryodek oqin” Yo‘lchi o‘z manzilining nihoyasini ko‘rmoq istagida ko‘zda yosh bilan yo‘llarga tikilayotganligini, yo‘llarning esa oxiri yo‘qligini his qilamiz.

Chu qora toychog‘im! Chu, qora yo‘rg‘am!
Murodga qasd qilib yugurgan yetur.
Bo‘ronni sevmasa, dil nechun tepur?
Tiriklik ne kerak, bemaqsad, beg‘am?
Chu, qora yo‘rg‘am? (7, 66)

Ushbu misralar orqali biz ezgu maqsad ila hayot sinovlariga dosh berishga qodir, yuksak e’tiqod uchun kurashga bel bog‘lagan, beg‘am, bemaqsad yashashdan ko‘ra o‘limni afzal biluvchi irodali, maqsadli, kurashchan insonni – Yo‘lchini tasavvur qilamiz. U barchamizni yonib yashashga, ezgu tilaklar uchun kurashga chorlayotganligini anglaymiz. Demak, Yo‘lchi obrazi orqali shoirning imon e’tiqodi mohiyatini bilib olamiz. She’riy tafakkur shoir ifoda qilayotgan g‘oya mazmuni bilan imon-e’tiqodi mohiyatining she’riy shakldagi ifodasidir. Zero, she’rda tilga olingan “Qora toychoq” qanday ma’nolarni ifoda qiladi? Nima uchun shoir Yo‘lchi bilan mashaqqatli hayot yo‘lida hamkor, hamdard, vafodor toychoqqa nisbatan “Qora” rangni qo‘llagan?

Gap shundaki, Yo‘lchining hamrohi toychoq ham u bilan birga barcha hayot sinovlariga dosh bermoqda, olis yo‘llarni bosib o‘tmoqda. Xalq ichida og‘ir mashaqqatlardan ruhan ezilgan odamlarga nisbatan u cho‘ng temirday qorayib ketibdi” degan o‘xshatish qo‘llaniladi. Bu o‘rinda shoir Yo‘lchining boshidan kechgan musibatlar, g‘am-alamlar, ruhiy iztiroblarni u bilan hamkor “toychoq”ning “qora” rangiga ishora qilish orqali ifoda etmoqda-ki, o‘rinli ishlatilgan o‘xshatish, jonlashtirish, badiiy rang-ramz obraz qiyofasini, ruhiyatini anglash imkonini bergan. “Chu, qora yo‘rg‘am!” misrasining takror qo‘llanishi vositasida bu ma’nolar miqyosi yanada kengaygan: hayotning og‘ir sinovlariga faqat buyuk maqsad uchun yashab,

ezgu tilaklar uchun kurasha oladigan, alohida qat'iy, irodali, mard insonlargina dosh bera oladilar! Yo'lchining ana shunday matonatli inson obrazi ekanligini har safar o'zi tanlagan yo'lga olg'a intilishidan, "Chu qora yo'rg'am!" – deya xitob qilishdan bilish mumkin.

Xo'sh, she'rda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llangan? "Lojuvard ufq" ni Siz qanday tasavvur qildingiz? Yo'lchi manzilining "Lojuvard ufq tubiga yaqinligi qanday ma'noni anglatadi? Yo'lchi ko'nglidagi dardlarining "Chayqalishi" ni Siz qanday izohlaysiz? She'rdan qofiyadosh so'zlarni toping.

Shoir qanday xalq maqolidan Yo'lchi obrazini badiiy gavdalantirishda foydalangan? "Bo'ronni sevmasa, dil nechun tepur?" – ritorik so'roq usulidan shoir qanday maqsadda foydalangan, deb o'ylaysiz? kabi savol va topshiriqlarni o'quvchilarga tarqatish vositasida she'rni yanada keng tahlil qilish mumkin.

Demak, she'riy asarlar boshqa janrdagi asarlardan muayyan ichki ohangga ega ekanligi bilan ajralib turadi. She'riy nutq oddiy nutqdan ohangdorligi, qat'iy shaklga solinganligi bilan farq qiladi. Ayni paytda, har qanday she'r markazida lirik qahramon timsoli va uning his-tuyg'ulari, hayajonu iztiroblari tasviri orqali muayyan poetik g'oya ifoda qilinadi. She'riy nutq asarga singdirilgan poetik tafakkur tarzini insoniy kechinmalar va tuyg'ular oqimiga moslab, ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solishga xizmat qiladi. Shuning uchun insoniy his-kechinmalar ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq she'riy nutq deyiladi. Shoirlar ritm-zarb va ifodalilikning turli usullaridan keng foydalanadilar. Bulardan asosiylari zarb bilan qofiya hisoblanadi. Ushbu unsurlar she'rni ifodali o'qish chog'ida ta'sirlantirish kuchini hosil qiladilar Har qanday she'r avvalo shoir tuyg'ularining mahsuli sifatida kitobxonda ham ma'lum his-kechinmalarni qo'zg'atadi.

Misralar oxiridagi nari, sari, oqin, yaqin kabi so'zlar o'zaro qofiyalanib, ma'no qirralarining "yarq" etib tovlanishiga, kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatishga xizmat qilgan. Yaxlit holda esa she'riy nutq uslubi g'oya ko'lamiga mos ohangdor zarblar vositasida insoniy dardni, tasvirlanayotgan obrazni ko'z o'ngimizda jonlantiradi, kitobxon qalbiga yuqadi. Xo'sh, zarb nima? Zarb – bu hayotda mavjud hodisa. Deylik, musht tushishi – zarbni hosil qiladi. Zarb bir marta sodir bo'lsa, she'rdagi zarb –ritm takroriylik tufayli yuz beradi. Ohang zarblarining bir tekisda qaytarilishidan she'riy ritm hosil bo'ladi. Natijada, she'riy asarda zarb ayrim so'zlarga, misralarga yoki bandlarga tushadi, shu misra ma'nosini yoyibroq ifodalashga, yoxud alohida zarb bilan ta'kidlashga xizmat qiladi, mantiqan kuchli zarbni hosil qiladi:

– ritmik zarb – ohangning muhim unsuri va u she'riy nutq harakatini ta'minlaydi;

– ritmik zarb, kuchli his-tuyg'u va ko'tarinkilikni she'r vazni va ritmiga muvofiqlashtiruvchi vosita hisoblanadi;

– ritmik zarb vositasida mantiqiy urg'u ifodalanadi, ohangdorlik yuzaga chiqadi. Ritmik zarbni esa qofiya, band, bo'g'in, turoq, vazn singari unsurlar yuzaga keltiradi.

She'rda har qanday obrazlar g'oya va ritm bilan o'zaro yagona yaxlitlikni tashkil etadi va timsolning badiiy obraz sifatida idrok etilishida ramziy-majoziy qirralarining ochilishida ritmik harakat asosiy unsur bo'lib, obraz timsolidagi g'oyaning ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, Usmon Nosir, Zulfiya, Mirtemir, Shavkat Rahmon

singari shoirlar ijodidan namunalar o‘rganish chog‘ida turli xarakterdagi notekis harakatli ritm haqida nazariy tushuncha berish va bunday she’rlarning paydo bo‘lish omillarini aytib o‘tish zarur deb hisoblaymiz:

– ayrim she’riy san’atlar vositasida shoirlar o‘tkir, ziddiyatli, falsafiy ma’nolarni aks ettirishni bosh maqsad qilib belgilaganliklari;

– davr va zamondagi kuchli dramatik holatning she’riyatga olib kirilganligi hamda zamon voqealarining o‘ta keskin, shiddatli, notekis rivojlanish holati she’rga ko‘chirilganligi;

– she’rlarda badiiy “men” kechinmalarning qahramon ruhiy-ma’naviy olamida o‘zgarish yasashga qaratilganligi;

– an’anaviy badiiy obraz-timsollarning kashf etilmagan qirralarining zarblar vositasida ochilganligi sababli;

– bir lirik matnda ma’no va mazmun doirasining turfa jilolantirishga intilish tufayli noteks harakatli ritm o‘zbek she’riyatida yuzaga kelgan. (8)

Qofiya - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, tuzilish degan ma’noni bildiradi. U she’r misralarini bog‘laydigan ohangdosh so‘zlar birikmasi. Qofiya barcha she’r misralarini jipslashtirib, hamohanglikni ta’minlaydi, she’r unsurlarini boshqarishga xizmat qiladi.

She’r misralarida qofiyadan so‘ng aynan takrorlanib keladigan so‘z yo so‘zlar birikmasi radif deyiladi.

Qofiya radifli bo‘lganda radif u bilan mazmunan aloqador bo‘ladi. Radif klassik g‘azal va muxammaslarda keng qo‘llaniladi. Turli misralarda so‘z yoki so‘zlar birikmasining aynan takrorlanishi. Radifdan XX asr o‘zbek she’riyatida Hamza, Cho‘lpon, H.Olimjon, Oybek, Mirtemir singari shoirlar keng foydalanganlar.

Band – she’rning alohida qofiyalanish tartibga ega bo‘lgan ritmik bo‘lagi. Band – qofiya va ohang birikuvidan yuzaga kelib, tugal fikr yo hissiyotni ifodalaydi. Fikr va tuyg‘u banddan bandga ko‘chadi, mantiqan o‘zaro bog‘lanishni hosil qiladi. Demak shoir ritm, vazn, qofiya va bandlar vositasida badiiy fikrni ifoda qiladi. Xo‘sh, biz tahlil qilgan “Yo‘lchi” she’rida ifoda qilingan poetik g‘oyani yoritishda badiiy unsurlar qanday vazifani bajargan? Bu vositalar avvalo she’rning kompozitsion yaxlitligini yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Ayni chog‘da, har bir unsur poetik g‘oyani ta’sirchan ifodalashga, she’rga xos poetik tafakkur tarzini anglashimizga yo‘naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Ana shunday tahlilga yo‘llovchi savollardan so‘ng o‘quvchilar lirik turga mansub asarlarda, xususan, she’rlarda shaxsning ichki tuyg‘ulari, hissiyoti, ruhiy kechinmalari asosiy o‘rinda bo‘lishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Endi o‘quvchining she’rga xos xususiyatlarni o‘rganib, nazariy tushunchalarga tayanib, tabiat lirikasiga mansub asarlarda insonning tabiat go‘zalligi ta’sirida uyg‘ongan hissiyoti ifodasi yetakchilik qilishini tushunib olishlari oson kechadi. Bunday asarlarda tabiat tasviri nechog‘lik keng qamrab olinmasin, u hamisha tasvir markazidagi qahramon (yoki shoir) ruhiyatini ochish vositasi bo‘lib qoladi. Chunki, badiiy ijod talabiga ko‘ra tabiat tasviri vositasida ifodalangan ruhiy holat inson ma’naviyatining yangi bir jihatini namoyon qilgandagina estetik qimmat kasb etadi. Shu jihatdan 7-sinfda Shavkat Rahmonning “Urush suvrati”, “Chaqin bo‘lma”, “Yosh

tog‘lar” she’rlari qatorida “Oy sinig‘i”, “Hamal” she’rlarini ham o‘rganish mumkin. Adabiy tahlil jarayonida esa zarur nazariy tushunchalarni shakllantirishga quyidagi tartibda erishishni loyihalashtirish lozim:

1. Sh.Rahmon ijodi haqida umumiy tushuncha berish.
2. Shoir uslubiga xos xususiyatlarni “Yosh tog‘lar”, “Chaqin bo‘lma”, “Tungi manzara”, “Oy sinig‘i”, she’rlari tahlili jarayonida belgilashga erishish.
3. Tabiat tasviri orqali inson shaxsini tadqiq etishda shoir qanday estetik maqsadni ko‘zlaganligini tahlil orqali yoritish.

O‘quvchilarga shuni alohida uqtirish lozimki, haqiqiy iste’dod egasi tabiat tasviri orqali inson shaxsini badiiy tadqiq etadi. Shuning uchun ham suvloqda chanqog‘i qondirilgan “otlar”, sevinchdan yig‘layotgan qiyoqlar, ovozini qayrayotgan chigirtka va bosh ko‘tarmay mehnat qilayotgani bilan dunyoni masxaralayotganday tasavvur uyg‘otuvchi chumoli timsollari aslida insonning tushuntirib berish qiyin bo‘lgan holatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi manzaralarini tasvirlash vositalaridir. Tabiatning sirli-sehrli, g‘oyat go‘zal ko‘rinishlarini jonlantirish orqali shoirlar inson dunyosining ham sirli ko‘rinishlarini, holatlarini yoritish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bois, tabiat lirikasiga taalluqli asarlar o‘zbek adabiyotida ham juda ko‘p. Adabiyot darsligida berilgan Shavkat Rahmonning qator she’rlaridan “Hamal” ga diqqatni qarataylik. Avval matnni ifodali o‘qib chiqing, so‘ng: “Erib bitdi poyonsiz qorlar, yana ko‘hna zamin gulladi” tashbehini izohlashga harakat qiling. “Oq bulutlar yerga qo‘ndimi, mo‘jizalar bo‘ldimi sodir?” savoliga javob bering. Qorning oqligi ketib, o‘rniga kelgan ikkinchi bir oqlikning ma’nosi nima ekani haqida mulohaza qiling. She’rdagi “... oq mash’ala ekilgan vodiy” tashbehi ma’nosini tushuntiring. Axir tun qora bo‘lishi mumkin, nega shoir kechalar rangi “safar” deyapti? She’rning so‘nggi bandidagi: “... kengliklarda kezar chiroyli kunduzlarni axtarib bahor” tashbehini qo‘llash orqali shoir nima demoqchi? Tahlilga yo‘naltiruvchi savollar vositasida o‘qituvchi tabiat tasviri orqali shoir inson shaxsini tadqiq qilib, bahor uning ruhiyatida ham o‘zgarishlar yasaganiga, hislarning uyg‘onib, kengliklar axtarayotganiga, tunlardan ham kunlardan ham bahor nafasini tuyib, ezgu tilaklar ila hayotga samimiy nazar tashlayotganligiga ishora qilmoqda. Zero, tabiatga xos tabiiy go‘zallik inson ma’naviyatiga kirib borsa, “mo‘jizalar sodir bo‘ladi”, inson qalbi ham, orzu-tilaklari, tuyg‘ulari ham oqlikka yo‘g‘riladi.

Bunga erishish uchun uzluksiz adabiy ta’limning barcha bo‘g‘inlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borish taqazo etiladi. Negaki, adabiy ta’limning bosh vazifasi o‘quvchilarning adabiyot namunalarini shunchaki o‘qib qo‘ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga sehrli olamiga kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Chunki, kitobxonga shoir tuyg‘ulariga uyg‘un lirik qahramon kechinmalarini his qilgandagina tahlilda poetik ma’no mohiyatiga yetib bora oladi. Hissiy idrok orqali biz lirik qahramon timsolida mujassam topgan his-hayajonlar, tuyg‘ular, ma’no mohiyatini anglab, qalbimizga tuyamiz. Ayrim she’rlarda shoir obrazi bilan lirik qahramon timsoli alohida-alohida tasvirlangan bo‘ladi. Ammo ular kechirayotgan tuyg‘ular bir-birini boyitib, to‘ldirib, biri ikkinchisining mazmun mohiyatini yanada yorqin ochilishiga

ta'sir ko'rsatgan holda "ko'rinishi" ham mumkin. Ko'pincha, lirik she'rning qahramoni shoir obrazi tarzida gavdalanadi, voqelik uning nazari bilan kuzatiladi.

9-sinfda shoir Cho'lponning dasturda belgilangan "Yong'in", "Ko'ngil", "Kishan" 1923-yilda yozilgan "Xazon" she'rini mustaqil o'qish asosida tahlil qilish mumkin. Bu she'rda O'rta Osiyo, xususan Turkistonning ruslar tomonidan bosib olinishi oqibatida o'lkani talash, xalqni mustamlaka istibdodiga bilan borliq achchiq hayot haqiqati lirik kechinmalar, manzaralar orqali tavirlangan. Shoir poetik bo'yoqlar vositasida kuz tasvirini chizgan.

"Kuz chog'i... tuproqlar gezarib qoldilar" misrasi kutilmaganda boshiga falokatlar yog'ilgan zamin holatini ko'z o'ngimizda jonlantiradi: gezargan tuproqlar, qizarib yongan yaproqlar, bog'larda qag'lashib qolgan qarg'alar, kimlarningdir uzilgan umidlari, bir changal solishda uzilgan qismatlar bir-bir ko'z o'ngimizdan o'tadi. Bu manzarani loqayd kuzatish mumkin emas!

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,
U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin!
Ey, mening bog'imdan mevamni terg'onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko'milsin! –

deya hayqiradi shoir qalblari ham muz, istaklari ham muzday "muz kiyib kelg'onlar" ga qarata. Shu tariqa rang-ramzdan obraz-ramzga ko'chish yuz beradi. Issiq jonlarni muzlatguvchi sovuq istak va tilaklar yondirgan yaproqlar qizilga bo'yaldi, so'lim bog'lardagi mevalarga chang solindi, elning rizqi tortib olindi, erki bo'g'ildi.

Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur,
So'ng damda yaproqlar qizarib yondilar?

Ritorik so'rov, murojaat orqali misra takrori yangi ma'nolarni ifoda etadi, ya'ni bu holga daraxt – millat, yaproqlar shu millatning o'g'il-qizlari "qizarib yondilar" – mayus ko'nib qo'ya qolmadilar, balki qizarib yondilar-isyon qildilar, xo'rliklarga qarshi, bosqinchilikka, talashlarga qarshi qizarib yondilar, endi "kimlarningdir" umidi yo'q bo'lur, qismati uzilur, u "qora boshlar"i yerlarga ko'milur! Bosqinchilarni tutib turgan zamin ham bir tebranib qo'ydi, kuz chog'i ... tuproqlar gezarib qoldilar. O'ziga xos o'xshatishlar, ramzlar, badiiy so'zning ko'p ohanglilik xususiyatidan san'atkorona foydalanish, obrazlilik she'rning badiiy fazilatlaridir. She'r sarlavhasiyoq Cho'lponning hazon bo'lgan o'lka qismati haqidagi o'y-kechinmalarini ifoda etadi. Ammo she'rni o'qib bo'lgach, bu kechinmalar shunchaki faryod, ohu-nolalardan iborat bo'lmay, yomon niyat bilan o'zgalar yeriga oyoq bosgan bosqinchilarning istaklari xazon yanglig' oppoq qorlar bilan yerlarga ko'milishiga ishonch bildirayotgan shoir e'tiqodining kichik parchasi ekanligini anglab yetamiz. Cho'lpon singari yurt ozodligi, millat erkini intiqib kutgan, orzu qilgan qatag'onlar davri qurbonlarining tilaklari biz yashayotgan davrda amalga oshdi. Shu sababli milliy mustaqillikni e'zozlash, asrab-avaylash, mustahkamlash hammamizning muqaddas burchimizdir.

She'rni aynan shunday quyuq obrazli, izchil poetik tasvir asosiga qurish Oybek uslubiga ham xos xususiyatdir. Uning "Kuz" she'rini ifodali o'qib bergach, o'quvchilar e'tiborini asar sarlavhasiga qaratish maqsadga muvofiq. Xilma-xil uslubdagi ijodkorlar bir xil mavzuni qanday yoritganlar? Har qaysi shoirning tasvir uslubiga diqqatni

qaratib, asarlarining badiiy xususiyatlarini aniqlashga urinib ko‘ring. Darsni suhbat metodi asosida tashkil qilib, o‘quvchilarga tahlilga yo‘llovchi savollar berib boriladi. Yozuv taxtasiga esa kuz manzaralari tasvirlangan rangli rasmlardan osib qo‘yish mumkin.

O‘quvchilar, e’tibor bering-chi, kuz manzaralari tasvirlangan ushbu rasmlar bu faslning qaysi jihatlarini aks ettirgan? Nima uchun xalqimiz “Oltin kuz”, “Kuz–pishiqchilik fasli”, “So‘lg‘in kuz” degan tasviriy iboralarni ko‘p qo‘llaydi? Kuz fasliga taalluqli qanday xalq maqollarini bilasiz?

O‘quvchilar javobi tinglangach, o‘qituvchi fanlararo aloqadan foydalanib, tabiatda kuz chog‘i ro‘y beradigan o‘zgarishlar haqida ham savol-javob uyushtirishi mumkin.

Kuz faslining o‘ziga xos manzaralari tasvirlangan she’rlardan o‘qiganmisiz? Bugun biz atoqli so‘z san’atkorlaridan yana biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning 1934-yilda yozilgan “Kuzda” she’rini o‘qib o‘rganamiz. She’rning birinchi bandida tasvirlanayotgan manzaraga e’tibor bering. “Og‘ochlar gavdasi oriq va titroq, Sovuq yel o‘chirdi yashil qonini” deyish orqali shoir jonlantirish, mubolag‘a usullaridan foydalanib tasvirga qanday ma’nolarni joylagan? Avvalgi ikki misrani o‘z so‘zlaringiz bilan sharhlab bering-chi?

To‘satdan kuz bosishini, “yalangoyoq” yozning ko‘m-ko‘k yaktagi jiqqa ho‘l bo‘lishini qanday tasavvur qildingiz? Shoir bu manzara ortiga qanday ma’nolarni yashirgan? Qanday she’riy san’atlardan foydalangan? Diqqat qiling: she’rning birinchi bandi “Uchar yerni o‘par bir gala yaproq” misrasi bilan boshlangan, oxirgi bandi esa “Uchib yer tishlaydi bir gala yaproq” misrasi bilan boshlangan. Misralarning ma’nosini izohlab bera olasizmi?

Darhaqiqat, kuzning ilk oylarida sariq-qizg‘ish tusdagi yaproqlarning shitirlab to‘kilishi, yerlarga qizg‘ish poyondoz yozilganday tasavvur uyg‘otishi qanday maroqli! Kuzning oxirgi oylarida esa sovuqdan yaxlagan, jigarrang tusga kirgan qoramtir yaproqlar muzlay boshlagan yerga to‘kilganda avvalgiday maroqli taassurot uyg‘otmaydi. So‘lg‘in kuzning qish bilan almashinish daqiqalaridagi manzarani shoir “Uchib yer tishlaydi bir gala yaproq” deya badiiy, obrazli tasvirlab berayapti. She’rda manzara-tasvir orqali shoir his-tuyg‘ulari tadrijiy rivojlanishda yoritiladi. Asar qurilishining bu xususiyati voqelikni o‘ziga xos badiiy idrok etish va tasvirlashdagi shoir uslubini namoyon qilmoqda.

Hayotda hech narsa beasos bo‘lmagani kabi, tabiat tasviri berilgan she’rlardagi poetik manzaralar ham shunchaki kuz yoki bahorning qaysidir alomatlarini jonlantirish uchungina yaratilmaydi. Balki o‘sha manzara tasviriga fikr va tuyg‘ularni “ulash”, “payvandlash”da o‘ziga xos kompozitsion yo‘sinda sayqal beriladi. Siz bilan shoir Cho‘lponning “Xazon” she’ri orqali ham kuz nafasini, xazonrezgilik chog‘ini his qilgan edik. Ammo so‘z san’atkori kuz qiyofasidan ijtimoiy ma’nolarni ifoda qilishda foydalangan. Tuproqlarning gezarib qolganligiyu, yaproqlarning qizg‘ish tusga kirganligini shunchaki ta’kidlab qo‘ya qolmagan. She’rning “Xazon” deb nomlanishi ham o‘ziga xos ma’noni ifoda etadiki, shoir she’r bandlari orqali erk haqidagi orzulari xazon bo‘lgan xalqning qismatini ichki dard bilan yonib ifoda etgan. Kuz fasliga xos alomatlar, manzaralar zamriga ana shu ma’noni joylab misradan-misraga qadar ma’no

"choklari" ni yoyib borgan bo'lsa, iste'dod sohibi Oybek tasvirlagan oddiygina kuz manzarasi zamirida insoniy hislar, kechinmalar qalb harakatlari yotadi. Chunki ijodkor o'zi tasvirlayotgan manzarani befarq kuzatmaydi, nigohi orqali ko'rgan go'zallik alomatlaridan ehtirosli ma'nolar topadi, mushohada yuritadi, nimalarnidir inkor etib, qaysidir belgi-xususiyatlarni tasdiqlaydi. Natijada, ko'z o'ngimizda gezargan tuproqlar, qizargan yaproqlar, oyoqyalang yoz va etaklari jiqqa ho'l kuz manzaralari "insoniylashgan" tarzda jonlanadi. Shoir qalbini hayajonga solgan tuyg'udan fikr va ma'nolar yuzaga keladi, ana shu ehtirosli fikr she'rning misrasidan-misrasiga qadar hayajonlar oqimida to'lqin kabi ko'tarilib borishini kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. O'quvchilar she'rda tasvirlangan manzarani ko'z oldilariga keltirib, uni badiiy ranglar orqali qanday tasvirlanganini yanada to'la tasavvur qilishlari uchun adabiyot daftarlariga kuz manzarasini ranglar orqali tasvirlab kelishlarini topshirish mumkin. Bu yo'l bilan ularni badiiy ranglarni his qilish qobiliyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga kuz mavzusida tasviriy ijodiy insho yozishni ixtiyoriy vazifa qilib, topshirish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. – 631 b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. ("She'r tuzilishi" bobi). – T.: O'qituvchi, 1979. – 82 b.
3. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996. 24-35 b.
4. Boboyev T. Oliy o'quv yurtlarida o'zbek she'riyati poetikasi asoslarini o'rganish. Ped.fan.dok.yozilgan.diss. avtoref. – T.: 1998. – 54 b.
5. Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. – 329 b.
6. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi.(Metodik qo'll. 7-sinf "O'zb. Adabiyoti" darslik – majmuasi uchun.) – T.: O'qituvchi, 1997. – 230 b.
7. Usmon Nosir. She'rlar. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – 66 b.
8. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. – T.: Fan, 1986. – 144 b.
9. Jumaboyeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati.
10. Fil.fan.nom yozilgan.diss.avtoref. – T.: 1999. – 22 b.
11. Jo'rayev K. Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1974. – 148 b.
12. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001. – 120 b.

"BOBURNOMA" G'ARB SHARQSHUNOSLARI TALQINIDA

Bozorov Orif Chamanovich
ShDPI Xorijiy til amaliyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
orifbozorov8@gmail.com +99893 930 70 67

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Boburnoma"ning o'zbek memuar adabiyoti namunasi sifatida talqini ko'rib chiqilgan, atoqli adiblar tomonidan jahon tillariga tarjimasi tahlili va tarixi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *etnografik, memuar adabiyot, ilmiy, ekspeditsiya, xronologiya, etimologik tahlil.*

«БАБУРНАМА» В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗАПАДНЫХ ВОСТОКОВ

Bozorov Orif Chamanovich
Заведующий кафедрой практики иностранных языков ШГПИ,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
orifbozorov8@gmail.com +99893 930 70 67

Аннотация. *В данной статье рассматривается трактовка «Бабурнамы» на примере узбекской мемуарной литературы, изучается анализ и история ее перевода на мировые языке известными писателями.*

Ключевые слова. *этнографическая, мемуарная литература, научная, экспедиция, этимологический анализ.*

"BABURNOMA" IN THE INTERPRETATION OF THE WESTERN EAST

Bozorov Orif Chamanovich
Head of the Department of Practice of Foreign Languages ShSPI,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
orifbozorov8@gmail.com +99893 930 70 67

Annotation. This article deals with an interpretation of "Baburnoma" as the sample of Uzbek memoir literature; the analysis and history of translation of "Baburnoma" by famous writers into the world languages was carried out.

Key words. ethnographic, memoir literature, scientific, expedition, chronology, etymological analysis.

Kirish (Introduction). Hozirgi davrda Sharqning boy merosi, ma'naviyati va madaniyati tarixi haqiqiy ilmiy nuqtai nazardan yoritila boshlandi. Bu yo'nalishda olimlarimiz tomonidan katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, til tarixi, adabiyot va badiiy fikrning rivojlanish bosqichlarini yangidan yoritish masalalari o'rganilyapti. Bu haqida davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev o'z asarlari va ma'ruzalarida ko'p bor fikr bildirib, ma'naviy meroslarimizni qayta ko'rib chiqish, ularni asrab – avaylashga da'vat etyapti.

O'zbek adabiyoti qadimdan G'arbiy Yevropa olimlari, sayyoh, geograf va tarixchilari diqqatini o'ziga tortib kelgan. Sharq mavzui G'arbning zabardast yozuvchilari – I.V.Gyote, F.M.Volter, J.Bayron, J.Vern, R.Kipling hamda ularning yevropalik va amerikalik izdoshlari P.Bak, E.Heminguey, A.L.Strong, A.Smedli, L.Hyuz, E.E.Kisha, Y.Fuchik, L.Aragon, P.V.Kuturye va boshqa ko'pgina jahonda mashhur adabiyot namoyandalari ijodida muhim o'rin egallagan.

Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi ilmiy–adabiy munosabatlar tarixiga doir yorqin misollarni O'rta asrlar mutafakkirlari ijodiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda ko'rish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ushbu maqolada biz o'zbek asarlarining G'arb qalamkashlari tomonidan tarjima qilgan asarlariga

e'tiboringizni qaratamiz. Bu asarlar inglizzabon mutarjimlarining nigohiga tushgan va dunyo bo'ylab Sharq madaniyatini o'zga o'lkalarda ko'z–ko'z qilib, Sharq madaniyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ana shunday asarlardan biri bu "Boburnoma" asaridir.

A.L.Strongning **"Samarqand uzra qizil yulduz"(1929)** kitobi va talay ocherklari Amerika adabiyotida O'zbekiston haqidagi birinchi jiddiy hujjatli asarlari bo'ldi. Amerikada jamg'arma tashkil qilinib unda Bobur haqidagi yangi topilgan maqolalar va asarlarining tarjimalari haqida ma'lumotlar berdilar. Jamg'armaga Boburning boshqa davlatlarda nashr etilgan va topilgan, shu vaqtgacha bizga ma'lum bo'lmagan asarlari qo'lyozmalari, noyob hujjatlar va miniatyuralar hadya etildi.

Bu dalillardan shu narsa ayonlashdiki, bizning ajoyib vatandoshimiz Bobur Mirzoga bag'ishlangan butun bir jahon ilmi-**bobur shunoslik fani** paydo bo'ldi. Bobur ijodi bir hodisa yangilik, o'zbek milliy madaniyati doirasidan chiqib, jahon boyligiga aylangan.

"Boburnoma" ilk bor 1589-yilda Abdurahimxon ibn Bayramxon tomonidan fors tiliga o'girilib, u keyinchalik aynan shu tilga yana uch bora tarjima qilingan. Ingliz tilida uch marta, olmon, fransuz va turk tillarida ikki martadan va hind, urdu, yapon, uyg'ur va polyak tillarida bir martadan chop etilgan.

"Boburnoma" dastlab ingliz mutarjimlari tomonidan ilmiy tadqiqot qilina boshlangan. Biroq, bu asar XX asrga qadar o'zbek va umuman turkiy xalqlar adabiyotshunosligida maxsus o'rganilmagan edi.

O'zbek olimlari Bobur asarlarini tarixiy, adabiy, geografik, tarjimaviy va lug'aviy manba sifatida tadqiq etganlar. "Boburnoma"ning xorijiy tillarga qilingan tarjimalari yuzasidan bir qator diqqatga loyiq tadqiqotlar amalga oshirildi.

"Boburnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilgan **Jon Leyden va Vilyam Erskinlar** bir-biridan bexabar holda ish boshlagan edilar. V. Erskin Abdurahimxonning forsiy nusxasi asosida tarjimani 1811-yilda boshlab, 1817-yilda oxiriga yetkazadi. Biroq Erskin tarjimani nashr ettirishga shoshilmaydi, bu orada u doktor J.Leyden ham "Boburnoma"ni inglizchaga ag'darganini eshitib qoladi va bu tarjima bilan tanishishga oshiqadi.

J.Leyden bevaqt vafot etib, tarjima nihoyasiga yetkazilmay qolgan. Erskin Leyden tarjimasini qo'lga kiritish va o'ziniki bilan solishtirib chiqish maqsadida Londonga xat yozadi va Leyden tarjimasining o'zinikidan katta farqi borligini ko'rgan Erskin hayron qoladi: nachora, Leyden asl nusxadan o'girgan edi-da!. Erskin tarjimalarni batafsil muqoyasa etib, ish davomida kontekstga mone kelmaydigan joylarni birma-bir tuzatib chiqadi.

Shu orada u "Boburnoma"ning turkiy tildagi asliyatini Elfinstondan so'rab oladi va ishning hammasini solishtirib chiqishni maqsad qilib qo'yadi. Chunki Leyden turkiy tilni yaqin orada o'rganganligi sababli tarjimaning ko'p joylarida saxv o'rinlar bor edi. Shuning uchun ham Erskin diqqat va e'tibor bilan turkiy hamda forsiy variantlarni solishtira boshlaydi.

Nihoyat V.Erskin "Boburnoma"ning qolgan qismini turkiy originali, forsiy tarjima va Elfinston orqali janob Metkalfdan olgan nusxalar bilan solishtirib, ishni

oxiriga yetkazdim", deydi. Uning aytishicha, Metkalf nusxasi eng ishonchli manba hisoblangan.

"Mening turkiydan olgan bilimim "Boburnoma"ni aslida o'girishga yetarli emas edi,–deb yozadi tarjimon, shu tufayli sodiq do'stim Mulla Firuzning yordamiga tayanib, turkiy matn bilan tanishib, tarjima bilan solishtirib chiqishga muyassar bo'ldim. O'ylaymanki, tarjima ko'p kamchiliklardan xoli bo'ldi".

Ikkinchi tarjima **Anetta Susanna Beverij** xonim qalamiga mansub bo'lib, u o'z umr yuldoshi, yetuk sharqshunos olim Genri Beverij ko'magida 1899-yildan "Boburnoma" va unga oid manbalarni ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganishga kirishib, tarjimon kitobini yaratganiga qadar "Boburnoma"ga oid maqolalar va risolalarini J.R.A.S (Journal Royal Asiatic Sociaty) va I.O.Indian Office (Hindiston Mahkamasi) jurnallarida muntazam chop ettirib borib, 1921–yilda yaxlit holda bosmadan chiqaradi. Bu faktlar tarjimonning o'z ishiga qanchalik mas'uliyat bilan qaraganligini, tarjimaning ilmiy aniqligi, puxta bo'lishini ta'minlash uchun nechog'li ko'p mehnat sarflaganligini ko'rsatadi.

V.Erskinning niyati "Boburnoma"ni shunchaki ingliz kitobxoniga tanishtirish emasdi, u asl nusxa o'rnini bosadigan darajada e'tiborli, ishonchli inglizcha ekvivalent barpo etishni ko'zlab ish ko'rgan. Chuqur ilmiy–ijodiy mehnat mevasi bo'lgan bu tarjima haqiqatdan ham muvaffaqiyat qozondi va mutaxassislarning tahsiniga sazovor bo'ldi.

Elfinston tarjimaning puxtaligi haqida to'lqinlanib bunday yozgan edi: "tarjima bamisoli asl nusxaning o'zginasi, uslubi ham jozibador, xuddi asliga qarab rang olganday". Shunday qilib "Boburnoma" "Leyden-Erskin tarjimasi" nomi bilan 1826–yilda Londonda chop etiladi.

Erskin-Leyden tarjimasi 1921-yilda Dublin universitetining professori, sharqshunos olim Lukash Uayt King tomonidan qayta nashr ettirildi. Noshir inglizcha tarjimani nisbatan mukammalroq bo'lgan fransuzcha tarjima bilan tanishib chiqib, ancha to'ldirishlar qiladi, ko'pgina joylariga aniqliklar kiritadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma'lumki, "Boburnoma" xronologik jihatdan to'liq emas. Onda–sonda anchagina tarixiy voqealar tarjimada aks etmay qolgan. Bu uzilishlarni bir-biri bilan bog'lash maqsadida Uayt King hijriy 908-yilning oxirigacha (1503-1504), 914-yildan boshlab 925-yilning boshigacha (1518-1519) va 926-931, 934-(aprel-sentabr), 936-937 yillarga oid Bobur hayoti bilan bog'liq voqealarni boshqa manbalardan olib, "Boburnoma"ga kiritadi va asarning yaxlitligini ta'minlaydi.

O'zbek madaniyatiga qiziqish, uni o'rganishga qiziqish ham, o'tgan asrda to'xtamadi. 1930-yil **F.Grenardning** "Bobur" nomli risolasi bosilib chiqdi. XVIII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan tadqiq ishlari Yevropada jonlanib ketdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi.

Jumladan, Amerikalik yozuvchi **Harold Lyamb** "Bobur-sher" asarini yaratdi. Kitob 1961-yili Nyu–Yorkda bosmadan chiqdi. "Boburnoma"ning bevosita o'zbek tilidan ingliz tiliga (V. M. Sekston, 1996-yil) yangi tarjimalari maydonga keldi. Harold Lyamb Bobur Mirzoning mamlakatni boshqarish davridagi ijobiy tomonlarini romanda quyidagi satrlar bilan ifoda etadi: *"Wit him he brought to India the Timurid devotion*

to music and verse-and wine. His fondness for building gardens in the most unlikely spots earned him the name of the Gardener King. More than tree-shaded gardens followed him to Agra. Out of white and red stone, palace dwellings, great mosques, and tombs began to rise in the pathway of the moguls. Babur hardly lived to see if, but Samarkand, his lost city, was brought to India".

XX asrning 20-80-yillari orasida mamlakatimiz O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: 3-jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiyev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B.Valixo'jayev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Respublikamiz mustaqillikka erishgach, Bobur va uning boy merosiga milliy istiqlol g'oyasi asosida munosabat bildirilmoqda; oldin nashr ettirilmagan asarlari, jumladan "Mubayyin", to'liq nashr ettirildi. Bobur shunoslik sohasidagi ishlar yanada rivojlandi.

O'zbekistonda istiqlolgacha Bobur shaxsiga, uning hayoti va ijodini o'rganishga nisbatan siyosiy tayziqlar bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Shuni g'urur va iftixor bilan aytish mumkinki, buyuk ajdodlarimizga, ularning boy merosiga munosabat mustaqillik tufayli o'zgardi.

Bobur merosini o'rganishni kuchaytirish, rag'batlantirish va muvofiqlashtirish maqsadida 1992-yili Andijon shahrida **Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma** tuzildi. Jamg'arma qoshida tashkil etilgan **"Bobur izidan" xalqaro ilmiy eskpeditsiya** o'ndan ortiq Sharq mamlakatlariga safarlar uyushtirib, Bobur va boburiylar qadamjolarini ziyorat qilish bilan birga, ulug ajdodlarimiz hayoti, ijodi va bunyodkorlik ishlari haqida yangi ma'lumotlarni aniqlash, to'plash va buyuk vatandoshlarimizning xotiralarini abadiylashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Istiqlol bilan deyarli tengdosh bo'lgan Xalqaro Bobur fondi tomonidan dastlab Andijon shahrining Bog'ishamolidagi tepaliklar-300 gektarlik yer Bobur nomidagi Milliy boqqa aylantirildi. Boburga bir emas, uchta haykal bunyod etildi. Bog'ishamolda Boburga bag'ishlab xuddi Samarqanddagi Go'ri Amirsimon salobatli va hashamatli imorat qurildi.

Bugungi kunda bu bino Bobur va jahon madaniyati muzeyi sifatida elga xizmatda. Undan yuqoriroqqa nazar tashlasak, ikki maqbara-koshonalar ko'zga tashlanadi: biri Boburning Agradagi oromgohini, biri Qobuldagi Bobur maqbarasini esga soladi...

Xalqaro Bobur fondining **"Bobur izidan"** ilmiy ekspeditsiyasi o'zining jahonning Bobur qadamjolari bilan bog'liq mamlakatlar, shaharlari bo'ylab uyushtirgan o'n ikki safarida Bobur va boburiylar hayoti, faoliyati, ijodiga tegishli osori–atiqalar, moddiy-madaniy ashyolar, qo'lyozma va manba asarlaridan 300 dan ortig'ini to'plashga muvaffaq bo'ldi. Ular hozir Bobur va jahon madaniyati muzeyi eksponatlariga aylantirilgan. Eksponatlar safida, jumladan, Hindistonning Salarjang moziygohida saqlanayotgan turkey-chig'atoy tilidagi **"Boburnoma"ning** 1905-yilda Annet Syuzen Beverij xonim tomonidan Londonda nashr etilgan nodir nusxasini,

"Boburnoma"ning jahonning o'ttiz bir tiliga qilingan tarjimalarining aksariyatini (fors, hind, ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus, turk, yapon, qozoq...), dunyo bobur shunoslarining hozirgi eng sermahsul va mashhur vakili Eyji Manoning to'rt yirik jildli asarlari – **"Boburnoma"** ilmiy tanqidiy matn (Kioto 1995), **"Boburnoma" Shaharlar. Ko'rsatkichlar** (Kioto 1996), **"Boburnoma"** (yapon tilida, Kioto 1998), **"Bobur va uning davri"** fundamental monografiyasi (Kioto 2001)ni ko'rishimiz mumkin.

O'tgan asrning 70-yillarida Bobur asarlari qo'lyozmasining eng qadimgi va eng nodir nusxasi Eronda saqlanayotganligi ma'lum bo'lgan edi. Ushbu nuxsa o'sha kezlarda Saltanat kutubxonasining mulki hisoblanib, keyinchalik uning saqlanish joyi bir necha bor o'zgarganligi tufayli qo'lyozma haqida aniq ma'lumot yo'q edi. Ko'p yillik izlanishlar natijasida Zokirjon Mashrabov bu qo'lyozma nusxaning Tehron Milliy kutubxonasida saqlanayotganligini aniqlab, 2005-yilda yurtimizga olib kelishga musharraf bo'ldi. Ushbu qo'lyozma nusxasini boshqa qo'lyozmalar bilan qiyoslash natijasida shuni aytish mumkinki, bu qo'lyozma Bobur asarlarining muallif qalamiga eng yaqin va eng ishonchli bo'lgan matnini yaratishda o'ziga xos, betakror manba sifatida muhim nusxadir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). "Boburnoma" nafaqat tarixiy-etnografik jihatdan, balki o'zbek memuar adabiyoti namunasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bu asarning juda ko'p xorijiy tillarga, masalan, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinishi uning nodir asar ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Annette Susannah Beveridge. Information about the manuskripts of the Baburnama can be found in the J.R.A.S. for 1900, 1902, 1905, 1906, 1907, 1908.
2. Babur–nama, Memoirs of Babur. - Junpura, Elfinston,New Delhi – 110014.
3. S. Leyden and W. Erskine "Memories of Zehir–ed–Din Muhammad Baber". - London. 1826.
4. Lamb H. Babur the Tiger: First of the Great Moguls. – N.Y.: Doubleday & Company, Inc. Garden City, 1961, p. 331.
5. Leyden Sh., V. Erskin. "Boburnoma" – London. 1921 y. – 36 bet.
6. Hindiston tarixi. – London. 1905. – 429 bet.
7. Otajonov N. "Boburnoma" jahon kezadi. - Toshkent: I. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
8. Rafikov K.K. "O'zbek klassik adabiyoti xorijda" (Alisher Navoiy va Zaxriddin Muxammad Bobur ijodi). – T., 1992.
9. Waqiat–i–baburi (pers.trs.) made in Akbar's reign the early was begun in 1583. Translated by Abdurahim Mirza 1589. Beveridge A.S. preface p–xliv. Edition, – 1989.
10. http://www. XABAR – O'zbekiston aloqa va ahborotlashtirish agentligining nashri. Xalqaro Bobur fondi: Andijondan … Dakkagacha 13.02.2009/

ENHANCING PHONETICS INSTRUCTION: STRATEGIES FOR EFFECTIVE STUDENT TEACHING

Islomova Zahro Shukhrat qizi
Teacher of English at the Department of Practice of Foreign Languages of the SHDPI
zahroislomova2484@gmail.com Tel: 90 9932484

Annotation. *This study explores strategies for enhancing phonetics instruction in student teaching. By examining effective methodologies, it aims to provide insights into optimizing language learning experiences. Through innovative approaches and pedagogical insights, this research seeks to empower educators to facilitate comprehensive and engaging phonetics instruction for language learners.*

Keywords. *Phonetics, student teaching, pedagogy, instructional strategies, language acquisition, phonological awareness.*

FONETIK TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH: TALABALARNING SAMARALI TA'LIM OLISH STRATEGIYALARI

Islomova Zahro Shuhrat qizi
ShDPI xorijiy til amaliyoti kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola talabalarni o'qitishda fonetik ta'limni takomillashtirish strategiyalarini o'rganadi. Samarali metodologiyalarni o'rganish orqali u til o'rganish tajribasini optimallashtirish bo'yicha tushunchalar berishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar va pedagogik tushunchalar orqali ushbu maqola o'qituvchilarga til o'rganuvchilar uchun keng qamrovli va qiziqarli fonetik o'qitishni osonlashtirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *Fonetika, o'quvchilarni o'qitish, pedagogika, o'qitish strategiyalari, tilni o'zlashtirish, fonologik ong.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ФОНЕТИКЕ: СТРАТЕГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Исламова Захро Шухрат кизи
Преподаватель английского языка на кафедре практики иностранных языков ШДПИ

Аннотация. *В этом исследовании изучаются стратегии улучшения преподавания фонетики в обучении студентов. Изучая эффективные методологии, он стремится дать представление об оптимизации опыта изучения языка. Благодаря инновационным подходам и педагогическим знаниям это исследование направлено на то, чтобы дать преподавателям возможность облегчить комплексное и увлекательное обучение фонетике для изучающих язык.*

Ключевые слова. *фонетика, обучение учащихся, педагогика, стратегии обучения, овладение языком, фонологическая осведомленность.*

Introduction. Phonetics instruction serves as the cornerstone of literacy development, equipping students with the essential skills needed for reading, writing,

and communication. As student teachers embark on their journey, mastering effective phonetics instruction is crucial for fostering strong literacy skills among students. This article explores various strategies and approaches tailored specifically for student teachers to enhance phonetics instruction, drawing upon research-based practices and practical techniques.

Understanding Phonetics. Phonetics involves the study of speech sounds, encompassing their production, classification, and transcription. Proficiency in phonetics lays the foundation for phonological awareness, a critical skill for decoding words, spelling accurately, and comprehending written text. Student teachers must grasp the intricacies of articulatory, acoustic, and auditory phonetics to effectively teach phonetic principles to their students.

Importance of Phonetics Instruction. Explicit phonetics instruction is essential for developing phonemic awareness, decoding skills, and language proficiency among students. By teaching sound-symbol correspondences, blending, and segmenting skills, educators empower students to decode unfamiliar words, spell accurately, and comprehend written text effectively. Phonetics instruction plays a pivotal role in promoting literacy development and fostering lifelong learning habits.

Incorporating Phonetics into Instruction. Integrating phonetics instruction into daily lessons and activities enhances students' phonological awareness and language skills. Structured phonics lessons, word study activities, and language arts integration provide opportunities for students to explore phonetic patterns and develop vocabulary. By incorporating phonetic principles across various subjects and contexts, student teachers reinforce learning and promote transferable skills.

Utilizing Multisensory Approaches. Multisensory techniques engage multiple senses to reinforce phonetic concepts and facilitate learning for diverse learners. Auditory activities, visual aids, and kinesthetic strategies accommodate different learning styles and enhance retention. By incorporating auditory, visual, kinesthetic, and tactile modalities, student teachers create dynamic learning environments that support phonetic mastery and language proficiency.

Differentiating Instruction. Differentiated instruction tailors teaching methods and materials to meet the diverse needs, interests, and abilities of students. Tiered assignments, flexible grouping, and personalized feedback accommodate students' readiness levels and support individualized learning goals. By providing multiple pathways to learning, student teachers ensure equitable access and promote student engagement and success.

Promoting Oral Language Development. Phonetics instruction fosters oral language development by improving pronunciation, fluency, and expressive communication skills. By focusing on articulation, intonation, and rhythm, educators help students develop clear, confident speech patterns and effective communication strategies. Pronunciation practice, oral reading activities, and conversation skills promote fluency, expression, and comprehension in oral language.

Assessment and Feedback. Effective assessment and feedback strategies inform instructional planning, monitor student progress, and guide intervention efforts. Informal observations, phonics assessments, and ongoing feedback provide valuable

insights into students' phonetic development. By using formative and summative assessments, student teachers gather data on students' phonetic skills and provide targeted feedback for improvement, fostering a growth mindset toward phonetic mastery.

Table

Overview of Phonetics Instruction

№	**Recap of Effective Phonetics Teaching Strategies**	**Future Directions in Phonetics Instruction and Research**
1	Theoretical Foundations of Phonetics	• Basics of Phonetics: Sounds, Symbols, and Transcription • Articulatory Phonetics: Understanding Speech Production Mechanisms • Acoustic Phonetics: Analyzing Sound Waves and Spectrograms • Auditory Phonetics: Perceiving and Discriminating Speech Sounds
2	Technology Integration in Phonetics Instruction	• Utilizing Speech Recognition Tools for Pronunciation Feedback • Incorporating Multimedia Resources for Authentic Pronunciation Models • Interactive Applications and Software for Phonetics Practice
3	Authentic Materials and Contextual Learning	• Using Naturalistic Audio and Video Resources for Phonetics Training • Exposing Learners to Diverse Accents and Varieties of English • Integrating Phonetics Instruction with Cultural Content and Contexts
4	Interactive Activities and Engaging Practice	• Pair and Group Exercises for Peer Feedback and Collaborative Learning • Role-plays and Simulation Activities for Practical Application of Phonetics • Pronunciation Games and Challenges for Interactive Learning Experiences
5	Explicit Instruction	• Teaching Phonetic Symbols and IPA (International Phonetic Alphabet)

	and Feedback Mechanisms	• Providing Structured Feedback on Pronunciation Errors • Incorporating Self-assessment and Reflection for Pronunciation Improvement
6	Creating a Supportive Learning Environment	• Fostering a Positive Classroom Atmosphere for Phonetics Instruction • Encouraging Risk-taking and Error Correction in Pronunciation Practice • Promoting Learner Autonomy and Metacognitive Strategies for Pronunciation Learning

Enhancing phonetics instruction in student teaching involves a nuanced understanding of the complexities of speech sounds and their production. Effective strategies encompass a blend of theoretical knowledge, practical application, and pedagogical innovation to address the diverse needs of language learners.

One key aspect of effective phonetics instruction is the integration of technology. Utilizing software applications, such as speech recognition tools and pronunciation apps, allows students to receive immediate feedback on their pronunciation accuracy. Additionally, multimedia resources, including videos and audio recordings, provide authentic examples of native speakers' pronunciation, aiding learners in developing their phonetic awareness.

Authentic materials play a crucial role in enhancing phonetics instruction. Incorporating real-life examples, such as recordings of natural conversations, songs, and speeches, exposes students to the variability of speech sounds in different contexts. Moreover, using materials from various regional accents and dialects fosters an appreciation for linguistic diversity and helps students develop flexible listening skills.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasiga oid tadqiqotlar koʻpchilikni tashkil etadi. An'anaviy tilshunoslikda va kompyuter tilshunosligida korpus lingvistikasining oʻrni, metodologiyasi, obyekti va vazifalari G.Leech, R.Garside, J.Sinkler, L.Floverdev, Makkenri, N.Frencis, G.Kennedi singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus oʻrganilgan[3] Korpuslarning ijtimoiy ahamiyati, korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichlari, internetdan korpus sifatida foydalanish, internet va korpus oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlari A.Kilgarrif, K.Stuart, G.Grefenstette, M.Hundt, N.Nesselhauf kabi tadqiqotchilar tomonidan mufassal yoritilib, ularning nazariy asoslari tadqiq etilgan[4]. Makkenri, Xiao, Reppen, Biberlarning korpus lingvistikasi sohasidagi tadqiqotlari korpuslarning ta'lim jarayonida tutgan oʻrni, til oʻqitishda korpuslardan foydalanish prinsiplari, afzalliklari toʻgʻrisida aniq va batafsil tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi[5].

Turk tili korpusi boʻyicha Aksan, Deniz Zeyrek, Kemal Oflazer, Umut Özge Bular; uygʻur tili boʻyicha Yusup Aibaidulla, Kim-Teng Lua; boshqird tili boʻyicha L.A.Buskunbaeva, Z.Sirazitdinov; hakas tili boʻyicha Sheimovich, tatar tili boʻyicha J.Suleymanov, A.Gatiatullin, O.Nevzorova, R.Gilmullin, B.Hakimov; qrimtatar tili boʻyicha L.Kubedinova hamda tuva tili boʻyicha Salchak, oʻzbek tili korpusi boʻyicha Korpus lingvistikasiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohada Sh.Hamroyeva[6], B.Mengliyev, N.Abdurahmonova, A.Eshmoʻminov[7], M.Abjalova[8], Z.Xolmanova kabi tilshunoslarning ishlari diqqatga sazovor.

Tadqiqot metodologiyasi. Til korpusi tuzilishi, maqsadi, tili, turgʻun, oʻzgaruvchanligi, xronologik va boshqa jihatlariga koʻra bir qancha turlarga ega. Shulardan biri paxronik korpusdir. Biz bilamizki panxroniya til hodisalarini zamonga

bog‘lamagan holda tadqiq etishdir. Panxronik korpus deb esa tarixiy matnlar va asosiy korpus umumiy izlanishi bilan bog‘liq korpusga aytiladi, bu bizga bir necha asrlar davomida so‘z yoki grammatik tuzilish tarixini kuzatishga imkon berad[9]. Panxronik korpus til korpuslari orasida yangi korpus bo‘lib, bu korpus o‘z ichiga hozirgi kungacha bo‘lgan turli davrlardagi matnlarni o‘z ichiga oladi.

Panxronik korpusga bo‘lgan ehtiyoj, birinchi navbatda, turli xil tarixiy va zamonaviy korpuslarda lemmalar, orfografiya va grammatikani ifodalashning turli tamoyillari bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Biz panxronik korpus namunasini rus milliy til korpusi namunasida ko‘rishimiz mumkin. Rus panxronik korpusi 384mlndan oshiq so‘zni o‘z ichiga oladi[10]. Bu korpusga o‘zida o‘rta asrlardan tortib hozirgi kungacha bo‘lgan turli davrlardagi matnlar kiritilgan. Uni tayyorlash uchun tilshunoslar va ishlab chiqaruvchilar uchta tarixiy korpus: qadimgi rus, eski rus va qayin po‘stlog‘i yozuvlari(XII−XV asr) va asosiy rus korpusini birlashtirganlar[11].

Bu rus tilining rivojlanishining bir necha asrlariga tegishli so‘rovlarni tuzishga imkon beradi. Yangi korpusdagi grammatik belgilar barcha korpuslar uchun birlashtirilgan va izlanuvchi so‘zning har qanday shakli bo‘yicha qidiruvni amalga oshirishi mumkin. Matnlardagi so‘z shakllari va ularning ketma-ketligi so‘z shakllari bo‘yicha qidirishda topiladi. So‘z shakllarini asl imlosida yozish mumkin. Ammo turli davrlardan ko‘proq misollarni topish uchun zamonaviylashtirilgan imloda so‘z shakllarini kiritish (tarixiy harflar, yakuniy harflar, titloslar yoki qavslardan foydalanmasdan) maqsadga muvofiq bo‘ladi . Masalan ***город*** so‘zining turli davrlarda ishlatilish ba’zi shakllarini 1,2,3-rasmlarda ko‘rishimiz mumkin:



1. Устав князя Владимира (XI—XII вв.)

ѥсмь ты соуды цр҃квамъ митрополитоу и всѣмъ пискоупиѧмъ по роусьскои землї А по семь не надобѣ въстоупатисѧ ни дѣтемъ моимъ ни вноучатомъ ни в҆семоу родоу моѥмоу до вѣка ни в люди цр҃квнъıѣ ни во всѣ соуды ихъ то все далъ ѥсмь по всѣмъ *городомъ* и по погостомъ и по свободамъ гдѣ нъ соуть хр(с҃)тиѧне и своимъ тиоуномъ приказываю цр҃квнаго соуда не ѡбидѣти ни соудити безъ вл(д҃)чнѧ намѣстника а се цр҃квнии соуди рѡспоустъ смилноѥ заставаньѥ пошибаньѥ

то ѡбчии соудъ кто перестоупить си правила ꙗкоже ѥсм(ы҃) оуправили по ст҃хъ ѡц҃ь правиломъ и по пьрвъıхъ ц(с҃)рвъ оуправленью кто иметь перестоупати правїла си или дѣти мои или правноучата їли в҆ *которомь городѣ* намѣстникъ или тиоунъ или соудьꙗ а поѡбидѧть соудъ цр҃квнъıи или кто инъıи да боудꙋть проклѧти в҆ сии вѣкъ и в҆ боудоущиї семию зборовъ ст҃хъ ѡц҃ь вселеньскъıхъ

1-rasm.



44. Житие Михаила Ярославича Тверского (1319—1320)

Прииде князь Юрий ратию ко Тфери, совокупя всю землю Суздальскую, и с кровопийцем с Ковгадыемъ множество татаръ, и бесерменъ, и мордвы, и начаша жещи городы и села.

Князь же Юрий съемся с Ковгадыемъ, поидоста наперед во Орду, поимше с собою вси князи суздальские и бояре из городовъ и от Новагорода.

Буди вборзе за месяць, аще ли не будеши, уже воименовал рать на твой город.

Въ един же от дни собрашася вси князи ординьстии за дворъ его, сѣдше въ единой вежи, покладааху многы грамоты съ многимъ замышлениемъ на блаженнаго князя Михаила, глаголющи: "Многы дани поимал еси на городѣх наших, а царю не дал еси".

Бывшу же блаженному князю Михаилу в неизреченном томъ терпѣнии, в таковой тяготѣ 26 дней, за рекою Терком, на рецѣ на Сѣвенци, под городом Тютяковымъ, минувши горы высокыя Ясския Черкаскыя, близъ вратъ желѣзных.

2-rasm.


4991. Вл. А. Гиляровский. Трущобные люди / Балаган (1887)

Он начал свою сценическую деятельность у знаменитого в свое время антрепренера Смирнова и с бродячей труппой, в сорокаградусные морозы путешествовал из *города* в *город* на розвальнях.

Они выстроили в *городах* роскошные театры и наперебой стали приглашать актеров, платя им безумные деньги.

В один из подобных неудачных сезонов в *городе*, где служил Ханов, после рождества антрепренер сбежал.

3-rasm.

Rus tili panxronik korpusida ***город*** so‘zining qo‘llanish shakli bilan bog‘liq 5 mingdan oshiq turli davrlardagi matn namunalari keltirilgan[12].

Panxronik korpusuda natijalarni ikkita parametr bo‘yicha saralash mumkin: asl nusxasi yaratilgan sana va keyinchalik ko‘chirilgan nusxa sanasi.Nusxa sanasi bo‘yicha saralash nusxa ko‘chiruvchilar yoki muharrirlar tomonidan kiritilishi mumkin bo‘lgan va matn yaratilgan davrga tegishli bo‘lmagan lingvistik xususiyatlar (orfografiya, fonetika, ba’zi morfologik elementlar) uchun dolzarbdir.

Rus tili panxronik korpusi tarkibida subkorpus ham kiritilgan bo‘lib, unda sanadan tashqari, matnning janr toifasi bo‘yicha ham aniqlash mumkin.Quyidagi toifalar mavjud: cherkov, kundalik hayot va xatlar, o‘quv va akademik, badiiy matnlar, rasmiy va biznes, variant.Ular komponent korpusining janr izohiga asoslangan.Ming yillar davomida o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy vaziyatni hisobga olgan holda, ushbu umumlashtirilgan toifalardan biriga matn berish taxminiy bo‘lishi mumkin. Bitta matn bir nechta toifalarga berilishi mumkin[13]

Xulosa va takliflar. Dunyo tilshunosliga bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham panxronik korpusning yaratilishi juda katta amaliy ahamiyatga ega. Boshqa korpuslarda bo‘lgani kabi panxronik korpusda xronoligik chegara bo‘lmaydi. Bu korpusdagi imkoniyatlarni yanada oshiradi. O‘zbek tili panxronik korpusini yaratish o‘zbek tilining boyligini, chuqur va keng ekanini yaqqol ifoda eta oladi. Shuning uchun ham o‘zbek tili panxronik korpusini maxsus o‘rganish va korpusini yaratish, uning tuzilishi, lingvistik va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili panxronik korpusining yaratilishi nafaqat tilshunoslik o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda ham muhim. O‘zbek adabiyoti tarixini elektronlashtirish dunyo miqyosida adabiy meroslarimizni tanitishga imkon yaratadi. Shuningdek, O‘zbek adabiyoti tarixini korpusi leksikografiya uchun shu davr lug‘atlarini tuzishda asosiy, betakror manba vazifasini o‘taydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, til korpuslari yordamida til taraqqiyoti natijasida unda sodir bo‘lgan va kutilayotgan o‘zgarishlar haqida aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика.– Иркутск: ИГЛУ, 2013. – 161 с.

2. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistiksasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2021. – 164 b.

3. Leech G. (1986), "Automatic grammatical analysis and its educational applications", in Leech and Candlin (1986), Computers in English Language Teaching and Research, London: Longman, pp.206-219.; Leech, G. (1990),

4. Kilgarriff A., y G. Grefenstette. 2003. "Introduction to the special issue on the Web as corpus". Computational Linguistics 29(3): 333-347.; Kilgarriff A. Web as corpus.; Stuart K. New perspectives on corpus linguistics.; Grefenstette G. The WWW as a Resource for Example-Based MT Tasks. Invited Talk, ASLIB 'Translating and the Computer' conference, London. October 1999.; Grefenstette G and Nioche J. Estimation of English and non-English Language Use on the WWW. In proceedings of RIAO (Recherche d'Informations Assistee par Ordinateur), Paris, 2000.; M.Hundt, N.Nesselhauf, C.Biewer. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007.; M.Hundt, N.Nesselhauf, C.Biewer. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007.

5. Mc Enery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-based Language Studies: An Advanced Resource Book. Published Routledge, 2006.; Reppen R. Using corpora in the language classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.; Biber, D., Conrad, S. and Reppen, R. 'Corpus Linguistics. Investigating Language Structures and Use'. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

6. Xamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Monografiya. – Germaniya: GlobeEdit, 2020. – 250 b.

7. Eshmo'minov A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi: Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)...disser. – Qarshi, 2019.− 164 b.

8. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2022. −102 b.

9. https://ruscorpora.ru/page/corpora-structure/

10. https://ruscorpora.ru/search?search=CgQyAggTMAE%3D

11.https://sysblok.ru/linguistics/ot-drevnerusskogo-do-korpusa-blogov-kak-izmenilsja-nacionalnyj-korpus-russkogo-jazyka-posle-redizajna/

12. https://ruscorpora.ru/s/bmGkG

13. https://ruscorpora.ru/corpus/panchron

INSON KAMOLOTIDA TILNING AHAMIYATI

Allayarova Zebiniso Boymuratovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD
dotsent vazifasini bajaruvchisi +99890 3503082
Elektron pochta: zallayorova@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0003-6345-929X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyatning ma'naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog'liq xilma xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog'liq turlicha namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Bunday belgilar va o'ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta'sir*

ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo'lib hisoblanadi. Uning jamiyatdagi zamonaviy taraqqiyoti amaliy ahamiyati asoslab berilgan ma'naviy tarbiyani rivoji nuqtai nazaridan fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar. *Insonning ma'naviy kamolot, til, ma'naviyat, ma'rifat, ona tili, nafis nutq sezgisi, sivilizatsiya, muloqot, , ma'naviy kamolot, yetuklik, g'oya, jamiyat, me'yor.*

ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКА В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

Аллаярова Зебинисо Боймуратовна
Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой теории иностранных языков, к.ф.н., и.о.доцент
Elektron pochta: zallayorova@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0003-6345-929X

Аннотация. *В данной статье рассматриваются социально-философские, культурно-просветительские аспекты, которые по-разному проявляются в стратегии духовного развития общества в определенный период и обществе, различные особенности, связанные с государственной политикой и развитием человечества, населения, особенно анализируются процессы развития психики и настроения молодежи. Такие признаки и специфические аспекты являются общими критериями и базовыми факторами философских принципов, которые влияют на различные особенности понятий, связанных с этими вопросами. Приводятся идеи с точки зрения развития духовного образования, исходя из практической значимости его современного развития в обществе.*

Ключевые слова. *духовная зрелость человека, язык, духовность, просвещение, родной язык, изящное чувство речи, цивилизация, общение, духовная зрелость, зрелость, идея, общество, норма.*

THE IMPORTANCE OF LANGUAGE IN HUMAN DEVELOPMENT

Allayarova Zebiniso Boymuratovna
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Head of Department of Foreign Language Theory Ph.D. Associate Professor
Email: zallayorova@shdpi.uz
https://orcid.org/0009-0003-6345-929X

Abstract. *In this article, the social-philosophical, cultural-educational aspects that are manifested in different ways in the strategy of the spiritual development of the society in a certain period and society, various features related to the state policy and human development, the population , especially the processes of developing the psyche and mood of young people are analyzed. Such signs and specific aspects are common criteria and basic factors for philosophical principles that affect various features of concepts related to these issues. Ideas are given from the point of view of the development of spiritual education based on the practical importance of its modern development in society.*

Key words. *human spiritual maturity, language, spirituality, enlightenment, mother tongue, elegant sense of speech, civilization, communication, spiritual maturity, maturity, idea, society, norm.*

Kirish. Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favquloda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir" deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili - bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar."Demakki, millatning borlig'i va birligining bosh belgisi tildir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha - madaniyat, ta'lim va xalq qadriyatlaridagi adekvat o'zgarishlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan fikrlar shaxsning ma'naviy hayotida muhum ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida ham, butun jamiyatda ham ehtiyoj tobora ortib borayotgan tarbiyaning umumiy konsepsiyasida ma'naviyat tarbiyasiga alohida o'rin berilishi zarur. Zero Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir".[1]

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XI asr Sharqining ulkan pandnomachisi Kaykovus "Qobusnoma"da shunday bir ibratli hikoyatni keltiradi: Bir kecha xalifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi, tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa tongda muabbir (tushni ta'bir qiluvchi)dan tushining ma'nosini so'raydi. Muabbir shunday deydi: "Ey amiralmo'minin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi". Bu so'zni eshitgan Xorun ar-Rashid: "Mening yuzimga bunday qayg'uli so'zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o'lsa, so'ngra men qanday ishga yaraymanu qanday yashayman?" — deydi darg'azab bo'lib va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining ta'birini so'raydi. Muabbir bunday deydi: "Ey amiralmo'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo'ladi".

Shunda Xorun ar-Rashid deydi: “Barcha aqlning yo‘li birdir va ikkovining ta’birining negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag‘oyat ko‘pdir". So‘ng muabbirga yuz tillo berishni buyuradi.[2] Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg‘un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma’rifatu ma’naviyatiga bog‘liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to‘g‘ri va go‘zal bo‘lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Go‘zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlosu e’tiqod an’anasining ibtidosi, ayniqsa, ko‘hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq bag‘rida (Frot va Dajla daryolari oralig‘ida yashagan qadimgi shumerlarda) bundan besh ming yillar burun barpo bo‘lgan eng "keksa" muassasalardan bo‘lmish ilk maktablarning [3] bosh vazifalaridan biri ham bolani to‘g‘ri, aniq gapirish va yozishga o‘rgatishdan iborat bo‘lganligi, [4] ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o‘sha mohiyatini yo‘qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining nechog‘li muhtasham o‘rin tutishining shahodatidir.

Shuni ham ta’kidlamoq lozimki, "sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o‘rnashgan.

Sivilizatsiya, jumladan, Yunoiistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupoda moddiy-texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan... Qadimiy Turonda axloqqa katta e’tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat’i nazar, barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma’naviy kamolot va yetuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan".[5]

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning yurtimizda axloq serqamrov, mag‘zi to‘q va qiyosi yo‘q tushuncha sifatida azaldan jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikning asosiy omili bo‘lib kelgan. Ma’nili va bejirim gapira bilish, nutq zanjiridagi maqbul va nomaqbul halqalarni ilg‘ay olish, so‘zning orqa-o‘ngi, o‘z munosib o‘rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, nozik nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hatto aytish mumkinki, chin so‘z sezgisi inson komilligini tayin etuvchi fazilatlarning boshida tur- gan. Aziziddin Nasafiy “Komil inson” nomli kitobida yozadi: “Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt narsaga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi — yaxshi so‘z, ikkinchisi — ezgu faoliyat, uchinchisi — go‘zal axloq, to‘rtinchisi – ilm”.[6]

“Qobusnoma”da Kaykovus farzandiga shunday o‘git beradi: “Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har na so‘z desang, yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o‘xsharsanki, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas. Suxango‘y shul kishi bo‘lg‘ayki, ul har so‘zni desa, xalqqa ma’qul bo‘lg‘ay va xalq ham har so‘z desa, unga ma’qul bo‘lg‘ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg‘ay, yo‘q ersa, ul inson suratida mavjud bo‘lg‘on bir hayvondur” .[7]

Buyuk so‘z ustasi Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini dunyoga tanitib qolmasdan, balki beqiyos so‘z ustasi bo‘lgani uchun ham jahon adabiyotining tengsiz namoyandasidir. Olamda turkiy yoki forsiy tilda so‘zlovchi biron – bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.[8] Buyuk mutafakkir va alloma Mir Alisher Navoiy butun dunyoni o‘z qalami bilan egallab oldi.

Adibning lirik asarlarida odam va olam, hayot va uning go‘zalliklari o‘quvchilarga ravon va sodda qilib yetkazib beriladi. Yosh avlodni ma’nan yuksaklikka erishishida atrofdagilarga doimo yaxshilik qilish, ezgulik urug‘ini keng olamga tarqatish bu esa o‘z navbatida o‘ziga va oila a’zolariga yaxshilik bo‘lib qaytishi haqida asarlaridagi qahramonlar, she’riy misralarida o‘z ifodasini topadi. Masalan, “Nazm ul – javohir” (“Gavharlar tizmasi”) asari, asosan, tasavvuf g‘oyalari orqali talqin qilinadi:

Farzand ato qulligin chu odat qilgay,
Ul odat ila kasbi saodat qilgay,
Har kimki atoga ko‘p rioyat qilgay,
O‘g‘lidin anga bu ish siroyat qilgay.[9]

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy o‘z asarlarida nafaqat axloqiy-didaktik masalalar, shuningdek falsafiy jarayonlar haqida ham batafsil ilohiy tarzda, ya’ni, panteistik ta’rif beradi. Uning fikricha, dunyoning barcha sir-asrori ilm bilan yechiladi, bu jarayonni amalga oshiruvchi kuch Allohning xalifasi ya’ni – “o‘rinbosari”, “shogirdi” bo‘lgan komil insondir. Xususan, Navoiy asarlarida uning davrigacha astronomiya ilmida ma’lum bo‘lgan – Atorud (Merkuriy), Zuhra (Venera), Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn) sayyoralari turli ta’rif va timsillar orqali keltirilgan [10].

Tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudriyati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan. XX asr boshlariga kelib, Mahmudxo‘ja Behbudiy (1815-1919), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ashurali Zohiriy (1885-1937) kabi bir qator ma’rifat darg‘alari ona tilimiz muhofazasi va rivoji, sofligi va nafosati, nafis nutq sezgisi haqida jiddiy qarashlarni ilgari surganlar.

Yevropa tilshunosligida til va nutqni farqlash zaruriyatini asoslash, til va nutq tushunchalarining mohiyatini belgilash, bu ikki hodisaga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, avvalo, mashhur shveytsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur nomi bilan bog‘liqdir. Uningcha, “til tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan teng emas; til - nutqiy faoliyatning muayyan bir, albatta, eng muhim qismi”, til so‘zlovchining faoliyati emas, u tayyor mahsulot, ijtimoiy hodisa, nutq esa individual faoliyat, so‘zlovchining o‘z fikrini ifodalash maqsadida til belgilaridan foydalangan holda reallashtirgan kombinatsiyasi mahsulidir. Til shu qadar mutlaqo o‘ziga xos narsaki, so‘zlash qobiliyatini yo‘qotgan odam ham tilni saqlaydi, ya’ni u eshitadigan til belgilarini bemalol tushunaveradi. Uning ongida til yaxlitligicha turaveradi, shu tilda o‘ylayveradi, faqat nutqni reallashtirish uchun nutq organlarining tegishli harakati yo‘qolgan bo‘ladi, xolos. F.Sossyurning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: “...Nutqiy faoliyatni o‘rganish ikki qismga bo‘linadi; ulardan birining,

asosiysining o‘rganish predmeti tildir, ya’ni mohiyatan ijtimoiy va individga bog‘liq bo‘lmagan narsadir; bu sof psixik fan; boshqasining, ikkinchi darajalisining o‘rganish predmeti nutqiy faoliyatning individual tomonlari, ya’ni nutq (fonatsiya — tovush chiqarish bilan birga); bu fan psixofizikdir.

Tilni madaniyat ko‘zgusi deb hisoblagan atoqli olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning ushbu gaplari til hodisasining mohiyatini yanada teranroq anglashga imkon beradi: "Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko‘rishning farqliligi natijasidir.'" Haqiqatan ham, har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umuman, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Ana shunga ko‘ra “milliy ong”, “milliy tafakkur”, "milliy tuyg‘u" degan tushunchalar millat boqiyligining betakror ustunlari sifatida yashab keladi. Amerika etnolingvistikasining asoschilaridan biri Benjamin Li Uorfking “Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o‘ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo‘lardi" degan so‘zlarida ulkan haqiqat mavjud.

Adabiy til meyorlari buzilishining ikki turini farqlash lozim. Birinchisi shuki, so‘zlovchi yoki yozuvchi adabiy til meyorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yo‘l qo‘yadi va u tuzgan nutq noto‘g‘ri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa so‘zlovchi yoki yozuvchi adabiy til meyorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu me’yorlarini buzadi va uning nutqi noto‘g‘ri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunday holatlar buzilish deb emas, balki adabiy me’yordan chekinish tarzida baholanadi. Bu o‘rinda, tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Adabiy til meyorlariga amal qilish badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. XX asr fransuz adabiyotining yirik vakillaridan biri Pol Valeri badiiy prozani piyoda yurishga (qadimgi yunonlar “piyoda so‘z” deydilar), poeziyani esa raqsga o‘xshatgan, tadqiqotchi N.I.Balashov bu o‘xshatishni esga olib, estetik ma’noda badiiy prozada ham so‘zlar poeziyadagi kabi qimmatga egaligini ta’kidlaydi. Aytish mumkinki, haqiqatan ham, badiiy nutqda so‘zlar kutilmagan va ko‘rilmagan, odatiy va g‘ayriodatiy harakatlar, turfa ohanglar va ovozlar bilan raqsga tushadi. So‘zlar, qo‘shimchalar, hatto gaplar me’yorlar degan qat’iy qoidalarning chizgan chizig‘idan osonlik va ustalik bilan chiqib ketadi. Shu tarzda nutq badiiy degan sifatga sazovor bo‘ladi.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o‘qituvchilarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko‘nikmalari va malakalarini oshirish, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
2. Qobusnoma. - Toshkent: Meros, 1992.- 33 - 34-betlar.
3. Kramer S.N. Istoriya nachinayetsya v Shumere - Moskva: Nauka, 1991.
4. Kyera E. Oni pisali na gline.- Moskva: Nauka, 1984. S. 87-93.
5. Jo'rayev N.Agar ogoh sen... - Toshkent: Yozuvchi, 1998.- 106 - 107-betlar.
6. Haqqul I. Navoiyni anglash mashaqqati // O'zbek tili va adabiyoti, 2005. - 141, 5-bet.
7. Qobusnoma, 34-bet.
8. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". – Toshkent, 2017.
9. A.Navoiy. Nazm ul –javohir.- Toshkent, 2014
10. Navoiy. A.MAT: 20 tomlik. 11 t. Xamsa: Saddi Iskandariy. - Toshkent: "Fan", 1993. –B. 24-34.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MILLIY QADRIYATLARNING BADIIY TALQINI.

Namazova Manzura Urakovna- Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi v.b. dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarning badiiy talqini Rustam Musurmon she'riyatini ichdan nurlantirib va uni tutib kuch. Uning "Buyuk yo'l", "Uchinchi renessans poydevori", "Ona tilimda nutq", "Ona tilim", "Vatanim", Termiz", "Oqsaroy", "Bunyodkorlik" singari ko'plab she'rlari fikrimizni to'la tasdiqlaydi.*

Tayanch so'zlar. *adabiyot, milliylik, jasurlik, mardlik, qadr-qimmat, jadidlar, illatlar, johillik, ilmsizlik.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Намазова Манзура Ураковна-Шахрисабзский государственный педагогический институт , кафедра узбекского языка и литературы, в.и.доцент,доктор филологических наук (PhD)

Аннотация. *Понимание национальной самобытности и художественная интерпретация национальных ценностей освещает поэзию Рустама Мусурмана изнутри и удерживает ее. Многие его стихотворения, такие как «Великая дорога», «Основание третьего Возрождения», «Речи на родном языке», «Мой родной язык», «Моя Родина», «Термиз», «Оксарой», «Строительство» наполняет наши мысли.*

Ключевые слова. *литература, национализм, мужество, отвага, достоинство, современность, пороки, невежество, невежество.*

ARTISTIK INTERPRETATION OF NATIONAL IDENTITY AND NATIONAL VALUES.

Namazova Manzura Urakovna Shahrisabz State Pedagogical Institute
Department of Uzbek Language and Literature, associate professor (PhD)

Abstract. *Understanding of national identity and artistic interpretation of national values illuminates Rustam Musurman's poetry from the inside and holds it. Many of his poems, such as "The Great Road", "The Foundation of the Third Renaissance", "Speech in My Mother Tongue", "My Mother Tongue", "My Motherland", "Termiz", "Oksaroy", "Building" fill our thoughts.*

Key words. *literature, nationalism, courage, bravery, dignity, modernity, vices, ignorance, ignorance.*

Kirish (Introduction). Insonning haqiqiy qadr-qimmati, uning kimligi va qanday odam ekanligi Vatan bilan belgilanadi. Inson taqdiri hech qachon vatandan ayro bo‘la olmaydi, shu bir so‘zda inson qismati hal bo‘ladi shoir vatan himoyachilariga murojaat qilarkan, vatan xalqni qo‘riqlash uchun chegaralab olingan hududligi va uni dushmandan asrash va himoya qilish san’ati Shiroq va To‘marisdan qolgan meros ekanligini uqtiradi. Mardlik er yigitning ziynati, jangda ba’zan bitta qo‘rqmas, dovyurak alp yigit zabt etib bo‘lmaydigan istehkomga aylanadi. Qo‘rqoqlik esa xoinlikning boshlanishi, chunki qo‘rqoq uchun muqaddas tushunchaning o‘zi yo‘q. “Biz ona vatanga qilamiz xizmat”, “Vatan himoyachilariga” she’rlarida mana shunday yuksak qadriyatlar xususida so‘z boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Shoir “Muqaddas burch” she’rida vatanni sevish oliyjanoblik va har bir fuqaro oldidagi burch ekanligini uqtiradi:

Xalqning nomi bilan aylab qasamyod,
Vatanni sevgaymiz jondan ham ziyod.
Armiya xalq bilan hamisha birdam,
Yangi O‘zbekiston bo‘lgaydir bunyod [5, 76]

Shoirning “Polvon”, “El egasi er yigit”, “Ona va o‘g‘il” kabi she’rlarida mehr-oqibat, mardlik, halollik, or-nomus xususida so‘z boradi. Sharqda barcha zamonlarda sharm-hayo, or-nomus oliy qadriyat sanalgan. Xalq og‘zaki ijodida ham bu fazilatlarga alohida diqqat qaratiladi. “Uyat – o‘limdan qattiq”, “Nomus bozorda sotilmas” kabi maqollarning zamirida ham insonning sha’ni muqaddas ekanligi, odobning bebaho ne’matligi, insonning insonligi uning or-nomusi bilan o‘lchanishi uqtirilgan. Shoirni “yuzi qarolar”– hayosizlarning ko‘payib borayotgani tashvishga soladi. Uzoq yillar davomida begona, sho‘roviy e’tiqod, tuzum ostida ushlab turilgan xalqni ichdan yemirishning yo‘li uning maslak-e’tiqodini sindirish bo‘lgan. Buni o‘z vaqtida sezgan jadidlar XX asrning boshlaridayoq bu masalani ko‘tarib chiqqan edilar. Behbudiy,

Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhammedov, A.Avloniy singari ma’rifatparlar matbuot, teatr va o‘z asarlarida bu illatlarga qarshi kurash ochgandilar.

Hamma jadidlar ortiqcha urf-odat, dabdaba, ma’rakabozlik, isrofgarchilik, qimor, ichkilik, fahsh, it urishtirish, hatto ko‘pkariga ham qarshi bo‘lganlar. Sababi, bu nojo‘ya, gunoh ishlar millat oyog‘iga tushov, taraqqiyotiga, ijtimoiy-siyosiy fikr tarziga g‘ov deb to‘g‘ri o‘ylaganlar. Chunki, jaholatning qaysi ko‘rinishi bo‘lmasin, kattami-kichikmi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikr yovi, o‘z a’moli badiga g‘arq qilish, taraqqiy, ma’rifatdan chalg‘itishdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy yozgan, milliy turmushimizdan olingan “Padarkush” dramasini eslang. Boy odamning johil ilmsiz o‘g‘li ichkilik, qimorga berilib, o‘z otasini o‘ldirishgacha boradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Amir Xudoyberdining 1989 yilda yozilgan “Bu zamona zaylimi” she’rida ham millatimiz sha’niga qora dog‘ bo‘lgan – axloqsizlik va ichkilikbozlik tanqid qilingan:

Ayollarda ro‘mol yo‘q,
Erkaklarda belbog‘ yo‘q.
Kazzoblarni osishga
Dor topilmas – sirtmoq yo‘q!
Bu zamona zaylimi [10, 23]?

Or, nomus, insonning sha’ni va qadr-qimmati bebaho, uni moddiy ne’matlar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda axloqning tobora yemirilib borayotganligi, o‘zbekona hayo, ibo, or, nomus kamyob bo‘lib borayotganligi, oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganligi achchiq haqiqat. Biz uchun taraqqiyot qanchalik zarur bo‘lsa, odob-axloq undan ko‘proq kerak. Olam yaralgandan buyon taraqqiy topgan ne-ne ulkan tamaddunlarning yo‘qolib ketganligi tarixdan ma’lum. Buni anglagan shoir she’rida zamonamizning “Alpomishu Barchinoy” lariga murojaat qilib vafo mehr qani deya ularga o‘z noroziliklarini bildiradi:

Barchinoy sadoqatin,
Saqlab turar tishida.
Ultontozdan orttirgan
Gumonasi ichida
“Ko‘ngil ko‘zgusi” faslida shoir yozadi:
– Men sizni sevaman, ishonmasangiz,
Ichishim mumkindir hattoki qasam.
Nahotki?!
– Ishoning, sevgim – beshumor,
Semiz hamyoningiz ursin, aldasam... [10, 23]

Hamma narsani pul, boylik bilan o‘lchash ma’naviy qashshoqlik, mahdudlik belgisi. O‘z nomusini sotgan hech kimga vafo qilmaydi, chunki o‘zini sotgan, albatta, nafs uchun hammaga xiyonat qiladi.

“Iffat deb, – yozadi Abdulla Avloniy, – nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma’siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan

nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdir [1, 58]". Demak, tarixan keng tushuncha, qamrovga ega bo'lgan iffat so'zi bizning davrimizda ma'nosi bir qadar torayib, hozir, odatda hayo, bokiralik, afiflik ma'nodoshi sifatida qo'llanadi.

Aslida esa iffat ma'no qamrovi ancha keng insonning gunohlar qilishdan (yolg'on, g'iybat, bo'hton, dilozorlik, vijdonsizlik, adolatsizlik, axloqsizlik) saqlanish bo'lib, hayo uning bir qismidir.

Iffat – so'zda sodiqlik, maslakda mustahkamlik, vijdonga qarshi ish qilmaslikni talab qiladi. Demak, iffat insonning eng ulug' fazilati, gunohlardan tiyuvchisi, or-nomusi, vijdon ko'zgusi, shaytoniy qutqulardan asraguvchisidir. Iffatning zidi iffatsizlik, ya'ni gunohlarga boshlovchi, balo eshiklarini ochuvchi, ko'ngillarga chirk, qurum yuqtiruvchi manfiy xususiyat. Hayo ibo esa, Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" asarida yozishicha, "iztirobki, gunoh ish qilish asnosida odamning vijdoni uyg'onib, uni shu ishdan manfaat qiladi. Hayo – bu gunohini boshqalar bilib qolishidan qo'rqish [8, 151]".

Hayo odamning hayotda, muomila-murosada, ishda, so'zda odob qoidalariga, milliy qadriyatlarga rioya qilishi, xushfe'lligi, halimligi, andisha va oqibatliligi, kamtar va adolatliligi, ma'naviy-ruhiy boyligi, yaxshi tarbiya ko'rganligidir. Hayoli odam tili va diliga mustahkam bo'ladi. Hayoli odam irodali, qat'iyatli, vijdoni pok, imon - e'tiqod, maslagi mustahkam bo'ladi. Amir Xudoyberdi barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan hayo, vafo to'g'risida kuyunib yozadi:

Sharmanda qo'rqmaydi sharmandalikdan,
Yuz o'girgan Haqqa u bandalikdan.
Balchiqqa botishdan qo'rqmaydi to'ng'iz,
Go'ng ichida huzur qiladi qo'ng'iz [9, 329].

Shoir uyatsiz, or-nomussiz kishilarning qiyofasini to'ng'iz va qo'ng'izga o'xshatadi. Bu ikki jonivor aqli bo'lmaganligi uchun haloldan haromni farqlamaydi, biroq insonga eng bebaho ne'matlar aql, tafakkur berilgan. Hayo, ibo, zehn, fikr, xotira, qiyosiy mushohada zo'rligi va qiyosidan kuch olib boradi. Hayosiz odam esa oilaga, din va millatga koni zarardir. Hayo kishini aziz va mo'tabar, hayosizlik xoru zor qiladi.

Millat bu "ommaviy madaniyat" niqobi ostida tiqishtirilayotgan jiddiy xavfdan ehtiyot bo'lishi va unga qarshi ma'rifat, ta'lim bilan tizimli kurashishi lozim.

Ulug' Shayx Zunnuni Misriy: "Allohning zikri mening jonimdir, hayo esa mening libosimdir!" – degan ekanlar. Endi shu hikmat ko'zi bilan dunyo va milliy hayotimizni kuzating-chi?! Har kimning iffatu hayoti uning ma'naviy ruhiy boyligi, mavqeyi hamdir. Hayosiz odamlar kam yuksaladi, mabodo, tasodif bilan nimagadir erishsayam, oqibati xosiyatli bo'lmas. Xalq o'zining ming yillik tajribasidan kelib chiqib, yaxshilik qilishga, har doim halollikka qasd qilishga, poklikka intilishga da'vat qiladi va odob, hayo, xushxulqlik inson uchun aziz ne'mat ekanligiga katta e'tibor qaratadi.

Ya'ni, elga molu dunyo, sharaf-shon obro' bo'lmay, hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi. "Yaxshi qiliq" – hayo va odob degani. Odamning hayosi – uning asli, nasli, tarbiya, ma'rifat, zakosini ko'rsatadigan oynasi.

"Baxshiyona" she'ri xalqona ohanglarda, qipchoq lahjasida 1999 yilda yozilgan. Unda Maxtumquliga izdoshlik va hamohanglik, xalq dostonlariga xos sodda va ravon

uslub, ogʻzaki ijodga xos obrazlar boʻrtib koʻrinadi. Muallif oʻz oʻquvchisiga boshingga ogʻir kulfat tushganda ham oʻzini qoʻlga olish, irodali boʻlish, yigʻlamaslik, aks holda dushmanlari uning ahvolidan kulishlarini, oʻlsa ham, bardoshli boʻlishni uqtiradi. Borar joying togʻ boʻlsa, botqoqlikka qulama, deydi shoir. YA'ni, oʻzingga munosib boʻlgan davraga oʻtir, hurmating va qadringni bilgan bilan doʻst tutin, aks holda uyalib qolasan, deydi u:

Elim deding, shon quchding,
Diynim, deb iymon quchding.
Nomusing oq yaktakni
Qora loyga bulama.
Inonmagin roziga,
Soxta, chuchmal noziga.
Kokili tovon urgan
Qizning sochi ulama [9, 134].

Mustaqillikka qadar boʻlgan davrda adabiyot mavzuviy va chegara jihatdan ma'lum cheklovlarga ega edi. Bu cheklov millatning ong-tafakkuriga, aql-zakovatiga, tili va diniga, madaniyati va ma'rifatiga urilgan ulkan, ogʻir temirdan iborat edi. Choʻlponning "Ey koʻngul, sen munchalar, kishanlar birla doʻstlashding yoki ... ki sen ham hur tugʻilgʻonsen [2, 444]", - deb faryod chekkani behudaga emas. Shunga hamohang shoir yozadi:

Erk ohusimidir magar suv ichar koʻngildan,
Suvning har qatrasi nolon, eshitmas...
Zangladi kishanlar, dema, hurriyatdin
Ungan giyoh ohimni nayson eshitmas.
Zindon hidi kelar olamdin, istiqlol
Befarqlik domida ayon, eshitmas...
Onam qoʻygan edilar ismimni Amir deb,
Qul jismim ismimni hamon eshitmas [9, 232].

Totalitarizm fikr erkinligiga shunaqa hamla qildiki, buni hech qachon xayolga keltira olmasdik. Tan olish kerakki, uning fikrni nazorat qilishi faqat taqiqlash maqsadlarini emas, balki kerakli rejalarni ham nazarda tutadi. U nafaqat ayrim fikrlarni ifodalashga qarshilik qiladi, balki nimalar haqida oʻylash lozimligini uqtirib turadi; shaxs qabul qilishi lozim boʻlgan mafkura yaratiladi, uning his-tuygʻularini boshqarishga tirishadi va axloq namunasini belgilab beradi. Mafkura shaxsni, iloji boricha, sun'iy muhitga solish, taqqoslash imkonidan mahrum etish uchun tashqi olamdan ajratib, oʻrab tashlaydi. Totalitar davlat, albatta, oʻz fuqarolarining fikr va tuygʻularini, xuddi ularning xatti-harakatlarini nazorat qilgandek, nazorat ostiga olishga urinadi [7]. 1941-yilda J.Oruell tomonidan berilgan baho XX asrning soʻnggi oʻn yilligiga qadar amalda yanada rivojlantirildi. Odamlarning har bir fikrini nazorat qilgan qonli siyosatning ijodkorlarga munosabatini tasavvur qilish mumkin. Buni millatni ozod va hur koʻrishni istagan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Choʻlpondan tortib, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Mirtemir, Rauf Parfigacha boʻlgan vatanparvarlarning taqdiri misolida koʻramiz.

Rustam Musurmon dunyoqarashining shakllanishida o‘zbekning asrlar davomida xalqning qon-qoniga singib ketgan urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi ham katta ta’sir qilganligi, shubhasiz. Uning nigohlarida sodda, to‘pori, halol, tanti, bag‘rikeng, odamoxun, oriyatli qishloq odamlarining aksi qotib qolgan. Shoir dunyoni ularning nigohi bilan ko‘radi, voqea-hodisalarni o‘sha mezonlarda baholaydi. She’r o‘sha yurakda tug‘iladi. Asriy qadriyatlar, betakror ma’naviy meros saqlanib qolgan go‘shasini sog‘inishi ham shundan. Shoirning bisotida “Vatanim”, “G‘urur”, “Eng qadim turku”, “Mustaqillik”, “Oqsaroy” kabi she’rlari uning yurt tarixini chuqur bilishini, qadrlashini, sevishini ko‘rsatadi.

Odam Otaning nasliga beshik bo‘lgam tog‘larim,
Moma Havoning vasliga oshiq bo‘lgan bog‘larim,
Avliyolar isi kelgan mo‘tabar tuproqlarim,
Ohuvva-hay, vatanim-ay,
Ohuvva-hay, vatanim! [4, 35].

“Umuman olganda, istiqlol adabiyotga, yozuvchiga nimalarni tuhfa etdi? – deb yozgandi Abdulla Oripov. – Avvalambor, u chinakam ijod qilish, yaratish, haq so‘zni, haqiqatni baralla aytish erkinligini berdi. E’tibor qiling, sho‘rolar davrida milliy qadriyatlarimiz moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xolos. Diniy e’tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Bir yoqlamalilik, yuzakichilik, ijodkorlarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o‘rgatib qo‘ygan edi. Faqat baxt va saodatni kuylash, aslida, yo‘q yorqin kelajakni ulug‘lash odat tusiga aylangan edi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag‘lubiyatlar qatag‘on mavzu hisoblanar, ular aslo rag‘batlantirilmas edi [6, 272]”.

Qur’oni Karimda ham munofiqlik gunohi kabira ekani aytilgan: “...Ular Ollohni va iymonli kishilarni aldamoqchi bo‘ladilar va o‘zlari sezmaganlari holda faqat o‘zlarinigina aldaydilar. Ularning dillarida maraz-iymonsizlik bor edi, bas, Olloh marazlarini yanada ziyoda qildi. Ular uchun qilgan yolg‘onlari sabab alamli azob bordir [5, 37]”.

Milliy qadriyatlarning poetik talqinida shoir qator ifoda-tamsillarni o‘zaro zid qo‘yib, kontrast usulida yorqinlikka va teranlikka erishadi. Aniqrog‘i, muallif ezgulik elementlarini tasvirlashda yorug‘lik, yovuzlikni ifodalashda esa zulmni bildiruvchi ramz va timsollardan unumli foydalanadi. Ijobiy va salbiy ikki kuchning o‘zaro kurashi shu tariqa jonlantiriladi, bunday she’rlarda badiiy ijodning rangtasvir va kino sa’nati bilan sintezini ko‘rish mumkin. Muallifning “men”ini to‘laqonli ifodalash, ma’naviy-ruhiy olamni ko‘rsatish uchun jonli va jonsiz yaratiqlar muhim badiiy tasvir vositasiga aylanadi.

Amir Xudoyberdi har bir narsa o‘zining ziddi orqali o‘zligini namoyon qilishini va asliga muvofiq aks etishini nazarda tutib, aytmoqchi bo‘lgan fikrini qarshilantiradi va shu yo‘l bilan she’rning ta’sirchanligini yanada oshiradi:

Aravani to‘xtating, tushib qolaman,
Axir boshqa erur borar manzilim.
Yanglishib minibman, to‘xtating tezroq,
Tushaman bu bekat bo‘lsa-da o‘lim [9, 9]!

Lirik qahramon 1 shaxs, kishilik olmoshi men – shoirning o‘zi. U 1986 yilda yozilgan bu she’rida yolg‘on, soxtakorlik, zulm va aldovga asoslangan mustabid sovet tuzumiga, uning totalitar mafkurasiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqadi. Xalqni tili, dini, tarixi va milliy qadriyatlaridan ajratib, asoratda, mute va fikrsiz holda tutib turishni ko‘zlagan hukmron jamiyatning tanazzulga uchrashi muqarrar. Lirik qahramon bu siyosatga bo‘ysunishni, unga xizmat qilishni istamaydi. Arava ustidagilar unga begona, chunki ular allaqachon qalbini, o‘zligini yo‘qotgan qavm. Aravakash esa uning dod-faryodiga parvo qilmaydi, aravadagilar uning ustidan kulishadi. Manqurtga aylanib borayotgan bu to‘da uchun dunyo – arava, ularning ixtiyori, erki aravakashning qo‘lida**.** Mustaqillikdan besh yil oldin yozilgan mazkur she’rda mustabid tuzumning xalqni aldab-avrab o‘z qo‘shig‘ini aytishga ko‘ndirgani, ammo hushyor kishilarning bu yo‘lning mahdudlik, manqurtlik saltanatiga olib borishini allaqachon anglab yetganliklarini ko‘rsatadi. Shuning uchun manzilga teskari tomon ketayotgan aravadan tushib qolishni istaydi:

Tuyoqlari qizib sapchiydi otlar
Borar manzilimga teskari tomon [9, 9].

Uchinchi Renessans davriga tayyorgarlik ko‘rilayotgan davrda ham poraxo‘rlik, korrupsiya muhim muammoligicha qolmoqda. Davlat idoralaridagi ko‘zbo‘yamachilik, sansalorlik, o‘zboshimchalikni tugatishga qarshi chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, ammo uzil-kesil nuqta qo‘yish imkonsiz bo‘lib qolmoqda. Kundalik hayotda uchratishimiz bo‘lgan mana shunday holatlar shoirga begona emas:

Kibru havolangan nafsing endi xor,
Tepadan to‘qmoq yeb ahvoling abgor.
Yalinib-yolvorgil, iltijolar qil,
Shoyad qabul etsa tavbangni G‘affor [9, 370].

Ma’lumki, Shayton dastlab farishta, balki farishtalar ustozi edi. Uni haris deb atashar, bu so‘z izzat-nafsini haddan ziyod baland tutuvchi ma’nosini bildirar edi. U toat-ibodatni ham haddan oshirar edi. Butun koinot bo‘ylab Ollohga sajda qilar, u Allohga sig‘inmagan biror joy qolmagan edi. Parvardigor odamni yaratganida, u toat-ibodatlari tufayli kekkayib, kibru havoga berilgandi. Shu sababli ham Allohning, Odamga sajda qil, degan buyrug‘idan bo‘yin tovladi. Manmanlik, takabburligi tufayli Allohning lutfu marhamatidan mahrum bo‘ldi.

“...Tasavvuf ahlining imomi, ilm dengizining duri, ilm sabotining tog‘i” (F. Attor ta’birlari) Siri Saqatiy hikmatlaricha: “Agar gunoh kibrdan bo‘lsa, uni kechiriladi, deb umid qilmanglar. Chunki, Hazrati Odam Atoning gunohi shahvatdan, u kechirildi. Iblisning gunohi kibrdan edi, u abadulabad kechirilmas!” [3, 288]. Demak, bu dunyodagi manmanlik, takabburlik bilan bog‘liq gunohlar kechirilmas ekan, bandaning umidvor bo‘lishi ham xato ekan:

Mish-mishchining tili uzun, g‘iybatchining qulog‘i,
Qoraqum yuragida zahar-zaqqum bulog‘i.
Go‘ng titgandek huzur qilar fisqu fujur gaplardan,
Pokroq erur bundaylarning og‘zidan it yalog‘i [10, 370].

Amir Xudoyberdi o‘zining “Osiy banda” she’rida o‘zining kamchiliklarini, faqat o‘ziga xos bo‘lgan nafsga qullik, irodasizlik, qo‘rqoqlik, xudbinlik va mahmadonalik

kabi illatlarni sanab, bunday "dard" lardan qutulishi uchun Xudoga duo qiladi. She'r yakunlanib borar ekan, shoir birgina bandda "men" dan atrofidagi odamlarning tavsifini keltirib o'tadi va unday insonlar bilan yashash ham baxtsizlik ekanligini aytib, Xudodan yaxshisi jonimni olib iymon bergin deya iltijo qiladi:

Chor atrofga qaraydurman: zamon ahli
Zalolatga mukka tushgan, kosir aqli.
Bo'lolmadim bu izdihom ichra baxtli,
Ol jonimni, Xudo, bergil iymonimni [10, 25].

Shoir yana shu mavzuda qalam tebratar ekan, riyokor insonlar haqida shunday deydi:

Taqvoda taqvosiz kimsalar ham ko'p,
Ular ayro emas, afsuski, to'p-to'p.
Dinning mag'zin qo'yib, po'chog'in chaynar,
O'ng qo'lida Qur'on, chap qo'lida cho'p.

Bu to'rtlik yuqorida aytganimizday riyo haqida. Riyo degani o'zini taqvodor ko'rsatib, aslida muttahamlik, firibgarlik bilan shug'ullanishni kanda qilmaydi. Bu tipdagi munofiq kimsalar oz emas, "to'p-to'p". Oxirgi misrada yumor hissi ham mavjud. Bir qo'lida Qur'on ko'tarib, o'zini dindor ko'rsatishga urinayotgan chala mulla, amalda boshqalarning ketini kovlash bilan huzurlanadi. Shu bois ularning ikkinchi qo'lida doim cho'p bo'ladi. Bu ramziy ma'noga ega, aslida shoir insonni til va dil birligiga da'vat etmoqda. Riyo, munofiqlik yomon illat ekanini uqtirmoqda. Shoirning bu maqsadi takror (taqvo, to'p-to'p, qo'l), tazod (mag'iz–po'choq, o'ng–chap) va tajnis (ko'p, to'p, cho'p – ayni paytda qofiya ham) san'ati orqali yuzaga chiqqan.

Shoir o'zining ko'plab she'rlarida insonlar timsolini berishda hayvonlardan foydalanadi. Masalan, bulbul obrazi orqali oddiy xalq vakilini gavdalantirishga harakat qiladi va unga zog' obrazini doimo zid ravishda qo'llaydi. Bunday juft holatda ishlatishni uning ko'plab she'rlarida ko'rish mumkin. Masalan, "Evrilish" kitobida keltirilgan misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

Men bulbul umrini yashasam bo'ldi,
Yarashadi uzoq umr zog'larga.
Bor umrimni bergum tog'da chuldur-chuldur
Oqayotgan sho'x buloqlarga! [10, 47].

yoki:

Bu xarob olamda zog'lar ishratiga had urib,
Bulbuli zorimni kuylatmoqqa bir gulzor kerak [10, 98].

yoki:

Dunyo ma'nosi bir "oh" dir, azaldan u xarob bog'dir,
Ko'ngil – bulbul, vujud – zog'dir, galamdin voz kecholmasman [10, 128].

kabi misralarga duch kelamiz. Bu esa shoirning tashbehlarida bir xillik orqali mavzuning davomiyligini va an'anaviylikni taminlashga ximzat qilmoqda.

Har ikki shoir ijodining deyarli har birida milliy qadriyatlar, o'zlik masalasi ustun turadi. Insonlarni komillik sari harakat qilishga chorlaydi. Yomon odatlar, amallar, illatlardan qochishga undaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion). Har bir ijodkor, avvalo, o‘z davrining farzandi. Shoir mustabid sho‘ro zamonida tug‘ilib, o‘sha davr fojealarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, mustabid tuzumning inson erkini va haq-haquqlarini oyoqosti qilganligini ko‘rgan, bu esa uning shaxs va ijodkor sifatida shakllanishiga, ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgani tabiiy. Shoirning davr, tarix, voqelikka munosabatidan yaratilgan she’rlarida lirik qahramon “men”i – shoir shaxsiyatining muayyan aksi yaqqol ko‘rinib turadi. Zulm, istibdod, ma’naviy qashshoqlik, erksizlikka qarshi isyon, milliy qadriyatlarning badiiy talqini Rustam Musurmon ijodining mazmun-mundarijasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. -Т.: “Маънавият”, 2006.- 58-бет.
2. Абдулҳамид Чўлпон. Яна олдим созимни.- Т.: “Ғафур Ғулом”, 1991.- 444-бет
3. Фаридиддун Аттор. Тазкират ул-авлиё. Таржимон Абдулҳамид Мадраимов.-Т.: Ғ.Ғ номидаги НМИУ, 2012.- 288- б.
4. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. - Т.: Чўлпон, 1992. - 544 б.
5. Мусурмон Р. Бир жуфт сўз.- Т.: АДАБИЁТ, 2022. - 434 б.
6. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. - Т.: Ғ.Ғулом
7. Орипов А. ҳаж дафтари. ҳикмат садолари. - Т.: Шарқ, 1992. - 64 б.
8. Оруэлл Ж. Адабиёт ва тоталитаризм. Таржимон: А.Отабой. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 1996.- 16-август.
9. Фитрат. Танланган асарлар.- Т.: Маънавият, 5-жилд. 2010. 302 б.
10. Амир Худойберди. Таҳаммул.- Т.: Мусиқа, 2015.-432 б.
11. Амир Худойберди . Эврилиш.- Т.: Янги аср авлоди, 2002.- 242 б.

XX ASR INGLIZ, O‘ZBEK VA TURK HIKOYACHILIK NAMUNALARINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI

Elboyeva Madina Botirovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
madinaelboyeva1102@gmail.com orcid: 0009-0001-9178-7536

Niyazova Feride Seyful qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
ferideniyazova93@gmail.com

Islomova Aziza Hasan qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
islomovaaziza95@gmail.com orcid: 0009-0006-8867-2283

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot maqolasida ingliz, o‘zbek va turk adabiyotida XX asr ingliz va o‘zbek hikoyachiligining ahamiyati va roli haqida fikr yuritiladi. Hikoya janri rivojida hissa qo‘shgan jahon va o‘zbek adiblari Jek London, Vashington Irving,*

Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sulton asarlaridan namunalar va misollar keltirilgan holda ularni hikoyachilik janridagi beqiyos o'rni va hikoya janri rivojidagi hissasi asarlari orqali tahlil etilib, ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: *hikoya, tadqiq, ilmiy meros, uyg'unlik, hikoya, janr. Vashington Irving, Jek London.*

THE ROLE OF ENGLISH, UZBEK AND TURKISH STORIES OF THE 20TH CENTURY IN WORLD CULTURE

Elbaeva Madina Botirovna
Senior teacher of Shakhrisabz state pedagogical institute
madinaelboyeva1102@gmail.com orcid: 0009-0001-9178-7536

Niyazova Feride Seyful qizi
Senior teacher of Shakhrisabz state pedagogical institute
ferideniyazova93@gmail.com

Islomova Aziza Hasan qizi
Teacher of Shakhrisabz state pedagogical institute
islomovaaziza95@gmail.com orcid:0009-0006-8867-2283

Abstract: *This scientific article discusses the importance and role of English Uzbek and Turkish storytelling in the English and Uzbek literature of the 20th century. World and Uzbek writers who contributed to the development of the story genre, Jack London, Washington Irving, Murad Mohammad Do'st, Khairiddin Sultan, are given samples and examples, and their incomparable place in the story genre and their contribution to the development of the story genre are analyzed through their works and scientifically substantiated.*

Key words: *story, research, scientific heritage, harmony, narrative, genre. Vashington Irving, Jack London.*

РОЛЬ АНГЛИЙСКИХ, УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИЙ ИСТОРИЙ XX ВЕКА В МИРОВОЙ КУЛЬТУРЕ

Элбоева Мадина Ботыровна
Старший преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического
madinaelboyeva1102@gmail.com orcid: 0009-0001-9178-7536

Ниязова Фериде Сейфуль кызы
Старший преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института ferideniyazova93@gmail.com

Исломова Азиза Хасан кызы
Преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института
islomovaaziza95@gmail.com orcid:0009-0006-8867-2283

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается значение и роль английского и узбекского повествования в английской, узбекской и турецкий литературе 20 века. Мировым и узбекским писателям, внесшим вклад в развитие жанра рассказа, Джеку Лондону, Вашингтону Ирвингу, Мураду Мохаммаду Досту, Хайриддину Султану, приводятся образцы и примеры, показано их ни с чем не сравнимое место в жанре рассказа и их вклад в развитие жанра рассказа. Жанр рассказа анализируется через их произведения и научно обосновывается.*

Ключевые слова: *рассказ, исследование, научное наследие, гармония, повествование, жанр. Вашингтон Ирвинг, Джек Лондон.*

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida g‘azal yoki ruboiy qanchalik ixcham, pishiq, falsafiy-axloqiy g‘oyalarning yorqin ifodasi bo‘lgan asarlar kabi realistik nasr tizimida hikoya (yoki Yevropa adabiyotida “novella” ham deb ataladigan) janr shunday ommabop adabiy janr namunasi sanaladi. Hikoya janridagi izlanishlar va namunalar XX asr jarayoni bilan bog‘liq. To‘g‘ri, hikoya shaklidagi nasriy asarlarning mumtoz adabiyotda ham yaxshi namunalari mavjud. A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Miftof ul-adl” kabi asarlaridagi hikoyatlar, ayrim voqelik talqinlari hikoya janriga monand namunalar sanaladi.

Amerika adabiyotiga, jumladan, nasriy asarlar namunalariga e’tibor O‘zbekistonda XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo‘lsa, shu bilan birga, AQSH ijod ahlining ham Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston adabiyotiga e’tibori ham shu davrlardan boshlangan. S.Akobirova qayd qilganidek, “Yevropa va AQSHda Sharq va G‘arbning o‘zaro munosabatlariga muhim qiziqish va o‘rganish XX asr 30-yillari bilan bog‘liq bo‘lsa, jumladan, Amerika yozuvchilarining ham bu o‘lkaga intilishi, o‘rganishi xuddi shu davrdan keng harakatga aylangan”[Akobirova S.T.,2002:6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrning zabardast inglizzabon adibi Jek London adabiy merosi Rut Frenchir, Artur Kalder-Marshal, V.Bogoslovskiy, V.Bikov, I.Badanova, Irl Djen Leybor kabi tadqiqotchildar tomonidan keng tahlil etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida Jek London ijodi bilan ayrim yozuvchilar ijodining qiyosiy tadqiqotiga bag‘ishlangan ilmiy, shuningdek, ilmiy-ommabop ishlar amalga oshirilgan. Bu borada O.Sharafiddinov, H.Hamroqulova va N.Qobilova ning tadqiqotlari e’tiborlidir.O‘zbek hikoyachiligi XX asr o‘ninchi yillarida Abdulla Qodiriyning ijod mahsullari bilan boshlangan.

O‘zbek realistik hikoyasining paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi haqida yirik tadqiqotlar yaratgan olimlarimiz N.Vladimirova va M.Sultonova asosan Oktyabr to‘ntarishidan so‘nggi davrga mansub asarlarga, bu borada ko‘proq G‘.G‘ulom, A.Qahhor, G‘ayratiy, S.Abdulla, Oydin, S.Ahmad ijodiga e’tibor berganlar. [Vladimirova,Sultonova,1962:210]. Shuningdek, U.Normatov [Normatov,1963:26], Q.Pirmatov [Pirmatov, 1973:24], T.Yuldoshev [Yuldoshev, 1977: 24] singari adabiyotshunoslarning ham o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotining turli davrlari va masalalari to‘g‘risida, maxsus tadqiqotlari bor.

AQSH adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar turkumidan ilk bora amalga oshirilgan namunalar – hikoya janriga mansub edi. Amerika adabiyotidagi realistik hikoya rivojini nazardan kechirish asnosi dastlab bu adabiyotda hikoya janri taraqqiyotining to XX asrgacha bo‘lgan davrlar tarixiga qisqacha nazar tashlashni taqozo qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hikoya – o‘rta epik janr deb qaraladi, asosan kichik hajmda bo‘ladi. Hikoya janrida qahramonlar xarakter sifatida tayyor holda kirib keladi. Bu esa muallifga qahramonning ruh dialektikasini batafsil ochish imkonini bermaydi. Hikoyada qahramonning situativ ruhiy holatlari aks ettiriladi.

Ijtimoiy-madaniy qonuniyat bo‘lgan o‘zaro aloqadorlik, jumladan, ko‘p xalqlar qatori Amerika va O‘zbekiston adabiyotlari, umuman, madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va aloqadorlik hodisalari tarixiy-ijtimoiy haqiqat sanaladi. Bu tizimda ayniqsa badiiy adabiyot sohasidagi aloqadorlik fazilatlari ancha salmoqlidir. Chunki san’at turlari orasida yetakchi o‘ringa ega, adabiyot asarlari, jumladan, hikoya janri namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilish shaklida salmoqli ahamiyat kasb etib kelmoqda. Aynan shunday harakatlar o‘zaro adabiy ta’sir tizimini yuzaga keltiradi. Darhaqiqat, Amerika realistik va romantik adabiyoti namunalarining o‘zbekchaga tarjimalari va nashrlari XX asrning 20-30-yillaridan e’tiboran muntazam ravishda izchil davom etib kelmoqda. Demak, tarjima va shu jarayonda adabiy aloqadorlik kabi muhim ijtimoiy-ma’naviy hodisa o‘z harakat-faoliyatini namoyon qiladi.

Vashington Irving Amerika mustaqilligi bilan tengdosh adib sifatida eng avvalo hikoya janri asoschisi hisoblanadi. Vashington Irving qalamiga mansub Sharq rivoyatlari turkumi “Al-Hamro” takribidagi “Uch sohibjamol rivoyati”, “Arab munajjimi rivoyati”, “Mavr vasiyati” kabi o‘ndan ortiq novellalar bu jihatdan muhim. Vashington Irving hikoyalari va afsonalari To‘raboy Iskandarov, Nurmuhammad Xolliyev, Mahkam Mahmudov, Bahodir Aminov, Ma’ruf Jalil, Fayzi Shohismoil tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan.

Amerikalik jahonshumul yozuvchi Jek Londonning asarlari bizning tilimizga XX asrning o‘rtalaridan boshlab tarjima qilingan. Tarjima ishlari to hozirga qadar davom etayotganligidan bilish mumkinki, adib ijodiga qiziqish so‘ngan emas. Uning qator hikoyalari Fattoh Abdullayev tomonidan o‘zbekchalashtirildi va 2010 yilda chop etildi. [J.London,1910:176] Tarjimon “Kish o‘g‘li Kish”, “Ayol kishining mardligi”, “Moxov Kulau”, “Hayotga muhabbat”, “Isyonchi”, “Buyuk sehrgar”, “Shamol Odisseyasi”, “Meksikalik” hikoyalarini katta mahorat bilan o‘girib, o‘zbek kitobxonlariga taqdim qildi. Jek Londonning qahramoni Kish qabilachilik an’analari ruhida o‘sgan, ammo mister Braun – oq tanli kishining ta’limotini qabul qilayotgan odam. Gnob unga qizini berishni rad qilar ekan, muallif qahramonning ruhiy holatlarini uzundan-uzoq tahlil qilmaydi, “ko‘zlari cho‘g‘dek chaqnab ketdi”, “rangi o‘chdi”, “boshini quyi soldi”, “qo‘llari musht bo‘ldi” singari qisqa tashqi tasvirlar orqali ifoda etadi.

Demakki, hikoya mohiyatan millionlab kitobxonlar sevib, zerikmay mutolaa qiladigan asar bo‘lib, ba’zi hikoyalar mazmunan, badiiy teranligi bois yirik nasr namunalari bilan tenglashadigan janrdir.

Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton kabi iste’dodli yozuvchilar ijod olami o‘ziga xos betakror fazilatlari bilan jamoatchilik e’tiboriga tushganligi adabiy hayotimiz yutuqlari sifatida e’tiborlidir. Bu betakror yozuvchilarning mahorat qirralari jahon hikoyachiligi halqasiga ulangandir.[Elboyeva, 2023: 158]

O‘zbek yozuvchilaridan biri Murod Muhammad Do‘st jamiyat va inson munosabatlari talqinidagi mahorat, jumladan, psixologizmdagi san’atkorlik borasida Jek London ijod tajribalari bilan o‘ziga xos mushtarakliklarni anglash mumkin. Albatta, makon va zamon, ijtimoiy-siyosiy davr, turli xalq, turli xarakterlar tasviri jihatidan bu ikki ijodkor o‘rtasidagi alohidaliklar mavjudligini ham alohida qayd etgani holda, inson va jamiyatni anglashdagi o‘zaro uyg‘unlikni ham inkor etib bo‘lmaydi.

M.M.Do‘st adabiy izlanishlarida uning badiiy psixologizmdan unumli foydalanishi adabiyotshunoslar tomonidan qayd qilingan. Masalan, professor Ozod Sharofiddinov M.M.Do‘st asarlarida “qahramon ruhiy biografiyasini tahlili”, obrazlarning ruhiy iztiroblari, kechinmalari, ichki dunyosi har tomonlama tahlil qilini”shi, shu boisdan asarlaridagi “teran psixologizm”ning diqqatga sazovorlikni ta’kidlaydi.[Sharafiddinov,1982:4]

Jahon adabiyotidagi o‘ziga xos talqinlar o‘zbek adabiyotining bevosita hikoyachiligini taraqqiyotiga ham sezilarli ta’siri ko‘rsatganligini alohida qayd etgani holda, Xayriddin Sultonovning hikoyachilikdagi badiiy mahorati bilan bilan bir qatorda, mavjud an’analarning badiiy ifodasi haqida ham mulohaza yuritishni talab etadi. Xayriddin Sultonovning “Yo‘qchilik va to‘qchilik” hikoyasidagi poetik talqinlaring o‘ziga xosligi bilan bir qatorda Jek Londonning “Kish haqida qissa” hikoyasida ilgari surilgan talqinlarga hamohangdir. Xayriddin Sulton qahramonlarining tafakkur dunyosining o‘zgarishi, olam va odamga teran nazar solish, hayotning turfa xil murakkabliklarini anglash imkonini beradi. Shu jihatdan bir qator hikoyalaridagi talqinlar, shaxs erki, uning jamiyatdagi o‘rnini anglashga bo‘lgan xislatni shakllantiradi.

1940-1960 yillar turk hikoyachiligidagi uslub masalalari haqida so‘z borganda, bu davr hikoyalarida badiiy uslubning rang-barang bo‘lishida o‘zining ijodiy dunyoqarashi, iste’dodi, hayotni idroklash, badiiy aks ettirish prinsiplari bilan o‘zgartirgan yozuvchilar ijodi muhim o‘rin tutadi. Bunda, eng avvalo, O‘rxon Kamol asarlari, yozuvchi ijodi uchun bosh mavzu hisoblangan quyi tabaqa vakillari turmush yo‘llarini tasvirlash, ularga nisbatan muallifning gumanistik munosabati ushbu hikoyalar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. O‘.Kamol uslubi yosh turk hikoyanavislari tomonidan izchil davom ettirildi. Turk realistik hikoyachiligida o‘z uslubi bilan tanilgan ikkinchi yozuvchi Halikarnas Baliqchisi taxallusi ostida ijod etgan Muso Javat Shakir Qaboog‘ ochlidir.U O‘.Kamoldan farqli o‘laroq, turk hikoyachiligiga dengiz va dengizchilar hayoti mavzusini olib kirdi. Turkiya mamlakatining geografik joylashuv o‘rni, dengiz bo‘yida yashaydigan turklarning turmush tarzi, qolaversa, Muso Javat Shakir Qaboog‘ochlining dengizu dengizchilarning xalqqa yaqin uslubda yozilishi va hayotiga bo‘lgan muhabbati uning yangi hikoya kompozitsiyasi va uslubini topishda muhim omil bo‘ldi. Aziz Nesin ijodi xalq kulgisi bilan ijtimoiy tragizmni o‘zaro uyg‘unlikda aks ettirishi bilan qimmatlidir. Uning hikoyalarida xalq ijodiga xos latifa, askiya, hajviy hikoya, masal, matal, maqol

muhim o‘rin tutadi. Toriq Bug‘ro uslubi esa insonning botiniy, psixologik holatlarini teran idroklash, tasvirlashga urinishlar jarayonida shakllandi. T.Bug‘ro hikoyalaridagi o‘ziga xos tasvir prinsipi turk adabiyotida psixologik tasvir yo‘nalishini boshlab berdi. Bu uslub 1940-1960 yillar hikoyachiligining zamonaviy turklar – erkaklar, ayollar, bolalar, keksalarning zohiriy dunyosidan botiniy dunyosiga, shaxsiyati tasviridan ichki “men”i tahliliga o‘tganidan dalolat berdi.

1960-1980 yillar turk nasrida adibalar hikoyachiligi bo‘rtib ko‘rinadi. Bu hikoyalar o‘zigacha bo‘lgan erkak yozuvchilar hikoyachiligidan uslub, obraz, syujet, psixologik talqin usuli, ayniqsa, ayol qalbini teran tasvirlashi bilan farq qiladi. Bu davr ayollar hikoyachiligida ko‘zga tashlangan monolog-hikoya shakli turk zamonaviy nasri uchun yangilik edi. Qisman intuitiv, qisman lirik va dramatik tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan, ma’lum darajada dekadent kayfiyatga o‘xshab ketadigan monolog-hikoyaning eng yetuk namunalari ikki turk adibasi – Naziha Merich va Firuzan tomonidan yaratildi. Yangilanayotgan davrda zamondosh ayolning qalbi, ichki kechinmalari, ruhiy holati qalamga olindi. Ayol ba’zan ojiz, zaif, kuchsiz, ba’zan irodali, chidamli, bardoshli, qanoatli, ba’zan esa ham ma’naviy, ham madaniy qashshoq, ba’zida fidoyi ona siymosida tasvirlandi. Tomris Uyar, Sevinch Cho‘kum hikoyalarida ayol ruhiy olamini ochib berishda unga xos sirli xotiralar asos qilib olindi. Psixologik tasvir, monologik nutq, obrazlar va voqealarning assotsiatsiyaga qurilishi bu adibalar hikoyachiligining o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi.

Turk hikoyachiligiga turk modern (yangi) adabiyoti tushunchasining kirib kelishida Yu.Otilgan va F.Edgular ijodining ahamiyati katta. Ramziy syujet, ramziy obraz, ramziy dialoglar, ularning yangi usubiy shaklda ifodalanishi turk modern hikoyachiligining yetakchi xususiyatlaridir. Yu.Otilgan hikoyalarida qahramon xatti-harakati og‘ir va murakkab vaziyatlar fonida aks ettiriladi. F.Edgu ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u bir qator hikoyalarida inson hayotidagi fojia, isyon, murosasizlik va murosasozlik kabi ziddiyatga to‘la holatlarni butun murakkabliklari bilan ishonarli yoritdi. F.Edgu Sharq xalqlari adabiyotiga xos majozdan tasvir vositasida samarali foydalanib, majoziy nasr uslubiga asos soldi, turk hikoyanavisligiga «minimal hikoya» janrini olib kirdi. Turk adabiyotshunoslari tomonidan «modern» uslubiga mansublangan turk hikoyalarining hammasi ham mavjud nazariy qoliplarga sig‘adigan badiiy hodisalar emas. Ular yangi shaklga solingani, tasvir tamoyillari murakkablashgani, psixologik talqinlari, an’analarning istifoda etilish usuliga ko‘ra tamomila yangi mohiyat kasb etadi. Ammo hech bir jihatdan G‘arb modernizmini takrorlamaydi. M.Qutlu ijodida turk folklori, Sharq klassikasi an’analarini zamonaviy usulda qayta jonlantirish, shu asosda janr, syujet, qahramon va uslub komponentlarini yangilash tamoyili yetakchilik qiladi. Uning hikoyalarida syujet motivatsiyasi, ramz va timsollar modifikatsiyasi puxta ishlangan. Xizr alayhissalom, Dada Qo‘rqut, so‘fiy, ertakchi, suv parisi, dengiz singari obrazlar yangi syujet, yangi hikoyabop voqealar fonida badiiy inkishof etilgan. S.Ileri hikoyalari esa global sivilizatsiya qurshovidagi odamning yolg‘izligi, ichki iztiroblari, mushohada va xayollarini tragik tasvirlashga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Tahlil va natijalar Amerika adabiyotiga, jumladan, nasriy asarlar namunalariga e'tibor O‘zbekistonda. XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo‘lsa, shu bilan birga,

AQSh ijod ahlining ham Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston adabiyotiga e'tibori ham shu davrlardan boshlangan. AQSh realistik va romantik adabiyoti namoyandalarining hikoya janridagi mahsullari o‘zbek tiliga ancha vaqtdan buyon tarjima qilib kelinmoqda. Vashington Irving, Mark Tven, Joy Stteynbek, Ernest Xemingvay, Uilyam Folkner, O.Genri, Teodor Drayzer, Gorvad Fast kabi yana bir qator amerikalik yozuvchilarning O‘zbekistonda XX asrning 20-30 yillaridan e'tiboran o‘nlab hikoyalari to‘plamlarda, matbuot sahifalarida muntazam e'lon qilib kelinmoqda. XX asr o‘zbek hikoyachiligini sharqona didaktika ruhida, go‘yo jonli hayotdan yiroq bir pandnoma ohangida emas, balki, ilg‘or jahon nasriga xos realistik ruhda yaratila boshlanganligi bilan e'tiborni tortadi. A.Qodiriy (“Uloqda”), A.Qahhor (“Bemor” yoki “O‘g‘ri”) yoki G‘.G‘ulom (“Mening o‘g‘rigina bolam”) qalamiga mansub dastlabki hikoyalar ham xuddi AQSh, Rossiya, Fransiya, Germaniya adiblari yaratgan hikoyalar maqomida ekanligi bilan ko‘zga tashlanadi. Atoqli Amerika yozuvchisi Jek London hikoyachilik maktabi o‘zining erk va insoniy ma'naviyat g‘oyalari, psixologizm bobidagi yuksak mahoratiga oid mushtaraklik o‘zbek hikoyalarida, jumladan, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton, Olim Otaxon asarlarida namoyon bo‘ladi. Umuman, XX asr boshlaridan bugungi kungacha bo‘lgan davrda turk hikoyanavisligida qator yangi poetik tamoyillar kashf etildi. Inson va hayot voqeligi o‘ziga xos badiiy usullar yordamida ifodalandi. Bu tamoyillar nafaqat turk adabiyoti, balki jahon nasri uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton kabi iste’dodli yozuvchilar ijod olami o‘ziga xos betakror fazilatlari bilan jamoatchilik e’tiboriga tushganligi adabiy hayotimiz yutuqlari sifatida e’tiborlidir. Bu betakror yozuvchilarning mahorat qirralari jahon hikoyachiligi halqasiga ulangandir.

Ruhiyatshunos yozuvchi Jek London ijodiy tajribalarga asos osoyishta realistik tendensiyalar, psixologik tasvirdagi mukammallik bu navqiron yozuvchilarning hikoyalarida betakroriy ruhda zuhur etganligini kuzatish, tahlil qilish, ularga xos adabiy yutuqlar ko‘lamini aniqlash va ta’kidlash imkonini beradi. Jek London asarlarining mashhurligi, ularning jozibadorligini ta’minlagan omillardan yetakchisi – bu inson obraz-tiynatining psixologik jihatdan mukammal talqin etilganligi bilan izohlanadi. J.London ijodiy maktabining jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ham avvalo shu bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акобирова С.Т.Американская литература и Восток (на примере первой половины XX бека) – Ташкент. АКД, 2002. - стр.6
2. London J. Hikoyalar. – T.:“Yangi asr avlodi”, 1910. - 176 b.
3. Владимирова Н., Султонова М. Узбекский советский рассказ. – Т.: “Фан”,1962.- стр.210.
4. Норматов У. Основные тенденции развития современного узбекского рассказа (1950-1961). – Т.: АКД, 1963. - стр.26.

5. Пирматов Қодир. Мастерство саида Ахмада – новеллиста. – Т.: АКД, 1973. - стр.24.
6. Юлдашев Тулкунбай.Традиции А.П.Чехова в формировании узбекского реалистического рассказа 20-30 годов. – Т.: АКД, . 1977 - стр.24.
7. Elboyeva M. B. Jek London va Murod Muhammad Do`st hikoyalarida shaxs va jamiyat munosabatlarining psixologik tasviri. - BuxDU ilmiy axborotnomasi, 6-son. 2023.- 158 bet.
8. Sharafiddinov O. "Galatepaga qaytish" qissasiga so'zboshi. - "Yoshlik" jurnali, 7-son. 1982. – 4 bet.
9. Hamroqulova H. A.Qahhorning "Sarob" romanida shaxs fojeasi talqini// fil.fan.dok. …disser.avtoref. -Toshkent,2004. - 17-bet.
10. Qobilova N. Jek london va A.Qahhor ijodida badiiy psixologizm // filil.fan. dokt. (PhD)…disser., 2020. - 146-bet.
11. London J. Hikoyalar. – Toshkent: Uzadabiynashr, 1958.- 176-bet.
12. Vladimirova N. O'zbek hikoyalarida goya va obrazlar. T.:'Fan",1969. - 7-bet

SATIRA VA YUMOR SAID AHMAD ASARLARI TIMSOLIDA

Azimova Nigora Anvar qizi
Shahrisabz davlat Pedagogik instituti o'qituvchisi
E-pochta: nigoraazimova9501@gmail.com

Annotatsiya. *Satira tushunchasi bu – voqelikning ko'rimsiz tomonlarini karikatura sifatida tasvirlangan alohida san'at turidir. Undan asarda turli hazil vositalari bilan voqelikning tagini ochish, axloq-odob, ma'naviyat, tarbiya, tarbiyaviy fazilatlar yoritishda foydalaniladi.*

Kalit so'zlar: *hajv, satira, satirist, yumorist, yumor, karikatura, hikoya*

САТИРА И ЮМОР В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ САИДА АХМАДА

Азимова Нигора Анвар кизи
Преподаватель Шахрисабзского государственного
педагогического института
E-pochta: nigoraazimova9501@gmail.com

Аннотация. *Понятие сатира – это особый вид искусства, изображающий в карикатурном виде невидимые стороны действительности. Используется в произведении для раскрытия действительности, нравственности, духовности, воспитания, образовательных качеств различными юмористическими средствами.*

Ключевые слова: *комикс, сатира, сатирик, юморист, юмор, карикатура, рассказ*

SATIRE AND HUMOR IN THE EMBODIMENT OF SAID AHMAD'S WORKS

Azimova Nigora Anvar qizi
Teacher of Shahrisabz State Pedagogical Institute
E-pochta: nigoraazimova9501@gmail.com

Abstract: *The concept of satire is a special type of art that depicts the invisible aspects of reality as a caricature. It is used in the work to uncover reality, morals, spirituality, upbringing, educational qualities with various humorous means.*

Key words: *comedy, satire, a satirist, humorist, humor, caricature, story*

Kirish. Masalaning qo‘yilishi. Hajviy asarlarni asosan satira va yumor yo‘nalishida ko‘rishimiz mumkin. Satira orqali voqealarning real ko‘rinishini o‘zgartirib, mubolag‘a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali satirik obrazga “ishlov” beriladi. U voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto‘g‘ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Yumorda esa yengil tanqid, hazil ruhi yetakchilik qiladi. Shu xususiyati bilan u satiradan farq qiladi. Badiiy adabiyotga mansub bunday asarlarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan ayrim odamlardagi ba’zi nuqsonlar ustidan kulib, uni tanqid qiladi. Satirada yumor unsuri bo‘lganidek, yumorda ham satiraning unsurlari bor.

“O‘zbek hajvchiligi taraqqiyotida Said Ahmad ijodining o‘rni” mavzusida SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL nomli jurnalda maqola chop etilgan. “Said Ahmad asarlarida hajvning o‘rni” mavzusida Idireysova Dilnoza Abay qizi, Ahmedova Sarvinoz Alimardon qizi tomonidan maqola chop etilgan. Ushbu maqolada yozuvchi Said Ahmadning “Sobiq”, “Qoplon” kabuli hajviy hikoyalari, umuman hajviy asarlari haqida so‘z yuritiladi. Shu jumladan, adibning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasining o‘zbek adabiyotidagi alohida o‘rni e’tirof etiladi.

Muammoning o‘rganilishi va tadqiqi. Dastavval hikoyanavis sifatida tanilgan, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad hikoyalari o‘zbek adabiyotida kichik nasr – hikoya ustasi sifatida tanilgan. Said Ahmad - nasrnavis va dramaturg, o‘zbek adabiyotida kichik nasr - hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko‘plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do‘stlik” ordenlari hamda “O‘zbekiston qahramoni”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” sharafli unvonlariga sazovor bo‘lgan U noyob asarlari orqali nafaqat xalqimiz qalbidan, balki tengsiz hajviy hikoyalari bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan. Yozuvchining hikoyalarida hajviy ruh aks ettirilganligini yaqqol ko‘rish mumkin. Said Ahmadning turkum hikoyalari “Cho‘l shamollari”, “Cho‘l burguti”, “ Kuchukcha”, “Kolbasa qori”, “Hindcha o‘yin”, “O‘rik domla” kabi asarlari shular jumlasidandir. Uning “Begona”, “Mening do‘stim Boboyev”, “Xanka va Tanka” singari komediyalarida yozuvchi xalqimizga xos bo‘lgan betakror so‘z o‘yinlari, askiya va mubolag‘alari orqali asar tilini nihoyatda jozibador qilgan.

Said Ahmad ijodida hajviy hikoyalar ham ko‘p. Uning “La’li badaxshon”, “Begona”, “Xanka bilan Tanka”, “Mening do‘stim Boboyev” , “Lampa shisha” kabi

hajviy hikoyalarida yozuvchi hayotda uchrab turuvchi nopoklik, manmanlik, maishiy buzuqlik, ig‘vogarlik, ko‘zbo‘yamachilik, rasmiyatchilik singari illatlar ustalik bilan fosh etilgan. Bunga adibning “Mushtum ” jurnali sahifalarini bezagan, teletomoshabinlarga zavq bag‘ishlagan miniaturalari ham yaqqol misol bo‘la oladi. Adibning “Lampa shisha”, “Xanka va Tanka”, “Xandon pista” kabi to‘plamlari uning hajvnavis sifatida mohir ekanligini yaqqol isbotidir. Yozuvchining tabiatidagi lirik va yumoristik hislati asarlariga ko‘chgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘zining hajviy hikoyalarida rivojlanishimizga to‘siq bo‘layotgan yaramas urf-odatlar ustidan oshkora kuladi, ma’naviy masalalarni o‘rtaga qo‘yadi.

Satira va yumorning yorqin namoyondasini yozuvchi Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasi va “Sobiq” hikoyasi orqali ko‘rishimiz mumkin. Ushbu hikoyalarda kishilardagi hushomadgo‘ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida andishaga ham bormay surbetlarcha ish tutishi, kishilarni mansabiga qarab munosabat ko‘rsatishi kabi illatlar tanqidi aks etgan. ’’Qoplon’’ hikoyasi ham ayni o‘sha davr voqea-hodisalarni o‘z ichiga oladigan hikoyalardan biridir. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o‘zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo‘llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko‘rsatib yurishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko‘rsatib beradi.

Yozuvchi hikoyani “Qoplon” deya nomlamaganining asosiy sababi yaramas va andishasiz insonlar mansabli shaxslarni Qoplon misoli qopadigan ya’ni to amali ketgunga qadar boshliqlarni xushomadgo‘ylik-u laganbardorlik yo‘li bilan shaxsiy manfaati yo‘lida, barcha maqsadlariga erishadigan insonlarni ushbu timsol orqali namoyish qilish hisoblanadi. Aynan insonning haqiqiy xislatlarini satirik yo‘l orqali tasvirlash albatta ijodkorning iste’dodiga bo‘g‘liq jarayondir.“Yumor’’ (lot.) - kulgi bilan xayrixohlikni o‘zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba’zi kamchilik nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob’yektning yo‘qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi.

Said Ahmad dramaturg sifatida ham sevimli ijodkor. Ayniqsa, uning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi juda mashhur. Aynan shu komediya tufayli, adib turli mamlakatlarda bo‘ldi, dunyo kezdi. Komediya unga katta mashhurlik olib keldi. Komediya spektakli hamon O‘zbekiston va unga qardosh xalqlarning teatrlarida namoyish qilib kelinmoqda. Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning pishiq va obrazliligi bilan o‘quvchilarga g‘oyat manzur bo‘lgan. Buni adibning mustaqillik davridagi ijodi ham tasdiqlaydi. 30 dan ortiq hikoyalari shu davrda yaratildi. Bular haqida fikr yuritib adibning o‘zi: “Mening o‘ylashimcha va ko‘plab gazetxonlar fikricha, ushbu hikoyalar so‘nggi yillarda yaratilgan eng vaxshi hikoyalar turkumi bo‘ldi”, - deb yozgan edi. Adibning “Sarob”,’’Azroil o‘tgan yo‘llarda”, “Qorako‘z Majnun” kabi hikoyalari bu fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.Bu hikoyalarda sobiq sho‘ro davrida bo‘lib o‘tgan fojiali voqealarning yorqin manzaralari ishonarli va ta’sirli qilib ko‘rsatilgan.

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida xalq hayotining turli qatlamlari teran yoritilgan. Azizxon, Ikromjon, Jannat xola, Rahmonberdi tog'a, Nizomjon, Asrora, Dildor, Inoyat oqsoqol, Tursunboy singari xilma-xil obrazlar yaratilgan. Asarda bunday to'qima obrazlar bilan bir qatorda, xalqimizning asl farzandlari: Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboyev, G'afur G'ulom kabi tarixiy shaxs obrazlari ham berilgan."Ufq"dagi qahramonlardan Ikromjon va Azizxon obrazlari har tomonlama mukammal va jonli qilib tasvirlangan. Adib Azizxon obrazi orqali Katta Farg'ona kanali qurilishi jarayonida, qirq besh kun davomida sodir bo'lgan quvonchli va unutilmas voqea-hodisalarni, xalqning haqiqatan buyuk bunyodkor ekanini umumlashtirib tasvirlab bergan. Said Ahmad asarda hayotdagi ibratli tomonlari, ajoyib fe'l-atvor sohiblari bo'lgan insonlar obrazlarini tasvirlash bilan birga, salbiy jihatlari, yaramas shaxslarni ham ro'yirost aks ettiradi. Asarda qochoq Tursunboy qismati, uning to'qayzorda ota-ona hamda el-yurt mehriga zor bo'lib, yolg'izlikda, xor-zoirlikda o'lishi g'oyat ta'sirli qilib tasvirlangan. Tursunboy Jannat xola va Ikromjonlarning yolg'iz o'g'li bo'ladi. U Zebini sevadi. Sevgilisi Tursunboy qochoq nomini olgach, Nizom bilan topishadi . Nizomboy Jannat xola va Ikromjonlarning tutingan o'g'liga aylanadi.

Ikromjon timsolida. Bu timsol o'z milliy qadriyatlariga sadoqat hamda porloq kelajakka komil ishonchning ramzidir. Ikromjonning asar so'ngida: "Yo'q, bolam, men dardga chalinmavman. Men o'Imayman. Tirik bo'Isam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam sudralib o'sha ufqqa boraman. Ufqdan turib Yozyovonimga bir qayrilib qarayman. Ufqqa bormay o'lishim mumkin emas", — deyishi bejiz emas. Trilogiyaning "Ufq" deb nomlanishi ham ana shu hayotbaxsh ruhdan kelib chiqqan. Bu asardagi ufq tushunchasi xalqimizning Ikromjon obrazida yorqin gavdalangan o'z milliy qadriyatlariga sadoqati hamda porloq kelajakka komil ishonchining ramzidir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu asar uchun Said Ahmad respublika Davlat mukofoti sovrindori bo'lgan.

Said Ahmadning iste'dodli yozuvchi sifatida shakllanishida G'afur G'ulom va Abdulla Qahhorning xizmati katta. Said Ahmadning o'zi bu haqida: "Aslida meni hajv yo'liga G'afur G'ulom boshlab kirgan. Men yozuvchi hikoyalari ta'sirida adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan yaqindan tanishganim, undan rosmana ijodiy ta'lim olganim hajvga bo'lgan intilishimda juda katta yordam berdi. Undan keyin Abdulla Qahhor hikoyalaridagi siqiqlik, so'zni isrof qilmaslik, tagdor gap aytish san'ati men uchun bir darslik xizmatini o'tadi 56" - deb yozgan edi.

Said Ahmad dilbar hikoyalari, ichakuzdi hajviyalari, nurbaxsh komediyalari, hayotiy romanlari bilan XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ijodkor adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi va bu janrda barakali ijod qildi. Yuqorida nomlari sanalgan ko'plab hikoyalari o'zbek lirik hikoyachiligi yo'nalishini belgiladi, deyish mumkin.

Said Ahmad hajviyasi adib ijodining xalq ijodi bilan chambarchas bog'liq ekanidan, u xalqning zukkoligi va donoligidan keng foydalanishidan, folklor asarlariga xos san'atkorona tildan, yuksak tasvir vositalaridan, mukammal badiiy shakldan bahramand ekanidan dalolat beradi. Shuning uchun ham uning hajviyoti ko'pgina teleminiatyuralar uchun asos bo'ldi va xalq o'rtasida juda katta shuhrat qozondi.

Shu tarzda urushdan keyingi yillarda Said Ahmad qiyinchilik bilan bo‘lsa-da hikoyadan hikoyaga o‘sib-ulg‘ayib, qalami charxlanib, mahorati o‘sib kelmoqda edi. Bu yillarda u bir nechta kitob chiqarib, umidli yosh yozuvchi sifatida tanilish bilan barobar, hayotda o‘z muhabbatini ham uchratdi — u shoira Saida Zunnunova bilan turmush qurdi. Lekin uning og‘zi endi oshga yetay-etay deganida, to‘satdan burni qonadi — unga siyosiy ayb qo‘yib, xalq dushmani sifatida qamadilar. Butun mamlakat nechanchi martadir yana dahshatli fojealar davriga qadam qo‘ygan edi. Urushdan keyin hali odamlar fashist ustidan qozonilgan buyuk g‘alabalarining sururini totib ulgurmay, to‘rt yillik qironli urushning mudhish azob-uqubatlari unutilib bo‘lmay; yana mafkuraviy hayotda oq kaltak-qora kaltaklar boshlandi — yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar, munaqqidlar, bastakorlar, kinochilar, artistlar, rassomlar, olimlarning boshida yong‘oq chaqila boshlandi. Bu urushlar muttasil 5 yil davom etdi va yana qatli om bilan, ziyolilarni qirg‘in qilish, avaxtalarga tiqish bilan yakunlandi. O‘shanda o‘zbek ziyolilaridan ham yuzlarcha odam gunohsiz, bekordan-bekorga qamoqlarga solindi va sovuq Sibir o‘rmonlariga, Qozog‘iston cho‘llariga surgun qilindi. Said Ahmad ham 5 yil turmaning tuprog‘ini yalashga majbur bo‘ldi — hamma rejalar rejaligicha qolib ketdi, rejalar nima bo‘lipti — ne-ne umidlar bilan turmush qurgan yosh kelinchak Saidaxon yig‘lab-yig‘lab qolaverdi. Lekin ikkovlari ham bu mudhish sinovga mardonalik bilan dosh berishdi — ularning ikkovi ham butun odamlar ekan — bu sinovlar har qancha og‘ir bo‘lmasin, ularni sindira olmadi.

1953-yilning qahraton qishida Stalin o‘ldi... Keyin qishning zabti bo‘shashib, sovuqlar yumshadi, muzlar eriy boshladi. Hammayoqda bahor shabadalari esa boshladi. Odamlar qaddilarini tiklab, yengil nafas ola boshladilar. Said Ahmad ham sovuq yurtlardan ona-Vataniga — jonajon O‘zbekistoniga qaytdi. Said Ahmad qaytishi bilanoq yeng shimarib ijod qilishga kirishdi. Aftidan, tutqunlikda o‘tkazilgan yillar davomida ijod qilish ehtiyoji, yozish ishtiyoqi qalbida yig‘ilib qolgandi. Endi esa u hech qanaqa to‘siqni tan olmaydigan po‘rtanadek tashqariga otildi. Said Ahmad hamma nasriy janrlarda ijod qildi — hikoyalar, qissalar yozdi, hajviy asarlar yaratdi, komediya janrida kuchini sinab ko‘rdi, romanlar barpo etdi. Shu ma’noda 50-yillarning ikkinchi yarmi va oltmishinchi yillarning boshlari Said Ahmadning yozuvchi sifatida qayta tug‘ilish yillari bo‘ldi. U faqat ko‘p yozgani uchungina emas, balki yozganlari san’atkorlik jihatidan ham yuksak darajada bo‘lgani uchun ham ko‘pchilikning diqqat-e’tiborini qozondi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad jamiyatimizda halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo‘layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg‘ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolish kabi nuqsonlar ustidan adib o‘z hikoyalarida yengil kuladi. Katta maqsadlar yo‘lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o‘z o‘rnida bo‘lib, o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozimligi kabi masalalar hajviy yo‘sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi. Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning pishiq va obrazliligi bilan o‘quvchilarga g‘oyat manzur bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Said Ahmad bugungi o‘zbek adabiyotining chinorlaridan, oqsoqollaridan biri bo‘lib qoldi. Biz uni shunday deb atayotgan ekanmiz, bunda faqat uning yoshi ulug‘ligini nazarda tutayotganimiz yo‘q. U o‘z

iste'dodi bilan, qalamining o'tkirligi bilan, betakror qahramonlar galereyasini yaratgani bilan bu sharafli nomga munosib ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Said Ahmad. Saylanma, 3-jild.- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2008.
2. Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
3. Said Ahmad.Yo'qotganlarim va topganlarim. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
4. O'zME. Birinchi jild.- Toshkent, 2000-yil 2. O'zbek tilining izohli lug'ati (2006 - 2008)
5. Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar: o'qu\-uslubiy qo'llanma / O. Karimov.- Namangan: "Namangan", 2016.
6. Said Ahmad. Bu kunlarga yetganlar bor yetmaganlar bor – "Jahon adabiyoti" jurnali, 2001- yil, 9-soni, 5- bet.
7. Ahmedov Sunnat. Adabiyot [Matn] Q. 2. / S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2017. – 160 b
8. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- Toshkent: " Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 2000.
9. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 2 jild. Hajviyalar, pyesalar. www.ziyouz.com кутубхонаси 4
10. Jamolova S.Mutolaa sehri.- Teletype, 2020y.
11. Normatov U. Nasrimiz ufqlari.-T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974
12. Said Ahmad. Ufq / Qayta nashiga tayyorlovchi Xusanxodjayeva Nodira Said Ahmad qizi. —T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2016-yil. - 640 b.

THE EFFECTIVE WAY AND PRINCIPLES OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING

Tilavov Davronbek Davlat ugli-Senior teacher Shakhrisabz state pedagogical institute, dtilavov14@gmail.com orcid:0009-0004-0077-9680
Mukhtarov Abdirasul Parda ugli-Assistant teacher Shakhrisabz state pedagogical institute, abdirasulmuxtarov2903@gmail.com
orcid:0009-0007-2289-4112

Abstract:*This scientific article describes the concepts and successful practices of teaching communicative languages, illustrates how communicative methods are used to teach foreign languages, and lists the various approaches and strategies for teaching communicative languages. The article demonstrates how several strategies are used to organize foreign language instruction. For instance, the following methodological procedures can be taken into consideration when teaching communicative language:*

- the role that conversations and scenes play in the development of spoken speaking

- The importance of oral presentations and interviews in the efficient administration of the educational process.

- Group cooperation, or student-teacher cooperation.

- collaborate together in the group to improve sharing of information.
- an important factor in the expression of personal opinions during group work.

Keywords: *Foreign language teaching, communicative approach, principles, interactions, classroom teaching, second language teaching.*

TILNING KOMMUNIKATIV USLUBDA O'QITISHNING SAMARALI USLUB VA PRINSIPLARI

Tilavov Davronbek Davlat o'g'li-Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, dtilavov14@gmail.com orcid:0009-0004-0077-9680
Muxtarov Abdirasul Parda o'g'li-Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi, abdirasulmuxtarov2903@gmail.com orcid:0009-0007-2289-4112

Annotatsiya*:Ushbu tadqiqot maqolasida kommunikativ tillarni o'qitishning konsepsiyalari va muvaffaqiyatli amaliyotlari tasvirlangan, chet tillarini o'qitishning kommunikativ usullari qanday qo'llanilishi ko'rsatilgan va kommunikativ tillarni o'qitishning turli yondashuvlari va strategiyalari keltirilgan. Maqolada chet tilini o'qitishni tashkil etishda bir nechta strategiyalar qanday qo'llanilishi ko'rsatilgan. Masalan, kommunikativ tilni o'rgatishda siz quyidagi metodik usullarni ko'rib chiqishingiz mumkin:*

-og'zaki nutqni rivojlantirishda suhbat va sahna ko'rinishlarining o'rni.
-o'quv jarayonini samarali boshqarishda og'zaki taqdimot va suhbatlarning ahamiyati.
-guruh hamkorligi yoki talaba va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik. - axborot almashishni yaxshilash uchun guruh sifatida hamkorlik qilish
-guruh ishi davomida shaxsiy fikr bildirishning muhim omili.

Kalit so'zlar: *Chet tilini o'qitish, kommunikativ yondashuv, tamoyillar, o'zaro ta'sir, sinfda o'qitish, ikkinchi tilni o'qitish.*

ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ И ПРИНЦИПЫ КОММУНИКАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ

Тилавов Давронбек-Старший преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института
dtilavov14@gmail.com orcid:0009-0004-0077-9680
Мухтаров Абдирасул-Ассистент преподавателя Шахрисабзского государственного педагогического института
abdirasulmuxtarov2903@gmail.com orcid:0009-0007-2289-4112

Аннотация:*В данной научной статье описаны концепции и успешная практика обучения коммуникативным языкам, показано, как используются коммуникативные методы обучения иностранным языкам, а также перечислены различные подходы и стратегии обучения коммуникативным языкам. В статье показано, как используются несколько стратегий для организации обучения иностранному языку. Например, при обучении коммуникативному языку можно учитывать следующие методические приемы:*
- роль, которую играют разговоры и сцены в развитии устной речи

-Значение устных презентаций и собеседований в эффективном управлении образовательным процессом.

-групповое сотрудничество или сотрудничество ученика и преподавателя.

-сотрудничать вместе в группе для улучшения обмена информацией.

-важный фактор выражения личного мнения при групповой работе.

ключевые слова: *Обучение иностранному языку, коммуникативный подход, принципы, взаимодействие, обучение в классе, обучение второму языку.*

Introduction. when studying a new language has real purpose, it becomes easier for learners and more effective. The method of teaching second and foreign languages known as communicative language teaching (CLT) places a strong emphasis on interaction as the ultimate objective of language acquisition as well as its method. A different term for it is the "communicative approach" or just the "communicative method for the teaching of foreign languages. The communicative approach, often known as communicative language teaching (CLT), is a method of teaching languages that places a strong emphasis on interaction as the primary means and end objective of instruction. In contexts where CLT methods are used, language learners acquire and practice the target language through interaction with the teacher and other learners, studying "authentic texts" (texts written in the language for purposes other than language learning), and using the language both inside and outside of the classroom. Besides only being familiar with grammar and pronunciation norms and vocabulary, one must possess an effective command of a language. It is necessary for learners to be able to utilize the language correctly in every social context.

Literature review. The article explains the literature review linked to the research variable in this chapter. A summary of the Concept of Communicative Language Teaching (CLT), teacher perceptions, earlier research, and paradigm for work.

Hymens (1972) developed the concept of communicative competence, stating that a comprehension of human language should situate people in a social context. What a speaker needs to know in order to communicate in a speech community corresponds with the definition of communicative competence (Hymens, 1972). Addressing this claim, Ying (2010) contended that a language learner's capacity to effectively use the target language in everyday communication was referred to as communicative competence.

According to Hymens (1972, p. 63), competence is characterized as "the speaker-listener's overall underlined knowledge and ability for language." Put another way, the ability to employ language knowledge in context and language proficiency are prerequisites for the core idea of communicative competence. These are the four communicative competence points listed by Hymens (1972). First, the phrase "whether or not something is formally possible" refers to the proficiency with grammar. It is related to how grammatically correct a statement is. Second, the question of "whether 13 something is feasible" pertains to its acceptability; that is, whether it is grammatically possible. Third, the phrase "whether something is appropriate" refers to a sentence's suitability for the context in which it is used.

Methodology: Theorists think that meaningful communication aids learning a language and that teaching should be centered on the requirements of the learner to transmit thoughts and information in an authentic way.

A) Communicative Language Teaching: (CLT) is an approach to language teaching that emphasizes the use of language for communication purposes. Here are some key principles of CLT.

B) Communication as the Goal: The primary goal of language learning is to develop communicative competence, which involves the ability to use language effectively to achieve communication goals in real-life situations.

C) Authentic Language Use: CLT emphasizes the use of authentic materials and real-life language situations to expose learners to the language as it is used naturally by native speakers.

D) Meaning-focused Instruction: In CLT, the focus is on conveying meaning rather than just linguistic form. Activities are designed to promote meaningful communication and interaction among learners.

E) Student-Centered Approach: CLT is learner-centered, with an emphasis on student participation and engagement. Learners are encouraged to take an active role in the learning process, and teachers serve as facilitators rather than instructors.

F) Task-Based Learning: CLT often involves task-based activities where learners work together to complete tasks or solve problems using the target language. These tasks are designed to promote communication and language use in authentic contexts.

G) Language in Context: CLT emphasizes the importance of learning language in meaningful contexts, such as through role-plays, simulations, and real-life situations, rather than through isolated grammar exercises.

H) Feedback and Correction: Feedback and error correction are important components of CLT, but they are provided in a way that supports communication and encourages learners to continue using the language.

Results. The personalized needs of everyone in the class are the main objective of the communicative approach. When language is applied outside of the classroom, learners learn the necessary skills effortlessly and respectfully. CLT is the most effective method to teach second and foreign languages. Yet, an abundance of books and learning materials still use the audio-lingual approach. Using real materials inadequately can harm the course. A teacher needs to have outstanding theoretical knowledge in application to practice. The application of this technique is complicated by teaching practices. Fluency, not accuracy, is the main objective of the CLT approach. The less competent learners who find it difficult to use the target language keep making mistakes until they lose up. Instructors emphasize accuracy through error correction throughout pair and group work activities because learners need to understand their mistakes. For intermediate and advanced learners, the CLT approach works well; however, some supervised practice is necessary for beginners. Adopting a communicative method brings up significant challenges related to testing, evaluation, teacher preparation, and material production. As a result, not every instructor and class should use it.

A. Think-Pair-Share: Students individually think about a question or prompt, then discuss their thoughts with a partner, and finally share their ideas with the whole class. This promotes active participation and peer learning.

B. Gallery Walk: Post different materials or prompts around the classroom and have students walk around to observe and respond to each one. This encourages movement and engagement with multiple perspectives.

C. Role-Playing: Assign roles to students and have them act out scenarios related to the lesson content. This can help reinforce concepts and encourage empathy and perspective-taking.

D. Jigsaw: Divide the class into small groups and assign each group a different aspect of the lesson. Have students become experts in their assigned topic and then come together to teach their peers. This fosters collaboration and ensures that every student engages with the material.

E. Interactive Whiteboard Activities: Use interactive whiteboard software or apps to engage students with multimedia content, quizzes, games, and collaborative activities. This can make learning more interactive and appealing to digital-native students.

F. Debates: Divide the class into teams and assign them different sides of a controversial topic related to the lesson. Encourage students to research and prepare arguments, then hold a structured debate. This helps develop critical thinking, communication skills, and the ability to consider multiple perspectives.

G. Hands-on Experiments or Demonstrations: Conduct experiments or demonstrations related to the lesson content to provide students with tangible experiences. This can deepen their understanding and make abstract concepts more concrete.

H. Socratic Seminars: Facilitate a student-led discussion where participants ask open-ended questions and engage in dialogue to explore a topic deeply. This promotes critical thinking, communication skills, and active listening.

I. Project-Based Learning: Assign projects that require students to research, problem-solve, and create something related to the lesson content. This fosters creativity, independent learning, and real-world application of knowledge.

J. Peer Teaching: Have students take turns teaching a concept or skill to their peers. This not only reinforces their own understanding but also encourages collaboration and leadership skills.

Discussion. Opinion sharing is a content-based procedures designed to get students talking about subjects they are interested in and to improve their conversational skills. Example: After introducing a topic, the teacher invites the class to consider their thoughts on it. For example, dating, dress regulations for schools, and global warming. The students debate their ideas on the subject while speaking in pairs or small groups.

A.Communication is the Goal: CLT assumes that the primary objective of language learning is to develop learners' ability to communicate effectively in real-life situations.

B.Meaning Over Form: Understanding and conveying meaning take precedence over grammatical accuracy. Learners are encouraged to focus on conveying their intended message rather than striving for perfection in language structure.

C.Authentic Language Use: CLT values exposure to authentic language use, such as natural conversations, texts, and situations, to facilitate language learning.

D.Interactive Learning: Learners are actively engaged in communicative activities, such as role-plays, discussions, and problem-solving tasks, to promote language acquisition through meaningful interaction.

E.Task-Based Approach: CLT often employs task-based activities where learners work together to achieve a specific goal or complete a task, fostering communication and collaboration.

F.Error Tolerance: Errors are viewed as a natural part of the language learning process, providing opportunities for reflection, feedback, and improvement rather than strict correction.

H.Focus on Fluency: Developing fluency in communication is prioritized over accuracy. Learners are encouraged to use the language creatively and spontaneously, even if it means making occasional errors.

I.Language Learning as Social Practice: CLT recognizes language learning as a social activity that occurs within cultural contexts, emphasizing the importance of sociocultural factors in language acquisition.

J.Student-Centered Approach: Learners play an active role in their language learning process, with teachers acting as facilitators who guide and support students' language development based on their individual needs and interests.

K.Authentic Assessment: Assessment in CLT focuses on evaluating learners' ability to use language in real-life communicative tasks rather than solely testing their knowledge of grammar and vocabulary. Assessment methods may include performance-based tasks, portfolios, and observations of communication in authentic contexts.

Conclusion. In conclusion, it has been suggested that teachers provide meaningful context-based feedback, give students practice applying their newly acquired grammatical skills, and connect grammar lessons to real-world scenarios. The ideal method to do this is to approach grammar instruction similarly to how the four skills are taught, which entails arranging and seamless transitions between the pre-, during, and post-grammar stages.

REFERENCES

1.Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. New York: Addison Wesley Longman, Inc. Grenfell, M. & Harris, V. (1999).

2.Modern Languages and Learning Strategies. London: Rutledge Magister Scientiae - ISSN: 0852-078X 9 Edison No. 30 – October, 2011 Hurwitz, E.K. (2008).

3.Becoming a Language Teacher, A Practical Guide to Second Language Learning and Teaching.- Boston: Pearson Education, Inc. Parrish, B. (2006).

4.Teaching Adult ESL, A Practical Introduction.- New York: McGraw Hill ESL/ELT. Richards, J. C. (2006).

5.Communicative Language Theory Today. New York: Cambridge University Press. Richards, J. C. & Rogers, T. S. (2001).

6.Approaches and Methods in Language Teaching.- New York: Cambridge University Press. Sauvignon, S. J. (2002).

7.Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice. In S. J. Sauvignon, Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education (pp. 1-27).

8.Nunan, David (1991-01-01). "Communicative Tasks and the Language Curriculum". TESOL Quarterly. 25 (2): 279–295.

9.Sauvignon, Sandra (1997-01-01). Communicative competence : theory and classroom practice : texts and contexts in second language learning. McGraw-Hill.

10.Back's.(2003). "The end of CLT: A context approach to language teaching". ELT Journal. 57 (3): 278–287

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ В ИНТЕРАКТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.

Джалилова Дилором Сирожиддинова.
Старший преподаватель кафедры русского языка литературы Шахрисабзского государственного педагогического института
jalilovadilorom2022@gmail.com

***Аннотация**: В статье рассматривается проблемы совершенствования педагогических условий формирования коммуникативной речи студентов в интерактивной образовательной среде, а также программирование процесса общения, в том числе развитие речевой деятельности студентов с помощью новейших образовательных технологий.*

***Ключевые слова:** коммуникативная речь, педагогические условия, диалогическая стратегия**,** общепедагогическая подготовка, процесс общения.*

IMPROVING THE PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE SPEECH OF STUDENTS IN AN INTERACTIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT.

Jalilova Dilorom Sirojiddinovna.
Shahrisabz State Pedagogical Institute is a senior teacher at the Department of Russian Language Literature
jalilovadilorom2022@gmail.com

***Abstract.** - The article discusses the problems of improving the pedagogical conditions for the formation of communicative speech of students in an interactive educational environment, as well as programming the communication process,*

including the development of students' speech activity with the help of the latest educational technologies.

Key words. *communicative speech, pedagogical conditions, dialogical strategy, general pedagogical training, communication process.*

INTERFAOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV NUTQINI SHAKLLANTIRISH UCHUN PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNING YARATILISHI.

Jalilova Dilorom Sirojiddinovna.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti rus tili adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
jalilovadilorom2022@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada interfaol ta'lim muhitida talabalarning kommunikativ nutqini shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, shuningdek, muloqot jarayonini dasturlash, shu jumladan so'nggi ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarning nutq faolligini rivojlantirish muammolari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar. *kommunikativ nutq, pedagogik shartlar, dialogik strategiya, umumiy pedagogik tayyorgarlik, muloqot jarayoni.*

Сущность формирования коммуникативной речи студентов в интерактивной образовательной среде, в процессе педагогического образования, подвергнута анализу эффективности авторской технологии формирования коммуникативной ситуации. Организуя педагогический процесс, нами научно обоснована модель как система общепедагогической подготовки и процесса формирования коммуникативной речи студентов в интерактивной образовательной среде. Компетентность – владение, обладание человеком соответствующей компетенцией, включающей его личностное отношение к ней и предмету деятельности. Он разделяет эти понятия, имея ввиду под компетенцией некоторое отчужденное, наперед заданное требование к образовательной подготовке ученика, а под компетентностью – уже состоявшееся его личностное качество (характеристику). Важно учитывать сложность изучения дисциплин педагогического цикла. В современной педагогической науке накоплен опыт научных исследований, посвященных актуальным проблемам обучения и воспитания, в том числе развитию речевой деятельности студентов с помощью новейших образовательных технологий. Мы выделяем следующие педагогические условия: 1) создание интерактивной коммуникативной среды; 2) отбор и применение на практике иноязычных аутентичных материалов; 3) разработка и апробация комплекса упражнений на аутентичных материалах. Творческому использованию языка как оружия и, более того, можно научиться только в процессе активного общения на этом языке. Именно поэтому очень важно находиться в языковой среде в процессе овладения русским языком, ведь сформированная речевая компетенция

предполагает автоматизацию необходимых навыков. Довести эти навыки до уровня автоматизации можно только выполнением упражнений. Достижение автоматизации достигается за счет регулярного использования языка в речи в естественных условиях. В интерактивной образовательной среде используется элементы развития коммуникативной речи студентов: умение дать социально-психологический прогноз коммуникативной ситуации, в которой устанавливается общение; социально-психологическое программирование процесса общения с учетом специфики коммуникативной ситуации; осуществление социально-психологического управления коммуникативными процессами в коммуникативной ситуации; при общении со студентами монологический эффект заменяется диалогическими стратегиями. При этом отметим, что невозможность свести культуру речи исключительно к параметрам нормативности отмечалась еще С.И.Ожеговым: «Высокая культура речи – это умение правильно, точно и выразительно передавать свои мысли средствами языка. Мышление в деятельности студента выступает в виде формирования и решения задач педагогического общения студента и группы, студента и преподавателя, т.е. коммуникативных задач.

Так, Ю.К.Бабанский определяет педагогические условия как «обстановку, при которой компоненты учебного процесса (учебный предмет, преподавание и учение) представлены в наилучшем взаимодействии и которая дает возможность учителю плодотворно работать, руководить учебным процессом, а студентам — успешно трудиться». Н.М. Борытко под педагогическими условиями понимает внешние, в той или иной мере сознательно сконструированные педагогом обстоятельства, которые существенным образом влияют на протекание образовательного процесса, предполагают, но не гарантируют определенного результата. А.Я.Найн определяет данное понятие как совокупность объективных возможностей, содержания, форм, методов, педагогических приемов и материально-пространственной среды, направленных на решение поставленных задач.

В.Г.Максимов анализируя взгляды ученых характеризует данное понятие как совокупность объективных и субъективных факторов, необходимых для обеспечения эффективного функционирования всех компонентов образовательной системы, зависящей от ее целей, задач, содержания, форм и методов. Успешность педагогического взаимодействия зависит от уровня речевой культуры педагога, формирование которой является одной из важных задач профессионального становления педагога. Коммуникативная речь студента можно охарактеризовать, как определённый уровень сформированности личности и профессионального опыта взаимодействия с окружающими, который требуется индивиду, чтобы в рамках своих способностей и социального статуса успешно функционировать в профессиональной среде и обществе.

Учебный процесс организован таким образом, что практически все обучающиеся оказываются вовлеченными в процесс познания, они имеют возможность понимать и рефлектировать по поводу того, что они знают и о чем

думают. Особенность интерактивных методов – это высокий уровень взаимно направленной активности субъектов взаимодействия, эмоциональное, духовное единение участников. В основе коммуникативного процесса лежит представление о том, что язык служит для общения и, следовательно, целью обучения языку должна быть коммуникативная компетенция, которая включает в себя языковую компетенцию (владение языковым материалом для его использования в виде речевых высказываний), социолингвистическую коммуникацию (способность использовать языковые единицы в соответствии с ситуациями общения), дискурсивную компетенцию (способность понимать и достигать связности в восприятии и порождении отдельных высказываний в рамках коммуникативно-значимых речевых образований), так называемую "стратегическую" компетенцию (степень знакомства с социально культурным контекстом функционирования языка), социальную компетенцию (способность и готовность к общению с другими). На возникновение коммуникативного метода и самого термина "коммуникативная компетенция" оказала влияние концепция языковой компетенции Н. Хомского, под которой понимается способность говорящего порождать грамматически правильные структуры.

По сравнению с традиционными формами ведения занятий, в интерактивном обучении меняется взаимодействие преподавателя и обучаемого: активность педагога уступает место активности обучаемых, а задачей педагога становится создание условий для их инициативы.

Комплекс данных педагогических условий составляют следующие факторы:

-организация учебного процесса по программе языковой подготовки студентов на основе полипарадигмального подхода, представляющего собой синтез широкого спектра научных подходов, как традиционных, так и инновационных;

-учет стилей коммуникативной деятельности студентов, а также психологических особенностей студентов в преподавании курса русского языка;

Методы активного обучения (семинар, дискуссии, диспуты, круглые столы, деловые и ролевые игры). С точки зрения автора, методы развития коммуникативной компетенции в рамках методов активного обучения позволяют моделировать реальные коммуникативные ситуации, решать конкретные коммуникативные задачи и участвовать в практической коммуникативной деятельности. Эффективность этой группы методов определяется возможностью студентов отработать навыки межличностного общения, получить обратную связь в процессе коммуникативной деятельности, скорректировать свое поведение в процессе самоанализа. В своей работе автор также отдельно рассматривает такое средство развития коммуникативной компетенции студентов как тренинг. Тренинг как метод активного обучения понимается как тренировка или подготовка, целью которого является передача знаний, формирование некоторых умений и навыков. Для формирования методики развития коммуникативной компетенции студентов в условиях использования информационной образовательной среды необходимо

определить сущность информационной образовательной среды и ее структурные компоненты. Определение информационной образовательной среды в настоящее время рассматривается как устоявшееся, однако неоднозначно определенное. В связи с этим, в научно-исследовательской литературе существует большое количество подходов к определению этого понятия. Также, среди выделяемых принципов построения информационной образовательной среды: технологической полноты, содержательной полноты, дидактической обусловленности коммуникации, оперативности доступа к учебной информации, оперативности коммуникации, обеспечения управления учебным процессом отражена необходимость построения среды с возможностью осуществления коммуникативной деятельности. Исходя из рассмотренной сущности информационной образовательной среды и ее особенностей, сформулируем определение методики развития коммуникативной компетенции студентов в условиях использования информационной образовательной среды как специально организованную деятельность студентов, включающую в себя методы, средства и приемы учебной и познавательной деятельности, которые будут способствовать изменениям коммуникативных способностей студента, предполагающий количественные, качественные и структурные преобразования с использованием информационно-коммуникационных средств информационной образовательной среды.

В основе имитационных технологий лежит имитационное или имитационно- игровое моделирование, т.е. воспроизведение в условиях обучения процессов, происходящих в реальной системе.

Современная педагогика богата целым арсеналом интерактивных подходов, среди которых можно выделить следующие:

-творческие задания;

-работа в малых группах;

-обучающие игры (ролевые игры, имитации, деловые игры);

-использование общественных ресурсов (приглашение специалиста, экскурсии);

-социальные проекты и другие внеаудиторные методы обучения (соревнования, интервью, фильмы, спектакли, выставки);

-изучение и закрепление нового материала (интерактивная лекция, работа с наглядными пособиями, видео- и аудиоматериалами, «обучающийся в роли преподавателя», «каждый учит каждого», мозаика (ажурная пила), использование вопросов, сократический диалог);

-тестирование;

-разминки;

-обратная связь;

-дистанционное обучение;

-обсуждение сложных и дискуссионных вопросов и проблем (займи позицию, -шкала мнений, ПОПС-формула);

- разрешение проблем («дерево решений», «мозговой штурм», «анализ казусов», тренинги. Внедрение в процесс обучения русскому языку как иностранному, в том числе в курс научного стиля речи, новейших информационно-коммуникационных технологий. Коммуникативная способность педагога предполагает овладение коммуникативными умениями и навыками.

К коммуникативным умениям студента можно отнести: -умения устанавливать эмоциональный контакт, завоевывать инициативу в общении; -умения управлять своими эмоциями; -наблюдательность и переключаемость внимания; -социальная перцепция, т. е. понимание психологического состояния студента по внешним признакам; -умение «подавать себя» в общении со студентами;-речевые (вербальные) и неречевые (невербальные) умения коммуникации. В своей совокупности такие умения и способности составляют технику педагогического общения или характеризуют технологическую сторону коммуникативной культуры педагога. В качестве примера информационной образовательной среды для методики развития коммуникативной компетенции студентов, рассмотрим информационную образовательную среду, основанную на облачных технологиях. На основе анализа педагогической литературы выделим такие особенности сред, которые позволят нам развить коммуникативную компетенцию студентов: Среда строится путем выбора тех сервисов, которые с точки зрения преподавателя необходимы для изучения дисциплины. Среда строится на основе базового набора облачных сервисов определенной группы; Сервисы, используемые в такой среде, реализованы и поддерживаются сторонними владельцами и в большинстве своем бесплатны, что избавляет вуз и преподавателей от технического сопровождения сервисов; Преподавание языковых дисциплин подразумевает использование коммуникативных технологий обучения, направленных на полное погружение студента в образовательный процесс. В учебном процессе следует ориентироваться на межличностное взаимодействие учебно-воспитательного процесса и совершенствование педагогического воздействия. Коммуникативные технологии обучения основаны на следующем: практическая направленность изучения языка; коммуникативно-речевая база учебного процесса; комплексная организация языкового материала; дифференцированный подход к обучению; комплексная интенсификация учебного процесса.

Таким образом, большинство исследователей педагогические условия понимают, как совокупность мер, обстоятельств, факторов, влияющих на эффективность функционирования педагогической системы.

Список использованнойлитературы

1.Сурыгин А.И. Дидактический аспект обучения иностранных учащихся СПб: Нестор, 2000.- 391 с.

2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам).- М.: ИКАР, 2009.- 448 с.

3.Мазаева И.А О необходимости формирования коммуникативной культуры // Молодежная культура и ценности будущего,– Санкт-Петербург, 2001. – С. 36-38.

4.Чуваева К. М. Сурыгин К А.- УДК 372.881.161.1- Педагогические условия формирования коммуникативной компетенции иностранных абитуриентов в учебно-научной сфере общения. -статья- 2014.

5.Innovative approaches to the process of organization and content of Ukrainian language extracurricular work at profile schools of Ukraine. http://elibrary.ru 2010.

6.Интерактивные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции студентов. http://elibrary.ru

7.КОММУНИКАЦИЯ И РЕЧЬ.http://elibrary.ru

8.Баранова И.И. Формирование коммуникативной компетенции иностранных

студентов в учебно-профессиональной сфере общения // Известия ВолгГТУ. – В., 2013. –Т. 12. – № 2 (105). – С. 73-78.

9. Дружинина Р.В. Внеучебная работа со студентами при обучении

иностранному языку и ее роль в совершенствовании коммуникативных умений будущих менеджеров // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. - М., 2009. - Выпуск. 116. - С. 127.

10. Дустмухамедова, Ш.А.Нишонова З.Т., Жалилова С.Х.Еш даврлари ва

педагогик психология. Методическое пособие .-Т.,2013.-С.15-19.

11. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М., 1985. – 208 с.

12. Плотников М. Ю. Методика развития коммуникативной компетенции студентов в условиях информационной образовательной среды- научная работа-Е.2017.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Fayzullayev Maqsud Abdullayevich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d (PhD)
e-mail: fayzullayevmaqsud08@gmail.com

Nurmatov Nurbek Ermat o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Geografiya kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: nurbeknurmatov300@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida o'tkazilgan islohotlar va ularning natijalari ilmiy tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlar jarayonining ustuvor vazifalari, yo'nalishlari, amalga oshirilgan iqtisodiy tadbirlarning mohiyatiga ko'ra shartli ravishda besh bosqichga bo'lib o'rganilgan.*

Tayanch so'zlar: *qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, yer va suv resurslari, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, farmon, qaror.*

ПРАВОВАЯ И НОРМАТИВНАЯ БАЗА РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Файзуллаев Максуд Абдуллаевич
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Доцент кафедры Географии, доктор географических наук (PhD)
e-mail: fayzullayevmaqsud08@gmail.com

Нурматов Нурбек Эрмат угли
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры географии
e-mail: nurbeknurmatov300@gmail.com

Аннотация. *В статье научно проанализированы реформы, проведенные в условиях рыночной экономики в сельском хозяйстве, которое считалось основной отраслью экономики в годы независимости Узбекистана, и их результаты. Приоритеты и направления процесса аграрной реформы в годы независимости были разделены на пять этапов по существу реализуемых экономических мер.*

Ключевые слова: *сельское хозяйство, растениеводства, животноводство, земельные и водные ресурсы, фермерские хозяйства, дехканские хозяйства, указ, решение.*

LEGAL AND REGULATIVE FRAMEWORK FOR AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN A MARKET ECONOMY

Faizullaev Maksud Abdullaevich
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Geography, Doctor of Geographical Sciences (PhD)
e-mail: fayzullayevmaqsud08@gmail.com

Nurmatov Nurbek Ermat ugli
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of Geography
e-mail: nurbeknurmatov300@gmail.com

Annotation. *The article scientifically analyzes the reforms carried out in a market economy in agriculture, which was considered the main sector of the economy during the years of independence of Uzbekistan, and their results. The priorities and directions of the agrarian reform process during the years of independence were divided into five stages based on the essence of the economic measures being implemented.*

Key words: *agriculture, crop production, livestock farming, land and water resources, farms, dekhkan farms, decree, decision.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligi – inson xo‘jalik faoliyatining dastlabki turlaridan biridir. Hozirgi vaqtda jahon qishloq xo‘jaligida dunyodagi iqtisodiy faol aholining 45,2% (1,3 mlrd. kishi) band. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar 13387,0 mln. ga, jumladan, haydaladigan yerlar 1380,8 mln.ga, jami sug‘oriladigan yerlar 271,4 mln. gektarni tashkil etadi [1, 15]. Ushbu iqtisodiyot tarmog‘i aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, sanoatning xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farq qilib, u joyning agroiqlimiy resurslari bilan chambarchas bog‘liq.

Ayni vaqtda, yer – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat vositasi hamda predmeti hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga joyning tabiiy sharoiti (asosan, relyefi va iqlimi), resurslari (yer, suv, hayvon va o‘simliklari), ijtimoiy-iqtisodiy, transport, ekologik va boshqa omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Biroq uning rivojlanishi va ixtisoslashuvi turli mamlakatlarda turlicha kechadi; rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo‘jaligi, xususan, dehqonchilik ko‘proq ekstensiv holatda bo‘lsa, ilg‘or mamlakatlarda u intensiv ko‘rinishga ega. Shunga mos tarzda agroiqtisodiyotning samaradorligi, mehnat unumdorligi ham geografik jihatdan farqlanadi. Ayni vaqtda, qishloq xo‘jaligining asosiy xususiyatlari ushbu tarmoqning rivojlanish va joylanishini belgilab beradi (1-rasm).

Mamlakat milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlanishining o‘ziga xos imkoniyatlari mavjud bo‘lib, sohani intensiv rivojlantirish xususida respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Bugungi kuchli raqobat sharoitida qishloq xo‘jaligi tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg‘or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejaydigan texnologiyalarni izchil tatbiq etishni zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Keyingi paytda butun dunyoda bo‘lgani kabi mintaqamizda ham yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining tobora taqchil bo‘lib borayotgani, ekologik muammolar sohada ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Ana shu omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholiga sifatli

mahsulotlar yetkazib berish, eksport geografiyasini kengaytirishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda” deb, ta’kidlagan [7].

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi an’anaviy soha bo‘lib, u milliy iqtisodiyotda salmoqli o‘rin tutadi. Mamlakatning yer fondi, mehnat resurslari, texnika va texnologik uskunalar, sug‘orish tizimi hamda boshqa milliy boyliklarning katta qismi qishloq xo‘jaligi ixtiyoriga berilgan. Shularni hisobga olib, respublika hukumati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari faoliyatini bozor munosabatlariga moslashuvini tezlashtirish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning nazariy va umumiy metodologik masalalari ilmiy adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda (Z.M.Akramov, V.G.Kryuchkov, K.I.Ivanov, K.I.Lapkin, A.M.Nosonov, V.A.Pulyarkin, A.N.Rakitnikov, A.N.Ro‘ziev, Y.I.Ahmadaliev, Y.K.Umarov va b.) qishloq xo‘jaligining hududiy jihatlari aks ettirilgan.

Bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, ilmiy ishlarda (S.Ch.Djalalov, T.Jumaev, A.N.Nigmatov, E.F.Trushin, A.Ro‘ziev, Q.Allanov, B.Kalonov, R.Usmonov, A.Xolmirzaev, K.Xidiraliev, M.Fayzullaev, F.Rajabov, J.Namozov) yer-suv resurslaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning zamon talablariga javob beruvchi jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bu borada yer-suv muammosi keskin hisoblangan mintaqalar ham ma’lum darajada tadqiq qilingan.

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida shu narsa aniqlandiki, yuqoridagi tadqiqotlarning ko‘pchiligida qishloq xo‘jaligi rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlari hududlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidan kelib chiqqan holda iqtisodiy, ijtimoiy, geoekologik va geosiyosiy jihatdan tadqiq qilinmagan. Shuning O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari, yuzaga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolar, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda alohida o‘ringa ega bo‘lgan tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslarini tahlil qilish maqsad qilib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakat hududi arid mintaqada joylashganligi sababli, dehqonchilik asosan sun’iy sug‘orish yordamida amalga oshiriladi. Lekin keyingi yillari sug‘orish suvi taqsimotini cheklanganlik sharoitiga o‘tishi ham sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish samaradorligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ham yerlardan (ayniqsa sug‘oriladigan) foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni va umuman atrof muhitning ekologik holatini muhofaza qilish bugungi bozor sharoitida asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini tarixiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘langan. Jamiyatning rivojlanishi va ilmiy texnik taraqqiyotining darajasiga qarab qishloq xo‘jaligi tizimi va uning hududiy tashkil etish yo‘nalishlari o‘zgarib boradi. Masalan, jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining chuqurlashishi natijasida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi sodda va

betartib tizimdan, mehnat kooperatsiyasi va integratsiyasi asosida hududiy jihatdan oddiy guruhlar, tarmoq va tarmoqlararo majmualarni tashkil etadi [3, 16].

Sanoatda bo‘lganidek, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirish va ixtisoslashtirishda ham eng asosiy omil bozor munosabatlari sanaladi. Qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini hozirgi kunda bozor, narx-navo belgilaydi, ammo bu ta’sir qishloq xo‘jaligida ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng o‘z kuchini ko‘rsatadi (chunki, mahsulot yetishtirish uchun ancha vaqt talab etiladi, sanoatda esa bu jarayon nisbatan tez kechadi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiya ta’sirida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va integratsiya jarayonlarining kengayishi jamiyat rivojlanishining eng yuqori pog‘onalariga xosdir. Bu jarayon, eng avvalo, ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va umumiylashishida, ya’ni ixtisoslashuvning chuqurlashishi, mujassamlashuvning o‘sishi, kooperatsiya va kombinatlashtirish shakllarining kengayishida o‘z ifodasini topadi. Tarmoqlararo va hududiy ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishi ushbu jarayonning natijasi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi hududiy ishlab chiqarish majmualari yoki tizimlari asosida turli tarmoqlarning hududiy uyg‘unlashuvi, masalan, dehqonchilik va chorvachilikning o‘zaro joylashuvi, o‘z navbatida dehqonchilikning ichki tarmoqlarini bir-biriga yaqin joylashuvi yotadi.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jaligini isloh qilish jarayonida ushbu sohada katta va ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Mulkchilik munosabatlari tubdan o‘zgartirildi, ko‘p ukladli, mulkchilikning turli shakllariga moslashgan korxonalar vujudga keldi, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarning asosiy maqsadi – agroiqtisodiyotni jadal rivojlantirish asosida mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xom ashyo bilan ta’minlash va, shu bilan birga, qishloq joylarda aholi bandligini oshirishga, shuningdek inson omilining roli va ahamiyatini, uning ishlab chiqarishning pirovard natijalarini yuksaltirishdan manfaatdorligi va javobgarligini oshirishdan iborat [5, 8, 14].

Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida o‘tkazilgan islohotlar jarayonini undagi ustuvor vazifalar, yo‘nalishlar, amalga oshirilgan iqtisodiy tadbirlarning mohiyatiga ko‘ra shartli ravishda besh bosqichga bo‘lish mumkin.

Iqtisodiy islohotlarning *birinchi bosqichi* respublika mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlanib, 1991-1996 yilgacha davom etdi. Bu bosqich mamlakatda qishloq xo‘jaligini barqarorlashtirishni ta’minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birlamchi asoslari yaratilganligi bilan tavsiflanadi [2, 11].

Islohotlarning dastlabki ustuvor yo‘nalishi shaxsiy tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish bilan izohlanadi. O‘zSSR Ministrlar kengashining 1989 yil 15 avgustdagi “Kolxozchi, sovxoz ishchilari va fuqarolarning shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish” to‘g‘risidagi qarori asosida shaxsiy tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish, unga moliyaviy va moddiy resurslar bilan yordam berish alohida nazoratga olindi. Bunday xo‘jalikning ruxsat etilgan sug‘oriladigan yer maydoni kolxozlarda 0,16 gektardan, sovxozlarda 0,08 gektardan 0,25 gektargacha kengaytirildi. Agar 1989 yilda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari ixtiyorida 300 ming gektar yer bo‘lsa, 1995-yilda ularning maydoni 600 ming gektardan ortdi. Bu boradagi ishlar o‘zining ijobiy natijasini berdi.

1995-yilga kelib shaxsiy tomorqada xo‘jaliklar yirik shoxli mollarning 70 foizini qamrab olib, jami ishlab chiqarilayotgan go‘shtning 80 foizini va sutning 90 foiziga yaqini yetishtirildi. Kartoshka va sabzavotning 69 foizi ham aynan shu mulkchilik tizimida ishlab chiqarilgan. Shaxsiy tomorqa xo‘jaligi o‘tish davrining inqirozi, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarini bartaraf etishda, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda eng samarali vosita bo‘ldi [4, 12].

1992-1994 yillarda davlat qishloq xo‘jalik korxonalari (sovxozlar) tugatilib, ularning negizida shirkatlar, agrofirmalar, fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. Davlat mulki hisobida qolgan kam sonli xo‘jaliklar qishloq xo‘jaligi ta’limi va tadqiqotlar, dehqonchilik va chorvachilik seleksiyasini rivojlantirish bilan shug‘ullandi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga muhim ahamiyat berildi. Davlatga qarashli bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalari mulkini qaytarmaslik sharti bilan jamoa xo‘jaliklariga aylantirildi. Natijada, 1995-yilgacha 1066 ta davlat xo‘jaligi negizida jamoa va ijara xo‘jaliklari vujudga keldi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligining‘ asosiy xususiyatlari
Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

Respublikada dehqon (fermer) xo‘jaliklarini mustaqil xo‘jalik yuritish subyekti sifatida rasman tan olish va faol shakllantirish jarayoni 1991 yilning oxirlaridan boshlandi. Hukumatining bir qator qarorlarida istiqbolda asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chikaruvchi subyekt bo‘lib qoladigan dehkon va fermer xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. Jumladan, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29 dekabrdagi "Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikada ishbilarmonlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 30 dekabrdagi 315-sonli "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida"gi qarori ishlab chiqildi va izchillik bilan amalga oshirildi. Ushbu farmon va qarorning amalga oshirilishi mamlakatda dehqon va fermer xo'jaliklarini bozor sharoitida tarkib topayotgan xo'jalik yuritishining yangi shakli sifatida xisobga olish va rivojlantirish uchun dastlabki huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Qarorda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish maqsadida boshlang'ich yer fondini shakllantirish, ularni moddiy-texnika resurslari va kreditlar bilan ta'minlash hamda fermerlar faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari belgilab berildi. Shunga binoan, respublika yer fondidan fermer xo'jaliklarini tashkil etish uchun 200,0 ming gektar maxsus yer ajratildi. Surunkali zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklari tarqatilib, ularning negizida fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi bo'yicha tanlov joriy qilindi va tanlovda g'olib chiqqan fuqaro fermer xo'jaligiga egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Dastlabki tashkil etilgan fermer xo'jaliklari asosan respublika zaxira yerlarida, mehnat resurslari yetishmaydigan, yangi sug'oriladigan, qishloq xo'jaligi korxonalarining kam unumli, foyda bermaydigan yoki kam rentabelli yerlarida shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Dehqon (fermer) xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni (1993-yil), "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi (1994) qarori va "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (1994) Farmonlarining qabul qilinishi ham mazkur davrda qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilishda poydevor vazifasini bajardi. Qayd etish joizki, bu bosqichda qoloq agrar munosabatlarning asoratlari va eski tizimning saqlanib qolishi oqibatida qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish sur'ati biroz pasaydi, ya'ni u 1996 yilga kelib 1991 yilga nisbatan 15,2 foizga qisqardi [2,8].

Islohotlarning birinchi bosqichida sohani isloh qilishni aniq tadbirlar bo'yicha olib borilishiga qaramasdan rejali iqtisodiyot unsurlari saqlanib qoldi. Bunga sabab – qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishini moliyalashtirish o'zgarishsiz qolib, asosan markazlashgan tizim orqali olib borilishi, qishloq xo'jaligi ekin turlarini joylashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini belgilash hamda ularni sotish markazlashgan tarzda olib borilishi, moddiy manfaatdorlik tizimining aytarli o'zgarmaganligidir [19,13].

Ikkinchi bosqich (1997-2000 yillar). Bu bosqich islohotlarning institutsional bazasini, qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar tizimini shakllantirish hamda islohotlarni amalga oshirishning bosh maqsadini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm va qishloq xo'jaligidagi islohotlarning huquqiy asosini yaratish bilan tavsiflanadi. Mazkur davrda "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi va "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonunlar (1998-yil 30 aprel) ishlab chiqildi. "Yer kodeksi", "Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining dehqon va fermerlarni, xususiy tadbirkorlarhamda kichik va o'rta

biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari (1998-yil 5 iyul) qabul qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni (1998-yil 10 oktabr) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat yer kadastrini yuritish to‘g‘risidagi“ (1998-yil 31 dekabr, 543-sonli) qarorlari imzolandi [19].

Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yurtishning bozor munosabatlariga mos 3 xil shakllar – shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari tanlab olindi. Jamoa xo‘jaliklarini shirkat xo‘jaliklariga aylantirish orqali yer va mulk egasini shakllantirish, mehnatni oila pudrati asosida tashkil etish va qishloq xo‘jaligida meyordan ortiqcha ish kuchlarini qisqartirib, boshqa sohalarga jalb etish vazifalari hal etildi. Qishloq xo‘jaligi ishchilari soni mahsulot birligiga mehnat sarfi me’yoriga binoan qisqartirildi, natijada tarmoqdan 400 mingdan ortiq kishi bo‘shatildi va boshqa sohalarga jalb qilindi [19, 8].

Ko‘rilayotgan davrda, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish jarayoni faollashdi. Bu ro‘yxatga olingan fermer xo‘jaliklari sonini 1990-1991 yildagi 2000 tadan 2000-2001 yilda 50 mingtaga ko‘paytirishga sabab bo‘ldi. Fermerlarga biriktirilgan yer maydonining o‘rtacha kattaligi 1990 yil boshidagi 10 gektardan 2000 yil boshida taxminan 20 gektarga kengaydi. Shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari dehqon xo‘jaliklari sifatida rasmiy maqom oldi va uning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochildi hamda ularga yuridik shaxs yoki yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari yaratildi [2, 19, 14].

Qishloq xo‘jaligida tovar yetishtiruvchilar faoliyatini erkinlashtirish bosqichma-bosqich olib borildi, paxta va dondan boshqa barcha mahsulotlar davlat buyurtmasi bekor qilindi va ularni erkin narxlarda hohlagan bozorda sotish huquqini berilishi xo‘jaliklar va pudratchilar ixtiyoridagi erkin tasarruf qiladigan mahsulotlar ortib borishiga olib keldi.

Bu bosqich nisbatan qisqa davrni o‘z ichiga olsada, biroq ko‘plab agroislohotlarga boy bo‘ldi. Chunonchi, ushbu bosqichda respublika dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Eng muhimi 1998-2000 yillarda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturining qabul qilinishi ham shu davrni qamrab oladi. Natijada, ushbu bosqichda qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan yangi mulkchilik shakllarining mahsulot yetishtirishdagi ahamiyati ortdi va bu davrda agrar soha mahsuloti 113,3 foizga o‘sdi.

Uchinchi bosqich (2001-2007 yillar). 2001 yildan boshlab qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan fermer xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashning turli mexanizmlarini amaliyotga joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Qishloqda bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, moddiy-texnika ta’minotini mustahkamlash, moliyalashtirish va kreditlashning yangi shaklini ishlab chiqarishga joriy qilish va boshqa dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan ko‘plab dasturlar tayyorlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari

to‘g‘risida”gi farmonida fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning asosiy qoidalari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktabrdagi 3342-sonli “Fermer xo‘jaliklarini 2004-2006 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktabrdagi 476-sonli “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu konsepsiya kelajakda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda asosiy xo‘jalik subyekti hisoblanadigan fermer xo‘jaliklarini 2004-2006 yillar davomida jadal rivojlantirishni ta’minlash maqsadida ishlab chiqildi [8, 19].

To‘rtinchi bosqich (2008-2015 yillar). O‘zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida fermer xo‘jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktabrdagi F-3077-sonli “Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish (optimallashtirish) choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi doirasida bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni 2 baravarga (27 gektardan 56 gektarga) kengaydi va bunday o‘zgarish mazkur tarmoq rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda fermer ho‘jaliklari mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va eksport qilishi uchun yer resurslari bilan optimal darajada ta’minlandi.

Alohida ta’kidlash lozimki, ushbu bosqichda 2009 yilni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’lon qilinishi va tegishli Davlat dasturining ishlab chiqilishi ham muhim voqea bo‘ldi. Dasturda qishloq joylarda aholi farovonligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlikni ta’minlashda fermer va dehqon xo‘jaliklarini o‘rni va ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan [13].

Beshinchi bosqich (2016 yildan boshlandi). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.12.2016 y. PQ-2694-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2016-2020 yillar davrida qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015 yil 29 dekabrdagi PQ-2460-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 y. PQ-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2022 y. PQ-273-son "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarorlari mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda aholini sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, eksport geografiyasini kengaytirishda yangi yo‘nalishlarni belgilab olishga asos bo‘ldi.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, oborotdan chiqqan ekin maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlarni o‘zlashtirish ishlariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. 2020-2021 yillarda 369 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritildi. Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash

maqsadida davlat tomonidan subsidiya ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, yangi issiqxonalar tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlari tannarxining barqarorligini ta’minlash borasidagi ishlar ham o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Xususan, birgina 2021-yilning o‘zida 797 gektar maydonda qiymati 2,3 trillion so‘mlik 398 ta zamonaviy issiqxona ishga tushirilib, 11 mingdan ortiq kishining bandligi ta’minlandi. Bularning barchasi ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, eksport imkoniyatlarini kengaytirdi hamdaxorijiy mamlakatlar bozorlariga yangi istiqbolli yo‘nalishlar ochilib, qariyb 1,5 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari 65 ta davlatga eksport qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakat qishloq xo‘jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Bu davrni qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish bosqichi sifatida baholashimiz mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, o‘sha davrda asosiy valyuta rusurslari, respublika uchun hayotiy zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, texnika va texnologiya uskunalarini import qilishni asosiy manbasi edi. Aynan shu yillarda g‘alla yetishtirishga – don mustaqilligiga alohida e’tibor berila boshlandi va bu vazifa paxta yakkahokimligini cheklash hisobidan amalga oshirildi. Masalan, mamlakat g‘alla ekin maydonlari 1990-yildan 2020-yilgacha 433,2 ming gektardan 1610,7 ming gektargacha yoki deyarli 4 marta ko‘paydi, hosildorlik 12,8 s/ga dan 41,8 s/ga gacha ortdi (2-rasm), yalpi hosil 553,5 ming tonnadan 6545,3 ming tonnagacha oshdi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida paxta va g‘alla ekinlari hosildorligi (s/ga)

Rasm O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

G‘alla ekin maydonlari yangi o‘zlashtirilgan hududlar sug‘oriladigan paxta maydonlari evaziga ko‘paytirildi va yuqori hosildorlikka erishildi. 1991-2020 yillarda paxta bilan band ekin maydonlari respublikada 1721,0 ming gektardan 1342,5 ming

gektargacha (3-rasm), bunga mos holda yetishtirilgan paxta xomashyosi 4646,3 ming tonnadan 3442,3 ming tonnaga kamaydi.

Tahlil qilinayotgan yillarda yem-xashak ekinlari maydoni hisobiga g‘alla maydonlari kengaytirilganligi va paxta maydonlarining u darajada kamayib ketmaganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Shu davrda chorva yaylovlarining qishloq xo‘jaligi yerlar tarkibidan chiqib ketishi, sug‘oriladigan yerlarda yem-xashak ekinlari maydoni keskin qisqarganligi chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, 1991-yilda respublikadagi barcha yaylovlarning 92 foizi qishloq xo‘jaligi tasarrufida edi; chorva mollarining ko‘p va tizimsiz boqilishi, yaylovlar mahsuldorligi kamayib ketganligi va yaylovlarning qayta tiklanmayotganligi bois, ularning maydoni 40 foizga kamayib ketdi [2, 6, 10].



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi ekin maydonlarining tarkibiy o‘zgarishi (foizda)

Rasm O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida fermer va dehqon xo‘jaliklarining bozor iqtisodiyoti sharoitida va sog‘lom raqobat asosida rivojlanishi uchun islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va mustahkam huquqiy-meyoriy baza yaratildi hamda asosiy yo‘nalishlar belgilab olindi (2-ilova). Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Veterinariya to‘g‘risida”gi qonunlar, respublika Prezidentining bir qator qaror, farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, fermer xo‘jaliklari faoliyatining mulkiy daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta’minlashga hamda qo‘llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini talab darajasida yetishtirish uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Aholi sonining muntazam o‘sib borishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni keskin darajada oshishiga sabab bo‘ladi. Shu maqsadda urug‘chilik-seleksiya ishlarini kuchaytirish, iqlim o‘zgarishi talabiga javob beradigan ekin navlarini yaratish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, ularga axborot va konsalting xizmatlarini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Положение дел в связи с отсутствием продовольственной безопасности в мире – 2015. На пути к достижению намеченных на 2015 год международных целей в области борьбы с голодом: обзор неравномерных результатов. Рим, ФАО.

2. М.А.Файзуллаев Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси (монография). – Қарши: Университет, 2019. -245 б.

3. М.А.Файзуллаев Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этишнинг асосий тамойил ва омиллари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 53-жилд. – Тошкент, 2018. – Б. 111-115

4. Т.Х.Фарманов, М.Г.Муратова Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ва менежменти фанидан маърузалар матни. Т., 2011 – 294 б. http://agrar.uz/wp-content/uploads/2014/02/

5. Э.И.Эргашев Аграр тармоқ хўжаликларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва омиллари//Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Тошкент, 2015. – №5.

6. Ю.Б.Юсупов, Ц.Лерман, А.С.Чертовицкий, О.М.Акбаров Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва тараққиёт истиқболлари. Аграр секторни ривожлантириш тенденциялари нуқтаи назаридан таҳлил. – Т.: 2010. – 154 б.

7. Ўзбекистон 2030-йил сари: Ўсишнинг ресурслардан самаралифойдаланишмоделигаўтиш. http://www.cer.uz/upload/iblock/b45/

8.Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 140 б.

9. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. – Т.: Адолат, 2011. – 152 б.

10. Ўзбекистонда атроф-муҳитнинг ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш: фактлар ва рақамлар. 2000-2004 статистик тўплам. – Тошкент: 2006. – 104 б.

11. Ўзбекистонда мамлакат тизимли диагностикасини ўтказиш бўйича онлайн консултациялар. 2015-2019 йилларда Мамлакат билан ҳамкорлик Концепциясига қўшимча сифатида. Август 2015 й. https://consultations.world...

12. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлиги. UNDP. 2010. Б. 4-13.

13. Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги. – Т.: Илм зиё, 2009. – 312 б.

14. Қишлоқ хўжалигида ислоҳотларни чуқурлаштириш дастури 1998-2000 йиллар. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 96 б.

15. 70 лет ФАО (1945–2015) подготовлено управлением общеорганизационных коммуникаций ФАО. http://www.fao.org/3/a-i5142r.pdf

16. M.A.Faizullaev Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023.– p. 39-42. ISNN 2795-7659

17. M.A. Faizullaev Factors of intensive development of agriculture in ensuring

food security // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal.** Vol. 4 No. 1 (2023) – p. 715-719.ISNN 2776-0979

18. http://ivo.garant.ru/#/document/77139667 Организация сельско хозяйственног о производства (учебник; издание второе, перераб. и доп.) (коллектив авторов; под ред. д-ра экон. наук М.П. Тушканова и д-ра экон. наук А.Ф. Максимова). - "ИНФРА-М", 2021 г.

19. Жанубий Ўзбекистон чўл ҳудудлари қишлоқ хўжалиги ривожланишининг иқтисодий-географик омиллари Файзуллаев М.А.–2017. http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42358

20.Критерии продовольственной безопасности, 2016. https://staff.tiiame.uz/storage/users/460/articles/GoRuBRhQmLyo3Ee5yzBgwwXLTeknUWCQiWzdCRhl.pdf

AEROKOSMIK SURATLARDA GEOLOGIK STRUKTURALARNI DESHIFROVKA QILISHNING LANDSHAFT GEOINDIKATSIYA USULI

Jankobilov Ilxomiddin Xolmuratovich,
geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi, dots v/b
e-mail:jankobilovilhomiddin@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ma'lum masofadan turib yer yuzasini o'rganishning landshaft geoindikatsiya usuli qarab chiqiladi. Bu tadqiqotning yangi yo'nalishi bo'lib landshaftshunoslik, geologiya va optik fizikaning o'zaro birlashgan halqasida yuzaga kelgan. U aerokosmik materiallar asosida, landshaft qobig'iga, yer yuzasining ichki qismlarida joylashgan yashirin strukturalarning yer yuzasida o'ziga xos fotoanomaliyalarni hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganadi. Bir xil tabiiy kompleksdagi landshaft turlari va kenja turlarining bir-biridan prinsipial farqli belgilarini alohida o'rganish bilan bir qatorda, ularni bus-butunligicha va bir-biriga bog'liqligini ham qarab chiqadi*

Tayanch so'zlar: *Indikatsiya, geoindikatsiya, kosmostruktura, landshaft, spektral diapazon, fotoanomaliya, region, geologik obyekt, geografik obyekt, turli masshtab*

ЛАНДШАФТНАЯ ГЕОИНДИКАЦИЯ МЕТОД ДЕШИФРИРОВАНИЯ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ СТРУКТУР НА АЭРОКОСМИЧЕСКИХ СНИМКАХ

Жанкобилов Илхомидин Холмуратович,
доцент кафедры географии, кандидат географических наук, в.и.о доцента
e-mail:jankobilovilhomiddin@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматривается ландшафтный геоиндикационный метод исследования поверхности Земли на определенном расстоянии. Это новое направление исследований возникшее на стыке ландшафтоведения, геологии и оптической физики. На основе аэрокосмических материалов он изучает вопросы, связанные с созданием специфических фототонов на поверхности Земли, на основе аэрокосмических материалов,*

ландшафтной коры, скрытых структур, расположенных во внутренних частях земной поверхности. Помимо изучения основных различий между типами и подтипами ландшафтов в одном природном комплексе рассматривается их целостность и вазаимосвязь

Ключевые слова: *Индикация, геоиндикация, космоструктура, ландшафт, спектральный диапазон, фотоанамалия, регион, геологический объект, географический объект, различные масштабы*

THE METHOD OF LANDSCAPE GEOINDICATION FOR DECODING GEOLOGICAL STRUCTURES IN AEROSPACE IMAGES

Zhankobilov Ilhomidin Kholmuratovich,
Department of Geography, Associate Professor
Candidate of Geographical Sciences, Acting Associate Professor

Abstract. *The article discusses the landscape geoindication method for studying the Earth's surface at a certain distance. This is a new direction of research that arose at the intersection of landscape science, geology and optical physics. Based on aerospace materials, it studies issues related to the creation of specific phototons on the surface of the Earth, based on aerospace materials, landscape crust, hidden structures located in the interior of the earth's surface. In addition to studying the main differences between types and subtypes of landscapes in one natural complex, their integrity and interconnection are considered*

Key words: *Indication, geoindication, cosmostructure, landscape, spectral range, photoanomaly, region, geological object, geogra.phical object, various scales*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoniga asosan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston 2030” strategiyasining – Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish nomli 66-maqsadida “Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish” belgilangan [1].

Landshaft geoindikatsion tadqiqotlar aerokosmik suratlarga asoslangan holda yerning chuqur qismida yotgan neft-gazli strukturalarning qidirish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli ekologik vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi

Jumladan, mashhur ingliz geograflaridan biri Ken Gregorining o‘zining “Geografiya va geograflar” nomli asarida aerokosmik suratlarning yuqori darajada axborotga ega ekanligini quyidagicha izohlagan “Tabiiy geografiya sohasida o‘tgan yuz yillikda shakllangan g‘oyalarga qaraganda, ulardan ham asosliroq va ishonchliroq g‘oyalarning yuzaga kelishi – masofadan turib tadqiq qilish usulining hamda ma’lumot beruvchi texnikalarning jadal rivoji va takomillashuvi bilan bog‘liqdir” [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kosmostrukturalarning spektral diapazonlarga bog‘liq holda yuzaga kelgan geologik-gegrafik obyektlarning farqini

tadqiqotchilar turlicha tushuntiradi. V.M.Panin, S.F.Skobelov atmosfera faktorlari bilan bog‘laydi.[3]. V.I.Akovetskiy Yer elektromagnitik maydoni ta’siriga, [4]. Y.S.Tolchilnikov va A.A.Grigoryevlar esa quyosh energiyasining ta’siri ostida tabiiy shakillanish yoki boshqacha aytganda buni keltirib chiqaradigan narsa effektiv radiatsiya miqdori (effektiv harorat) deb qaraydi. [5-6].

B.G‘.Azimov rahbarligida bizlarning olgan natijalarimiz esa [7-10] turli masshtabdagi ko‘p zonali komplektlarni statistik analiz qilishga asoslangan bo‘lib, ular uchta tajriba uslubiy kosmopalegonda Farg‘ona (mayda masshtabli 40 komplekt, o‘rta masshtabli 10 komplekt va yirik masshtabli 2 komplekt kosmomateriallar analiz qilingan), Buxoro – Xiva regionida (mayda masshtabli 10 komplekt, o‘rta masshtabli 5 komplekt va yirik masshtabli 3 komplekt kosmomateriallar analiz qilingan), Buxoro – Qarshi NGO regionining janubi sharqiy qismida (mayda masshtabli 12 komplekt, o‘rta masshtabli 7 komplekt va yirik masshtabli 5 komplekt kosmomateriallar analiz qilingan) o‘tkazilgan tajribalarga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Aerokosmik suratlar asosida geologik strukturalarni deshifrovka qilishning landshaft indikatsiya usulini takomillashtirishda kuzatish, kartografik, statistik, tarixiylik, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Aerokosmik suratlarning geoindikatsion belgilarini aniqlashtirishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanilgan. Geologik struktarlar bilan indikatsiya belgilarni bog‘lashda kartografik metoddan foydalanib olingan natijalar asosida, mantiqiy xulosalar chiqarilgan.

Tahlil va natijalar. Ma’lum masofadan turib yer yuzasini o‘rganishning landshaft geoindikatsiya usuli, bu tadqiqotning yangi yo‘nalishi bo‘lib landshaftshunoslik, geologiya va optik fizikaning o‘zaro birlashgan halqasida yuzaga kelgan. U aerokosmik materiallar asosida, landshaft qobig‘iga, yer yuzasining ichki qismlarida joylashgan yashirin strukturalarning yer yuzasida o‘ziga xos fotoanomaliyalarni hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘rganadi. Bir xil tabiiy kompleksdagi landshaft turlari va kenja turlarining bir-biridan prinsipal farqli belgilarini alohida o‘rganish bilan bir qatorda, ularni bus-butunligicha va bir-biriga bog‘liqligini ham qarab chiqadi.

Ma’lumki, landshaft indikatsiya usuli geoindikatsiya usulidan farq qilib, bunday tadqiqotlarda asosiy diqqat e’tibor yashirin strukturalar ustida yotgan anomal uchastkalarning o‘ziga xos indikatorlari (ko‘rsatkichlari)ni aniqlashga ya’ni – daryo turlari va yuza oqimlar, relyef, tuproq, o‘simlik ba’zi bir hollarda esa inson xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga kelgan obyektlarda anamal uchastkalarni o‘rganishga qaratilgan.

B.G‘.Azimov va boshqalar tomonidan landshaft geoindikatsiyasining o‘ziga xos xossalari kontrastli anolog usuli yordamida eng yaxshi o‘rganilgan [9]. Hozirgi vaqtda ma’lumki, landshaft tashqi komponentlarining geometrik va optik xarakteristikasi ma’lum masofadan olingan ko‘p zonali kosmik suratlarda kerakli darajada o‘zgaradi. Shuning uchun ko‘p zonali kosmomateriallar komplektining sinxron holda olinganligiga qaramasdan, spektral kanallarning har qaysisida (yoki qisqa spektral zonalarda) geologik, geomorfologik obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning berilishida farq shakillanadi.

Bu yerlarda olib borilgan tajribalar bizga quyidagilarni aniqlash imkoniyatini berdi. Turli xil atmosfera sharoitida olingan turli masshtabdagi ko‘p zonali kosmik tasvirlar komplektining analizi shu narsani ko‘rsatadiki, obyektlar o‘zining geologik-geografik ma’lumotliligini yo‘qotmaydi. Ma’lum masofadan olingan kosmik suratlarning 0,5 – 0,6 mkm li diapazonida yirik morfostruktura elementlarining surati yaxshi o‘qiladi va tuproq o‘simlik qoplami aks etgan landshaftning geomorfologik zonallik belgilari yaqqol ifodalanadi. 0,7 – 0,8 mkm li diapazonida olingan kosmofotosuratlarda yuqorida qayd qilingan diapazonga nisbatan keskin o‘zgaradi va yer yuzidagi geologik – geomorfologik obyektlar bilan mos keluvchi fotanamaliyalarning kontrastligi tiniqlik darajasi yomonlashadi. Spektrning infraqizilga yaqin diapazonida esa 0,8 – 1,1 mkm.li diapazonida butunlay boshqa fotoanomaliyalar ajraladi, ya’ni spektrning ko‘rinma qismida (0,5 – 0,7 mkm li diapazonida) deshifrovka qilingan obyektlar bilan mos kelmaydi. Bu diapazonda fotoanomaliyalar konturi keskin kontrastli bo‘lib tuproq, o‘simlik mezokaynozoy va yangi yotqiziqlar o‘zining fototuslarini yo‘qotadi va ular o‘rnida yagona aralash donodor yorug‘roq kulrang fototuslar hosil bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida deshifrovka qilingan barcha komplektlarda Markaziy Farg‘ona cho‘kmasi yorug‘ kulrang fototusda BQNGO ning janubi sharqiy qismida joylashgan cho‘kma va bukilmalarning (Qashqadaryo, Beshkent) fotoanomaliya areallari bir oz qoramtir rangda ajraladi. Oxirgi olingan natijalar geologik-geofizik va landshaft kartalari bilan qiyoslanganda shuni ko‘rsatadiki, mezozoygacha bo‘lgan fundamentning yashirin strukturalariga infraqizilga yaqin diapazonda olingan fotoanomaliyalar to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham bizning hisob kitobimizga ko‘ra, ma’lum masofadan olingan ko‘p zonali fotosuratlarning turli diapazonida geologik-geografik obyektlarning ma’lumotliligi bo‘yicha yuzaga keladigan farq, atmosfera faktorlariga, Yerning elektromagnit maydoniga, effektiv radiatsiya farqiga bog‘liq bo‘lib qolmasdan deformatsiyalashgan qoplam yotqiziqlarining spektral xarakteriga va yer ichki energiyasining ta’sir etish darajasiga ham bog‘liq.

Yuqorida bayon qilinganlar shundan dalolat beradiki, neft gazli regionlarda yuzaga kelgan va kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan geoekologik muammolarni belgilovchi landshaft geoekologik kartasini tuzishda, shuningdek, geologik qidiruv ishlari natijasida landshaft geoindikatsiya tadqiqotlarining takomillashuvi va muvaffaqiyatli rivoji, nafaqat ma’lum masofadan olingan koinot tasvirlarining masshtabini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq bo‘lib qolmasdan aerokosmik suratlarning spektral diapazoniga ham bog‘liq.

1:500 000 masshtabda kelajakka mo‘ljallangan landshaft geoekologik kartasini tuzish uchun biz korrelyatsiya usulidan keng foydalandik (34 ta turli mavzudagi kartalar olindi).

Xulosa va takliflar. Buxoro-Qarshi regioni janubi-sharqiy qismi hududida o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosaga keldik.

Spektrning turli diapazonlarida olingan aerokosmik suratlarda ma’lumotlilik darajasi bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi geologik-geografik obyektlar geoindikatsion belgilari asosida neft gazli strukturalarni aniqlashda, shuningdek, aniqlangan strukturalarning geoindikatsion belgilar asosida hududning landshaft geoekologik

kartasini tuzishda korrelyatsiya usulidan foydalanilganda quyidagi beshta muhim jihatni e'tiborga olish zarur.

Birinchidan spektrning turli diapazonlarida, landshaft tashqi komponentlarining asosi hisoblangan tuproq, o'simlik, daryo turlari va boshqalarning nur qaytarish qobiliyatining yuqori darajada sezuvchanligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu o'zgarishlar ma'lum masofadan turib olingan komplektlarning ma'lumotlilik darajasiga sezilarli ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida interpretatordan fizikaning optika sohasida yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishni taqoza qiladi. Busiz ma'lum masofadan turib olingan kosmik fotosuratlarning turli diapazonlarida geologik strukturalarni va boshqa obyektlarning landshaft geoindikatsiya xossalarining qonuniy o'zgarishini aniqlash mumkin emas. Bular e'tiborga olinmasa o'rganuvchi geologik obyektlarni deshifrovka natijalarini olishda va interpretatsiya qilish jarayonida xatoga yo'l qo'yish mumkin.

Ikkinchidan, ma'lum masofadan turib olingan suratlardagi geologik strukturalarning deshifrovka qilish jarayonida uning elementlarini (halqasimon, qavariq, yoysimon, chiziqli va sh.k) bir-biridan farqlash nafaqat kosmik materiallarning aniqlik darajasiga bog'liq bo'lib qolmasdan surat olishning vaqti va fasligi ham bog'liq.

Uchinchidan, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bir xil masshtabada sinxron usulda olingan aerokosmik materiallar o'zining spektral diapazoniga ko'ra bir-biridan farqladi.

To'rtinchidan, turli masshtabda olingan ko'p zonali kosmomateriallarning statistik tahlili shuni ko'rsatadiki tektonik strukturalarning ma'lumotliligi kosmik suratlarda doimiy bo'lib, spektrning ko'rinma qismida (0,5-0,6 mkm) struktura elementlari minimal holatda, spektrning infraqizilga yaqin qismida esa (0,8-1,1 mkm) maksimal holatda deshifrovka qilinadi.

Beshinchidan, esa har bir ayrim holda olingan strukturalarning fotanomaliyasi vertikal bo'yicha planli konfiguratsiyaning o'zgarishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston 2030" strategiyasi to'g'risida. Lrx.uz/ru/docs/6600413

2. Грегори К. География и географы: физическая география. – М.: Просвещение, 1988. – 384 с

3. Панин В.М., Скобелов С.Ф. Геологическое использование материалов многозональных съёмок. В кн. Геологическое изучение Земли из космоса М., Наука, 1978, с 176-178

4. Аковецкий В.И. Экологический бум. Аэрокосмос и ноосфера. М., Недра, 1989, 196 с.

5. Тольчильников Ю.С. Оптическая свойства ландшафта (применительно к аэросъмке). Изд-во Наука, Ленинг. Отд. Л., 1974, 252 С

6. Григорьев А.А. Космическая индикация антропогенных изменений окружающей среды. Физико-географическое районирование и прогнозирование. Л.: 1975, 251 С

7. Азимов Б.Г. Применение аэрокосмических изображения в структурно-геологических исследованиях. Автор.дисс.на соис.уч. степ.канд.геол-мин.наук М., 1988 с 21

8. Азимов Б.Г., Валиев Д.И., Диваева В.И., Давлятова Р.М. Геоиндикационные исследования многозональных дистанционных съемок (на примери Ферганской впадины и ее горного обрамления)// "Космогеоиндикация" Киев-Москва 1989., с. 29-30

9. Азимов Б.Г., Коловатов В.В., Жанкобилов И.Х. Использование ландшафтно-геоиндикационного метода для изучения нефтегазоносных структур и новейшей тектонике.//Актуальные проблемы комплексного изучения природы и хозяйства южных районов Узбекистана. Часть III (тезисы докладов). Карши, 1991, с. 360

10. Azimov B.G., Abdullayev S.I., Jankobilov I.X. Buxoro-Qarshi neft-gazli oblasti janubi sharqiy qismining geoekologik muammolarini yechishda geoindikatsion usuldan foydalanishning ayrim masalalari.// "Istiqlol va geografiya" O'zbekiston geografiya jamiyati IV-s'ezdi materiallari. II-qism, Toshkent, 1994, 94-96 b.

AFRIKA POYTAXT SHAHARLARI: TARIXIY - GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich-Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.f.d (PhD)
E-mail: xusnudin-bayqabilov@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Afrika poytaxt shaharlarining tarixiy-geografik xususiyatlari haqida so'z boradi. Mazkur qit'aning poytaxtlari nomlarida, asosan joyning geografik o'rni, holati va o'ziga xos xususiyatlari aks etgan.Afrikadagi poytaxtlarning nomlari bo'yicha stratigrafik qatlami haqida ham fikrlar bildirilgan. XX asrninh 60-yillaridan e'tiboran mustaqil bo'lgan mamlakatlar va poytaxt shaharlar milliy standart asosida o'z nomiga ega bo'ldilar.*

Kalit so'zlar. *Afrika, qit'a, stratigrafik qatlami, mustaqil mamlakatlar, milliy standart asosida nom olgan poytaxtlar, Qohira, Bujumbura, Getiga.*

СТОЛИЦЫ АФРИКИ: ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Байкабилов Хуснудин Марданович
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Доцент кафедры Географии, доктор географических наук (PhD)

Аннотация. *В данной статье говорится об историко-географических характеристиках столиц Африки. Названия столиц этого континента во многом отражают географическое положение, положение и особенности места. Высказывались также мнения о стратиграфическом слое названий столиц Африки. С 60-х годов XX века независимые страны и столицы носили названия по национальному стандарту.*

Ключевые слова. *Африка, континент, стратиграфический слой, независимые страны, столицы, названные по национальным стандартам, Каир, Бужумбура, Гетига.*

CAPITAL CITIES OF AFRICA: HISTORICAL - GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS

Baykabilov Khusnudin Mardanovich
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Geography, Doctor of Geographical Sciences (PhD)

Annotation. *The article talks about the historical and geographical characteristics of the capital cities of Africa. The names of the capitals of this continent mainly reflect the geographical location, situation and specific features of the place. Opinions were also expressed about the stratigraphic layer of the names of capitals in Africa. Since the 60 s of the XX th century, independent countries and capital cities have had their names based on the national standard.*

Key words. *Africa, continent, stratigraphic layer, independent countries, capitals named on the basis of national standards, Cairo, Bujumbura, Getiga.*

Kirish. Ma'lumki, Afrikadagi poytaxt shaharlarning tarixiy-geografik xususiyatlari bizga notanish bo'lsa-da, xorijiy va qit'adagi mahalliy mutaxassislar hamda ilmiy tadqiqot institutlari, geografiya hamda tarix jamiyatlari tomonidan imkon qadar o'rganilgan. Bu borada Kamerun Afrika tillarini o'rganish mintaqaviy ilmiy tadqiqot markazi (Yaunde sh.), Mali Respublikasida Tombuktu tarixiy tadqiqot va hujjatlashtirish markazi hamda uning qadimgi arab qo'lyozmalari arxivi, Marokash milliy geografiya qo'mitasi, Syerra-Leone Fura-Bey kolleji huzurida Afrikani o'rganish instituti, Nigeriya Afrika Birligi Tashkilotining tilshunoslik, tarix va og'zaki an'analar tadqiqot Markazi (Niamey sh.), Keniya Afrika tarixini o'rganuvchi xalqaro instituti (Nayrobi sh.), M.V.Lomonosov nomidagi MDU qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti, Efiopiya kartografiya va geografiya instituti (Addis-Abeba sh.), 1945 yilda asos solingan Madagaskar geografiya milliy instituti, KDR geografiya ilmiy-tadqiqot instituti (Kinshasa sh.), Kamerun geografiya milliy instituti, 1966 yil ish boshlagan Somali xaritagrafiya departamenti (Xartum sh.), Liberiyaning Xarbel geografiya jamiyati samarali ilmiy faoliyat olib bormoqdalar [2;43-b.].

Qit'adagi ba'zi poytaxtlarning nomi qadimgi (substrat) nomlar bo'lib, ya'ni hozirgi mavjud tillarda izohlab bo'lmaydigan, maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan nomlarni tashkil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida juda ko'p iqtisodiy geograf olimlar izlanishlar olib borgan. Sobiq Ittifoq davridagi olimlardan N.N.Baranskiy, V.G.Dubrovin, YE.N.Persik, G.M.Lappo, B.S.Xorev va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbekiston shaharlarini T.R.Raimov, A.S.Soliyev, O.T.Ata-Mirzayev, E.A.Ahmedov singari olimlar o'rgangan. Shaharlar geografiyasi bilan xorijlik olimlardan D.Stamp, K.Korpenter, J.Bojyo-Gornye, J.Shabo va boshqalar shug'ullangan. Shahar tizimini yaxlit geografik o'rganish xorijda ancha

rivojlanganligini Yanitsskiy, Petrov, R.Park, A.S.Visharenko, F.Zeman, S.Yorgensson, E.Best, P.Lavn ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Taniqli geourbanist Y.A.Pivovarov urbanizatsiyani jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nisbatan kam sonli markazlari va hududlarida faoliyatning fazoviy konsentratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan shaharlarning, shahar turmush tarzi va shahar madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi rolini oshirishning murakkab tarixiy jarayoni sifatida talqin qilgan.

E.B.Alayev urbanizatsiyani ilmiy-texnikaviy inqilob davrida keskin kuchaygan, shahar joylarining ko‘payishi, ularda, ayniqsa, yirik shaharlarda aholining to‘planishi, aholi punktlarining keng tarqalishida ifodalangan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida tushunadi va shahar turmush tarzi butun aholi punktlari tarmog‘iga taalluqli bo‘lib, zamonaviy davrda yuz berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning aksidir deb fikr bildirgan.

V.S.Visharenko shaharlar retrospektiv rivojlanishida ular ekologik holatini yettita bosqichga ajratgan. Ammo ushbu bosqichlar Yevropa va Yaqin Sharq uchun xos bo‘lib, ba’zi ekologik xususiyatlar boshqa hududlar uchun mos kelishi mumkin.

Afrika poytaxt shaharlarining tabiiy-geografik, shuningdek tarixiy-geografik xususiyatlarini hisobga olib, subregionlarga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Afrika toponimiyasiga doir umumgeografik xususiyatlar barcha geografik obyektlarga oid toponimik tahlil Q.Hakimov (2016) asarlarida uchraydi [3].

BMT homiyligida toponimikaga bag‘ishlab o‘tkazilgan oxirgi xalqaro konferensiya Berlin shahrida (2008) o‘tkazildi. Ushbu anjumanda Afrika qit’asining 20 dan ortiq mamlakatlaridan ishtirokchilar qatnashgan. Ular qit’a toponimlarini to‘plash, reyestrini tuzish, yagona elektron-axborot bazasini yaratish, nomlarni standartlash va unifikatsiyalash hamda joy nomlarining tarixiy, madaniy, ma’rifiy, amaliy ahamiyati kabi masalalari bo‘yicha ma’ruzalar qilishgan. Toponimist mutaxassislar Afrika hududining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni toponimik jihatdan quyidagi submintaqalarga ajratishgan:

- Shimoliy Afrika;
- Sudan-Gvineya;
- Efiopiya-Somali;
- Markaziy va Sharqiy Afrika;
- Janubiy Afrika va Madagaskar.

Shundan kelib chiqib, maqolamizda dastlab poytaxt shaharlarning shakllanishi hamda taraqqiyotida tabiiy-geografik va tarixiy xususiyatlar o‘z muhrini topgan shaharlarning toponimik tahlili, so‘ngra mavjud poytaxtlarning nomi bo‘yicha sratigafik qatlami, nomi o‘zgargan poytaxt shaharlari haqida ilmiy ma’lumotlarni berishni lozim topdik.

Hududiylik tamoyili asosida Afrika poytaxtlarining tarixiy-geografik xususiyatlarini o‘rganishda quyidagi manbalarda qayd etilgan ma’lumotlardan foydalanildi:

1. Internet ma’lumotlari;
2. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;
3. Ilmiy adabiyotlar;

4. OAV materiallari;
5. Afsona va rivoyatlar;
6. Tarixiy hujjatlardan ko‘chirmalar.

Tadqiqot metodologiyasi: Afrika qit'asida bugungi kunda 58 ta mamlakat bo‘lib, ulardan 55 tasi mustaqil suveren davlatlar hisoblanadi [5;169-171b.]. Afrika qit'asida joylashgan poytaxt shaharlarning nomlari o‘ziga xos etnik va til taraqqiyoti tarixi hamda tabiiy va madaniy xususiyatlariga egaligi bilan tavsiflanadi. Afrika shaharlarining tabiiy sharoiti ularning nomlarida ham aks etgan. [3; 271-284 b.]. Qit'adagi poytaxt shaharlardan ba'zilari nomini o‘zgartirgan.

1-jadval

Nomi o‘zgargan Afrikadagi poytaxt shaharlar ro‘yxati

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

№	Avvalgi nomi	Nomlanish sanasi	Hozirgi nomi	Geografik o‘rni
1	Ikozium	935 yil	Al-Jazoir	Afrika
2	Finifinna	1889 yil	Addis-Abeba	Afrika
3	Leopoldvil	1966 yil	Kinshasa	Afrika
4	Fort-Lami	1973 yil	Njamena	Afrika
5	Lorensu-Markish	1975 yil	Maputu	Afrika
6	Baterst	1976 yil	Banjul	Afrika
7	Solsberi	1982 yil	Xarare	Afrika
8	Pretoriya	2005 yil	Tsvane	Afrika

Nigeriyaning eng katta shahri hisoblangan Lagos 1991 yilgacha mamlakatning poytaxti ham bo‘lgan. Bosh shaharni Abujaga ko‘chirish uchun sabablar bir nechta bo‘lgan: birinchidan, qirg‘oqdan olis holatdagi uning markaziy joylashuvi. Ikkinchidan, Lagos o‘sha vaqtda ham juda ko‘p aholi bilan to‘lib-toshardi, shahar Afrikadagi Sahroi Kabir janubida joylashgan barcha shaharlari orasida eng zichi edi. Shuningdek, siyosiy va etnik jihatdan Abuja neytral shahar deb hisoblangan, chunki Lagos aholisining katta qismi yoruba millatiga mansub bo‘lsa, mamlakat janubi-sharqida igbolar ustunlik qilgan, shimoli-g‘arbida esa xausanlar yashaydi. Bu kichik ahamiyatli sabab bo‘lmagani 1967-1970 yillarda mamlakatda biafro-nigerlar urushi va igbo qabilasi vakillari Nigeriya kengashidan chiqishni istaganlari tasdiqlaydi. Lagos o‘z-o‘zidan bunyodga kelgan bo‘lsa, Abuja Nigeriyaning reja asosida qurilgan shahri bo‘ldi. Lagos o‘zining yo‘l tirbandliklari tufayli salbiy mashhurlikka erishgan. Abujaga esa yo‘llar keyinchalik yanada o‘sishi kutiladigan avtomobil tig‘izligini hisobga olgan holda qurilgan. Yangi poytaxtda shuningdek madaniy idoralar, prezident saroyi, Milliy assambleya binosi va Oliy sud ham mavjud. Vaholanki federal darajadagi bir qator muassasalar hali ham norasmiy ravishda Lagosda qolmoqda. Abuja shahri 1991-yildan buyon Nigeriya poytaxti. Shaharga 1828-yilda asos solingan bo‘lib, 1976-yilga kelib poytaxtni Lagosdan shu yerga ko‘chirishga qaror qilingan. Shahar maxsus ishlab chiqilgan reja asosida qurilgan. 1960-yildan 1991-yilgacha Lagos shahri Nigeriya poytaxti maqomida bo‘lgan. Lagosda aholi ko‘payib ketganligi va etnik kelishmovchiliklar sababli poytaxtni ko‘chirishga qaror

qilingan. Lagos nomini unga 1472-yilda portugaliyaliklar ekspeditsiyasi bergan. Shahar laguna(qo'ltiq) ichkarisida joylashganligi uchun uni shunday atashgan.

Al-Jazoir shahrining nomi (Aljir) lotincha "algiers" so'zidan olingan bo'lib, arabchada " al-Jazoir" ya'ni "orol"degan ma'noni anglatadi. Bu shaharning nomi rus tilida nashr qilingan geografik xaritalarda Aljir deb yoziladi. Aslida al-Jazoir, ya'ni shimoli va g'arbi suv bilan, janubi o'tib bo'lmas tosh qum bilan o'ralgan, go'yo "orol" singari joylashgan. Lekin, biz -al artiklini olib tashlab, Jazoir deb yozamiz. Bunday yozishni tomonimist olim H.Hasanov noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydi. Aslida, Al-Jazoir deb yozish orfografiya qonuniyatlariga to'la mos tushadi [6; 51-b.].

Tahlil va natijalar. Afrika poytaxt shaharlarining stratigrafik qatlami haqida fikr yuritishdan oldin stratigrafiya tushunchasini aniqlab olish maqsadga muvofiq hisoblaymiz. Stratigrafiya tushunchasi lotinchasi "stratum"- qatlam, "grafo"- yozaman degan so'zlardan tarkib topgan bo'lib, qatlamlar ketma – ketligi mazmunini anglatadi [3;39-b.]. Stratigrafik qatlamni o'rganish bir qancha fanlarda qo'llaniladi. Masalan, geologiya fanida tog' jinsi, litologik qatlamlarning, ularning o'zaro aloqadorligini va davrlararo geografik tarqalganligini stratigrafiya deb nomlangan bo'lim o'rganadi. Shuningdek, toponimika fanini o'rganish asosida stratigrafik tahlil uslubidan foydalanish imkoniyatlari mavjud, chunki toponimik atamalarining paydo bo'lish xususiyatlari ham go'yoki tog' jinslari kabi ma'lum davrlararo qatlamlar hosil qilgan holda shakllanadi. O'sha qatlamlarning davrlararo yotish xususiyatini o'rganish orqali tahlil qilish, ularning tarkib topish, shakllanish xususiyatlari, nomlanish qonuniyatlarini, ma'lum tabiiy-tarixiy va siyosiy-iqtisodiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu jarayonni amalga oshirishni bilvosita ilmiy adabiyotlar, yozma manbalarni o'rganish orqali olib borilsa ishonchliroq bo'ladi. Biroq, qadimgi toponimlarning etimologik mazmunini ochib berish uchun hamma vaqt ham ilmiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Chunki adabiyotlar yetishmasligi yoki mavjud emasligi bunga imkon bermaydi. Shu nuqtai nazardan stratigrafik qatlamni tahlil qilishning ahamiyati yanada ortadi. Afrika mamlakatlarining quyidagi tartibda leksik-stratigrafik stratigrafik qatlami rivojlangan (2-jadval).

Lilongve 1975-yildan Malavining poytaxti. Malavi 1960-yili mustaqillikka erishgach, mamlakat poytaxti deb Zomba shahrini e'lon qilgan. 1964-yilda poytaxtni Zombadan Lilongvega ko'chirish haqida qaror qabul qilindi.

2-jadval

Afrika poytaxt shaharlari nomlarining leksik-stratigrafik qatlami

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

№	Leksik-stratigrafik qatlam turlari	Poytaxt shaharlar
1	Arab (barbarlar bilan) tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlar	Al-Ayun, Al-Jazoir, Jibuti, Kohira, Nuakshot, Rabot, Tunis, Xartum
2	Ingliz tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlar	Viktoriya, Monroviya, Fritaun, Xarare

3	Mahalliy tillarda nomlanuvchi poytaxt shaharlari	Abuja, Addis-Abeba, Akkra, Antananarivu, Asmera, Bamako, Bangi, Banjul, Bisau, Bujumbura, Vindxuk, Gaborone, Dodoma, Juba, Kampala, Kigali, Kinshasa, Konakri, Lilongve, Lome, Lusaka, Malabo, Maseru, Mbabane, Mogadisho, Moroni, Nayrobi, Niamey, Njamena, Uagadugu, Yaunde
4	Portugal tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlari	Luanda, Maputu, Praya, Porto-Novo, San-Tome
5	Niderland (burlar) tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlari	Pretoriya,
6	Fransuz tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlari	Brazzavil, Dakar, Librevil, Port-Lui,
7	Yunon (grek) tilida nomlanuvchi poytaxt shaharlari	Tripoli,

Sababi Zomba shahri yaqinida vulqon harakatlana boshladi. Lilongve shahriga 1902 yilda ingliz mustamlakachilari tayanch punkt sifatida asos solishgan. Shahar dengiz sathidan 1100 m balandlikda joylashgan. Biz quyida A.Azimov, M.S.Bodnarskiy, V.A.Nikonov, YE.M.Pospelov, A.Hazratqulov asarlari asosida Afrika poytaxt shaharlarining etimo-semantik jadvalini tuzishga muvaffaq bo‘ldik [7,8,9,10,11]. Quyidagi jadvalda Afrika qit'asidagi poytaxt shaharlarning etimo-semantik jadvali ham geografiya ta'limida ahamiyatli desak mubolag‘a hisoblanmaydi (3-jadval).

3-jadval

Afrika poytaxt shaharlarining etimo-semantik jadvali

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

№	Poytaxt nomi	Qaysi tilda nomlangan	Etimo-semantik tahlili	Zamonaviy poytaxt maqomini olgan yili
1	Abuja (Nigeriya)	Xausa tilida	Nigeriyadagi qadimgi Zariya quldorlik davlatining xausa qabilasi sulolasi asoschisilaridan biri Abu Dja sharafiga nomlangan	1991 yil
2	Addis-Abeba (Efiopiya)	Amxara tilida		1889 yil
3	Al-Jazoir (Jazoir)	Arab tilida	“Orol”	

			935 yildan keyin barbarlar amiri Bologgmi ibn Zirk yangi shahar bunyod etib, uni Jazoir deb atagan.	
4	Antana-Narivu Madagaskar	Malagasiylar tilida	"Ming askar shahri"	1975 yil
5	Asmera (Eritreya)	Tigrin tilida	"o'rmon guli	1993 yil
6	Bamako (Mali)	Malinklar va bambara tilida	"Timsoh yelkasidagi qishloq" "Timsoh daryosi"	1960 yil
7	Bangi (MAR)		"Ostona" (Ubangi daryosi hosil qilgan ostonaga ishora)	1960 yil
8	Bisau (Gvineya-Bisau)		Shaharning nomi mahalliy bisa xalqlari (mande tillar guruhi) turlicha atalishi asosida (masalan, bisano, busano, bisagve, busa) bisau etnonimi nomidan olingan	1973 yil
9	Brazzavil (Kongo)	Fransuz tilida	"Brazza shahri" Fransuz sayyohi Pyer Savornyan de Brazza (1852 - 1905) sharafiga nomlangan	1960 yil
10	Viktoriya (Seyshel orollari)	Ingliz tilida	Buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriya (1819 – 1901) sharafiga nomlangan	1976 yil
11	Jibuti (Jibuti)	Arab tilida	Jibuti so'zi mahalliy afar tilidagi "palma tolasidan yasalgan eshikosti sholcha" ma'nosini anglatuvchi gabouti so'zidan olingan bo'lishi ham mumkin. YE.M.Pospelovning fikricha, toponimning bunday nomlanishiga sabab mayda marjon riflarining burunning (Ras-Jibuti nazarda tutilmoqda) ustki qismida hosil qilgan g'adir-budir yuzasi sabab bo'lgan.	1977 yil
12	Juba (Janubiy Sudan)	Arab tilida	Jubba – Afrikaning shimoli-sharqidagi daryo. Efiopiya yassi tog'ligidan 3 ta irmoq bilan boshlanib, Dolo shahri yonida ular qo'shilgach Jubba nomini oladi. Somali platosidan o'tib, Hind okeaniga quyiladi.	2011 yil
13	Kampala (Uganda)	tilida	Kampala shahrining nomi "antilopa" so'zidan olingan bo'lib, ushbu hudud mazkur hayvon turiga	1962 yil

			boy ekanligidan darak beradi. 1890 yilda mahalliy boylarning ov uchun mo‘ljallangan hududida paydo bo‘lgan. Shahar nomiga antilopa ma’nosidagi impala (luganda tilidan) so‘zi asos bo‘lgan.	
14	Kigali (Ruanda)	Kinyaruanda tilida	Kigali so‘zi “keng, baland tog‘” ma’nosini anglatadi.	1962 yil
15	Kohira (Misr)	Arab tilida	Kohira so‘zi arabcha to‘liq qilib aytganda, Misr al-Kohira, ya’ni “g‘olib bosh shahar”, biroq ko‘pincha uni qisqartirib aytadilar. Arablarning o‘zlari Misr deb, yevropaliklar Kohira deb ataydilar. Rus tilida esa Kair deb nom olgan. Kohira Fotimiylar lashkarboshisi Javhar al-Saqaliy tomonidan Bobil qal’asi (Memfis shahridan 30 km uzoqlikda) atrofida qurilgan. Javhar al-Saqaliy shaharni “Misr al-Kohira” (G‘olib Misr yoki g‘olib shahar) deb atagan.	1971 yil
16	Lusaka (Zambiya)	Bantu tilida	Lusaka so‘zi bantu xalqlari tilidan olingan bo‘lib, shu nomdagi buta(o‘simlik) turi	1964 yil
17	Malabo Ekvatorial Gvineya	Bubi qabilasi tilida	Bubi qabilasi boshlig‘i Malabo Lapelu Melaka Malabo I (1837 – 1937) sharafiga nomlangan	1968 yil
18	Maseru (Lesoto)	Mahalliy aholi tilida	“Qizil qumli joy”	
19	Maputu (Mozambtk)	Portugal tilida	Shahar Maputu daryosi sharafiga nomlangan	1975 yil
20	Mogadisho (Somali)	Arab tilida	“Muqaddas shahar”	1960 yil
21	Monroviya (Liberiya)	Ingliz tilida	1817 -1825 yillardagi AQSH prezidenti Jeyms Monro (1758 – 1831) sharafiga nomlangan	1847 yil
22	Moroni (Komor orollari)	Malagasiylar tilida	“Qirg‘oq”	1975 yil
23	Mbabane (Esvatini)	Mahalliy aholi tilida	Qabila sardori Mbabane Kunine sharafiga nomlangan va ikkinchi bir versiyaga ko‘ra “tezoqar daryo vodiysi” degan ma’noni anglatadi	1968 yil

24	Nayrobi (Keniya)	Masailar va suaxili tillarida	"Sovuq suv" "Botqoqlik"	1963 yil
25	Njamena (Chad)	Mahalliy aholi tilida	"hordiq oladigan joy"	1960 yil
26	Port-Lui (Mavrikiy)	Fransuz tilida	Fransuz qiroli Lyudovik XIV sharafiga nomlangan	1992 yil
27	Porto-Novo (Benin)	Portugal tilida	"Yangi port"	1960 yil
28	Praya Kabo-Verde	Portugal tilida	"Qirg'oq" "Qumli sohil (plyaj)"	1986 yil
29	Pretoriya (JAR)	Ingliz tilida	Shahar nomi burlarning (afrikalik niderlandlar) siyosiy arbobi, Transvaal Respublikasining birinchi prezidenti Martinus Vessel Pretorius (1819 – 1901) nomiga qo'yilgan	1961 yil
30	Rabot (Marokash)	Arab tilida	"Qo'rg'on" va "Karvonsaroy"	1956 yil
31	San-Tome (San-Tome va Prinsipi)	Portugal tilida	Avliyo (San Tome) Santu Antan sharafiga nomlangan	1975 yil
32	Tripoli (Liviya)	Yunon (grek) tilida	"Uch shahar" (Ea, Sabrata va Leptis-Magna shaharlari birlashuvidan hosil bo'lgan)	1951 yil
33	Uagadugu (Burkina-Faso)	Mandingo tilida	Uagadugu – shahri "xush kelibsiz" degan ma'noni anglatib, bu yerdagi aholining mehmondo'stligidan darak beradi. Mintaqaning mandingo tili tarqalagan hududlarida joy nomlari tarkibida dugu – "uy", "manzilgoh"(ko'pincha shaxs ismi bilan birgalikda) termini ko'p qo'llanilgan. Uagadugu, Kudugu, Dedugu, Madugu va hokazo.	1960 yil
34	Fritaun (Syerra-Leone)	Ingliz tilida	"Ozod shahar" (1787 yil inglizlardan ozod bo'lgan qullar asos solgan)	1961 yil
35	Xartum (Sudan)	Arab tilida	Shahar Ko'k Nil bilan Oq Nil qo'shilgan joydagi yarimorolda joylashgan. Yarim orolning shakli fil xartumiga o'xshaydi "Xartumning uchi" degan ma'noni anglatadi.	1956 yil

36	Yamusukro (Kot-d' Ivuar)	Mahalliy aholi tilida	"Yamus daraxti", Yamus ismli odamning o'rmonzoriga atab qo'yilgan	1983 yil
37	Yaunde (Kamerun)	Bantu tilida	Bantu tillar guruhining yaunde qabilasi sharafiga nomlangan	1960 yil

Afrikadagi 5 ta poytaxt shaharning nomi mamlakat nomi bir xil ataladi. Quyidagi 4-jadvalda shu haqida ma'lumot keltirilgan.

4-jadval

Qit'adagi poytaxtlar shaharlarning mamlakat nomi bilan bir xil nomlanishi

Jadval muallif tomonidan tuzilgan

№	Mamlakatlar	Poytaxt shaharlari	Nomlanishiga nima asos bo'lgan
1	Gvineya-Bisau	Bisau shahri	Shaharning nomi
2	Jazoir	Al-Jazoir shahri	-
3	Jibuti	Jibuti shahri	-
4	San-Tome va Prinsipi	San-Tome shahri	-
5	Tunis	At-Tunis shahri	-

Xulosa va takliflar.

1.Afrika mintaqasida joylashgan poytaxt shaharlarning ba'zilarini nomlarida semantik jihatdan tabiiy omillarga bog'liq holda (relyef, gidrografiya, flora, fauna) toponimik elementlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, qit'adagi ba'zi poytaxt shaharlarning nomlarini iqtisodiy-ijtimoiy omillar hamda etnik guruhlar va ularni aholi manzilgohlari asosida shakllanganini qayd etishimiz mumkin.

2.Mamlakatlarning mustaqillika erishishi va muayyan davlatlarning bo'linib, alohida davlat maqomiga ega bo'lishi suveren davlatlar sonining ortishiga, yoki aksincha, orollarda joylashgan ba'zi mamlakatlarning suv ostida qolishi (tabiiy ofatlar sababli) hamda mamlakatlarning o'zaro birlashuvi (siyosiy sabablarga ko'ra) tufayli ular sonining kamayishiga olib keladi. Demak, mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko'p va dinamik (o'zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o'zgarish albatta o'z o'rnida poytaxt shaharlarni ham chetlab o'tmaydi.

3.Davlat poytaxti – oliy idora subyekti maqomini ifodalaydigan siyosiy markaz – poytaxt-shahar instituti shaklidagi davlat ramzi.

4.Tarixiy va tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazardan o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini poytaxt shaharlar misolida ishlab chiqish va umumiy xulosalar berish kelajakda poytaxt shaharlarni joylashtirishda ahamiyati katta. Shaharlar rivojlanishining tarixiy hamda geografik asoslari bilan respublikamizda ko'plab olimlar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy ishlarida ayrim shaharlar shakllanishiga tabiiy geografik tavsif, shaharlarning geomorfologiyasi va mikroiqlimiga va tarixiy shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'rif berilgan. Biroq, O'zbekistonda poytaxt shaharlar bo'yicha ilmiy ishlar mukammal darajada yakunlanmagan. Jahon tarixida hanuzgacha poytaxt shaharlar bo'yicha alohida konsepsiya yaratilmagan. Ayrim

mamlakatlarda poytaxt maqomi bo‘yicha maxsus federal qonunlar bo‘lishiga qaramasdan, aksariyat mamlakatlarda hozirgi vaqtda ham Poytaxtni belgilash, ko‘chirish va nomini o‘zgargartirish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

5.Jahonning siyosiy xaritasi geografik xaritalar orasida eng tez o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jahon mintaqalarida yuz berayotgan turli siyosiy jarayonlar ma’lum ma’noda uning miqdoriy o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu hol jahon mamlakatlari bilan uzviy bog‘liqlikda poytaxt shaharlarni o‘zgarishiga hatto tarixiy qayta nomlanishiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi.

6.Jahon tarixida poytaxt shaharlarni tarixiy-geografik va tipologik tasnifiy guruhlashtirish ilmiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Байкабилов Х.М., Каракулов Н.М. Африка мамлакатлари номларининг табиий географик хусусиятлари. ЎзМУ хабарлари Табиий фанлар туркуми 2018, 3/2 - Б. 241-245.

2.Nigmatov A.N., Bayqabilov X.M. Jahon mamlakatlari nomlarining geografik va toponimik asoslari. Monografiya. Qarshi: ”Nasaf” NMIU, 2021. – 156 b.

3.Hakimov Q. Toponimika. –T: MUMTOZ SO‘Z, 2016. – 368 b.

4.Nizamov A. va boshq. Toponimika –T.: “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2012, – 119 b.

5.Qayumov A. va boshq. Geografiya 9-sinf. –T.: ”O‘zbekiston, 2019. – 170 b.

6.Hasanov H. Geografik nomlar siri: ilmiy-ommabop ta’rif. –T.: O‘zbekiston. 1985. – 120 b.

7.Jahon mamlakatlari: qisqa ma’lumotnoma / mas’ul muharrir A.Hazratqulov. – T.: “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2006, – 383 b.

8.Bodnarskiy M.S. Geografik nomlar lug‘ati –T.: “O‘rta va oliy maktab” 1961, – 459 b.

9.Azimov A. Слова на карта. Географическая названия их смысл. – M.:ZAO Центрполиграф, 2007. – 367 c.

10.Поспелов Е.М. Школный топонимический словарь. – М.: Просвещение, 1988. – 224 с.

11. Никонов.В.А. Краткий топонимический словарь .М., “Мысль”, 1966. – 509 с.

12. Internet sayt: wikipedia.org.